



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-yil 4-son

VOLUME 3 / ISSUE 4 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.4.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

TAHRIR HAY'ATI:

B. XODJAYEV

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, yuridik fanlar doktori, dotsent – bosh muharrir

I. ERGASHEV

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinbosari

N. RAMAZONOV

TDYU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent – mas'ul muharrir

JOAN BLUM

Amerika Qo'shma Shtatlarining Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori

MARCIN MICHAL WISZOWATY

Polshaning Gdansk universiteti professori

A. HOSHIMXONOV

Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor, yuridik fanlar dotsent

M. AXMEDSHAYEVA

TDYU Davlat va huquq nazariyasi kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

X. XAYITOV

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori

I. TO'RABOYEV

TDYU Ma'muriy va moliya huquqi kafedrasida dotsenti v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

S. XOLBOYEV

O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi kafedra mudiri, y.f.n., dotsent

N. RAXMONKULOVA

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti Xalqaro xususiy huquq va fuqarolik huquqi fanlari kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar doktori

Z. ESANOVA

TDYU Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

J. NE'MATOV

TDYU Konstitutsiyaviy huquq kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

M. KURBANOV

TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasida dotsenti v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

R. KUCHKAROV

TDYU Umumta'lim fanlar va madaniyat kafedrasida dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

“Yurisprudensiya” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali

“Юриспруденция” правовой научно-практический журнал

“Jurisprudence” legal scientific-practical journal

“Yurisprudensiya” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN: 2181-1938

© Toshkent davlat yuridik universiteti

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ
NAZARIYASI VA TARIXI.
HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 SODIKOV AKMAL SHAVKAT O'G'LI**
O'zbekistonda norma ijodkorligi rivojining
zamonaviy tendensiyalari

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY
HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ.
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 17 JURAYEV SHERZOD YULDASHEVICH**
Ma'muriy sud ishi yurituvida kelishuv bitimi
institutini takomillashtirishning ayrim nazariy va
amaliy masalalari
- 24 G'OZIYEV KOZIMBEK JAVLONBEKOVICH**
Oliy ta'limni moliyalashtirish: qiyosiy tahlil
- 34 MADIYEV FAXRIDDIN XOSHIM O'G'LI**
Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini ta'minlashda
zamonaviy yondashuvlar tahlili

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI.
OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 44 MEHMONOV QAMBARIDDIN
MIRADHAMOVICH**
Sanoat mulki obyektlari mualliflarini
rag'batlantirish masalalari
- 55 ASLONOV NAVRO'ZBEK RUSTAMOVICH**
Inson huquq va erkinliklari tizimida axborot
olish huquqi

12.00.04 – FUQAROLIK
PROTSESSUAL HUQUQI.
XO‘JALIK PROTSESSUAL
HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA
MEDIATSIYA

63 ESANOVA ZAMIRA NORMUROTOVNA

Fuqarolik ishlarining taalluqliligi: nazariy qoidalar va amaliy muammolar

72 XABIBULLAYEV DAVLATJON YULCHIBOYEVICH

Fuqarolik protsessida odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxs sifatida guvohning ishtiroki bilan bog‘liq ayrim masalalar

84 ХАЙРУЛИНА АСАЛЬ БАХОДИРОВНА

Сравнительный анализ медиации в некоторых зарубежных странах и Узбекистане: возможные вопросы и предложения

12.00.05 – MEHNAT HUQUQI.
IJTIMOIY TA’MINOT HUQUQI

93 ХОЖАБЕКОВ МУФТУЛЛА ЖОЛМУРЗА УЛЫ

Законодательные основы выплат, причитающихся совместителям

102 JAVLIYEVA GULLOLA ABDURAHIM QIZI

Notipik mehnat shakllaridan foydalanishni tartibga solishda MDH davlatlari tajribasi

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING
OLDINI OLISH.
KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI.

112 HAKIMOV KOMIL BAXTIYOROVICH

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib va kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o‘ldirishning farqli jihatlari

122 KAMALOVA DILDORA GAYRATOVNA

Qilmishni jinoyatga suiqasd sifatida kvalifikatsiya qilish va o‘xshash tarkibli jinoyatlardan farqlash masalalari

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

133 TULAGANOVA GULCHEHRA ZAXITOVNA
O'zbekiston Respublikasining
jinoyat-protsessual qonunchiligi tarixi

13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA
NAZARIYASI VA METODIKASI
(SOHALAR BO'YICHA)

145 BOZOROVA NASIBA PO'LOTJONOVNA
Gyotening huquqiy qarashlari

151 AZIMOVA DILAFRUZ MIRZATULLAYEVNA
Korxonalarni investitsion rivojlantirishda
korporativ boshqaruvning roli: Shvetsiya
misolida

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.4./YGDY9083>
UDC: 340.12(045)(575.1)

O'ZBEKISTONDA NORMA IJODKORLIGI RIVOJINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Sodikov Akmal Shavkat o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Davlat va huquq nazariyasi kafedrasida dotsenti v. b.,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0000-0001-6453-1327

e-mail: akmalsodikov81@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy norma ijodkorligini axborot bilan ta'minlashni takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash masalasini tadqiq etish orqali bu borada O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha tegishli taklif, tavsiya va xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot predmetini O'zbekiston Respublikasida norma ijodkorligiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti hamda ilmiy-nazariy konseptual yondashuvlar va huquqiy kategoriyalar tashkil etadi. Mazkur tadqiqot ishi natijasida norma ijodkorligini axborot bilan ta'minlashning istiqbolli yo'nalishlari ishlab chiqilgan, milliy norma ijodkorligini rivojlantirish tendensiyalari taklif etilgan. Shuningdek, norma ijodkorligi sifatini oshirishda mas'ul shaxslar uchun masofaviy o'quv treninglari tashkil etish, yuridik kadrlarni ishga qabul qilishdagi malaka mezonlarini qayta ko'rib chiqish, norma ijodkorligi bo'yicha axborot so'rovlariga o'z vaqtida javob bermaslik yoki ko'rmasdan qoldirish uchun javobgarlik choralari belgilash kabi masalalarga doir fikr-mulohazalar bildirilgan. Ushbu maqola natijalaridan ilmiy izlanishlar olib borish, normativ-huquqiy hujjatlarning tegishli normalarini sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish, Davlat va huquq nazariyasi, Norma ijodkorligi va Yuridik texnika o'quv modullaridan ta'lim berish hamda mazkur modullarni ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: axborot, norma ijodkorligi, norma ijodkorligini raqamlashtirish, malaka oshirish, yuridik xizmat, normativ-huquqiy hujjatlar, axborot aylanishi.

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ НОРМОТВОРЧЕСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Содиков Акмаль Шавкат угли,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),

и. о. доцента кафедры «Теория государства и права»

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы совершенствования нормотворческого процесса в Узбекистане. Целью исследования является разработка актуальных предложений, рекомендаций и выводов по совершенствованию законодательства и юридической практики Республики Узбекистан. Предметом исследования являются нормативно-правовые акты, юридическая практика, а также научно-теоретические концептуальные подходы и правовые категории. В исследовании использованы такие методы, как исторический, системно-структурный, логический, индукционный, дедуктивный, сравнительно-правовой и комплексного исследования научных источников. Кроме того, изучены мнения об организации

дистанционного обучения ответственного юридического персонала для повышения качества нормотворчества, о пересмотре квалификационных критериев приема на работу юридического персонала, об установлении мер ответственности за несвоевременное реагирование на запросы о предоставлении информации или халатности. Результаты исследования могут быть использованы для проведения научных исследований, толкования соответствующих норм нормативно-правовых актов, совершенствования национального законодательства, преподавания таких учебных модулей, как «Теория государства и права», «Нормотворчество» и «Юридическая техника», и дальнейшего обогащения этих модулей с научной и теоретической точек зрения.

Ключевые слова: информация, нормотворчество, цифровизация нормотворчества, повышение квалификации, юридическая служба, нормативные правовые акты, информационный оборот.

MODERN TENDENCIES IN THE DEVELOPMENT OF RULE-MAKING IN UZBEKISTAN

Sodikov Akmal Shavkat ugli,
Tashkent State University of Law,
Acting Associate Professor of the Department
of Theory of State and Law, PhD in Law

Abstract. This article analyzes the issues of improving the national rule-making process in the direction of information provision. The purpose of the research is to develop relevant proposals, recommendations, and conclusions on improving the legislation of the Republic of Uzbekistan and legal practice. The subject matter of the research is normative legal acts related to rule-making in the Republic of Uzbekistan, legal practice, as well as scientific-theoretical conceptual approaches and legal categories. Methods such as historical, systematic-structural, logical, induction, deduction, comparative-legal, and comprehensive research of scientific sources have been used in the research. As a result of this research, promising directions for providing the national rule-making process with information have been developed, and trends in the development of national rule-making have been proposed. In addition, opinions such as organizing distance trainings for the responsible legal personnel for improving the quality of rule-making, revising the qualification criteria for hiring legal personnel, establishing liability measures for not responding to requests for information in time, or negligence on such issues are presented. Additionally, the results of the research can be used to conduct scientific research, interpret the relevant rules of normative legal acts, improve national legislation, teach educational modules such as Theory of state and law, Rule-making, and Legal writing, and further enrich these modules from a scientific and theoretical point of view.

Keywords: information, rule-making, digitization of rule-making, professional development, legal service, normative legal acts, information circulation.

Kirish

Mamlakatimizni rivojlantirishning buningi bosqichida davlat organlari faoliyatini takomillashtirish va norma ijodkorligi samaradorligini oshirish maqsadlariga erishish uchun, avvalo, keng ko'lamli islohotlar zarur. Bu, birinchi navbatda, istiqbolli yo'nalishlar ishlab chiqish va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga e'tibor qaratish-

ni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-avgustdagi "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5505-son Farmoni mamlakatimizda norma ijodkorligining yangi bosqichga o'tishi uchun zamin yaratdi. Ushbu farmon bilan tasdiqlangan Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasi beshta asosiy

yo'nalishni belgilab berdi. Bu, o'z navbatida, norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlashning istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, ilmiy tahlil qilish, bu borada huquqshunos olimlarning fikr-mulohazalariga to'xtalib o'tishni talab qiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi birinchi yo'nalishi 8-maqsadining "Norma ijodkorligi jarayonini modernizatsiya qilish, qonunchilik hujjatlarining qat'iy ijrosini ta'minlash" deb nomlanishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi birinchi yo'nalishining mantiqiy davomi bo'lib xizmat qildi.

Yuqorida nomlari qayd etilgan normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan maqsadlarga erishish uchun bu boradagi nazariy va amaliy muammolarni tahlil etish talab etiladi.

Material va metodlar

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, mantiqiy, induksiya, deduksiya, qiyosiy-huquqiy va ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning obyektini O'zbekiston Respublikasi norma ijodkorligi jarayonini ilmiy axborot bilan ta'minlash borasida yuzaga keldigan huquqiy munosabatlar tizimi tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti O'zbekiston Respublikasida norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlashga oid normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, rivojlangan xorijiy mamlakatlar qonunchiligi hamda ilmiy-nazariy konseptual yondashuvlar va huquqiy kategoriyalar hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot ishining maqsadi norma ijodkorligi jarayonini ilmiy axborot bilan ta'minlash mexanizmini rivojlantirishga oid istiqbolli yo'nalishlarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot natijalari

Mazkur ilmiy maqola doirasida norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlashni takomillashtirishning quyidagi istiqbolli tendensiyalari ilgari surildi va ilmiy-nazariy jihatdan asoslantirishga harakat qilindi:

birinchi yo'nalish: norma ijodkorligi jarayonining shaffofligini oshirish, axborot almashinuvini maqbullashtirish, ilmiy asoslantirish, ekspert-tahlil ma'lumotlari bilan boyitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

ikkinchi yo'nalish: norma ijodkorligini zaruriy axborot bilan ta'minlashda mas'uliyat hamda tegishli mansabdor shaxslarning bilim va malakasini oshirish;

uchinchi yo'nalish: norma ijodkorligi jarayonini ilmiy axborot bilan ta'minlashning aniq mexanizmini ishlab chiqish;

to'rtinchi yo'nalish: norma ijodkorligi jarayonida ekspert-tahlil ma'lumotlaridan samarali foydalanish, ekspert va mutaxassislar qo'yiladigan malaka talablarini ishlab chiqish, ularning norma ijodkorligidagi faollik darajasini reyting ko'rsatkichlarda joriy etish.

Tadqiqot natijalari tahlili

Norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash samaradorligini oshirish yo'lidagi bir nechta asosiy muammo, xususan, vaqt, axborot bilan ta'minlovchi subyektlarning mas'uliyati, bilim va malaka darajasi, axborotga qo'yiladigan sifat talabi kabilar bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda ham muhim tadqiqot obyektiga aylanib ulgurgan. Ammo ilmiy tadqiqotlarda samaradorlik tushunchasiga turlicha yondashuvlar keltirilgan. Xususan, Z.S. Israilova [1, 12-b.], V.I. Kaynov va E.V. Zaretskayalar [2, 12-b.] tomonidan norma ijodkorligi jarayonida samaradorlikka erishish uchun bir qancha xulosa

va takliflar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, samaradorlikka erishish yo'nalishlari qayd etib o'tilmagan.

A.V. Ilinning ilmiy tadqiqotlarida [3, 12-b.] norma ijodkorligi jarayoni samaradorligini oshirish tahlil etilgan bo'lib, samaradorlikni tegishli istiqbolli yo'nalishlarni ishlab chiqish orqali oshirish mumkinligi qayd etiladi.

P.A. Rustamov tomonidan tegishli normativ-huquqiy bazani takomillashtirish [4, 113-b.], E.V. Skurko tomonidan esa mutaxassislar bilimidan norma ijodkorligida foydalanishning integratsion metodlarini ishlab chiqish taklif etilgan [5, 81-b.].

Fikrimizcha, olimlar tomonidan ilgari surilgan tendensiyalar ijobiy natijalarni berishi ehtimolga yaqin bo'lsa-da, istiqbolli yo'nalishlar asosida yondashish keng qamrovli natijalarga erishishga turtki bo'lishi mumkin.

Birinchi istiqbolli yo'nalish norma ijodkorligi jarayoni shaffofligini oshirish, axborot almashinuvini maqbullashtirish, ilmiy asoslantirish, ekspert-tahlil ma'lumotlari bilan boyitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishdan iborat bo'lishi lozim.

Ko'plab ilg'or xorijiy davlatlarda norma ijodkorligini takomillashtirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida axborot texnologiyalarini joriy etish nazarda tutiladi. Misol uchun, so'nggi yillarda Buyuk Britaniyada "red tape challenge", "cutting red tape", "focus on enforcement" [6], Yevropa Ittifoqida Direktivalarni muhokama etish onlayn platformalari (Discussion draft of a directive on online intermediary platforms) [7] ishga tushirilgan bo'lib, ularni istiqbolli yo'nalishlarning amal-dagi ijrosi sifatida e'tirof etish mumkin.

Mamlakatimizda Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasida ham "Norma ijodkorligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Fikrimizcha, qonun loyihalari doirasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar xro-

nologiyasini real vaqt rejimida kuzatib borish imkoniyatini beruvchi – "*E-qonun*" [8, 1-b.], norma ijodkorligiga mutaxassis va ekspertlarni jalb etish hamda rag'batlantirishni ta'minlovchi – "*E-ekspert*", norma ijodkorligi jarayonini ilmiy axborot bilan ta'minlashga xizmat qiluvchi – "*Ilmiy axborot*" milliy ilmiy-texnik bazasini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchi istiqbolli yo'nalish – norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlovchi subyektlarning bu boradagi mas'uliyati hamda malakasini oshirishga qaratilishi lozim. Shu o'rinda Nizomulmulkning "*Siyosatnoma*" asari birinchi va ikkinchi fasllari [9, 16–18-b.] aynan qaror qabul qilishda odillik va xalq oldidagi mas'uliyat masalalariga bag'ishlanganligini alohida qayd etib o'tish joiz.

Hozirgi zamon olimlaridan V. Mabiyyar, A. Sofiya va M. Paskilarning fikricha, norma ijodkorligi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plashdagi asosiy to'siqlarga texnik, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, mansabdor shaxslarning malaka oshirish treninglarida qatnashmasligi va ma'muriy jihatdan yaxshi boshqarmaslik kiradi [10, 31-b.].

K. Goets va M. Saxlinglarning fikricha, norma ijodkorligida qaror qabul qilish samarasizligining asosiy sababi kadrlar bilimi va malakasining yetishmasligidir [11, 184-b.].

Darhaqiqat, axborot bilan ta'minlash samaradorligini oshirish masalasi uni nazariy-huquqiy jihatdan tadqiq etish, normativ-huquqiy bazani mustahkamlash bilan o'z yechimini topmaydi, aksincha, bunda kadrlar salohiyati hamda boshqa tashkiliy masalalarga ham e'tibor qaratish lozim.

Milliy huquqshunos olimlarning fikrlariga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, ular muayyan mansabdor shaxslar guruhining malakasini oshirishga oid takliflarni ilgari surgan.

D.R. Artikov O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabida maxsus o'quv kursi tashkil etish lozimligi [12, 24-b.], J.N. Ne'matov

ma'muriy tartib-taomillar bo'yicha huquqiy amaliyotda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun maxsus o'quv kurslari tashkil etish zarurligi [13, 30-b.], F.X. Otaxonov davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari yuridik xizmat vakillarining huquq ijodkorligi faoliyatidagi o'rnini mustahkamlash kerakligi [14, 32-b.], Sh.X. Zulfiqorov bu borada norma ijodkorligi subyektlarining ilmiy salohiyatini yanada oshirish zarurligi [15, 26-b.], X.S. Hayitov norma ijodkorligi jarayoniga jalb etilgan ekspertlarning zaruriy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozimligi [16, 14-b.]ni qayd etgan bo'lsa, Sh.N. Berdiyarov [17, 24-b.], Z.S. Israilova [1, 50-b.] va boshqalar o'z ilmiy tadqiqotlarida tegishli mansabdor shaxslar salohiyatini oshirish muhimligini ta'kidlashgan.

Shuningdek, B. Alimov va O. Mahkamovlar mansabdor shaxslarning umr davomida o'qish ("life long learning") tamoyili asosida ta'lim olishlari [18, 116-b.], Q. Rahmonov bu borada masofaviy darslar tashkil etish zarurligini qayd etishgan [19, 125-b.].

Xorijiy huquqshunos olimlardan F. Paskuale bugungi davrda nafaqat norma ijodkorligi, balki barcha davlat xizmatida faoliyat olib borayotgan mansabdor shaxslarning "texnologik kompetensiya"ga ("duty of technological competence") ega bo'lishi lozimligi [20, 193-b.], T.V. Trofimova, A.V. Lomovsevalar bu borada davlat xizmatchilari avvalo axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha qayta tayyorlash ishlarini olib boriishi kerakligini ta'kidlashadi [21, 261-b.].

Bu borada nafaqat zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasi, balki yuridik amaliyot hamda nazariy-huquqiy bilimlarni oshirishni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur.

K. Xenderson va D. Botlyuklar tomonidan tayyorlangan ma'lumotlarga (AQSh Fanlar milliy akademiyasi hisoboti) ko'ra [22, 300-b.], huquqshunoslar ilmiy tadqiqot metodlari bo'yicha treninglarda ishtirok etmayotganliklari tufayli [23, B. 61] yuridik amaliyotda muvaffaqiyatsizlikka uchramoqda.

Shuningdek, aynan shu masalada S.T. Siefken va S.S. Shyuttemayerlarning fikrlariga nazar tashlaydigan bo'lsak [24, 165-b.], ular tegishli subyektlarni zaruriy vositalar bilan boyitish "gapiruvchi parlament" o'rniga "ishlaydigan parlament"ni keltirib chiqarishini qayd etishadi.

Darhaqiqat, norma ijodkorligi subyektlarini axborot bilan ta'minlash samaradorligini normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan mansabdor va mas'ul shaxslarning bilim va malakasini oshirish hamda boshqa tashkiliy chora-tadbirlarsiz kuchaytirish imkonsizdir.

Nazarimizda, nafaqat normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxslar, balki norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlovchi boshqa subyektlar (ekspert va mutaxassislar)ning ham bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha maxsus malaka kurslariga jalb etish zarur.

Darhaqiqat, malaka oshirish ishlarini tashkil etish ijobiy natijalar berishi mumkin, ammo norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborotni o'z vaqtida taqdim etmaganlik yoki talab darajasidagi axborotni taqdim etmaslik hamda shaxsiy manfaatlariga (bevosita yoki bilvosita) yo'l qo'rganlik uchun tegishli javobgarlik choralarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bu boradagi yuridik javobgarlik va mas'uliyatni kuchaytirish masalalariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, milliy qonunchilik hujjatlarida, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasining norma ijodkorligi faoliyati uchun taqdim etiladigan axborot-tahliliy materiallar ishonchliligi va o'z vaqtida taqdim etilishi bo'yicha yuridik javobgarlik belgilangan.

Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, amaliyotda mazkur norma vazirlik, davlat qo'mita va idoralari hamda mahalliy davlat hokimiyati organi uchun ham qo'llanib kelinmoqda. Tabiiyki, mansabdor shaxslarning norma ijodkorligi subyektlariga axborot taqdim etish

to'g'risidagi so'rovlarini to'laqonli bajarish yuzasidan mas'uliyatini oshirish talab etiladi. Chunki amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda bunday harakatlar uchun qat'iy javobgarlik choralari keltirib o'tilmagan. Jumladan, "Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi Qonunda zarur materiallar va axborot to'plash masalalari qayd etilgan bo'lsa-da, muayyan talablarga rioya etish nazarda tutilmagan.

Mazkur masalada milliy huquqshunos olimlardan A.M. Hoshimxonov vazirlik va davlat qo'mitalari norma ijodkorligi faoliyati natijasida kelib chiqqan turli oqibatlar uchun mas'uliyat va javobgarlik hissini oshirish kerakligini ta'kidlab o'tgan [25, 17-b.].

X.U. Turdiyev ijro hokimiyati huquq ijodkorligi sohasidagi mas'uliyat va javobgarlikni oshirish zarurligi [26, 24-b.], S.A. Sultanova normativ-huquqiy hujjat loyihasini tartibga solish ta'sirini baholash bo'yicha sifatsiz xulosa berganlik uchun ma'muriy javobgarlik [27, 147-b.], A.A. Xo'janazarov mahalliy davlat hokimiyati organlari mansabdor shaxslari yoki mutaxassislari (xodimlari) tomonidan qarorlar qabul qilish tartibini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilash zarurligini asoslantirishgan [28, 21-b.].

Mazkur tadqiqot ishi mavzusiga aloqador bo'lgan ma'muriy javobgarlik masalalari O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 178-moddasi (monopoliyaga qarshi organ va iste'molchilarning huquqlarini himoya qiluvchi organlarga axborot taqdim etmaslik yoki o'z vaqtida taqdim etmaslik yoxud ularga bila turib haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlar taqdim etish), 204¹-moddasining 3-qismi (tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar to'g'risidagi axborotni yashirish, o'z vaqtida taqdim etmaslik yoki ular haqida atayin soxta axborot taqdim etish), 215²-moddasida (O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga axborot taqdim etmagan, bila turib noto'g'ri ma'lumot taqdim etganlik)

ma'muriy huquqbuzarlik sifatida tan olingan, ammo norma ijodkorligi subyektlariga tegishli axborotlarni taqdim etmaslik, noto'g'ri ma'lumot taqdim etish, shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'yish kabi masalalar bo'yicha muayyan yuridik javobgarlik belgilanmagan.

Bizning fikrimizcha, norma ijodkorligi jarayoni samaradorligi, avvalo, axborot aylanishi, uning sifati hamda qayta aloqaga bog'liq bo'lib, bu borada mas'ul shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlikni emas, balki intizomiy javobgarlikni qat'iylashtirish maqsadga muvofiqdir.

Tahlillar natijasida shunday xulosaga kelingi, norma ijodkorligi jarayonini zarur axborot bilan ta'minlash asosan tashabbuskor subyekt tomonidan amalga oshiriladi. Demak, birinchi navbatda, ularning mas'uliyatini oshirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasiga e'tiborimizni qaratamiz.

"Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi GFR qonunining (Verwaltungsverfahrensgesetz) 71s-qismiga muvofiq [29, 2418-b.]:

1) norma ijodkorligini axborot bilan ta'minlashga oid so'rov bo'yicha tegishli davlat organi zudlik bilan tegishli ma'lumot beradi. Agarda so'rov yo'llovchining talabi mavhum bo'lsa, bu haqda xabar beradi;

2) norma ijodkorligini axborot bilan ta'minlashga oid so'rov bo'yicha vakolatli organlar tegishli qoidalar va ularning sharhlari to'g'risida zudlik bilan ma'lumot taqdim etadi.

Qayd etilganidek, GFRda norma ijodkorligini zaruriy axborot bilan ta'minlashda axborotning sifati, barqarorligi, izchilligi, axborot bilan ta'minlashning usul, uslub hamda vositalari samaradorligiga e'tibor qaratiladi.

Buyuk Britaniya tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Vazirlik kodeksining (Ministrial Code) 1.3.(a)-bandiga binoan, hukumat a'zolari jamoaviy javobgarlik prinsipiga asoslanadi; 1.3.(c)-bandida esa agarda vazir qonun ijodkoriga aniq va haqqoniy ma'lumot taqdim etmasa, Parlament a'zolari Bosh vazirga uning iste'foga chiqish talabini kiritishi mumkin [30, 6-b.].

Barcha hukumat a'zolari Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari hamda hukumat tomonidan olib boriladigan siyosat uchun birgalikda javobgar bo'lib, bu hukumatning qonunchilik tashabbusi, zaruriy ma'lumot va materiallar bilan ta'minlash, haqqoniy axborot manbalarini yaratish, ma'lumotlarda aks etgan kamchiliklarni tez fursatlarda tuzatish ishlarini qamrab oladi. Bu, albatta, qabul qilinayotgan qonunlar (Acts of Parliament) hamda hukumat qarorlarining o'zaro muvofiqligi, ijro va qonun chiqaruvchi hokimiyatlar o'rtasidagi ma'lumotlar almashinuvining ishonchililigi zamin hozirlaydi.

Shuning uchun hukumat tomonidan kiritilayotgan qonun loyihalari va ularga ilova qilinadigan axborot-tahliliy materiallarda aks etgan ma'lumotlar zaruriy, samarali, aniq, izchil va erkin foydalanish, ilmiy ta'minlanganlik, ekspert-tahlil ma'lumotlari bilan boyitilgan va boshqa shu kabi sifat talablariga javob berishi kafolatlanadi.

Norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash samaradorligiga erishish masalasi tegishli subyektlarning mas'uliyatini oshirish bilan bir qatorda, norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlovchi subyektlarni rag'batlantirish tizimiga ham e'tibor qaratishni talab etadi. Bu borada A. Xolov [31, 84-b.] va Sh. Kodirovalar [32, 74-b.] tomonidan davlat xizmatchilari faoliyatini baholash tizimini yo'lga qo'yish taklifini qo'llab-quvvatlash mumkin.

Shuningdek, muayyan hisobot davri mobaynida norma ijodkorligi jarayonida jamoatchilik fikr-mulohazalarini eng ko'p o'rgangan, normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tayyorlash bo'yicha eng ko'p tanlovlar o'tkazgan davlat organlari, eng ko'p normativ-huquqiy hujjat loyihalari, shuningdek, ularga ilova qilinadigan axborot-tahliliy materiallarni tayyorlagan subyektlar, norma ijodkorligi jarayoniga eng ko'p jalb etilgan ekspert va mutaxassislar reytingini aniqlash va rag'batlantirish mexanizmini ishlab chiqish zarur, deb hisoblaymiz.

Bunday mexanizmlar xorijiy mamlakatlarda joriy etilgan bo'lib, AQShning govtrack.us platformasi – qonun hujjatlarini kirituvchilar reytingi [33], "Amerika prezidentlik loyihasi" (American presidency project) [34] – prezidentlar tomonidan qabul qilingan qonunosti hujjatlari (executive orders) reytingi, Samarali qonun ijodkorligi markazi – shtatlarning qonun ijodkorligi samaradorligini aniqlovchi reytingi (Center for effective lawmaking) [35, 52-b.], huquqqa ta'sir ko'rsata oladigan "Huquq maktablari" reytingini (Ranking the academic impact of 100 American law schools) bunga misol qilib keltirish mumkin [36, 12-b.].

Albatta, bunday rag'batlantirish hamda reyting tizimini amaliyotga joriy etish normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlarning mansabdor shaxslari va norma ijodkorligini zaruriy axborot bilan ta'minlovchi subyektlar tashabbuslari jadallashishiga zamin yaratib beradi.

Fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan muayyan hisobot davri mobaynida norma ijodkorligi jarayonida jamoatchilik fikr-mulohazalarini eng ko'p o'rganib chiqqan, normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tayyorlash bo'yicha eng ko'p tanlovlar o'tkazgan davlat organlari, eng ko'p normativ-huquqiy hujjat loyihalari, shuningdek, ularga ilova qilinadigan axborot-tahliliy materiallarni tayyorlagan subyektlar, norma ijodkorligi jarayoniga eng ko'p jalb etilgan ekspert va mutaxassislar reytingini aniqlash hamda keng jamoatchilikka e'lon qilish mexanizmi yo'lga qo'yilishi lozim.

Norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlovchi subyektlar reytingini aniqlash bo'yicha mezonlar hisobot yili davomida tayyorlangan tahliliy materiallar soni, sifati, inobatga olingan takliflar, xodimlar salohiyati, OAVlarda keng jamoatchilik uchun ochiq bo'lgan qonunchilikni rivojlantirish bo'yicha yuqori sifatli tahliliy materiallar e'lon qilinganligi kabi jihatlarni qamrab olishi maqsadga muvofiqdir.

Ta'kidlash joizki, norma ijodkorligi jarayonida uning kelajakda huquqiy munosabatlarni tartibga solishda qay darajada ishlab ketishi, o'zining samarali natijasiga erishishi uchun mazkur faoliyatda axborot ta'minoti, axborotlar almashinuv mexanizmi bilan bir qatorda tegishli subyektlarning mas'uliyatini qat'iyalashtirish hamda ularni rag'batlantirish tizimini ham qayta ko'rib chiqish lozim.

Fikrimizcha, normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlar yoki mansabdor shaxslarga zaruriy axborotni taqdim etmaganlik, shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'yish, muddat va sifat talablariga javob bermaydigan holatlar bo'yicha intizomiy javobgarlikni joriy etish hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish axborotga bo'lgan jiddiy yondashuvni ta'minlash, sifat va samaradorlikni oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash samaradorligini oshirish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlarni ishlab chiqish, sohaning rivojlanish tendensiyalarini belgilash, mamlakatimizda norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash sohasidagi mas'uliyatni oshirish masalasiga alohida e'tibor berilmaganligi, shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ygan tegishli mansabdor shaxslarga nisbatan yuridik javobgarlikning qat'iy belgilanmaganligi kechiktirilgan, ishonchsiz yoki sifat talablariga javob bermaydigan axborot bilan ta'minlash natijasida amalga kiritilgan normativ-huquqiy hujjatlarda noaniqliklar topilishi, amaliyotda ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois bu borada axborot texnologiyalarini keng joriy etish, mas'ul shaxslarning malakasini oshirish, javobgarlik choralari ishlab chiqish, norma ijodkorligi jarayonini zaruriy axborot bilan ta'minlash bo'yicha reyting mexanizmini ishlab chiqish hamda mas'ul shaxslarni rag'batlantirish chora-tadbirlarini ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Xulosalar

Milliy norma ijodkorligini rivojlantirish yo'nalishlarini ilgari surgan holda, mazkur

yo'nalishlar doirasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlar yoki mansabdor shaxslar faoliyati samaradorligini kuchaytirish, ulardagi xodim va mutaxassislar malakasini oshirish maqsadida quyidagi masofaviy o'quv treninglarini yo'lga qo'yish zarur:

yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida "Qonunchilik texnikasi" masofaviy o'quv treninglari;

yangi saylangan viloyat, shahar va tuman xalq deputatlari kengashlari deputatlari, davlat boshqaruvi organlari yuridik xizmat xodimlari uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazida "Norma ijodkorligi texnikasi" masofaviy o'quv treninglarini tashkil etish.

2. Normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlarning mas'ul xodimlari malakasini oshirish tizimini yaratish, ishga qabul qilish bo'yicha tanlov shartlarini qayta ko'rib chiqish, ularning malakasini uzviy ravishda oshirib borish tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

Quyidagi masalalar yuzasidan tegishli mas'uliyatni oshirish bu boradagi norma ijodkorligi samaradorligiga xizmat qilishi mumkin:

normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlarning yuridik xizmatiga jalb etiladigan mas'ul shaxslarning mansab yo'riqnomasiga norma ijodkorligiga oid maxsus bilim va malaka talablarini kiritish;

normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlarning yuridik xizmatida faoliyat olib boruvchi mas'ul xodimlarni ishga qabul qilish bo'yicha maxsus malaka mezonlarini qayta ko'rib chiqish;

normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlar norma-

tiv-huquqiy hujjat loyihasi va unga ilova qilinadigan hujjatlarni real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatini taqdim etish orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish;

normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organning tegishli mansabdor shaxslari yoki norma ijodkorligini axborot bilan ta'minlovchi subyektlar tomonidan normativ-huquqiy hujjat loyihalari va ularga ilova qilinadigan axborot-tahliliy materiallarda qasddan soxta yoki noto'g'ri ma'lumot berish, shaxsiy manfaatdorlikka (bevosita yoki bilvosita) yo'l qo'yish, norma ijodkorligi uchun zarur bo'lgan axborotni taqdim etish to'g'risidagi so'rovni ko'rib chiqmasdan qoldirish yoki ularni ko'rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzish bo'yicha intizomiy javobgarlikni qat'iylashtirish.

3. Huquqshunos olimlarning ilmiy ishlari hamda ilg'or xorij tajribasini tadqiq etish orqali norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash samaradorligini oshirish va mansabdor shaxslarning mas'uliyatini qat'iylashtirish maqsadida "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 31-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq:

"31-modda. Norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash qoidalarini buzilganlik uchun javobgarlik"

Normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organning tegishli mansabdor shaxslari yoki norma ijodkorli-

gini axborot bilan ta'minlovchi subyektlar tomonidan normativ-huquqiy hujjat loyihalari va ularga ilova qilinadigan axborot-tahliliy materiallarda qasddan soxta yoki noto'g'ri ma'lumot berish, shaxsiy manfaatdorlikka (bevosita yoki bilvosita) yo'l qo'yish, norma ijodkorligi uchun zarur bo'lgan axborotni taqdim etish to'g'risidagi so'rovni ko'rib chiqmasdan qoldirish yoki ularni ko'rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzish ijro intizomi doirasida shaxsiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi organlar tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini o'z vaqtida ko'rib chiqish, kelishish, norma ijodkorligi jarayoni tartib-taomillariga amal qilish ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi".

4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan muayyan hisobot davri mobaynida norma ijodkorligi jarayonida jamoatchilik fikr-mulohazalarini eng ko'p o'rganib chiqqan, normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tayyorlash bo'yicha eng ko'p tanlovlar o'tkazgan davlat organlari, eng ko'p normativ-huquqiy hujjat loyihalari, shuningdek, ularga ilova qilinadigan axborot-tahliliy materiallarni tayyorlagan subyektlar, norma ijodkorligi jarayoniga eng ko'p jalb etilgan ekspert va mutaxassislar reytingini aniqlash hamda keng jamoatchilikka e'lon qilish yagona elektron tizimini yo'lga qo'yish lozim.

REFERENCES

1. Israilova Z.S. O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining samaradorligini baholash mexanizmini takomillashtirish [Improving the mechanism for evaluating the effectiveness of the representative bodies of local state power in Uzbekistan]. PhD thesis. Tashkent, 2020, 54 p.
2. Kaynov V.I., Zareskaya E.V. Aktual'nyye problemy byudzhnogo protsessa v Rossiyskoy Federatsii: administrativno-pravovoy aspekt [Actual problems of the budget process in the Russian Federation: administrative and legal aspect]. St. Petersburg, KultInformPress Publ., 2019, 83 p.

3. Ilin A.V. Optimizatsiya pravotvorcheskoy deyatel'nosti v sovremennoy Rossii (voprosy teorii i praktiki) [Optimizing engineering research in modern Russia (questions of theory and practice)]. St. Petersburg, 2010, 309 p.
4. Rustamov P.A. Nauchno-informatsionnoye obespecheniye zakonodatel'noy deyatel'nosti v Respublike Uzbekistan [Scientific and information support of law-making activity in the Republic of Uzbekistan]. PhD thesis. TSIL, 2001, 149 p.
5. Skurko Ye.V. Informatsionno-pravovoye obespecheniye zakonodatel'noy deyatel'nosti v Rossiyskoy Federatsii [Information and Legal Support of Law-making Activities in the Russian Federation]. PhD thesis. Moscow, 2003, 131 p.
6. The official web page of the UK government. Available at: <https://www.gov.uk/government/news/red-tape-challenge>
7. Busch Ch., Dannemann G., Schulte-Nölke H., Wiewiórowska-Domagalska A. Discussion draft of a directive on online intermediary platforms. *Journal of European Consumer and Market Law*, 2016, no. 5, pp. 164–169.
8. Sodikov A. Norm-making based on evidence and science is one of the main factors of development. *Review of Law Sciences*, 2020, no. 4, pp. 1–5.
9. Siyosatnoma (Siyar ul-muluk). Transl. from Persian, author of the foreword and comments Sh. Vahid, A. Erkinov. Tashkent, New age generation Publ., 2008, 239 p.
10. Mabillard V., Pasquie M., Sofia A. The use and effects of access to information laws. A study in 14 countries. *Working Paper de l'IDHEAP*, 2019, no. 6, 55 p.
11. Goetz K.H., Meyer-Sahling J.H. Political time in the EU: Dimensions, perspectives, theories. *Journal of European Public Policy*, 2009, no. 16 (2), pp. 180–201.
12. Artikov D.R. Idoraviy normativ-huquqiy jihatlari hujjatni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rishning ma'muriy-huquqiy [Administrative-legal aspects of court hearing of cases regarding invalidity of a departmental normative legal acts]. PhD thesis. Tashkent, TSUL, 2021, 50 p.
13. Ne'matov J.N. O'zbekiston Respublikasida ma'muriy tartib-taomillarning huquqiy asoslarini takomillashtirish (qiyosiy-huquqiy tahlil) [Improving the legal basis of administrative procedures in the Republic of Uzbekistan (comparative legal analysis)]. Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2019, 62 p.
14. Otaxonov F.X. O'zbekiston Respublikasida yuridik xizmatning nazariy-huquqiy muammolari [Theoretical and legal problems of legal service in the Republic of Uzbekistan]. Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2019, 47 p.
15. Zulfqorov Sh.X. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari [Organizational and legal basis of activity of the deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis]. PhD thesis. Tashkent, TSIL, 2008, 26 p.
16. Hayitov X.S. Qonun ijodkorligi ekspertlik ta'minoti: milliy va xorijiy tajriba [Expert provision of law-making: national and foreign experience]. *Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Legal Sciences*, TSUL, 2018, no. 2, pp. 14–19.
17. Berdiyarov Sh.N. Ikki palatali parlament sharoitida qonunchilik texnikasi [Legal writing in the conditions of the bicameral parliament]. PhD thesis. Tashkent, TSIL, 2009, 24 p.
18. Alimov B., Mahkamov O. Boshqaruv kadrlarini o'qitishning huquqiy asoslari va ta'lim jarayonini takomillashtirish istiqbollari [Legal basis of training management personnel and prospects for improvement of the educational process]. *Society and Management*, 2020, no. 2 (88), pp. 112–117.

19. Mahkamov O., Rahmonov Q. O'zbekistonda boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda masofaviy ta'limni takomillashtirish masalalari [Issues of improving distance education in the training, retraining and upgrading of managerial personnel in Uzbekistan]. *Society and Management*, 2019, no. 3 (85), pp. 125–132.
20. Pasquale F. Data-informed duties in ai development. *Columbia Law Review*, 2019, vol. 119, no. 7, pp. 1917–1940.
21. Trofimova T.V., Lomovtseva A.V. Tsifrovyye tekhnologii v obespechenii deyatel'nosti organov gosudarstvennoy vlasti [Digital technologies in ensuring the activities of public authorities]. *Creative Economy*, 2019, vol. 13, no. 2, pp. 261–270.
22. Report on strengthening forensic in the United States: A path forward. *National Academy of Science*, 2009, no. 228091, 350 p.
23. Henderson C., Botluk D. Sleuthing scientific evidence information on the Internet. *The Journal of Criminal Law and Criminology*, 2016, vol. 106, no. 1, p. 61.
24. Siefken S.T., Schüttemeyer S.S. The German Bundestag and external expertise: Policy orientation as counterweight to deparliamentarisation? International library of policy analysis. Policy Analysis in Germany Bristol: Policy Press, 2013, pp. 161–180.
25. Hoshimxonov A.M. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining huquq ijodkorlik faoliyati: nazariya va amaliyot masalalari [Law-making activities of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan: theory and practical issues]. PhD thesis. Tashkent, TSIL, 2008, 26 p.
26. Turdiyev X.U. Ijro hokimiyatining huquq ijodkorlik faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni takomillashtirish masalalari [Issues of improving the relations of the executive power in connection with the law-making activity]. *Analysis of the Legislation of Uzbekistan*, TSUL, 2019, no. 1, p. 26.
27. Sultanova S.A. Teoretiko-pravovyye voprosy primeneniya modeli «Umnoye regulirovaniye» v normotvorchestve [Theoretical and legal issues of the application of the "Smart regulation" model in rule-making]. PhD thesis. Tashkent, TSUL, 2021, 184 p.
28. Xo'janazarov A.A. Adliya organlarining norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish [Improving the rule-making activity of judicial bodies]. PhD thesis. Tashkent, TSUL, 2021, 143 p.
29. Administrative Procedure Act (Verwaltungsverfahrensgesetz, VwVfG). *Federal Law Gazette*, 2008, no. 1, 2418 p.
30. Ministerial Code. Cabinet Office. London, 2019, no. 1.3. (a), 36 p.
31. Xolov A. Davlat xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholash [Evaluation of the performance of civil servants]. *Society and Management*, 2019, no. 3 (85), pp. 84–90.
32. Kodirova Sh. Otsenka effektivnosti deyatel'nosti gosudarstvennykh sluzhashchikh: sovremennoye sostoyaniye i perspektivy razvitiya [Evaluation of the performance of civil servants: current state and development prospects]. *Society and Management*, 2019, no. 3 (85), pp. 74–83.
33. The official webpage of GovTrack NGO. Available at: <https://www.govtrack.us/about>
34. The official webpage of The American Presidency Project. Available at: <https://www.presidency.ucsb.edu/statistics/data/executive-orders>
35. Bucchianeri P., Volden C., Wiseman A.E. Legislative Effectiveness in the American States. Center for Effective Lawmaking Working Paper, 2020, 52 p.
36. Heald P.J., Sichelman T.M. Ranking the academic impact of 100 american law schools. University of Illinois College of Law Legal Studies Research, 2019, no. 20-433, pp. 11–20.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.4./HNQU7760>
UDC: 347.9(045)(575.1)

MA'MURIY SUD ISHI YURITUVIDA KELISHUV BITIMI INSTITUTINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM NAZARIY VA AMALIY MASALALARI

Jurayev Sherzod Yuldashevich,

Toshkent davlat yuridik universiteti
Ma'muriy va moliya huquqi kafedrası dotsenti,
yuridik fanlar nomzodi
ORCID: 0000-0003-3857-9751
e-mail: sh.jurayev@tsul.uz

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 26-apreldagi "Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya qilinishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-833-sonli qonuni asosida Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksga 15¹-bobning kiritilishi munosabati bilan "Kelishuv bitimi" instituti tahliliga bag'ishlangan. Xususan, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksga kiritilgan taraflar o'rtasida "kelishuv bitimi"ni tuzishga oid normalarning Germaniya, Fransiya va Rossiya kabi xorijiy davlatlar sud amaliyotida qo'llanilishiga oid tahlillar olib borildi. Bundan tashqari, kelishuvning vositachilar ishtirokida tuzilishi, ya'ni mediatsiya instituti tushunchasi, uning turli davlatlar qonunchiligida ishlatilishi va o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etildi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning 15¹-bobidagi "kelishuv bitimi" instituti tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari o'rganilib, Germaniya Ma'muriy sudi to'g'risidagi qonunda kelishuv bitimi bilan taqqoslangan holda, milliy qonunchiligimizga asoslantirilgan takliflar shakllantirildi. Tadqiqot davomida mediatsiya va kelishuv bitimi tuzish bilan bog'liq xalqaro davlatlar tajribasidagi qonunchilikdan kelib chiqib, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksining 3-moddasiga o'zgartirish kiritish va uni 2 ta yangi modda bilan to'ldirish haqida tegishli takliflar berildi.

Kalit so'zlar: kelishuv bitimi, kelishuv, vositachilik, mediatsiya, taraflar kelishuvi, kelishuv bitimini o'zgartirish va bekor qilish, kelishuv bitimining sir tutilish prinsipi.

НЕКОТОРЫЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИНСТИТУТА МИРОВОГО СОГЛАШЕНИЯ В АДМИНИСТРАТИВНОМ СУДОПРОИЗВОДСТВЕ

Жураев Шерзод Юлдашевич,

кандидат юридических наук, доцент кафедры
«Административное и финансовое право»

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье анализируется институт мирового соглашения, введенный главой 15¹ Кодекса Республики Узбекистан об административном судопроизводстве на основе Закона Республики Узбекистан «О внесении изменений и дополнений в некоторые законодательные акты Республики Узбекистан в связи с

принятием дополнительных мер по обеспечению эффективной защиты прав граждан и субъектов предпринимательства во взаимоотношениях с государственными органами» от 26 апреля 2023 года № ЗРУ–833. В частности, был проведен анализ применения норм, касающихся заключения мирового соглашения между сторонами, включенных в Кодекс Республики Узбекистан об административном судопроизводстве, и в судебной практике таких иностранных государств, как Германия, Франция и Россия. Кроме того, была исследована структура соглашения с участием медиаторов, а именно – понятие института медиации, его использование и специфика в законодательстве различных государств. Изучив особенности понятия института мирового соглашения, данного в главе 15¹ Кодекса Республики Узбекистан об административном судопроизводстве, и сравнив их с понятием мирового соглашения в Законе об административных судах Германии, сформулированы предложения с учетом нашего национального законодательства. В процессе исследования, исходя из опыта зарубежных стран, связанного с медиацией и заключением мировых соглашений, были выдвинуты предложения о внесении изменений в статью 3 Кодекса Республики Узбекистан об административном судопроизводстве и дополнении его двумя новыми статьями.

Ключевые слова: мировое соглашение, соглашение, посредничество, медиация, соглашение сторон, изменение и расторжение мирового соглашения, принцип конфиденциальности мирового соглашения.

SOME THEORETICAL AND PRACTICAL ISSUES OF IMPROVING THE INSTITUTE OF AGREEMENT IN ADMINISTRATIVE LEGAL PROCEEDINGS

Jurayev Sherzod Yuldashevich,
Tashkent State University of Law,
Associate Professor of the Department
of Administrative and Financial Law, PhD in Law

Abstract. This article is devoted to the analysis of the institute of “Settlement Agreement,” which is defined in Chapter 15¹ of the Code of the Republic of Uzbekistan on Administrative Proceedings. This institute was included in the Code according to Law of the Republic of Uzbekistan No. 833 on April 26, 2023 “On amendments and additions to certain legislative acts of the Republic of Uzbekistan for taking additional measures to ensure effective protection of the rights of citizens and business subjects in relation with state authorities”. In particular, analyses were conducted on the application of the norms to the conclusion of a “settlement agreement” between the parties in the judicial practice of foreign countries such as Germany, France, and Russia. In addition, the structure of the agreement with the participation of mediators, the concept of mediation, its use in the legislation of different countries, and its specific features were studied. The concept of the “settlement agreement” in Chapter 15¹ of the Code of the Republic of Uzbekistan on Administrative Proceedings and its specific features were studied, and proposals based on our national legislation were formulated in comparison with the settlement agreement in the German Administrative Court Act. In particular, in the course of the study, based on the experience of international countries related to the conclusion of mediation and settlement agreements based on the legislation, the conclusions about amending Article 3 of the Code of the Republic of Uzbekistan on Administrative Proceedings and supplementing it with 2 new articles were thoroughly justified, and relevant suggestions were made.

Keywords: settlement agreement, agreement, mediation, agreement of the parties, modification and cancellation of the settlement agreement, the principle of confidentiality of the settlement agreement.

Kirish

O'zbekistonda sudlar faoliyati yildan yilga rivojlanib borayotganligi, mamlakatimizda sud hokimiyatining haqiqiy ma'noda mustaqil hokimiyat tarmog'iga aylanishi, bu boradagi islohotlar jahon ma'muriy sudlov tizimlari konsepsiyasining yorqin namunalarini tatbiq qilayotganligi diqqatga sazovordir. Shu kungacha fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida sud hokimiyatiga oid qonunchilikka bir qator ijobiy huquqiy mexanizmlar kiritildi.

Nizolarni kelishuv yo'li bilan hal qilish masalasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvarda "Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya etilishini ta'minlash hamda aholining sudlarga bo'lgan ishonchini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-107-sonli qarori e'lon qilinib, ushbu tarixiy hujjatning 3-bandida "taraflarga qonun hujjatlarida belgilangan hollarda, ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha kelishuv bitimi tuzish huquqini berish" normasi o'z aksini topdi. Aytish lozimki, kelishuv instituti ham ilmiy jamoatchilik orasida tom ma'noda taraflar o'rtasidagi nizolarni hal qilishda adolat va haqiqatga erishish yo'lidagi samarali usul sifatida ko'rib chiqilishi mumkin [1].

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 26-apreldagi "Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya qilinishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-833-sonli qonuni asosida Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksga 15¹-bobning kiritilishi kelishuv bitimi institutining ma'muriy sud ishi yurituvida paydo bo'lishi va rivojlanishida muhim omil bo'ldi. Keyingi o'rinlarda ushbu institutning kelib chiqishi, boshqa o'x-

shash atamalar bilan nisbatlanishi va o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

Material va metodlar

Tadqiqot davomida quyidagi masalalar tahlil qilindi: kelishuv bitimi, mediatsiya tushunchasi ta'rifi, kelishuv institutining mediatsiya instituti bilan o'zaro nisbati va o'ziga xos jihatlari, Rossiya, Fransiya, AQSh va Germaniya qonunlarida kelishuv institutining normalarda mustahkamlanishi va qo'llanishi.

Yuqoridagi masalalar yuzasidan muallif pozitsiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi ma'muriy sud ishlarini yuritishga oid qonunchilikni rivojlantirish bo'yicha takliflar tayyorlandi va ilgari surildi.

Ushbu tadqiqot ishida ilmiy bilishning tahlil qilish, taqqoslash, tizimlilik, umumlashtirish va formal-yuridik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Kelishuv instituti tushunchasi, paydo bo'lishi, rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish ushbu institutning sudlar faoliyatida shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilishdagi ahamiyati va samaradorligini belgilab beradi. Ko'plab xorijiy davlatlar sud amaliyotida taraflar o'rtasidagi kelishuv "**mediatsiya**" atamasi bilan nomlanib, lotinchadan **mediare** – taraflarni vositachilik orqali kelishtirish, "vositachilik" ma'nolarida qo'llanadi [2].

Yarashtiruv, kelishuv instituti dastlab qadimgi Gretsiyada vositachilar (proxenetas) atamasi sifatida mavjud bo'lib, rim huquqi va Yustinian kodekslarida ham ushbu atamaga oid qoidalar aks etgan [3]. Qadimdan qo'llanib kelingan ushbu atamalar hozirda ham turli davlatlar qonunchiligida o'ziga xos xususiyatlari bilan kam farq qilishini kuzatish mumkin.

Misol uchun, Germaniyada davlat va uning organlari bilan fuqarolarning o'zaro munosabatlarida ommaviy-huquqiy nizolarni hal qilish (tartibga solish)da kelishtiruv institutining roli muhim bo'lib, K.X. Shmidtning fikricha, mediatsiya ma'muriy sud ishlarini

yuritishda nizolarni hal qilishda tez va samarali usuldir [4].

Fransiyada ham mediatsiya tartib-taomillari o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, ommaviy ma'muriyat va fuqarolar o'rtasidagi nizolarni hal qilishda fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchi ortishi va ma'muriy sud ishi yurituvchi sifati oshishiga xizmat qiladi [5].

Britaniyalik olim D. Korporan yuqoridagi fikrlarni qo'llab-quvvatlagan holda mediatsiya ommaviy nizolarni ko'rib chiqishda sud-da ko'riladigan ishlar yuklamasini kamaytirishini ta'kidlagan [6]. Ushbu fikrga qo'shimcha ravishda amerikalik huquqshunos D. Bernshteyn nizolarni ko'rib chiqishga oid sarf-xarajatlarning kamayishiga ham olib kelishi haqida xulosa qilgan [7]. Bildirilgan ushbu fikrlar, albatta, ma'muriy sud ishlarini yuritishda sudlarda ko'rib chiqiladigan ishlar hajmi kamayishi va ishlarni ko'rib chiqish sifati oshishiga zamin yaratadi.

Umuman olganda, nizolarni alternativ usullarda hal qilishning turli ko'rinishlari mavjud bo'lib, ularning qo'llanishi ma'muriy sudlardan boshqa sudlar faoliyatida keng foydalanilmoqda. Ushbu alternativ usullar haqida ko'plab ilmiy munozaralar bo'lgan, turli olimlar fikr bildirgan, ularning xususiyatlari va qo'llanishida vujudga kelayotgan muammolar tadqiqot ishlarining obyekti bo'lib kelmoqda. Quyida ayrim mulohazalarni keltirib, ularning farqlari va boshqa o'ziga xos tomonlarini tahlil qilamiz.

Kelishuv institutining mediatsiya instituti bilan farqli jihatlarini ayrim olimlar o'z ilmiy ishlarida ko'rsatib o'tishgan. F.K. Senen kelishuv va mediatsiya institutlari uchinchi shaxslarning ishtirok etish darajasi, roli va funksiyasi nuqtayi nazaridan farq qilishini ta'kidlagan [8] bo'lsa, Y.G. Bogatina mediatsiya institutini boshqa alternativ kelishuv institutlaridan farqli ravishda, nizoning boshlanish bosqichida tatbiq etish samarali ekanligini e'tirof etib, bunda uchinchi shaxslar ishtirokiga bog'liq bo'lmagan holda taraflarning kelishuvga erishishiga olib kelishini

aytib o'tgan [9]. Yuqoridagi ikkita olimning fikri ham o'ziga xos bo'lib, bunda asosan kelishuvga oid normalarning qonunlarda qo'llanishiga e'tibor qaratish lozim.

Tadqiqot natijalari tahlili

Xorijiy davlatlarda ma'muriy sud ishlarini yuritishda ham kelishuv, ham mediatsiya atamasi qo'llanadi. Ushbu atamalarning farqini quyida keltirib o'tamiz. Xususan, "kelishuv deganda – nizolashayotgan taraflar o'rtasida tuziladigan, ushbu nizoni hal qilishga qaratilgan muayyan shartlar ko'rsatiladigan hujjat tushuniladi". Milliy qonunchiligimiz asosida tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu ta'rif Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning 126¹-moddasida keltirilgan ta'rifga nisbatan farq qilib, unda "kelishuv ma'muriy sud ishlarini yuritishning barcha bosqichlari va sud hujjatini ijro etish jarayonida nizoni kelishuv bitimini tuzgan holda to'liq hajmda yoki qisman hal etishi mumkin"ligi nazarda tutilgan. Bunda kelishuv ixtiyoriylik, hamkorlik va teng huquqlilik prinsiplari asosida tuziladi. Yana bir muhim shart sifatida kelishuvni tuzishga "faqat javobgarda, ya'ni ma'muriy organda ma'muriy ixtiyoriylik (diskretion vakolat) mavjud bo'lganda yo'l qo'yilishi" belgilangan. Kelishuvning qulayligi sud protsesining har qanday bosqichida tuzilishi alohida e'tiborga molik.

Mediatsiya tushunchasi esa taraflar o'rtasida ommaviy-huquqiy nizolarni hal qilishda betaraf uchinchi shaxslar (mediatorlar) yordamida amalga oshirilib, bu asosan, taraflarni kelishtirishga qaratilgan bo'ladi [10]. Kelishuv bitimini tuzishdan farqli ravishda, aytish lozimki, bunda bitim tuzilmay taraflarning yagona shartlashilgan qarorga kelishlariga ko'maklashiladi [11]. Ma'muriy sud ishlarini yuritishga oid milliy qonunchiligimizda esa mediatsiya tartib-taomillari qo'llanilmaydi.

Xorij tajribasiga yuzlanadigan bo'lsak, ayrim olimlar mediatsiya institutini kelishuv institutidan ustun qo'yib, mediatsiya tartib-taomillari qo'llanganda, birinchidan, tara-

flar nizoni hal qilib bo'lgandan keyin o'zaro munosabatlarini saqlab qoladilar, ikkinchidan, har ikkala tarafga ham ikkinchi taraf manfaatlarini yaxshiroq tushunishni ta'minlaydi [12].

Yuqoridagilardan tashqari, mediatsiya tartib-taomillarini o'tkazishda taraflar o'rtasida tuziladigan kelishuvga ko'ra, sud xarajatlarini taqsimlash mumkin bo'lib, bu sud jarayonini "arzonlashtirish" imkonini beradi. Shu bilan birga, taraflar o'rtasida "ishbilarmonlik aloqalar"i saqlanib, nizo hal qilingandan keyin taraflar o'zaro munosabatlarga kirishaveradilar [13].

Yuqoridagi ikkala tushuncha ham ayrim kamchilik va yutuqlarga ega. Xususan, kelishuv bitimini imzolashda taraflar muayyan sarf-xarajalar va vaqtlarini tejab, nizoni tezda va samarali hal qilishga erishadilar. Lekin bunda kelishuv bitimini imzolashning har doim ham iloji bo'lmaydi, masalan, taraflar manfaatlariga ushbu kelishuv zid kelsa.

Mediatsiya, o'z navbatida, taraflarning o'zaro muloqotga kirishishlari va nizoning yechimini topishga imkon bersada, lekin bunda betaraf uchinchi shaxslarning ishtiroki zarur bo'lib, taraflar uchun bu ortiqcha sarf-xarajadni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, ushbu usullarning qo'llanilishi, albatta, milliy qonunchilik va milliy urf-odatlar ta'sirida amalga oshirilishini inobatga olish lozim.

Rossiya Federatsiyasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksida yarashtiruvning kelishuv bitimi va mediatsiyadan tashqari, 137³-moddasida muzokara o'tkazish, sud yarashtiruv kabi usullari ham belgilangan [14]. Muzokara usulida taraflar o'rtasida kelishuv bitimini tuzish maqsadida muzokaralar o'tkazish belgilangan bo'lsa, sud yarashtiruvida sud tomonidan tayinlangan "sud yarashtiruvchi"si taraflarni mustaqillik, halollik va vijdoniylik prinsiplari asosida kelishuvga erishtirishi mustahkamlangan. Yuqorida keltirilgan usullar nizolarni sudlarda ko'rib chiqishda qo'l kelib, taraflarning

kelishish imkonini ko'paytiradi va albatta, manfaatdor shaxslarning huquqlarini tezda tiklashga yordam beradi.

Ma'muriy huquq fani doirasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarga e'tibor beradigan bo'lsak, aksariyat olimlar O'zbekiston ma'muriy huquq sohasi Nemis ommaviy huquq sohasi konsepsiyasi doirasida rivojlanayotganligini ta'kidlaydilar. Bu fikrga qo'shilgan holda, nemis ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasidagi kelishuvga oid normalarning milliy qonunchiligimiz asosidagi tahliliga e'tibor qaratmoqchimiz.

Germaniya Federativ Respublikasining 1995-yilda qabul qilingan Germaniya Ma'muriy sudi to'g'risidagi qonunida (Verwaltungsgerichtsordnung (VwGO), Stand: 1995) ommaviy-huquqiy nizolarni ko'rib chiqishda qo'llaniladigan normalar keltirilgan. Ushbu hujjatning 101-moddasi "Taraflarning kelishuvi" [11] deb nomlanib, unda taraflar sud qarori chiqquncha yoki qaror chiqib bo'lgandan keyin ham, lekin ushbu qaror ijrosi ta'minlanib bo'lguncha kelishuv bitimi tuzishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Bunda, albatta, taraflarning o'zaro roziligi mavjud bo'lganda, bitim tuzilishi asosiy shart sifatida ko'rsatilgan. Bizning qonunchiligimizda sud qarori ijrosini amalga oshirib bo'lgandan keyin kelishuv bitimini tuzmaslikka oid norma mavjud bo'lmay, bunga sud amaliyotining hozirda muayyan tajribaga ega emasligini sabab sifatida ko'rsatish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksida yuqoridagi nemis qonuni normasida ko'rsatilgan ixtiyoriylik prinsipidan tashqari, hamkorlik va teng huquqlilik prinsiplari ham belgilangan. Bu yerda aytish joizki, Rossiya Federatsiyasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksining 137¹-moddasida yuqoridagi prinsiplardan tashqari, maxfiylik yoki bitimning sir tutilishi prinsipi ham keltirilgan bo'lib, bizningcha, ushbu prinsipni milliy qonunchiligimizga ham joriy etish lozim. Chunki bitim tuzishda manfaat-

dor shaxslarning huquqi tiklangunga qadar, boshqa shaxslarning bitim shartlaridan ogoh bo'lishi ushbu ishda qatnashayotgan shaxslarning manfaatlariga putur yetkazishi mumkin.

Germaniya Ma'muriy sudi to'g'risidagi qonunining 102-moddasi "Kelishuv bitimini bekor qilish yoki o'zgartirish" deb nomlanib, unda "Kelishuv bitimini bekor qilish yoki o'zgartirish faqatgina taraflar kelishuvi yoxud qonunda nazarda tutilgan hollarda, sudning qaroriga asosan amalga oshirilishi" nazarda tutilgan. Aytish lozimki, bizning qonunchiligimizda kelishuv bitimini o'zgartirish yoki muayyan darajada bekor qilishga oid normalar keltirilmagan. Bunday normaning qonunchilikda mustahkamlanishi taraflar uchun birmuncha qulayliklar keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, taraflar kelishuv bitimi tuzish paytida ayrim shartlarni esdan chiqarib qo'yish hollari kuzatiladi. Bu esa vujudga kelgan nizoning to'liq hal bo'lmasligiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi 126³-moddasi 4-qismida "Sud kelishuv bitimini tasdiqlash to'g'risida ajrim chiqaradi, unda ish yuritish to'liq yoki qisman tugatilganligi ko'rsatiladi", deb belgilangan. Germaniya Ma'muriy sudi to'g'risidagi qonunining 103-moddasida esa taraflar o'z manfaatlariga to'g'ri keladigan kelishuv bitimi tuzganlarida sud ishni ko'rishni tugatish to'g'risida faqatgina formal jihatdan talab etilgandagina qaror chiqarishi mumkinligi mustahkamlangan. Bizningcha, formal jihatdan qaror chiqarish orqali ishni tugatish muayyan ma'noda tushunmovchilikka olib keladi [15]. Chunki ish bo'yicha kelishuv bitimini sud tasdiqlagandan keyin taraflar o'rtasida kelishuv bitimi shartlarini bajarish paytida yana qandaydir tushunmovchilik natijasida nizo kelib chiqsa, bunda ularning sudga qaytadan murojaat qilishlariga to'g'ri keladi. Va bu, albatta, ortiqcha vaqt va mablag' sarflanishiga olib keladi.

Kelishuv bitimini tuzish va uni ijro etish masalasi ham sud amaliyotida birmuncha muhim ahamiyat kasb etib, milliy qonunchiligimizda ushbu bitimni bajarish, taraflarning kelishilgan shartlarni bajarmay qolishi masalasi ochiq qolgan. Aytish lozimki, Germaniya Ma'muriy sudi to'g'risidagi qonunining 104-moddasida "agar taraflardan biri kelishuv bitimi doirasida o'ziga yuklatilgan majburiyatni bajarmasa, ikkinchi taraf o'zining manfaatlarini himoya qilish yuzasidan sudga murojaat qilishi" mumkinligi belgilangan. Ushbu normadan kelib chiqadigan bo'lsak, bizningcha, milliy qonunchiligimizga ham taraflar o'rtasida kelishuv bitimida ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslik aynan shu nizoni ko'rib chiqqan sudga murojaat qilish vakolatini berishini kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu, albatta, manfaatdor shaxslarning buzilgan huquqlarini tiklash imkoniyatini beradi va turli sarsongarchiliklarning oldini oladi.

Xulosalar

Kelishuv usullarini ko'paytirish taraflar o'rtasidagi nizoni tezda hal qilish va buzilgan huquqlarni tiklashga imkon beradi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksining 15¹-bobiga "Muzokara" va "Sudning yarashtiruv" nomli moddalarni kiritish taklif etiladi.

Ma'muriy sud ishlarini yuritishda mediatsiya tartib-taomillarini ommaviy-huquqiy nizolarni hal qilishda qo'shimcha usul sifatida qo'llash kelisha olmayotgan taraflarning nizolarni muayyan shartlar asosida hal qilishlariga asos bo'ladi va bu usul nizolarni hal qilishning yana bir yechimi bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi 126¹-moddasi 2-qismiga "maxfiylik" so'zini qo'shish orqali jumlaning "Taraflarning kelishuvi ixtiyoriylik, hamkorlik, maxfiylik va teng huquqlilik prinsiplari asosida amalga oshiriladi" deb o'zgartirish taklif etiladi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksini "Kelishuv bitimini o'zgartirish va bekor qilish" nomli yangi modda bilan to'ldirish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi

126³-moddasini "Agar taraflardan biri keli-shuv bitimi doirasida o'ziga yuklatilgan maj-buriyatni bajarmasa, ikkinchi taraf o'zining manfaatlarini himoya qilish yuzasidan sudga murojaat qilishga haqli" normasi aks etgan yangi 9-qism bilan to'ldirish maqsadga mu-vofiq.

REFERENCES

1. Isayenkova O.V. Tsivilisticheskiy protsess v Rossii – osnovnyye tendentsii [The civil process in Russia – the main trends]. *Bulletin of TSU*, 2016, no. 1 (5), p. 5.
2. Kushnareva L.V. Ponyatiye i istoriya stanovleniya instituta mediatsii [The concept and history of the formation of the institute of mediation]. *Actual Problems of Civil Justice. Proceedings of the interuniversity scientific-practical conference*. 2017, pp. 292–298.
3. Wikipedia. Available at: <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9C%D0%B5%D0%B4%D0%B8%D0%B0%D1%86%D0%B8%D1%8F>
4. Schmidt K.H. Mediation in administrative proceedings in Germany. *European Journal of Law and Economics*, 2018, no. 46 (2), pp. 259–276.
5. Pieron J. The use of mediation in French administrative proceedings. *Journal of Conflict Resolution*, 2019, no. 63 (5), pp. 1215–1236.
6. Corporan D. Mediation in administrative proceedings in the United Kingdom. *Journal of Dispute Resolution*, 2017, no. (2), pp. 1–17.
7. Bernstein D. Mediation in administrative proceedings in the United States. *Journal of Dispute Resolution*, 2016, no. 1, pp. 1–16.
8. Senen F.K. Sudebnoye primireniye i mediatsiya kak mekhanizmy mirnogo uregulirovaniya sporov v sovremennom grazhdanskom protsesse: obshhiye i otlichitel'nyye cherty [Judicial reconciliation and mediation as mechanisms of peaceful settlement of disputes in modern civil procedure: common and distinctive features]. *Bulletin of VSU*, 2017, pp. 109–114.
9. Bogatina Yu.G. Al'ternativnyye sposoby razresheniya sporov [Alternative ways of dispute resolution]. *Arbitration Practice*, 2006, no. 6, p. 24.
10. Bagayev S.V. K voprosu o ponyatii i osobennostyakh mediatsii [On the question of the concept and features of mediation]. *Intellectual Potential of the 21st Century: Stages of Development*, 2015, no. 27, pp. 254–260.
11. Korshunov N.A., Korshunova O.N. Mediatsiya v Rossii: problemy i perspektivy [Mediation in Russia: problems and prospects]. *Journal of Russian Law*, 2018, no. 1, pp. 107–117.
12. Benua M.Kh., Kharitonova D.A. Mediatsiya v administrativnykh sporakh: preimushhestva i ogranicheniya [Mediation in administrative disputes: advantages and limitations]. *Bulletin of the Saratov State Law Academy*, 2018, no. 4, pp. 59–63.
13. Sarkisyan V.G. Mediatsiya v administrativnom sudoproizvodstve [Mediation in administrative proceedings]. *Innovative Aspects of the Development of Science and Technology*, 2021, no. 4. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/mediatsiya-v-administrativnom-sudoproizvodstve>
14. Bepalov Y.F. Code of Administrative Procedure of the Russian Federation: article-by-article scientific and practical commentary. Moscow, 2020, pp. 317–320.
15. Balashov A.N. Rol' suda v primirenii storon v administrativnom sudoproizvodstve [The role of the court in the reconciliation of the parties in administrative proceedings]. *Bulletin of VSU*, 2019, no. 2, pp. 178–180.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.4./OTKY8177>
UDC: 378.3(045)(575.1)

OLIV TA'LIMNI MOLIALASHTIRISH: QIYOSIY TAHLIL

G'oziev Kozimbek Javlonbekovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ma'muriy va moliya huquqi kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0000-0002-8093-7332

e-mail: goziev.kozimbek@tsul.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'limni moliyalashtirishda xayriya fondlarini tashkil etish va boshqarishning mazmun-mohiyati AQSh, Angliya va boshqa mamlakatlar misolida yoritilgan hamda O'zbekistondagi holat tahlil qilingan. Mavjud milliy qonunchilikni tahlil etish asnosida oliy o'quv yurtlarini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Sohaga keng avtonomiya va erkinlik berish masalasiga alohida to'xtalib o'tilgan. Shu bilan birga, oliy ta'limni moliyalashtirish asoslarini bugungi kun talablariga moslashtirish, xorijiy tajriba asosida fondlar tashkil etish masalasi ko'tarilgan hamda umumiylik, o'xshashlik va o'ziga xosliklar, qiyoslash usullaridan foydalangan holda o'rganilgan. Tegishli xulosalar chiqarilib, kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlari yo'nalishlari haqida taklif va tavsiyalar berilgan. Oliy ta'lim tashkilotlarining moliyaviy mustaqillik borasidagi muammolarini bartaraf etishning zamonaviy yechimlaridan biri sifatida chet el davlatlarining universitetlari amaliyotini qo'llagan holda xayriya (endowment) fondlarini tashkil qilish qayd etilgan. Muallif tomonidan xayriya fondlarining tadrijiy rivojlanish tarixi, ularning G'arb va Sharq mamlakatlarida shakllanishi, bugungi kundagi holati, ta'lim samaradorligini oshirish uchun oliy o'quv yurtlari huzurida mazkur toifadagi ta'lim xayriya fondlarini tashkil qilishning dolzarbligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: endowment, moliya, aktiv, vaqf, oliy ta'lim tashkiloti, xayriya fondi.

ФИНАНСИРОВАНИЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Гозиев Козимбек Жавлонбекович,

преподаватель кафедры «Административное и финансовое право»

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье освещается сущность создания и управления благотворительными фондами в финансировании образования на примере США, Англии и других стран, а также анализируется ситуация в Узбекистане. В ходе анализа действующего национального законодательства выявлены особенности управления высшими учебными заведениями. Были рассмотрены вопросы предоставления данной сфере широкой автономии и свободы. Вместе с тем на основании изучения зарубежного опыта были выдвинуты предложения о приведении в соответствие с современными требованиями основ финансирования высшего образования – использованию не только традиционных источников финансирования, но и о создании фондов. Благодаря методам общности, сходства, выявления особенностей и сравнения были сделаны соответствующие выводы, а также разработаны предложения и рекомендации, которые следует применять в будущих научно-исследовательских работах. В качестве одного из современных средств устранения проблем, связанных с финансовой независимостью высших образовательных учреждений, с учетом опыта университетов зарубежных стран было предложено создать благотворительные

фонды (Endowment). Автором раскрыта история развития благотворительных фондов в западных и восточных странах, их современное положение, актуальность организации благотворительных фондов для высших учебных заведений с целью повышения привлекательности образования.

Ключевые слова: endowment, финансы, актив, вакф, высшее образовательное учреждение, благотворительный фонд.

FINANCING OF HIGHER EDUCATION: A COMPARATIVE ANALYSIS

Goziev Kozimbek Javlonbekovich,

Tashkent State University of Law,
Lecturer of the Department of Administrative and Financial Law

Abstract. The article provides a comparative analysis of public relations related to the organization and regulation of the activities of charitable foundations in the USA, England, and Uzbekistan in educational institutions. Based on the analysis of national legislation, the features of the management of higher educational institutions are disclosed. The issues of granting broad autonomy and freedom in this area were considered. At the same time, proposals were put forward to bring the foundations of higher education financing into line with modern requirements, not only traditional sources of financing, but also the creation of funds based on the study of foreign experience using methods of generality, similarity, identification of features, and comparison. Appropriate conclusions were drawn, as well as suggestions and recommendations that should be applied in the future in scientific research works. As one of the modern means of eliminating problems related to the financial independence of higher educational institutions, applying the experience of universities in foreign countries was proposed to create charitable foundations (Endowment). The author reveals the history of the development of charitable foundations in Western and Eastern countries, their current situation, and the relevance of the organization of charitable foundations for higher education institutions in order to increase the attractiveness of education.

Keywords: endowment, finance, asset, waqf, higher educational institution, charity fund.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim sohasida, xususan, oliy ta'limda olib borilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, davlat oliy ta'lim tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalalarini mustaqil hal etish, ilmiy tadqiqot faoliyatiga mablag'lar jalb etish ilmiy faoliyat samaradorligi hamda pedagog xodimlarning ijtimoiy va moddiy ta'minotini yaxshilashga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-61-sonli qarorida 36 ta oliy ta'lim tashkilotiga moliyaviy mustaqillik berilib, ularga moliyaviy

sohadagi bir qator masalalarni o'zlari tomonidan hal etish imkoniyati taqdim etilgan.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan murojaatnomasida 2023-yilning "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilinishi bu sohadagi muammolarni bartaraf etish bo'yicha yangi yo'nalishlarni tadqiq etishni taqozo etadi.

Bugungi kunda xorijiy davlatlar ta'lim sohasi amaliyotida oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishning asosiy yo'nalishlardan biri xayriya (endowment) fondlari tashkil etish va uni samarali boshqarishdir.

Ta'lim tashkilotlari o'z moliyaviy mustaqilligini ta'minlash uchun talabalar to-

monidan to'lanadigan to'lov-kontrakt tizimidan tashqari noan'anaviy moliyaviy manbalar jalb etish yo'llarini izlashi davr talabidir.

O'zbekistonda mazkur soha o'rganilganligi, xayriya fondlari mablag'larini sarflash va boshqarish yo'nalishida ilmiy ishlar mavjud emasligi ta'lim tashkilotlarining moliyaviy barqarorligiga qisman putur yetkazadi. Mazkur maqolada xayriya fondlarining ahamiyati va ularni samarali tashkil etish bilan birga uni boshqarish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili

Moliyalashtirishning noan'anaviy shakllarining ahamiyati va ularni boshqarish yuzasidan asosan xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar olib borilib, xulosalar taqdim etilgan. Jumladan, A. Yusuf [1, 232-b.], A. Slamet [2, 8-b.] tomonidan islom ta'limotida xayr-ehson va vaqfning ajratilishi, Alla Stepanova [3, 369-b.] tomonidan endowment fondlari mablag'lari universitet tadqiqotlari uchun asosiy manba ekanligi tadqiq etilgan. Robert Louie [4, 121-b.] esa oliy ta'lim tashkilotlarida mavjud xayriya fondlarini boshqarish, tashkil etish va mablag'larni sarflash yuzasidan o'z tadqiqotlarini tizimli tarzda birlashtirib, alohida dissertatsiya himoya qilgan hamda o'z ilmiy ishida 56 ta universitet, 293 ta kollej va oliy maktablarda fond mablag'lari sarflanishini o'rgangan.

Material va metodlar

Tadqiqot doirasida barcha huquqiy fanlar uchun muhim bo'lgan ilmiylik, xolislik, tizimlilik, determenizm prinsiplari, xronologik uslub, qiyosiy tahlil, formal-yuridik, induksiya, deduksiya va boshqa ilmiy metodlar qo'llandi.

Tadqiqot natijalari

Maqola mazmunidan kelib chiqqan holda asosiy e'tiborni ta'lim tizimini moliyalashtirishni nafaqat davlat budjeti, balki xayriya fondlari (endowment), nodavlat tashkilotlar, jismoniy va yuridik shaxslarning xayri-

ya mablag'lari hisobiga ham amalga oshirish asoslariga qaratamiz.

Ta'lim sohasidagi xayriya fondi yoki endowment – bu ta'lim boshqaruviga managementni kengroq joriy etish, ta'limni biznesga aylantirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, bank depozitlaridagi qo'yilmalar, ko'chmas mulk va boshqa investitsiyaviy pul mablag'larining donorlar tomonidan ta'lim tashkilotiga beg'araz va qaytarmaslik sharti bilan yo'naltirilgan pul mablag'lari hisoblanadi.

Bugungi kunda mazkur toifadagi ta'lim fondlari oliy ta'lim tashkilotlarining o'z moddiy-texnik bazasini shakllantirish va yaxshilash, professor-o'qituvchi va talabalarning ehtiyojini qondirish hamda dunyo tan olgan Top-1000 talik ta'lim tashkilotlari ro'yxatiga kirishi uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda xayriya fondlari yaxshi rivojlanmagan va to'g'ri tashkil etilmagan. Hozirda mavjud bo'lgan 200 dan ortiq ta'lim tashkilotining deyarli 90 foizidan ortiq qismida mazkur turdagi fondlar mavjud emas. Sohada bilim va ko'nikma, uni qanday boshqarish va rivojlantirish salohiyati u darajada yaxshi rivojlanmaganligini ko'rish mumkin.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-apreldagi "Ta'lim muassasalarida uni bitirib, yuksak yutuqlarga erishgan nomdor shaxslarning homiylik xayriya mablag'lari hisobiga shakllantiriladigan bitiruvchilar jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi 321-sonli qarorida oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan xayriya fondlarining tashkil etilishi, vazifalari va jamg'arma mablag'larini shakllantirish tartibi ko'rsatilgan.

Mazkur qarorda jamg'arma mablag'lari ta'lim muassasalarini bitirib, yuksak yutuqlarga erishgan nomdor bitiruvchilarning homiylik xayriya mablag'lari va vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larining bank depozit hisobvaraqlariga joylashtirilishidan olingan foiz daromadlaridan shakllanishi ko'zda tutilgan.

Xayriya fondlari mablag'lari evaziga ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solish,

eng avvalo, uning moliyaviy mustaqilligini ta'minlaydi.

Buni bir qator misollar asosida ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Toshkent davlat yuridik universitetida xayriya-endowment fondi 2021-yil 15-mart kuni tashkil etilgan bo'lib, 2021-yilda xayriyalar 105 000 000 so'm, fondni shakllantirish uchun 150 000 000 so'm, sarflangan mablag'lar 7 223 414,8 so'm, depozitga 230 000 000 so'm, qisqa muddatli zaym 150 000 000 so'm, 2022-yilda esa xayriyalar 385 970 940,5 so'm, fondni shakllantirish uchun 150 000 000 so'm, sarflangan mablag'lar 215 055 770,61 so'm, depozitga 300 000 000 so'm, qisqa muddatli zaym 150 000 000 so'mni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun M. Narikbayev nomi-dagi Qozog'iston davlat yuridik universitetida xayriya fondi 2016-yilda tashkil etilgan bo'lib, 2017-yilda xayriyalar 44 119 000 tenge, 2018-yilda 394 357 780 tenge, 2019-yilda 284 923 781 tenge va 2020-yilda (2021–2022-yillar hisoboti e'lon qilinmagan) 400 282 600 tengeni tashkil etgan.

Albatta, yuqorida qayd etilgan ikkita oliygohning xayriya fondlariga kelib tushgan pul mablag'lari milliy valyutada qayd etilgan bo'lsa-da, Qozog'iston yuridik universitetiga kelib tushgan mablag'larning asosiy qismi oliygohni tugatib ketgan bitiruvchilar tomonidan yo'naltirilgan. Bu yildan yilga oshib, oliy o'quv yurtining moliyaviy mustaqillik borasidagi faoliyati rivojlanishidan darak beradi.

Bugungi kunda ta'lim xizmatlari bozorini hisobga olib, shuni aytish mumkinki, innovatsion rivojlanish, integratsiya, ta'lim sifatini kuchaytirish jarayonlari tufayli yuzaga kelgan raqobatning yuqori darajasini moliyaviy barqarorlik orqali ta'minlash, shuningdek, xayriya fondlari salohiyatini oshirish va ta'lim tashkilotlariga milliy va xalqaro ta'lim xizmatlari bozorida raqobatlashish imkonini berish uchun turli islohotlar zarur.

Mazkur sohani tadqiq etish jarayonida biz xayriya fondlarining shakllanish tarixi, rivojlanish bosqichlari, uni boshqarish va xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Dunyo tarixida birinchi ta'lim tashkilotiga xayriya 176-yilda Rim imperatori Mark Avreliy tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, imperator katta shaharlardagi o'quv yurtlarida Aristotel, Platon va boshqa antik davr olimlarining ilmiy merosini o'rganish uchun kafedralar tashkil etgan va moddiy-texnik baza bilan ta'minlash uchun har yili o'z hisobidan mablag' ajratgan [5, 241-b.].

Mazkur xayriya ushbu fondlarni tashkil qilish uchun ilk tamal toshi hisoblanib, keyinchalik davlat amaldorlari tomonidan ham pul mablag'larining ehson qilinishiga turtki bo'lgan.

Yevropa davlatlarida o'rta va undan oldingi davrlarda oliy o'quv yurtlari asosan cherkov huzurida tashkil etilgan. Shu sababli zodagonlar bu ta'lim tashkilotlarini cherkovga qilingan pul va mol-mulk ko'rinishidagi hadyalar orqali moliyalashtirgan. Angliyada qirollik oilasiga qarashli oliygohlar qirollik shaxsiy mablag'lari hisobidan faoliyat yuritgan. Masalan, Angliya qiroli Genrix VIII ning onasi Margaret Beaufort [6, 9-b.] qirollik o'quv yurtiga har yili o'z mablag'lari hisobidan xayriya qilgan va buning uchun unga faxriy professor unvoni berilgan.

Sharq mamlakatlari va arab dunyosida islom dini vujudga kelganidan so'ng ta'lim, din, siyosat, fiqhshunoslik hamda shariat ahkomlarini o'rganish uchun markazlar tashkil etilgan va ularni moliyalashtirishga alohida e'tibor berilgan.

Islom olamida ta'limni davlatdan tashqari moliyalashtirishda vaqf keng qo'llanib, ta'limdagi vaqfni amalga oshirish payg'ambar Muhammad Mustafo (s.a.v.) davridan boshlangan. Payg'ambarimiz Madina shahriga kelib, Qubo masjidini qurdirgan hamda u yerda islom ta'limotini o'rganish markazini tashkil ettirib, mol-mulkni xatlab berganlar [7, 41-b.].

Universitetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda islom mamlakatlarida ta'lim uchun vaqf ishlab chiqilgan. Bunga oliy ta'lim millat taraqqiyotida muhim rol o'ynashi, oliy o'quv yurtlarining uzluksiz va samarali ishlashini ta'minlash uchun turli muhim omillar hamda ta'lim muassasalari o'z faoliyatini amalga oshirishida doimiy va barqaror mablag'lar oqimining mavjudligi asosiy sababdir.

Shu maqsadda ta'lim uchun vaqf g'oyasi paydo bo'ldi. Ushbu konsepsiyani qo'llashda vaqf mablag'larini ta'lim sohasiga yo'naltirish mahalliy va xalqaro talabalar uchun bepul ta'lim kabi ko'plab imtiyozlar keltirib chiqarishi hisobga olinadi [8, 7-b.].

Dastlabki davrda ta'limdagi vaqf amaliyoti faqat yer va binolar kabi asosiy vositalar bilan cheklanganligi sababli jamiyat o'z aktivlarini madrasalar yoki maktab ta'limining boshqa shakllarini rivojlantirishga bag'ishlagan. Biroq aholining tez o'sishi, yer va binolar soni cheklanganligi, bundan tashqari, asosiy vositalar vaqf hisobiga tashkil etilganda, operatsion moliyalashtirish bilan bog'liq muammolar vujudga kelganligi sababli hozirda ta'lim sohasini rivojlantirish uchun naqd pul shaklida vaqf amaliyoti ishlab chiqilgan [9, 47-b.].

Hozirda musulmon mamlakatlarining ta'lim tashkilotlari xayriya fondlariga natira vaqf ko'rinishidagi mol-mulk o'rniga pul mablag'lari yo'naltirilmoqda. Sababi bugungi kunda tahsil oluvchilarning o'rta asr davrlariga o'xshab madrasalar yerlarida ishlashi yoki mulk egalari yerlarni ijaraga berish orqali foydani kutishlari uncha samara bermaydi. Naqd pul ko'rinishida xayriya fondlariga o'tkazilgan pul mablag'larini tasarruf etish, ilmiy-tadqiqot ishlanmalariga sarflash, uning natijalarini tijoratlash tirish muhim va samaraliroqdir. Zamonaviy sharoitlarda universitet faoliyatini tijoratlash tirish bu ta'limni rivojlantirish kaliti hamdir.

Ta'lim sohasidagi xayriya fondlari Sharq davlatlarida sifatli ta'lim tizimi va sivilizatsiya rivojiga katta hissa qo'shgan. Ayniqsa, tarixdagi Abbosiylar, Fotimiylar, Aybiylar, Mamluklar va Usmoniylar davrida "Quttob" (boshlang'ich maktab), madrasa (kollej) va Baytul Hikma (oliy ta'lim) kabi ta'lim muassasalarining barqaror rivojlanishiga turtki bo'lgan [10, 554-b.]. Sababi ajratilgan mablag'lar u yerda tahsil oluvchi talabalar va mudarrislarining shaxsiy ehtiyoji va bilim olishi uchun sarflangan hamda davlatning aralashuvi cheklangan.

Temuriylar davrida ham ilm-fan yuksak rivoj topdi. A. Temur, M. Ulug'bek va A. Navoiylar tomonidan madrasalar tashkil etilib, ularni ta'minlash va ilm-u toliblarga nafaqa hamda mudarrislariga qo'shimcha maoshlar uchun yer va mulklar xayr-ehson sifatida ajratib berilgan.

Zamonaviy dunyoda ta'lim tizimi taraqqiy etgan AQSh va Buyuk Britaniya kabi davlatlarda endowment-investitsiya fondi orqali mablag' jalb etish ta'lim tashkilotlarining moliyaviy mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

AQShdagi Harvard universiteti xayriya fondi qadimiy fondlardan biri bo'lib, dastlabki xayriyani 1649-yilda o'z bitiruvchilaridan yer maydoni ko'rinishida olgan. Universitetning 2022-yilgi moliyaviy hisobotida ushbu tashkilotning fond mablag'lari miqdori 61,2 mlrd dollarni tashkil etgan.

Mazkur mablag'lar Harvard universitetining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, muassasadagi fakultet, kafedra va shaxsiy tarkibning xarajatlari (oylikdan tashqari), texnik va ko'makchi xodim sifatida ishlayotgan talabalarning oylik maoshlari va boshqa faoliyatlarga sarflanadi.

Quyida keltirilgan jadvaldan ko'rish mumkinki, birgina Harvard universitetiga xayriya mablag'laridan kelib tushgan pul mablag'i ta'lim tashkilotining jami ulushida 36 foizni tashkil etadi.

The University's net assets consisted of the following as of June 30, 2022 and 2021 (in thousands of dollars)

	2022			2021		
	Without donor restrictions	With donor restrictions	Total	Without donor restrictions	With donor restrictions	Total
NATURE OF SPECIFIC NET ASSETS						
Perpetual endowment funds		\$ 9,057,578	\$ 9,057,578		\$ 8,562,120	\$ 8,562,120
Endowment funds and appreciation subject to distribution policy and appropriation		30,925,321	30,925,321		33,434,803	33,434,803
Endowment funds without restriction, board designated and subject to distribution policy	\$ 9,057,969		9,057,969	\$ 9,423,055		9,423,055
Pledge balances		1,433,186	1,433,186		1,265,091	1,265,091
Interests in trusts held by others		403,626	403,626		480,684	480,684
TOTAL ENDOWMENT	9,057,969	41,819,711	50,877,680	9,423,055	43,742,698	53,165,753
Operating	6,519,858		6,519,858	6,588,391		6,588,391
Unexpended contributions and endowment distributions		3,048,468	3,048,468		2,747,969	2,747,969
Student loan funds		100,148	100,148		99,631	99,631
TOTAL GENERAL OPERATING ACCOUNT	6,519,858	3,148,616	9,668,474	6,588,391	2,847,600	9,435,991
Split interest agreements (Note 9)		700,540	700,540		773,330	773,330
TOTAL NET ASSETS	\$ 15,577,827	\$ 45,668,867	\$ 61,246,694	\$ 16,011,446	\$ 47,363,628	\$ 63,375,074

Oliy ta'lim tashkilotlari shu kabi fondlar tashkil qilish uchun, birinchi navbatda, malakali top-menejerlar jalb qilishi va natijada yillik daromadning 50-60 foizini belgilab olishi mumkin. Endowment fondlarini tashkil qilish ta'lim sifatini oshirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bu ayrim hollarda bitiruvchilar faoliyatining keyingi muvaffaqiyati bilan belgilanadi. Ma'lum vaqt o'tganidan so'ng katta yutuqlarga erishgan bitiruvchilar o'z mablag'laridan ta'lim olgan o'quv yurtlariga xayriya qilib, fond mablag'lari oshishi va ta'lim rivojiga hissa qo'shadilar.

AQShdagi aksariyat universitetlar, birinchi navbatda, xususiy bo'lgani uchun ular tomonidan xayriya fondlarini tashkil qilish va tijoratlashtirish asosiy o'rinda turadi. Maz-

kur toifadagi fondlarni boshqarish uchun alohida top-menejerlar jalb qilinadi. Universitet qoshidagi xayriya fondlarida yuzdan ortiq malakali mutaxassislar xizmat qilib, ular mablag'larni ilmiy tadqiqot ishlariga sarf etadi hamda olingan ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etish uchun kompaniyalarni juda katta miqdordagi mablag' evaziga tijoratlashtiradi va foyda oladi.

Bundan tashqari, xayriya fondlariga kelib tushgan mablag'lar hisobidan universitetda saylangan kuzatuv kengashlari tomonidan har bir fakultet va kafedralar kesimida alohida sarf-xarajatlar, kafedrada faoliyat yurituvchi professor-o'qituvchilarning har biri uchun ham pul mablag'lari taqsimlab boriladi. E'tiborlisi shundaki, bu

mablag'lar budjetdan emas, balki xayriya fondidan sarf etiladi.

Taqsimlash sxemasi mamlakat va xorijda tahsil olayotgan talabalar uchun stipendiyalar, yordamga muhtojlarga ta'lim kreditlari berish va o'qituvchilarning xorijiy mamlakatlarda amaliyot o'tashi uchun ham amalga oshirilishi mumkin.

Xo'sh, bu mablag'lar qayerdan kelib tushadi? Avvalo, universitetni bitirib ketgan va yaxshi mavqega ega bo'lgan sobiq talabalar tomonidan, bundan tashqari, tashkilot katta obro'-e'tiborga ega bo'lgan shaxslarga universitetning faxriy professor unvonini berish (sotish) orqali kelib tushgan pul tushumlari, o'z logotipi tushirilgan turli xil kiyim-kechak va esdalik sovg'alarini sotishdan kelib tushgan mablag'lar hamda yuridik va jismoniy shaxslarning xayriya pullari hisobidan shakllantiriladi.

Buning ijobiy tomoni shundaki, bu mablag'lar asosan xayriya maqsadlariga yo'naltiriladi va turli soliqlardan ozod etilgan bo'lib, oliy o'quv yurtlarining barqaror moliyaviy mustaqilligini ta'minlaydi.

Endowment-investitsiya fondi – universitetlarning davlatdan katta mustaqillik va avtonomiya yo'lidan borishga harakat qilishidir. Mamlakat iqtisodiyotining kapitallashuvi universitetni yangi daromad manbalarini izlashga undaydi. Ba'zi ekspertlar fond mablag'larini davlat xarajatlari o'sishi va ijtimoiy sohani tijoratlashtirish bilan bog'liq bo'lmagan ijtimoiy investitsiyalar institutlari deb baholashadi [11, 222-b.].

AQSh singari Angliyada ham ta'limni moliyalashtirishda xayriya fondlariga alohida ahamiyat beriladi. Angliyadagi ta'lim endowment fondlari oila daromadi va ta'lim o'rtasidagi bog'liqlikni targ'ib qilib, ingliz oilalaridagi uch yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalarning asosiy hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish, kelajakdagi karyera ta'limga bog'liqligi, yoshlarni mehnat va keyingi oliy ta'limga tayyorlash uchun targ'ibotlar o'tkazib, o'z universitetlariga mablag'lar jalb etadi.

Bundan tashqari, Angliyadagi ta'lim fondlari nodavlat tashkilotlar sifatida tashkil etilib, bugungi kunda mazkur sohani rivojlantirish uchun 32 ta ilmiy muassasa faoliyati yo'lga qo'yilgan. Ularning asosiy vazifasi ichki talabni qondirish bilan birga, butun dunyo bo'ylab o'z ta'lim tizimi afzalliklarini yoyish, xalqaro darajadagi top oliy o'quv yurtlari mavjud ekanligini ko'rsatishdir [12, 14-b.].

Buyuk Britaniyada ta'lim tashkilotlariga davlat tomonidan ham xayriya mablag'lari ajratiladi. Bunga javob sifatida oliygohlar hukumat yoki mudofaa qobiliyatini yaxshilashga xizmat qiladigan ishlanmalar yaratishi zarur. Bir so'z bilan aytganda, bu ajratilgan mablag'lardan davlat ham, ta'lim tashkiloti ham manfaatdor bo'ladi.

Birlashgan qirollikdagi ta'lim tashkilotlari xayriya fondlari mablag'larini tasarruf etishda nafaqat rahbariyat, balki oddiy o'qituvchidan tortib professorning fikri ham alohida inobatga olinadi. Har yili kafedralarda faoliyat yurituvchi olimlarning konferensiya va ilmiy seminar safarlari uchun mablag' ajratish yuzasidan takliflari ko'rib chiqiladi hamda zarur miqdordagi pul bilan ta'minlanadi.

Dunyoda oliy ta'lim tashkilotlariga jismoniy va yuridik shaxslar bilan birga davlat tomonidan ham keng xayriya mablag'lari yo'naltiriladigan davlatlardan biri Isroildir.

XX asr boshlarida Quddusda 64 ta maktab faoliyat yuritgan. Ularning barchasida kitoblar, kutubxonalar, o'qituvchilarning ish haqi va talabalar nafaqalarini to'lash uchun ishlatiladigan mablag'lar xayriya fondlari hisobidan moliyalashtirilgan [13, 44-b.].

Isroil universitetlari xayriya-endowment fondlarini yaxshi yo'lga qo'ygan bo'lib, xayriya mablag'lari yordamida amalga oshirilgan ilmiy ishlanmalar va ular faoliyatini tijoratlashtirish borasida katta tajribaga ega. Isroildagi universitetlarda fond mablag'lari hisobiga keng ko'lamli tadqiqotlar olib boriladi.

Isroilda dunyoda birinchi marta fond mablag'lari hisobiga yuqori texnologiyali sanoat loyihalarining universitet dasturlari tuzilgan. Bundan tashqari, universitetlar (ko'pincha mahalliy va xorijiy kompaniyalar bilan birga) o'z mahsulotlarini tijorat bilan savdo qiladigan texnik ishlanmalari asosida sanoat shu'balarini tashkil etgan [14, 948-b.].

Umuman olganda, xayriya-endowment fondlarini tashkil etish va xayriya mablag'larini yig'ish aholi turmush tarzi, madaniyati va ta'limga qanchalik e'tibor berilishiga ham bog'liq.

Dunyodagi iqtisodiy salohiyati juda yuqori bo'lgan XXRda ham xayriya fondlari mavjud bo'lsa-da, asosan davlat tomonidan rejali iqtisodiyot orqali boshqarish tartibi mavjudligi sababli G'arb davlatlari kabi keng qo'llanmaydi.

Xitoyda ta'limga xayriya kiritishda, asosan katta shaharlarning o'rni yuqori. Yirik shaharlarda yashovchi aholi tomonidan ta'limni rivojlantirish uchun fondlarga mablag' ajratib turiladi. Universitetlar tomonidan targ'ibot ishlari ham asosan shaharlarda olib boriladi.

Bunga Xitoy Xalq Respublikasida sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi zonalar bir-biridan ajratilganligi, qishloq joylarda yashovchi aholi tomonidan oliy ma'lumotga bo'lgan talab u darajada yuqori emasligi asosiy sababdir. Faqatgina kundalik ishlar bilan u hududdan boshqa hududga ko'chib yurishi bois ularning oliy ta'limga bo'lgan munosabati va ta'limga xayriya darajasi past [15, 7-b.].

Biroq shunday bo'lsa-da, Xitoyda xayriya fondlari orqali ta'limni moliyalashtirishda ham o'ziga xos xususiyat bilan yondashiladi. Bu yerda universitetlar va ilmiy tadqiqot markazlarining xayriya fondlariga davlat tomonidan maqsadli mablag'lar ajratiladi va uning natijalari davlat manfaatlariga uchun tijoratlashtiriladi.

Umuman olganda, rivojlangan mamlakatlardagi aksariyat universitetlar xususiy bo'l-

ganligi sababli xayriya-endowment fondlariga mablag' jalb qilish va uni samarali boshqarish, avvalo, tashkilotlarning xalqaro reytingi va moliyaviy xavfsizligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, 2008-yildagi jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi va 2019-yildagi Covid-19 pandemiya davrida xayriya fondlarining mablag'larini universitetlarning moliyaviy ta'minlanishida ijobiy samara bergan.

2009-yildagi moliyaviy hisobotlarga ko'ra, 2008-yildagi jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi davrida universitetlarning moliyaviy endowment fondlari 2008-yilning 1-iyulidan 2008-yilning 31-dekabrigacha bo'lgan davrda o'rtacha o'z aktivlarining 24 foizdan ortiq bozor qiymatini yo'qotgan bo'lsa-da, aksariyat ta'lim tashkilotlarining sarf-xarajatlari fond mablag'larini hisobidan ta'minlangan (YeL universiteti budjetining 42 foizi xayriya mablag'laridan shakllantirilgan) [16, 117-b.].

So'nggi 15 yil ichida xayriya-endowment fondlarining mablag'larini universitetlar uchun muhim moliyalash manbasiga aylandi, chunki ularning mablag'larini universitet xarajatlari nisbatan tez sur'atda o'sishi bilan foydali hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuqorida qayd etilgan xorijiy mamlakatlarning oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishdagi xayriya-endowment fondlarining ahamiyati, samarali boshqarish tizimining qiyosiy tahlili asosida bir qator ijobiy jihatlarni ko'rsatib o'tish lozim.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda xayriya-endowment fondlarining uch turi qo'llanadi: *birinchisi*, cheklanmagan endowment – xayriya olgan tashkilotning xohishiga ko'ra sarflanishi, saqlanishi, investitsiya qilinishi va taqsimlanishi mumkin bo'lgan aktiv; *ikkinchisi*, muddatli, odatda ma'lum bir vaqt yoki ma'lum bir hodisadan so'ng sarflanishi mumkin bo'lgan aktiv; *uchinchisi*, kvazi xayriya – shaxs yoki muassasa tomonidan fondning ma'lum bir maqsadga xizmat qilishi

uchun berilgan xayr-ehson. Bunda mablag' donor tomonidan aynan ko'rsatilgan yo'nalish bo'yicha sarflanadi yoki taqsimlanadi.

Xayriya-endowment fondlari odatda universitetlar huzurida alohida yuridik shaxs maqomida tashkil etilishiga qaramasdan, ularning vasiylik va boshqaruv kengashlari ta'lim tashkiloti tomonidan tayinlanadi. Mazkur kengashlarda jamoat arboblari va vakillar bilan bir qatorda ta'lim tashkilotida yuqori malakaga ega bo'lgan o'qituvchilar ham qatnashadi.

Jamg'arma mablag'larini boshqarishda professional darajadagi menejerlar va xodimlar tarkibi tanlab olinib, ularga boshqaruv topshiriladi, biroq universitet xayriya to'lovlari stavkalari ustidan bevosita nazorat saqlab qolinadi.

Xayriya fondlari mablag'larini oshirish nazariyasini ishlab chiqish doimiy ravishda fondlarga pul oqimini ko'paytirish imkonini beradi. Bunday holatda ta'lim tashkilotini bitirib ketgan sobiq talabalar bilan muntazam aloqalar o'rnatish, hayotda yuqori marralarga erishgan insonlar bilan uchrashuvlar tashkil etish, ularning qilgan xayriya mablag'lari evaziga ramziy ma'noda universitetga qarashli biror binoga ularning nomini berish va abadiylashtirish evaziga yirik pul mablag'lari jalb qilish lozim.

Shuningdek, nafaqat jismoniy va yuridik shaxslar, balki davlat muassasalari ham ta'lim tashkilotlarining xayriya fondlariga o'z vazifa va funksiyalarini bajarish uchun shartlarsiz tadqiqot grantlari ko'rinishida pul mablag'lari yo'naltirishlari zarur. Bu nanotexnologiyalar yaratish, texnologiyani bozorga o'tkazish qobiliyati va siyosatni ishlab chiqish yoki jamoat manfaati uchun bilimlarni amaliyotga keng joriy etish samaradorligini oshirishga hissa qo'shadi.

Xulosalar

Shu tariqa ta'lim tashkilotlarining moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, moliyaviy faoliyatini ta'minlashda faqatgina talabalar tomonidan to'lanadigan to'lov-kontrakt

tizimiga emas, xayriya mablag'lari, o'z ilmiy va ijodiy izlanishlarini tijoratlashtirish, xizmat ko'rsatish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda buning natijasida raqobatbardosh moliya tizimi va xalqaro darajadagi oliy o'quv yurti maqomini olish uchun imkon yaratiladi.

Buning uchun, albatta, mavjud qonunchilik va ichki tartib-qoidalarni qayta ko'rib chiqish zarur. Birinchidan, O'zbekiston Respublikasining "Metsenatlik to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasidagi qo'llanish sohasi doirasi tarkibiga ta'lim tashkilotlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kiritish lozim. Sababi ushbu qonunda madaniyat va san'atni rivojlantirish bilan bog'liq boshqa faoliyat sohasida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan homiylik faoliyati, deb ko'rsatilganiga qaramay, ta'limni rivojlantirish uchun mablag' ajratish va homiylarga berilgan imtiyozlar ko'rsatilmagan.

Mazkur qonun normalarini konkretlashtirish homiylarning ta'lim tashkilotlari bilan uzviy aloqasini o'rnatish va imtiyozlarni qat'iy normalarda belgilash orqali qonun normalari ishlashi va ta'lim sohasiga foydani ham belgilaydi.

Ikkinchidan, Soliq kodeksida Prezident va hukumat qarori bilan yuridik shaxslar, maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga soliq imtiyozlari nazarda tutilgan bo'lib, ularning ta'lim tashkilotlari moliyaviy xayriya fondlariga mablag'lar yo'naltirishini (Sababi tadbirkorlik subyektlarini homiylikka majburan jalb qilish javobgarlik keltirib chiqaradi) ham hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, mamlakatdagi barcha oliy ta'lim tashkilotlarini bosqichma-bosqich xususilashtirish orqali ularning chinakam mustaqilligini ta'minlash mumkin. Bu bilan, birinchi navbatda, davlat ham, homiylar ham ta'limni qo'llab-quvvatlaydi, shuningdek, sifatli hamda barqaror ta'lim jarayoniga erishiladi.

REFERENCES

1. Aliyu Olugbenga Y., Nur Leyni N.P.J., Usman A.A. Bibliometric assessment of scholarly publications on wāqf (islamic endowment). *International Journal of Economics, Management and Accounting*, 2021, no. 1, pp. 224–241. Available at: <https://journals.iium.edu.my/enmjjournal/index.php/enmj/article/view/835/382>
2. Rusydiana A.S., Sukmana R., Laila N. Waqf on Education. A Bibliometric Review based on Scopus. *Library Philosophy and Practice*, 2021. Available at: <https://digitalcommons.unl.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=10234&context=libphilprac>
3. Stepanova A., Horbas' I., Derkach O., Ovcharenko T. Endowment as a Fundraising Tool of the Research University. *European Journal of Sustainable Development*, 2020, vol. 9, no. 2, pp. 366–374. DOI: 10.14207/ejsd.2020.v9n2p366
4. McElhaney R.L.S. The effects of higher education endowment management practices on endowment performance. PhD thesis. Missipi, 2010, p. 121.
5. Lynch J.P. Aristotle's school. A study of a Greek educational institution. USA, University of California Press Publ., 1972, 247 p.
6. Bruen R. A Brief History of The Lucasian Professorship of Mathematics at Cambridge University. London, MEI Publ., 1995, 244 p.
7. Asuhaimi F.A., Shafii Z., Ahmad N., Alias M.H. A study on the willingness of state Islamic religious councils to support Waqf development in higher education. *Journal of Muamalat and Islamic Finance Research*, 2017, vol. 14 (1), pp. 39–53.
8. Hazriah H., Ismail A. Determinants of higher education Islamic endowment (waqf) attributes among Muslims in Malaysia. *Journal of Islamic, Social, Economics and Development*, 2018, no. 3. Available at: <http://www.jised.com/PDF/JISED-2018-12-06-04.pdf>
9. Huq M.A., Khan F. The role of cash waqf in the development of Islamic higher education in Bangladesh. *Journal of Islamic Economics, Banking and Finance*, 2017, vol. 13 (4), pp. 45–65. DOI: 10.12816/0051001
10. Mujani W.K., Taib M.S.M., Rifin M.K.I., Khalid K.A.T. The history of the development of higher education waqf in Malaysia. *International Journal of Civil Engineering and Technology*, 2018, vol. 9 (3), pp. 549–557.
11. Kulpin S.V. Endowment-fondy vuzov: selesoobraznost, perspektivy, nailuchshiye praktiki. [Endowment funds of universities: best practices, feasibility and prospects]. *Strategies for the development of social communities, institutions and territories. Proceedings of the III International Scientific and Practical Conference*. Ekaterinburg, 2017, pp. 220–223.
12. Edovald T., Nevill C. Working Out What Works: The Case of the Education Endowment Foundation in England. *ECNU Review of Education*, 2020, vol. 4 (1), pp. 1–19. DOI: 10.1177/2096531120913039
13. Osmani N.M., Hoque M.N. Mobilizing funds for higher education through applying musharakah in waqf properties. *International Journal of Islamic Banking and Finance Research*, 2018, no. 2, pp. 39–50. Available at: <http://irep.iium.edu.my/68438/>
14. Adilova Z. Fan va ta'limni tijoratlashtirishning zamonaviy tendensiyalari va xorijiy tajriba [Modern trends of commercialization of science and education and foreign experience]. *New Uzbekistan: Socio-Philosophical, Economic-Political and Legal Issues of Sustainable Development*, 2022, vol. 2, no. 23, pp. 942–956. DOI: 10.24412/2181-1784-2022-23-942-957
15. Yang Y., Xu Y. Land endowment and education investment behavior of rural households: a field survey based on 887 administrative villages in 31 provinces of China. *Journal of Chinese Sociology*, 2019, no. 3, pp. 2–19. Available at: <https://link.springer.com/article/10.1186/s40711-019-0093-1>
16. Goetzmann W.N., Griswold J., Tseng Y.-F. (AYUNG). Educational Endowments in Crises. *The Journal of Portfolio Management*, 2010, no. 4, pp. 112–123. Available at: <https://jpm.pm-research.com/content/36/4/112.abstract>

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.4./XSRP3437>
UDC: 342.7(045)(575.1)

SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGI HUQUQINI TA'MINLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR TAHLILI

Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Konstitutsiyaviy huquq kafedrası katta o'qituvchisi
ORCID: 0000-0002-3034-7334
e-mail: fmadiyev92@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning shaxsiy hayot daxlsizligi huquqiga nisbatan ta'siri nazariy tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, jamiyat hayotida raqamli texnologiyalarning keng joriy qilinishi fuqarolarning shaxsiy hayoti daxlsizligini ta'minlash borasida ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda. Shu bois shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining tushunchasini konseptual, ilmiy-metodologik jihatdan o'rganish, tahlil etish lozim. Har bir shaxsning o'z sifatlariga ma'naviy-axloqiy baho berishga bo'lgan huquqini uning shaxsiy huquqi sifatida baholasak, subyektiv xususiyatga ega hisoblanadi. Shu bois uning qadr-qimmatini va obro'-e'tibori jamiyatdagi ijtimoiy fikr bilan mos kelishi yoki mos kelmasligi ham mumkin. Muallif, "shaxsiy hayot daxlsizligini buzuvchi holatlar", "shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniş" "shaxsga doir ma'lumotlarning xalqaro standartlari" "sha'ni va qadr-qimmatiga daxldor ma'lumotlarni ularning rozilgisiz oshkor etmaslik" kabilarga to'xtalib o'tilgan. Maqolada xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasi hamda huquqshunos olimlarning shaxsiy hayot daxlsizligiga oid yondashuvlarini tahlil qilgan holda raqamlashtirish sharoitida shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini va uni konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlarini kompleks tahlil qilish, shaxsiy daxlsizlikka oid O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha takliflar taqdim etildi.

Kalit so'zlar: shaxsiy hayot, shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsiy ma'lumotlar, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniş, shaxsiy ma'lumotlarning daxlsizligi, sha'ni va qadr-qimmatiga daxldor ma'lumotlarni ularning rozilgisiz oshkor etmaslik.

АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ПОДХОДОВ К ОБЕСПЕЧЕНИЮ ПРАВА НА НЕПРИКОСНОВЕННОСТЬ ЧАСТНОЙ ЖИЗНИ

Мадиев Фахриддин Хошим угли,
старший преподаватель кафедры
«Конституционное право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В этой статье теоретически анализируется влияние цифровых технологий на право на неприкосновенность частной жизни. Развитие цифровых технологий, широкое внедрение цифровых технологий в жизнь общества требует проведения научных исследований по обеспечению неприкосновенности частной жизни граждан. Поэтому необходимо концептуально, научно-методологически изучить, проанализировать понятие права на неприкосновенность частной жизни. Право каждого человека на морально-нравственную оценку своих качеств имеет субъективный характер, если оценивать его как личное право. Таким образом, его ценность и

репутация могут совпадать или не совпадать с общественным мнением. Автор затрагивает такие вопросы международных стандартов персональной информации, как нарушение неприкосновенности частной жизни, защита от вмешательства в личную жизнь, неразглашение информации, затрагивающей честь и достоинство, без согласия лица. В статье представлен комплексный анализ права на неприкосновенность частной жизни и особенностей его конституционно-правового регулирования в условиях цифровизации с учетом анализа передового зарубежного опыта и подходов ученых-правоведов к вопросам неприкосновенности частной жизни, представлены предложения по совершенствованию законодательства Узбекистана в области личной неприкосновенности.

Ключевые слова: частная жизнь, неприкосновенность частной жизни, персональные данные, защита от вмешательства в личную жизнь, неприкосновенность личных данных, неразглашение информации, затрагивающей честь и достоинство лица без его согласия.

ANALYSIS OF MODERN APPROACHES TO PROVIDING THE RIGHT TO PRIVACY

Madiev Fakhriddin Khoshim ugli,

Tashkent State Law University,
Senior lecturer of the Department of Constitutional Law

Abstract. This article presents a theoretical analysis of the impact of digital technologies on the right to privacy. The development of digital technologies, the widespread introduction of digital technologies in the life of our society, and the need to carry out scientific research on ensuring the privacy of citizens living in our country. Therefore, it is necessary to study and analyze the concept of the right to privacy from a conceptual, scientific, and methodological point of view. If we consider the right of every person to make a moral and ethical evaluation of his qualities as his personal right, it is considered to have a subjective nature. Therefore, his dignity and reputation may or may not be compatible with social opinion in society. The author focused on "circumstances that violate privacy", "protection from interference in personal life", "international standards of personal information" and "not disclosing information about honor and dignity without their consent". The article analyzes the advanced experience of foreign countries and the approaches of legal scholars to the privacy of personal life, provides a comprehensive analysis of the right to privacy in the context of digitization and the specific features of its constitutional and legal regulation, and presents proposals on improvements to the legislation of Uzbekistan on privacy.

Keywords: digitization, privacy, privacy, personal data, protection from interference in private life, privacy of personal data, non-disclosure of information related to honor and dignity without their consent.

Kirish

Shaxsiy hayot tushunchasining murakkabligi va ko'p qirraliligiga qaramay, qonun chiqaruvchi va huquqni qo'llovchi organlar shaxsiy daxlsizlik huquqini himoya qilish choralarini ko'rish uchun muayyan vositalar, mezonlar va tasniflarga muhtoj.

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi sharoitida shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash qiyinlashib bormoqda. Bunga asosiy sabab raqamli texnologiyalar orqali turli ko'rinishlarda shaxsiy hayot daxlsizligi buzilayotganidir.

So'nggi yillarda shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining rivojlanishi huquqiy tadqiqotlar obyektiga aylanib bormoqda. Shu bois "shaxsiy hayot", "shaxsiy" va "oilaviy" sirlarning daxlsizligi masalalariga qaratilgan qonun hujjatlariga zarurat oshib borayotganini ta'kidlashimiz lozim [1].

Har bir shaxsning o'z sifatlariga ma'naviy-axloqiy baho berishga bo'lgan huquqini uning shaxsiy huquqi sifatida baholasak, subyektiv xususiyatga ega hisoblanadi. Shu bois uning qadr-qimmati va obro'-e'tibori jamiyatdagi

ijtimoiy fikr bilan mos kelishi ham, mos kelmasligi ham mumkin. Ammo shaxsning qadr-qimmatini shaxsning o'zini o'zi baholash mezonini va jamiyatning unga bergan bahosi bilan o'zaro bog'langan mezonlar hisoblanadi.

Tadqiqotimiz davomida shaxsiy hayot daxlsizligini buzish bilan bog'liq 2020–2022-yillar oralig'ida kuzatilgan jinoyat va huquqbuzarliklar tahlil qilindi. Xususan, jinsiy zo'rvonlikka uchragan shaxsning shaxsiy ma'lumotlari ijtimoiy tarmoqlarga tarqatilishi [2], shifokorlar tomonidan Covid-19 kasalligiga chalingan dastlabki fuqaroning ma'lumotlari ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi [3], davlat tashkilotlari tomonidan shaxsga doir ma'lumotlarning tijorat maqsadlarida sotilishi [4], fuqarolarning turar joyidan ularning shaxsiy suratlari olinishi, ijtimoiy tarmoqlar orqali shaxsiy (intim) suratlarni tarqatish [5], X-ray qurilmalari orqali shaxsni kuzatish, tijorat tashkilotlari tomonidan iste'molchilar haqidagi ma'lumotlarni yig'ish [6], moliyaviy firibgarlik uchun shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish kabi holatlar uchramoqda [7],

Material va metodlar

Mazkur masalani tadqiq etishni uch turdagi asoslar bilan amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Birinchidan, Milliy huquqshunos olimlarning bu boradagi ilmiy qarashlari hamda yondashuvlarni tahlil etish, ikkinchidan, xorijiy mutaxassislarning fikr-mulohazalarini talqin etish, uchinchidan, ilg'or xorijiy tajribani qiyosiy-huquqiy tadqiq etish orqali muayyan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish vazifasi belgilab olindi.

Yuqorida sanab o'tilgan masalalarga javob topish maqsadida mazkur tadqiqot ishida tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar va zirligi tomonidan taqdim etilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, shaxsiy hayot daxlsizli-

giga bog'liq 2020-yilda 20 ta, 2021-yilda 25 ta va 2022-yilning 10 oyi davomida 13 ta jinoyat ishi qo'zg'atilgan.

Buborada sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarliklarga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, IIV statistik ma'lumotlariga ko'ra, shaxsiy hayot daxlsizligi bilan bog'liq huquqbuzarlik uchun 2020-yilda 197 ta, 2021-yilda 347 ta va 2022-yilning 10 oyi davomida 369 ta bayonnoma rasmiylashtirilgan [8].

Yuqoridagi tahlillarga e'tibor beradigan bo'lsak, shaxsiy hayot daxlsizligini buzish bilan bog'liq huquqbuzarliklar soni ortib bormoqda. Demak, muayyan harakatlar shaxsiy hayot huquqini buzayotganini qanday aniqlash mumkin? Yoki shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining himoya qilinishini ta'minlash uchun bunday harakatlarni qonun qanday tartibga solishi kerak kabi savollar tug'ilishi tabiiy.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-oktabrdagi "Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 570-son qarori bilan tasdiqlagan "Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishda ularning himoya qilinganlik darajasini belgilash to'g'risida"gi nizomning 7-bandi 1-xatboshisida "Shaxsga doir ma'lumotlarning xavfsizligiga tahdidlar deganda ma'lumotlar bazasiga ruxsatsiz, shu jumladan, tasodifiy kirish natijasida shaxsga doir ma'lumotlarni o'zgartirish, to'ldirish, ulardan foydalanish, ularni berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish, yo'q qilish, nusxalash, shuningdek, boshqa noqonuniy harakatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan shart-sharoitlar va omillar yig'indisi" tushunilishi nazarda tutilgan.

Ba'zi zamonaviy olimlar shaxsiy daxlsizlik huquqi buzilishini tasniflashni taklif qilishadi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, umumiy tushunchasiga olib kelmagan uning tarkibiy elementlariga ajratish o'rniga ular muammolarni keltirib chiqaradigan bir qator "zararli" harakatlarni aniqlash zarur deb hisoblaydilar.

Jeyms Rulning ta'kidlashicha, texnologiyani ayblash mavjud muammolarni hal qilishning noto'g'ri yo'lidir [9]. I. Stepanovichning qayd etishicha, texnologiyaning ma'naviy jihatdan noto'g'ri maqsadlarda qo'llanishi, shaxsiy hayot daxlsizligini buzadi. Shu bois ham raqamli texnologiyalarning shaxsni nazorat qiluvchi rolini kamaytirish lozim [10].


Shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlashda vujudga keladigan muammolarni tadqiq qilgan U. Prosser shaxsiy hayot daxlsizligini buzishi mumkin bo'lgan holatlarni to'rt turga ajratadi [11]:

- 1) shaxsiy hayotga aralashish;
- 2) shaxsni obro'sizlantiradigan shaxsiy ma'lumotlarni ommaga oshkor qilish;
- 3) shaxs haqida yolg'on ma'lumotlar tarqatish;
- 4) turli maqsadlarda shaxsga doir ma'lumotlarni oshkor qilish.

Bizning fikrimizcha, shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining buzilishi bilan bog'liq muammolarni guruhlariga ajratib, ularning har birini alohida tasniflash lozim. Chunki shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini himoya qilish bilan bog'liq masalalarni tartibga solishga qaratilgan qonun hujjatlarini tizimlashtirishga yordam beradi.

Daniel Solovening fikricha, shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini buzadigan xatti-harakatlar to'rt guruhdan iborat [12]:

- 1) ma'lumot to'plash (information collection);
- 2) axborotni qayta ishlash (information processing);
- 3) axborotni tarqatish (information dissemination);
- 4) tajovuz (invasion).



Har bir guruh shaxsiy daxlsizlik huquqini amalga oshirishda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan bir qancha faoliyat turlarini o'z ichiga oladi [12].

Shaxsiy daxlsizlikka ta'sir etuvchi omillarning *birinchi guruhi* ma'lumot to'plashdir. *Kuzatuv* – shaxslarning harakatlari raqamli texnologiyalar orqali tasvirga olish, tinglash yoki yozib olishdir. *So'rov* turli anketalar orqali amalga oshiriladi. Masalan, diniy yoki siyosiy qarashlarga oid savollar shaxsning shaxsiy daxlsizligi

huquqining buzilishi sifatida baholanishi mumkin [13].

Ikkinchi guruh axborotni qanday saqlash, qayta ishlash va ishlatish bilan bog'liq ma'noda "axborotni qayta ishlash" deb ataladi. *Aggregatsiya* – inson haqidagi turli xil ma'lumotlar kombinatsiyasini o'z ichiga oladi. *Identifikatsiya* – shaxsni tanib olishga qaratilgan ma'lumotlarni to'plash. *Xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik* – saqlangan ma'lumotlarni sizib chiqishdan va noto'g'ri kirishdan himoya qilishda beparvolik. *Ikkimlamchi foyda*

lanish – bir maqsadda to'plangan ma'lumotlardan ma'lumotlar subyektiining roziligisiz boshqa maqsadlarda foydalanish.

Uchinchi guruh axborot tarqatishni o'z ichiga oladi. *Ma'lumotlarni berish* – shaxs haqidagi ma'lumotlarni maxfiy saqlash va dasining buzilishi. *Oshkor qilish* – jamiyatda insonlarning unga bo'lgan munosabati o'zgarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni oshkor etishni o'z ichiga oladi. *Ma'lumotlar olishning mavjudligi* – shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarning uchinchi shaxslar uchun mavjudligi. *Noto'g'ri ma'lumot* – shaxslar haqida yolg'on yoki chalg'ituvchi ma'lumotlarni tarqatishdan iborat.

To'rtinchi guruh harakatlari insonning shaxsiy hayotiga aralashishni o'z ichiga oladi. *Noqonuniy kirish*, boshqa guruhlardan farqli o'laroq, shaxsiy ma'lumotlarni qo'lga kiritish emas, shaxsning osoyishtaligi yoki shaxsiy hayotini buzadigan shaxsiy makonga (turar joyga) bostirib kirish harakatlari tushuniladi. *Qarorlarni qabul qilish jarayoniga aralashuv* – ma'lumotlar subyektiining shaxsiy ishlariga aralashuv uning xohishiga qarshi bo'lgan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlarni talqin qilish yuzasidan rasmiy izohlar berish vakolatiga ega organdir. Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini mazmunan tushunish uchun BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasining Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 17-moddasida bergan izohini tahlil qilish maqsadga muvofiq:

1. *Mutlaq bo'lmagan himoya holati*. Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining himoyasi mutlaq emas. Xususan, shaxsiy hayotga har qanday aralashishga qonunga muvofiq yo'l qo'yilishi mumkin.

2. *Davlatning majburiyatlari*. Davlat shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini himoya qilish uchun faol choralar ko'rish lozim. Davlat organlari, jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan sodir etilishidan qat'i nazar, shaxsiy hayotga har qanday aralashuvni taqiqlashi

va buning uchun qonun hujjatlarida tegishli javobgarlikni belgilashi lozim.

3. *Noqonuniy aralashuvdan himoya qilish*. Davlat tomonidan shaxsiy hayotga aralashuv faqat qonun asosida amalga oshirilishi mumkin, bu esa, o'z navbatida, pakt qoidalari, maqsad va vazifalariga mos kelishi kerak. Qonunda shaxsiy hayotga aralashuvga yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan aniq holatlar batafsil ko'rsatilishi lozim.

4. *Uy-joy daxlsizligi tushunchasi*. Inson yashaydigan yoki o'zining odatiy faoliyat (biznes) yuritadigan joyi tushuniladi. Turar joyni tintuv qilish zaruriy dalillarni izlash bilan cheklanishi mumkin. Lekin bu xatti-harakatlar turar joyda yashovchi boshqa shaxslarning huquqlarini buzmaganda holda amalga oshirilishi lozim.

5. *Vakolatli organ vakolatlari*. Davlat shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini ta'minlashda mustasno holatlar belgilangan bo'lib, qonuniy ruxsat etilgan aralashuvga vakolatli bo'lgan organlar aniq belgilanishi lozim. Shuningdek, vakolatli organlar tomonidan huquqqa aralashuvning qonuniyligi ustidan nazorat qiluvchi organning mavjudligini tushunish lozim. Manfaatdor shaxslarga ularning shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi buzilganda, qaysi organlarga murojaat qilishlari mumkinligi va murojaat qilish tartibi haqida aniq tushuncha bo'lishi zarur.

6. *Shikoyatlarni samarali tekshirish mexanizmi*. Davlat shaxsiy hayotga o'zboshimchalik bilan yoki noqonuniy aralashuvlar to'g'risidagi shikoyatlarni mas'ul organlar tomonidan ko'rib chiqish va buzilgan huquqni tiklash mexanizmini yaratish orqali samarali himoya tizimini joriy etadi.

7. *Xat va yozishmalarning daxlsizligi va maxfiyligi*. 17-modda yozishmalar daxlsizligi va maxfiyligi de-yure va de-fakto kafolatlanishini talab qiladi. Xat-xabarlar ushlanmasdan, ochilmagan yoki u yoki bu tarzda o'qilmagan holda adresatga yetib borishi kerak. Elektron yoki boshqa kuzatuv, telefon, telegraf va boshqa aloqalarni tinglash, telefon suhbatlari-

ni tinglash va yozib olish taqiqlanishi kerak. Ushbu huquqning cheklanishi faqat qonunda nazarda tutilgan holatda muayyan organ tomonidan amalga oshirilishi kerak.

8. *Shaxsiy daxlsizlik huquqi*. Shaxsning jismoniy daxlsizligini ta'minlashda davlat tintuv qilinayotgan shaxsning qadr-qimmatini kamситmaydigan tarzda o'tkazilishini ta'minlash uchun samarali choralar ko'rishi shart. Bunda shaxsiy tintuvni yoki tibbiy tekshiruvni amalga oshirayotgan tibbiyot xodimi ko'zdan kechirilayotgan shaxs bilan bir jinsda shaxs bo'lishi kerak.

9. *Shaxsiy hayot haqida ma'lumot*. Davlat har qanday shaxsning shaxsiy hayotiga ta'alluqli ma'lumotlarni olish, qayta ishlash va undan foydalanish vakolatiga ega bo'lmagan shaxslar qo'lga tushmasligi va ushbu ma'lumotlardan manfur maqsadlarda foydalanilmasligini ta'minlash uchun samarali choralar ko'rishi kerak.

10. *Shaxsga doir ma'lumotlarni tuzatish huquqi*. Har bir shaxs, agar rasmiy hujjatlarda noto'g'ri shaxsiy ma'lumotlar mavjud bo'lsa yoki noqonuniy to'plangan yoki qayta ishlangan bo'lsa, ma'lumotlarni tuzatish yoki o'chirishni talab qilish huquqiga ega [14].

Shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash BMT Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasining Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 17-moddasida bergan izohiga binoan ushbu majburiyatlarni shaxsiy daxlsizlik huquqini himoya qilishning minimal xalqaro standartlari sifatida tavsiflash mumkin.

2015-yil iyul oyida ushbu rezolyutsiyadan so'ng BMT Inson huquqlari kengashi shaxsiy daxlsizlik huquqi bo'yicha maxsus ma'ruza-chini tayinladi.

2018-yilda BMT Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashiga 2018-yil avgust oyida bo'lib o'tgan 39-sessiyada raqamli asrda shaxsiy daxlsizlik huquqiga bag'ishlangan hisobotini taqdim etdi.

BMT Oliy komissarining 2018-yilgi hisobotida shaxsiy daxlsizlik huquqini himoya

qilish kontekstida shaxsiy ma'lumotlarni tartibga solish bo'yicha eng batafsil tavsiyalar mavjud. Tavsiyalar a'zo davlatlarga ham, tijorat kompaniyalariga ham tegishli. Quyidagilar tahlilini amalga oshirsak:

a) shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini samarali himoya qilish uchun xalqaro inson huquqlari standartlariga mos keladigan samarali, mustahkam va keng qamrovli shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini himoya qiluvchi qonunchilikni yaratish;

b) davlat ma'lumotlarni ko'p talab qiluvchi tizimlar, shu jumladan, biometrik ma'lumotlarni to'plash va saqlash bilan bog'liq ma'lumotlar bazalarini qonuniy maqsadga erishish uchun zarur va mutanosib ekanligini ko'rsata olsagina joriy etilishini ta'minlash;

d) shaxsiy ma'lumotlarga noqonuniy ishlov berilganligi, ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash amaliyotini nazorat qilish, huquqbuzarliklarni tekshirish, shaxsning shikoyatlarini qabul qilish hamda jarimalar va boshqa samarali jazo choralari qo'llash vakolatiga ega mustaqil organlarni tashkil etish;

e) tegishli qonunchilik va boshqa vositalar orqali shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining har qanday cheklanishi, shu jumladan, aloqalarni kuzatish va ma'lumotlar almashish inson huquqlari xalqaro standartlariga, shu jumladan, fuqaroligi yoki joylashgan joyidan qat'i nazar, qonuniylik, zarurat va mutanosiblik tamoyillariga muvofiqligini ta'minlash. Bunda raqamli texnologiyalar orqali kuzatuv shaxsning jinoiy xatti-harakatlarni sodir etganligi yoki sodir etayotganligi, shuningdek, shaxsning davlat xavfsizligiga muayyan tahdidi bilan bog'liq harakatlarni amalga oshirayotganligi to'g'risida gumonning asoslari mavjud bo'lishi lozim;

f) shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi buzilgan shaxslarga huquqlarini tiklashning transchegaraviy mexanizmlarini yaratish.

So'nggi 30 yillikda shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash bilan bog'liq masalalarga qaratilgan qonun davlatlar miqyosida ham keng o'sishining guvohi bo'lmoqdamiz. Axborot

texnologiyalari rivojlanishi bilan xorijiy davlatlarda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishga bo'lgan talab ham oshib bormoqda.

Ma'lumotlarni himoya qilishga qaratilgan dastlabki tushunchalar Germaniya qonunchiligida uchraydi. Jumladan, "Datenschutz" atamasi – "ma'lumotlarni himoya qilish" (data protection) boshqa davlatlar qonunchiligiga o'z aksini topa boshlagan.

Rivojlangan davlatlarda shaxsga doir ma'lumotlarning tahlilini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Jumladan, Kanadada shaxsiy ma'lumotlarning himoyasini tartibga soluvchi bir nechta qonun mavjud bo'lib, xususan, milliy darajada xususiy sektorda shaxsiy ma'lumotlarni to'plash, ulardan foydalanish va oshkor qilish bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va elektron hujjatlar to'g'risidagi (PIPEDA, BILL C-6) qonun qabul qilingan va ushbu qonun 2018-yil noyabr oyida o'zgartirilgan va bir necha majburiy qonunni o'z ichiga olgan. Federal departamentlar va Crown Corps kabi davlat sektori uchun ma'lumotlar maxfiyligi 1983-yildagi Maxfiylik to'g'risidagi qonun bilan tartibga solinadi.

1999-yilda Finlandiyada Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi qonunning yangi tahriri qabul qilinadi, ushbu qonunda shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi ta'rifni o'rganish ahamiyatga molik. "Shaxsiy ma'lumotlar" tushunchasi shaxsning va uning xususiyatlarini yoki hayotiy sharoitlarining tavsifini anglatib, bu ma'lum bir shaxsni yoki uning oilasini yoki u bilan bir uyda yashaydiganlarni tavsiflovchi sifatida tan olinishi mumkin. Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu qonunda "Shaxsiy kredit ma'lumotlari" ham jismoniy shaxsning moliyaviy holatini, uning majburiyatlarini bajarish qobiliyatini, unga berilgan kredit ishonch darajasini baholashda foydalanish uchun mo'ljallangan shaxsiy ma'lumotlarni anglatishi nazarda tutilgan.[15].

Raqamli texnologiyalar asrida shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash uchun shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish lozim.

Tadqiqot natijalar tahlili

Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning minimal standartlari

Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning xalqaro standartlari 40 yil davomida rivojlandi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, shaxsiy ma'lumotlar tarixan shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining bir elementi shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar sifatida ko'rib chiqilgan. Buni xalqaro hujjatlarda "ma'lumotlar maxfiyligi" (data privacy) va "shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi" (right to privacy) atamalarining birgalikda ishlatilishida ko'rish mumkin.

Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha xalqaro darajadagi birinchi hujjatlardan biri 1980-yildagi Yevropa Kengashining 108-sonli konvensiyasi bo'lib, De Terwangne'ga ko'ra, ushbu xalqaro hujjat shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha dastlabki minimal standartlar deb hisoblanadi. Ushbu hujjatlarni tahlil qiladigan bo'lsak, sakkizta tamoyilni ajratib ko'rsatish mumkin

1. *Cheklangan yig'ish prinsipi* – ma'lumotlar qonuniy, ma'lumotlar subyekting roziligi bilan olinishi kerak.

2. *Ma'lumotlar sifati prinsipi* – shaxsiy ma'lumotlar ulardan foydalanish maqsadlariga mos kelishi va bu borada aniq, to'liq va dolzarb bo'lishi kerak.

3. *Maqsadni aniqlash prinsipi* – shaxsiy ma'lumotlarni to'plash maqsadlari ma'lumotlarni yig'ish vaqtidan kechiktirmasdan aniqlanishi kerak.

4. *Foydalanishni cheklash prinsipi* – shaxsiy ma'lumotlar oshkor qilinmasligi, yig'ish vaqtida ko'rsatilganlarga mos kelmaydigan maqsadlarda foydalanilmasligi kerak.

5. *Xavfsizlik prinsipi* – shaxsiy ma'lumotlar yo'qolishi yoki ruxsatsiz kirish, yo'q qilish, foydalanish, o'zgartirish yoki ma'lumotlarni oshkor qilish kabi xavflardan oqilona xavfsizlik choralari bilan himoyalangan bo'lishi kerak.

6. *Ochiqlik prinsipi* – shaxsiy ma'lumotlar sohasidagi ishlanmalar, amaliyotlar va siyosatlariga nisbatan umumiy ochiqlik siyosati bo'lishi kerak.

7. *Jismoniy shaxslarning ishtirok etish prinsipi* – ma'lumotlar subyektlari ma'lumotlarga kirish va ularni tuzatish huquqiga ega bo'lishi kerak.

8. *Javobgarlik prinsipi* – ma'lumotlar nazoratchisi yuqoridagi prinsiplarga muvofiq ishlashini ta'minlash choralarga muvofiqligi uchun javobgar bo'lishi kerak.

Ushbu minimal standartlar hozirda ko'plab mamlakatlarda har qanday shaxsiy ma'lumotlar qonunining bir qismi sifatida qabul qilinadi.

Shundan so'ng 2001-yilda Yevropa Kengashining 108-konvensiyasiga qo'shimcha protokol qabul qilindi. Ushbu hujjatlar shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning yangi *ikkinchi avlod standartlarini joriy etdi*, masalan:

1. *Belgilangan manzil ma'lumotlarini eksport qilish cheklovlari* – maxfiylikni himoya qilishning tegishli standartiga ega bo'lmagan mamlakatlarga shaxsiy ma'lumotlarni eksport qilish bo'yicha cheklovlarni talab qilish.

2. *Minimal to'plash* – ma'lumot to'plash faqat "cheklangan" emas, balki yig'ish uchun zarur minimal bo'lishi kerak.

3. *Qonuniy qayta ishlash* – "qonuniy qayta ishlash" uchun umumiy talab.

4. *Dastlabki tekshirishlar* – potensial yuqori darajadagi xavfga ega bo'lgan shaxsiy ma'lumotlar tizimlari foydalanishga topshirilgunga qadar aniqlanishi va tekshirilishi kerak.

5. *Yo'q qilish* – shaxsiy ma'lumotlarni saqlash maqsadlariga erishilgandan keyin yo'q qilish yoki anonimlashtirish.

6. *"Nozik (sensitive)" ma'lumotlarni himoya qilish* – maxfiy ma'lumotlarning ayrim toifalari uchun qo'shimcha himoya.

7. *Avtomatlashtirilgan qayta ishlashni boshqarish* – vakolatli organlar ma'lumotlar subyektlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan avtomatlashtirilgan qarorlar qabul qilish tizimlari odamlar tomonidan tekshirilishini ta'minlashi kerak va ma'lumotlar subyektlari bunday avtomatlashtirilgan ma'lumotlarni qayta ishlash mantig'ini bilishi kerak.

8. *To'g'ridan to'g'ri marketingdan voz kechish* – to'g'ridan to'g'ri marketingda shaxsiy ma'lumotlardan foydalanishdan "boshqarmaslik" variantini taqdim etish talabi.

Bu me'yorlar Yevropa Ittifoqi mamlakatlarning qonunlarida o'z aksini topgan.

Yevropada *uchinchi avlod standartlarining* paydo bo'lishi katta ma'lumotlar texnologiyasining jadal rivojlanishi va global hajmlarda xususiy kompaniyalar tomonidan to'planagan shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashga oid muammolar bilan bog'liq bo'lib, 2018-yilda Yevropa Parlamenti va Kengashining Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash va bunday ma'lumotlarning erkin harakatlanishi bo'yicha jismoniy shaxslarni himoya qilish to'g'risidagi 2016/679-sonli reglamentning yangi qoidalari (GDPR) kuchga kirgan.

Shu bilan birga, Yevropa Parlamenti va Kengashining 2016-yil 27-apreldagi Shaxsiy ma'lumotlarga nisbatan huquqbuzarliklarning oldini olish, tergov qilish va aniqlash maqsadida vakolatli organlar tomonidan shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash to'g'risidagi 2016/680-sonli direktivasi qabul qilingan [16].

Demak, ushbu hujjatlarni tahlil qilsak, ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha Yevropa qonunchiligini isloh qilishdagi asosiy o'zgarishlar quyidagilardan iborat:

1. Bu butun Yevropa Ittifoqida qo'llanadigan ma'lumotlarni himoya qilish qoidalari-ning umumiy to'plami hisoblandi.

2. Barcha kompaniyalar ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha barcha harakatlar to'g'risida ma'lumotlarni himoya qilish organlarini xabardor etishlari haqidagi joriy talab o'rniga reglament ma'lumotlarini qayta ishlash bazalarining mas'uliyati va javobgarligini oshirishni nazarda tutadi.

3. Kompaniyalar va tashkilotlar ma'lumotlarni himoya qilish talablarining jiddiy buzilishi to'g'risida imkon qadar tezroq (agar iloji bo'lsa, 24 soatdan kechiktirmay) milliy nazorat organini xabardor qilishlari shart.

4. Tashkilotlar asosiy ro'yxatdan o'tish joyida Yevropa Ittifoqi mamlakatidagi faqat bitta milliy ma'lumotni himoya qilish organi bilan ishlaydi. Odamlar ma'lumotlari Yevropa Ittifoqidan tashqaridagi kompaniya tomonidan qayta ishlansa ham, o'z mamlakatlaridagi ma'lumotlarni himoya qilish organiga murojaat qilishlari mumkin.

5. Ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik zarur bo'lgan barcha holatlar aniq ko'rsatilgan bo'lishi.

6. "Unutilishga" bo'lgan huquq odamlarga Internetdagi ma'lumotlarni himoya qilishga yordam beradi, agar shaxs shaxsiy ma'lumotlarini saqlash uchun qonuniy sabab bo'lmasa, ularga o'z ma'lumotlarini o'chirish imkoniyatini beradi.

7. Yevropa Ittifoqi bozorida faoliyat yurituvchi va Yevropa Ittifoqi fuqarolariga o'z xizmatlarini taklif qiluvchi kompaniyalar Yevropa Ittifoqidan tashqarida ma'lumotlarni qayta ishlashda Yevropa Ittifoqi qoidalariga rioya etishlari talab qilinadi.

8. Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarda ma'lumotlarni himoya qilish qoidalarini buzgan kompaniyalarga jarima solish huquqiga ega bo'ladi. Jarimalar miqdori 1 million yevro yoki kompaniya yillik aylanmasining 2 foiziga teng.

GDPRda ma'lumotlarni himoya qilish qonunlari Yevropa Ittifoqiga a'zo barcha davlatlarda bir xil bo'lishini nazarda tutuvchi qoidalar mavjud. Shu bois GDPR Yevropa Ittifoqi bo'ylab ma'lumotlarni himoya qilish qoidalarining yagona to'plamini nazarda tutadi. Bu esa mamlakatda huquqiy ishonchlilik muhitini yaratadi, bu ham operatorlar, ham ma'lumotlar subyektlari uchun foyda keltiradi.

GDPR hozirda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishda dunyodagi eng kuchli rejim hisoblanadi. G. Buttarellining fikriga ko'ra, Yevropadan boshqa mamlakatlarga ham "oltin standart" o'rnatishga xizmat qilishi mumkin. Yevropa Ittifoqi fuqarolari ma'lumotlarini qayta ishlovchi kompaniyalardan GDPR qoidalariga qayerda bo'lishidan qat'i nazar, rioya etishni talab qilish bu standartlarni Yevropa Ittifoqidan tashqariga ham kengaytirish imkoniyatini oshiradi [18].

Xulosalar

Yuqorida nomlari keltirilgan xorijiy va milliy olimlarning ishlari va xalqaro standartlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha quyidagi istiqbolli yo'nalishlar belgilab olinishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

birinchidan, shaxsga doir ma'lumotlarni operator va tegishli shaxs tomonidan nazorat qilish, shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni shaffofligini oshirish, axborot almashuvini maqbullashtirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

ikkinchidan, shaxsga doir ma'lumotlarni saqlash va ishlov berishda, operatorlarni tanlashda mas'uliyat hamda tegishli mansabdor shaxslarning bilim va malakasini oshirish;

uchinchidan, shaxsiy hayot daxlsizligiga oid ma'lumotlar reyestrini shakllantirish orqali shaxsiy ma'lumotlardan ommaviy manfaatlar nuqtayi nazaridan foydalanishning aniq mexanizmini ishlab chiqish;

to'rtinchidan, shaxsiy hayot daxlsizligiga oid ma'lumotlar bilan ishlovchi shaxslarga, ekspert va mutaxassislariga qo'yiladigan malaka talablarini ishlab chiqish taklif qilinadi.

REFERENCES

1. Sariosiyoda 4-sinf o'quvchisi zo'rlangan. Holat bo'yicha prokuror va IIB mas'ulining javobi bir-biriga to'g'ri kelmayapti [A 4th grade student was raped in Sariosia. The response of the prosecutor and the head of the Ministry of Internal Affairs do not correspond to each other]. Available at: <https://>

kun.uz/uz/news/2022/09/08/sariosiyoda-4-sinf-oquvchisi-zorlangan-holat-boyicha-prokuror-va-iib-masulining-javobi-bir-biriga-togri-kelmayapti

2. O'zbekistonda ham koronavirus qayd etildi [The coronavirus was also recorded in Uzbekistan]. Available at: <https://xabardor.uz/uz/x/576521>

3. Uzbekistan News Agency website. Available at: https://uza.uz/uz/posts/shaxsiy-hayot-daxlsizligi-konstituciaviy-kafolatlanmoqda_393451

4. What is happening around MP Feruza Babasheva? Available at: <https://www.gazeta.uz/uz/2021/11/18/feruza-babasheva/>

5. Violation of privacy is prohibited by law. Available at: <https://iiv.uz/oz/news/shaxsiy-hayot-daxlsizligini-buzish-qonun-bilan-taqiqlangan>

6. Murphy M.C., Wilds M.R. X-rated X-ray invades privacy rights. *Criminal Justice Policy Review*, 2001, no. 4, pp. 333–343.

7. The Central Bank urges to beware of fraudulent situations. Available at: https://cbu.uz/oz/press_center/news/425173/

8. Rule J.B. Privacy in peril: How we are sacrificing a fundamental right in exchange for security and convenience. Oxford University Press, 2007. Available at: https://books.google.co.uz/books?hl=ru&lr=&id=WKxMuD-002wC&oi=fnd&pg=PR7&ots=MdS4FZ411Y&sig=Q6bQ68Ia_uM1nRiBeTRugNe8MgM&redir_esc=y#v=onepage&q&f=false

9. Stepanovic I. et al. Modern technology and challenges to protection of the right to privacy. *Annals of the Faculty of Law in Belgrade*, 2014, no. 3, pp. 167–178. Available at: <https://scindeks-clanci.ceon.rs/data/pdf/0003-2565/2014/0003-25651403167S.pdf>

10. Prosser W.L. Privacy. *California Law Review*, 1960, no. 48, pp. 383–423. DOI: 10.2307/3478805

11. Fakhridin M. Stages of development of the constitutional guarantees of the right to privacy in Uzbekistan. *World Bulletin of Management and Law*, 2023, no. 19, pp. 67–72.

12. Solove D.J. A taxonomy of privacy. *University of Pennsylvania Law Review*, 2006, no. 154 (3), pp. 477–564.

13. De Terwangne C. Council of Europe convention 108+: A modernised international treaty for the protection of personal data. *Computer Law & Security Review*, 2021, p. 105497.

14. Regulation P. Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council. Regulation (eu). 2016, p. 2016.

15. Sajfert J., Quintel T. Data Protection Directive (EU) 2016/680 for police and criminal justice authorities.

16. Buttarelli G. The EU GDPR as a clarion call for a new global digital gold standard. *International Data Privacy Law*, 2016, no. 2, pp. 77–78.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.4./XPKG3830>
UDC: 347.7(045)(575.1)

SANOAT MULKI OBYEKTлари MUALLIFLARINI RAG‘BATLANTIRISH MASALALARI

Mehmonov Qambariddin Miradhamovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0000-0001-7042-9003

e-mail: q.mehmonov@tsul.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada sanoat mulki obyektlari mualliflarini rag‘batlantirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan bo‘lib, mualliflarni shaxsiy va mulkiy rag‘batlantirish choralari muhokama qilingan. Sanoat mulki obyekti mualliflari uchun nima muhim: ixtironi ommaga oshkor qilishmi va patent olish yoki muayyan obro‘-e‘tiborga ega bo‘lish va moddiy manfaatdor bo‘lishmi? Ushbu masalani nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish natijasida muallif bir qator ilmiy taklif va xulosalarni ilgari surgan. Shaxsiy rag‘batlantirish mulkiy rag‘batlantirish bilan bir qatorda mualliflarga katta motivatsiyalar berishi mumkin. Ba‘zi mamlakatlar va tashkilotlar intellektual mulk mualliflarini mukofotlar yoki stipendiyalar shaklida shaxsiy rag‘batlantiradi. Mavjud qonunchilik tizimi sanoat mulki obyektlari mualliflari olgan huquqiy himoya hujjati – patent uchun mualliflarni rag‘batlantirish, shu jumladan, ilmiy daraja va unvon berish uchun asos bo‘lishini nazarda tutsa-da, bu borada ko‘rsatkich zamonaviy talablarga to‘liq javob bermaydi. Sanoat mulki obyektlari mualliflarini rag‘batlantirish masalalari murakkab bo‘lib, mualliflarning huquq va jamoat manfaatlarini himoya qilish o‘rtasidagi muvozanatni topish zarur. Shu bilan birga, maqolada nazariyotchi olimlar, tajribali amaliyotchi xodimlarning fikr va mulohazalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: intellektual mulk, sanoat mulki obyekti, muallif, ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, talabnoma berish, mutlaq huquq, ijtimoiy manfaat, imtiyoz, shaxsiy va mulkiy rag‘batlantirish.

ВОПРОСЫ СТИМУЛИРОВАНИЯ АВТОРОВ ОБЪЕКТОВ ПРОМЫШЛЕННОЙ СОБСТВЕННОСТИ

Мехмонов Камбариддин Мирадхамович,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),
профессор Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В данной статье научно анализируются способы поощрения авторов объектов промышленной собственности, а также рассматриваются меры личного и имущественного поощрения авторов. Для авторов объекта промышленной собственности важно донести информацию об изобретении до общественности и получить патент или же иметь определенную репутацию и материальный интерес? В результате теоретических и практических исследований по данному вопросу автор выдвигает ряд научных идей и выводов. Личные стимулы, наряду с частными стимулами, могут стать отличной мотивацией для авторов. Некоторые страны и организации предоставляют авторам интеллектуальной собственности личные поощрения в виде премий, наград или стипендий. В то же время действующая национальная правовая система предусматривает в качестве основания для поощрения авторов, в том числе с учеными степенями и званиями, документ правовой охраны,

получаемый авторами объектов промышленной собственности, а именно – патент, что не в полной мере соответствует современным требованиям. Стимулы для авторов объектов промышленной собственности сложны, и необходимо соблюдать баланс между защитой прав авторов и общественными интересами. При этом были проанализированы мнения ученых-теоретиков и опытных практиков.

Ключевые слова: интеллектуальная собственность, объект промышленной собственности, автор, изобретение, полезная модель, промышленный образец, заявка, исключительное право, общественный интерес, привилегия, личное и имущественное поощрение.

ISSUES OF INCENTIVES FOR AUTHORS OF INDUSTRIAL PROPERTY OBJECTS

Mekhmonov Kambariddin Miradhamovich,
Professor of Tashkent State University of Law,
PhD in Law

Abstract. This article scientifically analyzes ways to encourage authors of industrial property objects and also considers measures of personal and property incentives for authors. What is more important for the authors of an industrial property object: to disclose the invention to the public and obtain a patent, or to have a certain reputation and material interest? As a result of theoretical and practical studies of this issue, the author puts forward a number of scientific ideas and conclusions. Personal incentives, along with private incentives, can be great motivation for writers. Some countries and organizations provide personal incentives to authors of intellectual property in the form of prizes, awards, or scholarships. While the current legal system provides as a basis for encouraging authors, including academic degrees and titles, a document of legal protection received by authors of industrial property objects—a patent—the indicator in this regard does not fully meet modern requirements. Incentives for authors of industrial property are complex, and a balance must be struck between protecting the rights of authors and the public interest. At the same time, the opinions of theoretical scientists and experienced practitioners were analyzed.

Keywords: intellectual property, object of industrial property, author, invention, utility model, industrial design, application, exclusive right, public interest, privilege, personal and property reward.

Kirish

Bugungi kunda yurtimizda sanoat mulki obyektlari mualliflarini shaxsiy va mulkiy rag'batlantirishga qanday e'tibor qaratilayotganligi, iqtisodiy rivojlanish uchun qo'shayotgan hissasi hamda mualliflarga berilayotgan imkoniyatlarni tadqiq etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Sanoat mulki obyektlariga nisbatan huquq egasi, shu jumladan, muallif, albatta, muayyan rag'bat olishi tabiiy. Bu borada butun dunyoda e'tibor qaratiladigan masalalardan biri sanoat mulki obyektlaridan tijorat maqsadlarida foydalanishdan moliyaviy va mulkiy foyda olish imkoniyatidir.

Sanoat mulki obyektlari mualliflari o'z huquqlaridan tijorat maqsadlarida boshqa kompaniyalarga litsenziyalar berish yoki o'z ixtirolari yoki mahsulotlariga huquqlarni so'tish orqali foydalanishlari ham mumkin. Bu mualliflar uchun qo'shimcha daromad manbai hisoblanadi.

Patent yoki mualliflik huquqiga ega bo'lish mualliflarga o'z ixtirolaridan ma'lum vaqt davomida foydalanishning mutlaq huquqini beradi. Bu ularga o'z ijodlaridan foydalanishni nazorat qilish va uni tijorat maqsadlarida ishlatishdan foyda olishga ko'maklashadi.

O'z intellektual mulki himoya qilinganligini bilgan muallif ilmiy-texnik tadqiqotlarini

yanada ko'paytirishga harakat qiladi, patentlar bilan himoyalangan yangi va innovatsion texnologiyalar yoki mahsulotlar yaratishga intiladi.

Sanoat mulki obyektlariga nisbatan huquqlarga ega bo'lish kompaniyalar va tadbirkorlarni investorlar uchun yanada jozibador qiladi. Investorlar intellektual mulkni himoya qiladigan innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashdan manfaatdor bo'ladi. Ushbu huquqqa ega bo'lish kompaniyalarga bozorda o'z mavqeyini mustahkamlash va raqobatdosh ustunliklarni yaratishga imkon beradi. Bu korxonalarining o'z sanoatida yetakchi o'rin egallashini ta'minlaydi.

Tadqiqotning dolzarbligi

So'nggi yillarda yurtimizda intellektual mulk huquqini himoya qilish, mualliflarni har tomonlama rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada qator xalqaro tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatilgan. Shunday bo'lsa-da, sanoat mulki obyektlari mualliflarini shaxsiy va mulkiy rag'batlantirishning mavjud tizimi zamonaviy talablarga to'liq javob bermaydi.

Shu bois xalqaro patent tasnifi (XPK) sarlavhalari bo'yicha olingan talabnomalarning taqsimlanishi o'zgarishsiz qolmoqda, ya'ni XPKning ikkita bo'limida talabnoma topshiruvchilarning patentlash faoliyati tendensiyasi saqlangan: A – "Insonning hayotiy ehtiyojlarini qondirish" – 34,5 % talabnomalar va C – "Kimyo va metallurgiya" – 26,2 % talabnomalar. Bundan tashqari, agar milliy talabnoma topshiruvchilar "Insonning hayotiy ehtiyojlarini qondirish" bilan bog'liq bo'limni afzal ko'rsa, milliy talabnoma topshiruvchilar tomonidan topshirilgan talabnomalar umumiy sonining 39,5 %, chet ellik talabnoma topshiruvchilar tomonidan "Kimyo va metallurgiya" bo'limiga kelib tushgan talabnomalar umumiy sonining 37 %ini tashkil qilgan [1].

Sanoat mulki obyektlarini himoya qilish bo'yicha butun dunyoda muayyan prinsiplar amal qiladi. Xususan, "istisno huquq" prinsipi patentning amal qilish muddati davomida

uning egasiga ixtirodan mutlaq foydalanish huquqini beradi. Bu shuni anglatadiki, faqat patent egasi ixtironi boshqalarning roziligsiz ishlab chiqarish, sotish yoki undan foydalanish huquqiga ega. Shu bilan birga, "ijtimoiy manfaat" prinsipi ham mavjud bo'lib, unga ko'ra, ixtiro va innovatsiyalarni himoya qilish jamiyat manfaatlariga mos bo'lishi lozim.

Ushbu maqolada sanoat mulki obyektlarining mualliflari qanday rag'batlantirilishi, ularning shaxsiy va mulkiy huquqlari qay darajada ta'minlanishi tahlil etiladi. Zero, ijodkor huquqlari va ularning qonuniy manfaatlarini ta'minlanmas ekan, ilmiy taraqqiyot jarayoni izchillikda rivojlanmaydi.

Intellektual mulk huquqi, ayniqsa, sanoat mulki obyektlariga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solish bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish ko'plab huquqshunoslar diqqat-e'tiborida bo'lgan. Xususan, V.S. Savina [2, 23–36-b.], I.A. Bliznes [3, 495-b.], Yu.A. Omarova [4, 75–81-b.] va boshqalar bu boradagi xorijiy tajribani o'rganish muhimligini qayd etishadi.

Sanoat mulki obyektlariga oid tadqiqotlar Ispaniyada Patrisiya Garsia Eskudero, Alberto Kasado Servino, X.Partisio Sais Gonzales, Antonio Abil Abadin [5, 10-11-b.], M.Felipe Ruiz Moreno [6, 97-b.] kabi ko'plab huquqshunoslar tomonidan olib borilgan.

Professor Otero Lastres sanoat mulki qonunchiligi bilan himoyalangan obyektlarni ikki guruhga ajratadi: individuallashtirish vositalari va texnik ijod natijalari – patentlash obyektlari [7, 781-b.].

Long patentlash – bilim tarqatish mexanizmi ekanligini ta'kidlab, bu haqiqatni tasdiqlaydi va patent egalari undan har doim ham moliyaviy daromad uchun emas, balki boshqa rag'batlarni olish uchun foydalanadilar, masalan, bilim tarqatish orqali tan olinishi va manfaatdorlikni oshirish deb hisoblaydi [8-9, 625-b.].

Jensen va Myurreyning fikricha, universitet tadqiqotlarining aksariyati ikki tomon-

lama natijalar beradi. Bu shuni anglatadiki, tadqiqot natijalari ilmiy maqolalarda e'lon qilinishi, shu bilan birga, jamoatchilik bilimga hissa qo'shishi va tijoratlashtirish uchun ham qo'llanishi mumkin. Akademik sohadagi ixtirochiga o'z tadqiqotining ilmiy ixtiro va tijorat mahsuloti sifatida ahamiyatini namoyish etish imkonini beradi [10, 239-b.].

Devrim Göktepe-Hulten va Prashanth Mahagaonkar o'z ilmiy tadqiqotida tijorat faoliyatidan kutilayotgan moliyaviy imtiyozlar va tan olinishning olimlarning ilmiy tadqiqotlari va patent ishlariga ta'sirini o'rganadi. U akademik bilimlarni moddiy rag'batlantirish va obro'-e'tibor o'rtasidagi ziddiyatni muhokama qiladi, shuningdek, olimlarning idroki hamda ularning ixtiro va patentlashlari haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilish bo'yicha qarorlarini o'rganadi. Biroq mualliflar masalaning ikkala jihatini ham o'rganib chiqib, moddiy rag'batlantirish va ularning ilmiy faoliyatga ta'siri to'g'risida aniq pozitsiyani egallamaydi [11, 401-b.].

Material va metodlar

Tadqiqotda intellektual mulk prinsiplarining amal qilishi, mualliflarni rag'batlantirish masalasi bo'yicha huquq normalari va huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanildi hamda ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, statistik, sotsiologik, tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik o'rganish usullari qo'llandi.

Tadqiqot natijalari

Sanoat mulki obyektlari – ixtirolar, foydali modellar yoki sanoat namunalariidan foydalanish himoyalangan yechimlarni o'z ichiga olgan mahsulotlarni ishlab chiqarish, shuningdek, o'z ishlab chiqarishida patentlangan texnologik jarayonlardan foydalanish, bunday yechimlar bilan mahsulotlarni sotish imkonini beradi. Huquq egasining ruxsati bo'lmagan taqdirda, boshqa shaxslar ushbu ixtirolar, foydali modellar yoki sanoat namunalariidan foydalanish huquqiga ega bo'lmaydi.

Fuqarolik kodeksining 1033-moddasi intellektual faoliyat natijalarining mualliflari ana shu natijalarga nisbatan shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlarga egaligini belgilaydi. Bu, o'z navbatida, har qanday intellektual mulk obyektlari mualliflarining ushbu huquq egasi sifatida rag'batlantirilishini nazarda tutadi. Zero, intellektual mulk yaratuvchisi xoh mulkiy, xoh shaxsiy nomulkiy manfaat bilan ta'minlanmas ekan, intellektual va innovation rivojlanishni tasavvur etib bo'lmaydi.

Sanoat mulk huquqining obyektlariga doir munosabatlarning asosiy qismi FKning 62-bobi hamda O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 29-avgustdagi "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi yangitahrirdagi qonuni bilan tartibga solinadi. Sanoat mulki obyektlari, avvalo, intellektual huquq sifatida ixtiro, foydali model hamda sanoat namunasiga nisbatan istisno (mutlaq) huquq hamda shaxsiy nomulkiy huquqlarni mustahkamlaydi. Shaxsiy nomulkiy huquqlar asosan mualliflik huquqiy kategoriya sifatida o'rganiladi.

Quyidagilar ixtiro sifatida e'tirof etilmaydi: ilmiy nazariyalar va matematika usullari; tashkil etish va boshqarish usullari; shartli belgilar, jadvallar va qoidalar; aqliy operatsiyalarni bajarish qoidalari va usullari;

elektron hisoblash mashinalari uchun alqoritmlar va dasturlar;

binolar, inshootlar, hududlarni rejalashtirish loyihalari va chizma tarhlari;

estetika talablarini qanoatlantirishga yo'naltirilgan, buyumlarning faqat tashqi ko'rinishiga oid yechimlar;

integral mikroshemalarning topologiyalari;

o'simlik navlari va hayvon zotlari;

jamoat manfaatlari, insonparvarlik va axloq qoidalariga zid yechimlar (O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 29-avgustdagi "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonuni 6-moddasi).

Mualliflik huquqi obyektlaridan farqli o'laroq, ixtiro yoki foydali model buyurtma asosida yaratilmaydi. Sababi mualliflik huquqi shakl, patent huquqi esa mazmunni himoya qiladi. Buyurtma asarning shaklini (janr, syujet, sarlavha) tavsiflashi mumkin, ammo texnik yechimning mazmunini oldindan belgilab bo'lmaydi.

Qayd etish lozimki, buyurtma bo'yicha sanoat namunasini yaratish mumkin. Sanoat namunasi – sanoat yoki hunarmandchilik mahsulotining badiiy va dizayn yechimidir. Buyurtma bo'yicha sanoat dizaynini yaratish imkoniyati patent huquqi bilan himoyalangan badiiy dizayn yechimi mualliflik huquqi bilan himoyalangan dekorativ-amaliy san'at va dizayn asarlari bilan juda ko'p o'xshashlikka ega ekanligi bilan izohlanadi.

Fikrimizcha, buyurtma shartnoma asosida ixtiro yoki foydali model yaratish mumkin emas. Biroq muallif ixtironi o'z shaxsiy manfaatlari uchun ham, ish beruvchining manfaatlari uchun ham ishlab chiqishi mumkin. Shunga qarab, natijaga nisbatan mutlaq huquqlarning taqsimlanishi va shunga mos ravishda mualliflik huquqiga haq to'lash masalasi hal qilinadi. Agar muallif ish faoliyati bilan bog'liq ixtironi yaratsa, huquqlarni muallifdan boshqa shaxsga – ish beruvchiga o'tkazish nazarda tutilishi mumkin.

Intellectual mulk huquqi haqidagi dastlabki nazariyalar paydo bo'lgan vaqtda yuzaga kelgan masalalardan biri qanday huquqiy rejimni belgilash edi. O'z o'rnida ishonarli huquqiy himoya rejimi sifatida sui generis tanlangan edi. Chunki sanoat mulkining nomoddiy xususiyati ularga mulk huquqining standart huquqiy modellarini qo'llash imkonini bermaydi. Shu bois maxsus huquqiy vositalar talab qilinadi va ular yordamida ushbu obyektlar tijorat muomalasiga kiritiladi.

A. Rahmatovning ta'kidlashicha, sportda o'ylab topilgan qaysidir usul yoki metod, mexanizmlar intellekt namunasi hisoblanib, ularning mualliflari boshqa intellektual mulk egalari kabi o'z g'oyalarini patentlash huquqi-

ga ega. Biroq bu faoliyat nafaqat O'zbekiston sportida, balki sport sohasi rivojlangan boshqa mamlakatlarda ham hanuzgacha u qadar ahamiyat kasb etgani yo'q [12, 64-b.].

Nazarimizda, bu o'rinda ikki muhim muammo mavjud. Birinchidan, intellektual mulkni huquqiy muhofazaga olishni vujudga keltiruvchi qaysi asos mavjud bo'lishi talab qilinadi? Bunga FKning 1032-moddasi aniqlik kiritib, yaratilish fakti, davlat organining huquqiy himoya hujjatini taqdim etish shartini belgilaydi. Biroq tashkil etish va boshqarish usullari (ixtiro sifatida) huquqiy himoya ostiga olinmaydi. Agar usul moddiy vositalar yordamida moddiy obyekt ustida xatti-harakatlarni amalga oshirish jarayoniga taalluqli bo'lgan texnik yechim bo'lsa, u holda ixtiro huquqiy maqomiga mansub bo'lib qoladi.

Ikkinchidan, har qanday aqliy amallar, masalan, hisob-kitoblar, yaxshi, ideal ko'rinishga ega bo'lgan g'oya muayyan mezon asosida intellektual mulkni himoya qilish talabiga bo'ysundirilmas ekan, unga nisbatan hech qanday huquqiy himoya vujudga kelmaydi.

Ispaniyadagi madaniy va ilmiy sohalar nafaqat munosabatlarning o'ziga xos xususiyati va ularni tashkil etuvchi tovarlar, balki davlat iqtisodiyoti uchun ahamiyati tufayli ham eng muhim sohalar qatoriga kiradi: Ispaniya YIM umumiy hajmining 4 %ini intellektual mulk tashkil qiladi.

Ispan doktrinasida intellektual mulk ko'pincha "inson aql-zakovati mahsuloti (mehnat natijalari)" sifatida e'tirof etiladi. Intellectual mulk huquqi tizimida mualliflik huquqi bilan bir qatorda sanoat mulki huquqi instituti ham ajratilgan. Global doktrinada, shu jumladan, Ispaniyada (O'zbekistonda ham) sanoat mulki huquqini uning obyektlari orqali belgilash odatiy holdir.

Shunisi e'tiborga loyiqki, Ispaniya Fuqarolik kodeksida faqat ikkita modda intellektual mulk huquqiga bag'ishlangan, ammo ularda sanoat mulki huquqlari to'g'ridan

to'g'ri ko'rsatilmagan [13, 495-b.]. Ispaniya Fuqarolik kodeksining 428-moddasiga ko'ra, "adabiyot, fan va san'at asarining muallifi undan foydalanish va undan o'zi xohlagan-cha tasarruf etishga haqli". Bu degani "fan asari" termini odatdagi mualliflik huquqi obyekti kabi sanoat mulki obyektlariga ham taalluqli [14, 41-b.].

Ispaniya Sanoat mulkini himoya qilish to'g'risidagi Parij konvensiyasi nafaqat ixtiro, foydali model va sanoat namunasi, balki tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisi, integral mikrosxemalar topologiyasi, firma nomi, tovar kelib chiqqan joy nomlarini ham sanoat mulki obyekti sifatida belgilaydi.

2011-yilda Yevropa Ittifoqi va bir qator davlatlar kontrafaktga qarshi kurashish bo'yicha Savdo bitimini imzoladilar. 2012-yil iyun oyida Diplomatik konferensiyada audio-vizual ijrolar bo'yicha Pekin shartnomasi tasdiqlandi [15]. Hozirgi vaqtda BIMT "an'anaviy bilimlar" sohasidagi qonunchilikni tartibga solish masalalarini muhokama qilmoqda, ya'ni an'anaviy kontekstdagi intellektual faoliyat natijasida olingan bilimlar, jumladan, nou-xau, ko'nikmalar, innovatsiyalar, amaliyotlar va an'anaviy bilim tizimlarining bir qismini tashkil yetuvchi bilimlar kabi. Bu sohaga genetik resurslar va bioresurslar ham kiradi [15].

2011-yilgi patent islohoti natijasida AQSh Ixtirolar to'g'risidagi federal qonuni (America Invents Act) [16] 1952-yildagi AQSh Patent qonuniga jiddiy o'zgartirishlar kiritdi. Bu AQSh Kodeksi 35-bo'limining bir qismi hisoblanadi. 2011-yil patent islohoti ixtirolar "yangiligi" va "patentga layoqatliligi" tushunchalari mazmunini aniqlab berdi, "hosila" patentlarga oid nizolarni hal qilish tartibini o'zgartirdi, patent bojlari diversifikatsiya qilindi, kichik biznes subyektlariga imtiyozlar belgilandi. Ammo asosiy tub o'zgarish – AQSh "birinchi ixtiro" – "first-to-file" tamoyiliga asoslangan ixtirolarni patentlash tizimi dunyoning aksariyat mamlakatlarida "birinchi ixtiro" tamoyili bo'yicha qo'llaniladigan patentlash tizimi bilan almashtirildi.

Ilgari AQSh patent qonunchiligida faqat ixtirochining o'zi patent olish uchun ariza berish majburiyatini nazarda tutgan yagona davlat edi. Ushbu qonun Amerika ixtirochilarni himoya qilish to'g'risidagi qonun (1999-yil 29-noyabr, American Inventors Protection Act) tashabbusi bilan boshlangan va 2002-yil (2002-yil 2-noyabr) Intellektual mulk va yuqori texnologiyalarga texnik o'zgartirishlar to'g'risidagi qonun bilan to'ldirilgan AQSh patent qonunini isloh qilishni davom ettirdi (Intellectual Property and High Technology Technical Amendments Act of 2002) [17].

Shu bilan birga, qonunchilikdagi yangiliklarga qaramay, AQSh patent qonuni [18], qoida tariqasida, ixtirochi yoki vakolatli shaxsga patentga talabnoma berish huquqi va ixtirochi huquqlarini ustuvor himoya qilish majburiyatini saqlab qoldi. 2011-yildagi Patent islohoti to'g'risidagi qonun (right of prior use) AQSh patent qonunida ilgari AQShda patent-huquqiy munosabatlarda cheklangan tarzda qo'llanadigan "oldindan foydalanish huquqi" kabi taniqli patent huquqi institutini to'liq qonuniylashtirdi [19].

Oldindan foydalanish huquqi ixtiroga patent olish uchun ariza berishdan oldin (konvensiya ustuvorligi sanasidan oldin) va patent egasidan qat'i nazar, uni ishlab chiquvchi (korxona, tashkilot) tomonidan ixtirodan keyingi tekin foydalanish huquqidan iborat. Ma'lum bir mamlakat hududida patent egasining bir xil ixtironi qo'llagan yoki bunga tayyorgarlik ko'rgan holda, 2011-yildagi Patent islohoti to'g'risidagi qonunga muvofiq, o'zgartirishlar kiritib, har qanday shaxsning usul yoki mashina, buyum, ishlab chiqarishda ishlatiladigan moddaning tarkibiga nisbatan huquqlarini himoya qiladi.

Bunday holda, himoya shaxsga ikki shartga muvofiq berilishi mumkin:

agar u vijdonan harakat qilsa, obyektidan tijorat maqsadida AQShda yoki ichki savdo uchun foydalansa;

agar tijoratda foydalanish da'vo qilingan ixtiroga talabnoma haqiqiy topshirilgan yoki talabnoma berilgan ixtiro ommaga oshkor qilingan sanadan kamida bir yil oldin sodir bo'lgan bo'lsa, himoya so'ragan shaxs ishonchli dalillarni taqdim etishi kerak.

Germaniyaning "Dizaynni himoya qilish to'g'risida"gi qonunida [20] sanoat mulki-ning obyekti hisoblangan sanoat namunasi (dizayn) tushunchasi berilgan. Dizayn – bu butun yoki uning bir qismi sifatida ikki o'lchovli yoki uch o'lchovli namuna bo'lib, u xususiyatlari, ya'ni chiziqlari, konturlari, rangi, shakli, tuzilishi va materiali bilan ajralib turadi. Mahsulot har qanday sanoat yoki hunarmandchilik mahsuloti, jumladan, qadoqlash, jihozlar, grafik va tipografik belgilar yoki murakkab mahsulotni yaratuvchi mahsulot komponentlari bo'lishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, "badiiy dizayn" jumlasini "dizayn" so'zi bilan oddiy almashtirilgan. Sanoat namunasi konsepsiyasi yangi "dizayn" tushunchasi ta'rifi yoki uni "badiiy dizayn" tushunchasi bilan identifikatsiyalashni talab qiladi va bu har doim ham bir xil ma'no bermaydi.

Dizayn ko'plab sohalarda, jumladan, reklama, muhandislik, dasturiy ta'minot va raqamli texnologiyalar, zamonaviy moda, musiqa va boshqa ishlab chiqarishlarda asosiy element hisoblanadi. Buyuk Britaniya qonunchiligi mualliflik huquqi bilan himoyalangan dekoratsiya obyektlari, illyustratsiyalar, bezaklar uchun "dizayn huquqi" (dizayn huquqi) hamda istisno (eksklyuziv) mulkiy huquqlarni ajratadi.

Buyuk Britaniyada ham sanoat namunasiga nisbatan huquqlar belgilangan bo'lib, sanoat dizayni yangi yoki original va amaliy sanoat qo'llanishiga ega bo'lgan mahsulotning dekorativ yoki estetik ko'rinishidir. Sanoat namunasi shakllari, masalan, har qanday ishlab chiqarish jarayoni yoki vosita tomonidan mahsulotga qo'llanadigan va uning tashqi ko'rinishini ajratib turadigan naqsh, konfiguratsiya, bezak yoki mahsulot rangidir. Ammo

qurilish usuli yoki prinsipi yoxud faqat mahsulotdagi funksional maqsadlari bilan belgilanadigan shakl yoki konfiguratsiya xususiyatlari sanoat namunasi shakllariga taalluqli emas. Dizayn vizual jozibador bo'lishi va o'z vazifasini samarali bajarishi kerak. Sanoat modeli yoki namunasiga bo'lgan mutlaq huquq mahsulot (obyekt)ning asl, dekorativ va funksional bo'lmagan tashqi xususiyatlarini himoya qilish uchun ishlatiladi. Sanoat namunasi obyektlariga bo'lgan huquqlar Buyuk Britaniyaning vakolatli davlat organlari tomonidan ro'yxatga olish tizimiga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilishi kerak [21].

O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 29-avgustdagi "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonuni fuqarolik huquqi bilan bir qatorda ayrim ma'muriy-huquqiy va protsessual munosabatlarni ham tartibga soladi. Unda boshqa qonun hujjatlariga havolalar ham mavjud.

Tadqiqot natijalari tahlili

Sanoat mulki obyektlari mualliflarini shaxsiy va mulkiy rag'batlantirish shart. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy chora va mexanizmlar mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Mualliflarni rag'batlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

1. Sanoat mulki obyektlari mualliflarini shaxsiy rag'batlantirish mualliflik huquqini belgilash, muayyan ilmiy obro'-e'tiborga ega bo'lish, alohida huquqiy muhofaza (patent) egasi sifatida tan olish.

2. Sanoat mulki butun dunyoda texnologik taraqqiyot, ishlab chiqarishning o'sishi, tibbiyot, energetika va boshqa sohalarda yangi ilmiy ishlanmalar paydo bo'lishi munosabati bilan tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

3. Xorijiy mamlakatlarda patentlar va ilmiy darajalar ikki xil turli konsepsiya, tushuncha bo'lib, aksariyat xorijiy mamlakatlarda ular bir-biri bilan bevosita bog'liq emas.

Sanoat mulki obyekti yaratilar ekan, uni fuqarolik muomalasiga qanday nom ostiga

kiritish masalasi hal qilingan bo'lishi zarur. Ayrim hollarda ijodiy faoliyat mahsuliga nisbatan mualliflar o'z familiyalarini ham berish holatlari uchraydi. Masalan, 1817-yilda Jeyms Parkinson parkinson kasalligini topgan.

Sobiq Ittifoq davrida ham turli davlat mukofotlari, faxriy unvonlar, medallar berish tizimi mavjud edi. Biroq bu rag'batlantirish tizimli bo'lmagan, rag'batlantirishga yetarli hissa qo'shmas edi.

Bugungi kunda aholi, ayniqsa, tadbirkorlar o'rtasida intellektual mulk sohasida bilim va ko'nikmalar yetishmasligi sababli ularning bundan samarali foydalanish imkoniyatlari yuqori emas. 2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasida o'tkazilgan tahlillar intellektual faoliyatni rivojlantirish, ilg'or intellektual faoliyat natijalarini qo'llash orqali ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, intellektual mulkni huquqiy himoya qilish, davlat organlari va tashkilotlarining ushbu yo'nalishdagi o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini zamon talablariga moslashtirish, intellektual mulk obyektlari qo'llangan mahsulotlar hajmini oshirish hamda ichki va tashqi bozorlarda o'z nomi (brendi)ga ega bo'lgan raqobatbardosh mahsulotlar turlarini kengaytirish borasidagi ishlar lozim darajada olib borilmayotgani ko'rsatilgan. Xususan:

intellektual mulk obyektlarini ishlab chiqarish jarayonlariga jalb qilish ko'rsatkichlari juda past;

aholi va tadbirkorlik subyektlari intellektual mulk sohasi bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega emas;

xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z faoliyatiga intellektual faoliyat natijalarini joriy qilishdan manfaatdor emas;

ixtirochilar va novatorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmagan;

intellektual mulk obyektlarining huquqiy himoyasini ta'minlash uchun mas'ul vazirlik va idoralar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik lozim darajada yo'lga qo'yilmagan, ilmiy tadqiqot

muassasalari va laboratoriyalarning intellektual mulk sohasi bilan bog'liq faoliyati yetarli darajada muvofiqlashtirilmagan;

ilmiy ishlanmalarni fuqarolik muomalasiga kiritish ko'rsatkichlari past;

"IP Management" (intellektual mulkni boshqarish) sohasida intellektual mulk obyektlarini rivojlantirish va ularning transferi bilan faol shug'ullanuvchi yuqori malakali mutaxassislar yetishmaydi;

intellektual mulkni huquqiy himoya qilish lozim darajada emas. Ushbu sohada, ayniqsa, davlat organlari va tashkilotlarida malakali mutaxassislar yetishmaydi;

ta'lim tashkilotlarida insonlarning intellektual faoliyat natijalariga hurmat hissini shakllantirishga qaratilgan amaliy tadbirlar o'tkazilmaydi;

ta'lim jarayonida o'zgalarning intellektual mulk obyektlaridan to'g'ri foydalanishga o'rgatish, ko'chirmachilikning (plagiat) oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar yetarlicha amalga oshirilmagan;

kontrafakt mahsulotlar realizatsiyasiga qarshi kurashish bilan bog'liq ishlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqiladigan va uning hududiga olib kiritiladigan tovarlar bo'yicha intellektual mulkni huquqiy himoya qilish lozim darajada tashkil qilinmagan.

Qayd etilgan kamchiliklar mamlakatimizda intellektual mulk sohasining jadal rivojlaniishi, jahon bozorlarida O'zbekiston nomini ifoda qiluvchi mahsulotlar eksporti hajmining ortishi, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, iqtisodiyotning o'sishi hamda davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarini rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2015-yil 20-martdagi 214/9-son qaroriga ilova bilan tasdiqlangan "Dissertatsiyalar ilmiy natijalarining amaliyotga joriy qilinishini baholash bo'yicha uslubiy ko'rsatma"da nazariy va amaliy ahamiyatga molik dissertatsiyaning ilmiy natijasi

sifatida intellektual mulk obyektiga mutlaq huquqning e'tirof etilishi – ixtiro va seleksiya yutug'iga patent hamda falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasi uchun foydali model va sanoat namunasiga patent olingan va ushbu huquq amalda bo'lganda amaliyotga joriy etilgan hisoblanishi nazarda tutilgan.

Ilmiy darajalar berish tartibi to'g'risida nizomga ko'ra (23.06.2017-yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2894), fan doktori (Doctor of Science) va falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasi uchun qonunchilik farqli talablarni qo'yadi. Fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya muhim ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy yoki amaliy muammolar yechimi yoki tegishli fan sohasining istiqbolli yo'nalishini rivojlantirish uchun yirik yutuq sifatida baholanadigan yangi nazariy qoidalar kompleksi ishlab chiqilganligi yoxud joriy etilishi, fan va texnika, ijtimoiy-siyosiy soha yoki iqtisodiyot tarmog'ining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shadigan nazariy-metodologik va uslubiy asoslar, ilmiy asoslangan texnik, iqtisodiy yoki texnologik yechimlar ishlab chiqilgan (takomillashtirilgan) bo'lishi lozim.

Yuqoridagidan farqli ravishda falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya bilimlarning tegishli sohasida muhim ahamiyatga ega masalaning yangi yechimidan iborat yoki dolzarb ilmiy masalaning yechimiga qaratilgan ilmiy asoslangan ilmiy-texnik yoki ijtimoiy-iqtisodiy tavsiyalar ishlab chiqilgan tugallangan ilmiy ish bo'lishi lozim.

Darslik muayyan o'quv fanining mavzulari tizimli, chuqur va to'liq yoritilgan, tegishli fan mazmunini belgilangan hajmda mukammal o'zlashtirishga qaratilgan, mazmunan va shaklan ta'lim turlariga (o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim (bakalavriat, magistratura)) moslashtirilgan, o'quvchi va talabalarda fanga taalluqli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanishiga, ijodiy qobiliyatlar rivojlanishiga xizmat qiladigan, rasmiy tas-

diqlanadigan asosiy o'quv nashri hisoblanadi. Monografiya esa bunday talabga javob bermaydi.

Fikrimizcha, sanoat mulki obyektini yaratish va joriy etish bo'yicha fan doktori (Doctor of Science) va falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun qat'iy mezon belgilanishi zarur. Bunda ilmiy natija masalan, sanoat mulki obyekti yaratilib unga patent olingan holda natija tor doirada joriy qilingani uchun PhD, keng doirada masalan, iqtisodiyotning muhim tarmog'i, strategik ishlab chiqarishda qo'llash uchun esa DSc ilmiy darajasiga munosib bo'lishi zarur.

Hozirgi kunda FK, O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 29-avgustdagi "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonuni ixtiroga O'zbekiston Respublikasi patentini berish uchun talabnoma tuzish, topshirish va ko'rib chiqish qoidalarining (22.03.2004-yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 1329) asosiy huquqiy manbasi hisoblanadi. Ba'zi o'rinlarda ushbu qonunosti hujjati, ya'ni qoidalarda turli kasb-kor, sohalarga doir terminlar ham qo'llanilgan. Bu, o'z navbatida, huquqiy normani to'g'ri tushunishni qiyinlashtiradi. Fikrimizcha, dunyo tajribasidan kelib chiqib, sanoat mulki obyektlariga doir qonunchilikni kodifikatsiyalash zarur.

Sanoat mulki obyektlari mualliflarini rag'lantirish bilan bir qatorda jamiyat manfaatlari quyidagilar bilan ta'minlanadi:

1. Patent arizalarini ko'rib chiqishda intellektual mulk organlari jamoat manfaatlarini hisobga oladi.

2. Patent huquqi jamoat manfaati uchun zarur bo'lganda, patent huquqlariga istisno yoki cheklovlar taqdim etishi mumkin.

3. Ba'zi hollarda hukumatlar monopoliyaga qarshi choralarini qo'llashi mumkin.

Xulosalar

Sanoat mulki obyektlari mualliflarini rag'batlantirish masalalari murakkab bo'lib, mualliflarning huquqlari va jamoat manfaatlarini himoya qilish o'rtasidagi muvozanat-

ni topish zarur. Intellektual mulk himoya-sining haddan ziyod va uzoq muddat amal qilishi texnologiyadan foqdalanishni chek-lashi mumkin. Shu boisdan mualliflarning huquqlarini himoya qilish va jamoat manfaat-larini ta'minlash o'rtasida "oltin ko'prik"ni to-pish muhimdir.

Sanoat mulki obyektiga patent olish mu-allif maqomi va ilmiy faoliyatini yaxshilashi mumkin. Bu ularning tadqiqotlarining o'zi-ga xosligi va ahamiyatini ham tasdiqlaydi [22, 23]. Patentlash professional nuqtayi nazardan qoniqish va mulkiy daromadni ham oshiradi. Sanoat mulki obyektlari mualliflar-ining tadqiqot va patent faoliyatidagi ishtiro-ki moliyaviy imtiyozlarni kutish bilan emas, balki ularning an'anaviy ilmiy qiziqishlari bilan, masalan, e'tirof va hurmatga sazovor bo'lishga bog'liqdir.

Sanoat mulki obyektini yaratish va joriy etish bo'yicha fan doktori (Doctor of Science) va falsafa doktori (Doctor of Philosophy) il-miy darajasini olish uchun qat'iy mezon bel-gilanishi zarur. Sanoat mulki obyektini yaratilib

unga patent olingan holda natija tor doirada joriy qilingani uchun PhD, keng doirada mas-alan, iqtisodiyotning muhim tarmog'i, strate-gik ishlab chiqarishda qo'llash uchun esa DSc ilmiy darajasiga munosib bo'lishi zarur.

Yurtimizda falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi bo'yicha talabgorlarning 2990 na-fari dissertatsiya ochiq himoyasi va 41 na-fari patent asosida daraja olgan [24]. Sanoat mulki obyektlari mualliflarini shaxsiy va mulkiy rag'batlantirishga qonunchilik dara-jasida e'tibor qaratish zarur. Ba'zan iqtisodiy rivojlantirish maqsadida juda tor sohalarda turli imtiyozlar berilishi holatlari kuzatila-di. Albatta, imtiyozlar doirasining kengayishi fuqarolik-huquqiy tartibga solish prinsipiga monand bo'lmasa-da, intellektual mulk so-hasi alohida va muhim e'tibor qaratiladigan, xorijiy investitsiyalar, investitsiyaviy joziba-dorlikni oshirishni talab qiladi. Shu bois FKda davlat ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalarini yaratish va ulardan foydalan-ishni rag'batlantirishi hamda turli imtiyozlar, afzalliklar nazarda tutilishi lozim.

REFERENCES

1. Yillik hisobot [Annual report]. Available at: <https://my.ima.uz/uploads/files/2021-yillik-hisobot-uz.pdf>
2. Savina V.S. Perspektivnyye napravleniya razvitiya prava intellektual'noy sobstvennosti [Promising directions for the development of intellectual property law]. *Copyright*, 2018, no. 2, pp. 23–36.
3. Bliznes I.A. Voprosy intellektual'noy sobstvennosti [Intellectual property issues]. Moscow, 2004, 495 p.
4. Omarova Yu.A. Sredstva individualizatsii grazhdan [Means of individualization of citizens]. *Aktual'nyye problemy rossiyskogo prava – Actual Problems of Russian Law*, 2018, no. 6 (91), pp. 75–81. DOI: 10.17803/1994-1471.2018.91.6.075-081
5. Abil Abadín A. La moda como referente. La huella internacional de las marcas españolas de moda [Fashion as a reference. The international footprint of Spanish fashion brands]. 2017, pp. 10–11.
6. Ruiz Moreno M.F. The triangle of business success: Innovation, brand and exports. Alicante. Spanish Patent and Trademark Office, Association for the Defense of the Brand, 2016, 97 p.
7. Otero Lastres J.M., Fernandez-Novoa C., Botana Agra J. M. Manual of Industrial Property. 3rd ed. Madrid, Marcial Pons Publ., 2017, p. 781.
8. Long C. Patent signals. *The University of Chicago Law Review*, 2022, no. 69, pp. 625–679. DOI: 10.2307/1600501

9. Long J.S., Freese J. Regression models for categorical dependent variables using STATA. 2nd ed. College Station, Stata Press Publ., 2006.
10. Jensen K., Murray F. The intellectual property landscape of the human genome. *Science*, 2005, pp. 239–240. DOI: 10.1126/science.1120014
11. Göktepe-Hulten D., Mahagaonkar P. Inventing and patenting activities of scientists: in the expectation of money or reputation? *The Journal of Technology Transfer*, 2010, vol. 35, pp. 401–423.
12. Rahmatov A. Sportda intellektual mulkni shartnomaviy tartibga solish masalalari [Issues of contractual regulation of intellectual property in sports]. *Lawyer Newsletter*, 2021, no. 1, p. 64.
13. Bliznes I.A. Voprosy intellektual'noy sobstvennosti [Intellectual property issues]. Moscow, 2004, 495 p.
14. Dmitriyeva Ye.O., Dmitriyev O.V. Ob'yekty prava promyshlennoy sobstvennosti v ispanskoy zakonodatel'stve [Objects of industrial property rights in Spanish law]. *Bulletin of Omsk University, Series "Right"*, 2019, p. 41.
15. Anti-Counterfeiting Trade Agreement (ACTA). Available at: <http://ec.europa.eu/trade/tackling-unfair-trade/acta/>
16. Beijing Treaty on Audiovisual Performances. 2012, June 26. Available at: http://www.wipo.int/treaties/en/ip/beijing/beijing_treaty.html
17. Ob'yedinennyy dokument, kasayushhiysya intellektual'noy sobstvennosti i geneticheskikh resursov [Consolidated Instrument on Intellectual Property and Genetic Resources]. Available at: http://www.wipo.int/edocs/mdocs/tk/ru/wipo_grtkf_ic_20/wipo_grtkf_ic_20_ref_facilitators_text.pdf
18. Leahy-Smith America Invents Act. Patent Reform Act 2011. Available at: http://www.uspto.gov/aia_implementation/20110916-pub-l112-29.pdf
19. United states patent and trade mark office. Available at: <http://www.uspto.gov/patents/law/aipa/index.jsp>
20. Commission Regulation (EC) No. 876/2007 of 24 July 2007 amending Regulation (EC) No. 2245/2002 implementing Council Regulation (EC) No. 6/2002 on Community designs.
21. Dids Macdonald. Safeguarding Design Assets: A UK Perspective. Available at: http://www.wipo.int/wipo_magazine/en/2012/01/article_0005.html
22. Owen-Smith J., Powell W. Careers and contradictions: Faculty responses to the transformation of knowledge and its uses in the life sciences research. *Sociology of Work*, 2001, no. 10, pp. 109–140. DOI: 10.1016/S0277-2833(01)80023-6
23. Owen-Smith J., Powell W. The expanding role of university patenting in the life sciences: Assessing the importance of experience and connectivity. *Research Policy*, 2003, no. 32, pp. 1695–1711. DOI: 10.1016/S0048-7333(03)00045-3
24. Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan. Available at: <https://oak.uz/pages/9049>

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.4./TJZV4291>
UDC: 347:349.2(045)(575.1)

INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARI TIZIMIDA AXBOROT OLIH HUQUQI

Aslonov Navro'zbek Rustamovich,

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi

Milliy markazi tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0005-1532-5822

e-mail: aslonovnavruzbek@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada insonning axborot olish huquqiga doir hujjatlar va ularning qisqacha tahlili keltirib o'tilgan. Insonning axborot olish huquqi inson huquqlari tizimining tarkibiy qismlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Inson huquqlarini ta'minlashda axborot olish muhim ahamiyatga ega va demokratik davlatlarning muhim belgilaridan biridir. Insonning axborot olish huquqi masalasi, shuningdek, axborot huquqiy munosabatlarining umumiy masalalari ilmiy yangilikka ega va mahalliy huquq fanida endigina o'z o'rnini egallamoqda. Qonun chiqaruvchi organning axborot olish huquqi muammosiga qiziqishi ortmoqda. Bugungi kunda ushbu yo'nalishda qonunchilik ishlari faol olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan Axborot kodeksi loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi. Axborot olish huquqi tushunchasi va uning huquqiy mohiyati, turlari, huquqiy munosabatlardagi o'rnini batafsil o'rganish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Kalit so'zlar: qonun, axborot, konstitutsiyaviy huquq, internet, demokratiya, qonunchilik.

ПРАВО НА ИНФОРМАЦИЮ В СИСТЕМЕ ПРАВ И СВОБОД

Асланов Наврузбек Рустамович,

базовый докторант Национального центра
по правам человека Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье указываются документы о праве лица на получение информации и их краткий анализ. Право человека на информацию признано одним из компонентов системы прав человека. Доступ к информации важен для обеспечения прав человека и является одной из важных особенностей демократических государств. Вопрос о праве лица на информацию, как и общие вопросы информационно-правовых отношений, имеет научную новизну и только сейчас занимает свое место в сфере местного права. Возрастает интерес законодательного органа к проблеме права на информацию. Сегодня активно ведется законодательная работа в этом направлении. В частности, Агентство информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан вынесло на общественное обсуждение проект Информационного кодекса. В связи с этим на сегодняшний день все большее значение приобретает детальное изучение понятия и правовой сущности права на информацию, его видов и места в правоотношениях.

Ключевые слова: право, информация, конституционное право, Интернет, демократия, законодательство.

RIGHT TO INFORMATION IN THE SYSTEM OF HUMAN RIGHTS AND FREEDOMS

Aslanov Navruzбек Rustamovich,
Doctoral student of the National Center
for Human Rights of the Republic of Uzbekistan

Abstract. *In this article, the documents on the right of a person to receive information and their brief analysis are cited. A person's right to information is recognized as one of the components of the human rights system. Access to information is important for ensuring human rights and is one of the important features of democratic states. The issue of a person's right to information, as well as the general issues of information-legal relations, has scientific novelty and is just taking its place in the field of local law. The interest of the legislative body in the problem of the right to information is increasing. Today, legislative work in this direction is actively being carried out. In particular, the Information and Mass Communications Agency under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan put the draft "Information Code" for public discussion. In this regard, a detailed study of the concept and legal essence of the right to information, its types, and its place in legal relations is gaining importance today.*

Keywords: law, information, constitutional law, internet, democracy, legislation.

Kirish

Demokratik davlatlar demokratiya asoslaridan biri sifatida insonning axborotga bo'lgan huquqini e'tirof etib, o'z milliy qonunchiligida aks ettirmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasida insonning axborot olishga bo'lgan huquqi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasida axborot olishga doir o'nga yaqin qonun mavjud bo'lib, ularni umumiy kodeks shakliga keltirish ishlari davom etmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev: "Axborot va matbuot erkinligi, fuqarolarning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi, davlat idoralari faoliyatining ochiqqligi va oshkoraligi Yangi O'zbekistonning sifat ko'rsatkichlaridan biriga aylanadi. Bu yo'lni davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri deb bilamiz va qat'iy davom ettiramiz. Axborotlashgan jamiyatning huquqiy asoslarini takomillashtirish maqsadida Axborot kodeksini qabul qilamiz", – deb ta'kidlagan edi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi PF-6012-sonli farmoniga ko'ra, "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy strategiyasi"

qabul qilindi. Ushbu strategiyada "Fuqarolik va axborot jamiyati rivojlanishining eng muhim omillaridan biri sifatida ma'lumot olish imkoniyatlarini tizimlashtirish, axborot makonida inson huquqlari erkinligini himoya qilish, kiberxavfsizlik, media madaniyat va onlayn gigiyenaga rioya qilishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining Axborot kodeksi loyihasini ishlab chiqish" muhim vazifa etib belgilandi [2].

Inson huquqlarini ta'minlashda axborot olish huquqi muhim ahamiyatga ega. Bunda axborotning aniq va haqqoniy bo'lishini ta'minlash lozim. Axborot asrida dunyoni harakatlantiruvchi asosiy kuch axborot ekani hech kimga sir emas. XX asr oxirida "axborot jamiyati" va "axborotlashuv" atamaları na-faqat mazkur soha vakillari, balki siyosatchilar, iqtisodchilar, olimlar va pedagoglar lug'at boyligidan ham mustahkam o'rin egalladi. Axborot asri deb atalayotgan hozirgi zamon-da ma'lumot olish va axborot almashishning eng qulay vositasi – internetdir. Internet cheksiz ma'lumotlar makoni bo'lgani uchun insonlarning axborot borasidagi huquqiy bilimlarini boyitish lozim. Shundagina insonlar haqqoniy axborotni farqlay oladi.

Material va metodlar

Mazkur maqolani tahlil etishda ilmiy bishning tarixiy, tizimli, mantiqiy (analiz, sintez), qiyosiy-huquqiy, huquqni qo'llash amaliyotini tahliliy o'rganib chiqish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Axborot nimani anglatishini aniqlash muhimdir. Bir tomondan, ma'lumot biror narsa haqida xabar sifatida tushuniladi, ikkinchi tomondan, saqlash, qayta ishlash va uzatish obyekti bo'lgan axborot sifatida qaraladi. Axborot atamasiga O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonunida quyidagicha ta'rif berilgan: "Axborot – manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'i nazar, shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar" [3]. Ushbu tushunchaga asoslanib, axborot olish huquqi, bir tomondan, biror narsani yetkazish huquqi, boshqa tomondan, saqlanadigan, qayta ishlanadigan va ma'lumotlarga bo'lgan huquq sifatida e'tirof etilishi kerak. Axborot olish huquqi biror narsa haqida ma'lumot berish, ya'ni axborot faoliyatini amalga oshirish, har qanday ma'lumotni tarqatish, shuningdek, har qanday ma'lumotni olish, egallash, saqlash, qayta ishlash huquqidir.

Insonning axborot olish huquqi xalqaro miqyosda ham e'tirof etilib, unga doir turli qonun hujjatlari qabul qilinmoqda. BMTning 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasida "Har bir inson e'tiqod erkinligi va uni erkin ifoda qilish huquqiga ega. Bu huquq hech bir to'siqsiz o'z e'tiqodiga amal qilish erkinligi hamda axborot va g'oyalarni har qanday vosita bilan, davlat chegaralaridan qat'i nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligini o'z ichiga oladi" [4], deb belgilangan.

1966-yil qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi paktning 19-moddasida ham axborot olish huquqi to'g'risida

ma'lumot keltirib o'tilgan. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida axborot sohasining roli ortib, davlatimiz qonunlarida ham mustahkam qaror topmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasida "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Davlat internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi. Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda konstitutsiyaviy tuzum, aholining sog'lig'i, ijtimoiy axloq, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligi hamda jamoat tartibini ta'minlash, shuningdek, davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo'lgan doirada yo'l qo'yiladi", deb belgilangan [5].

Insonning axborot olishiga oid qonun hujjatlarini ishlab chiqish bugungi kunda zamonaviy demokratik davlat faoliyatining umum e'tirof etilgan standarti sifatida keng muhokama qilinmoqda. Fuqaroning davlat organlari faoliyati haqida ma'lumot olishi ham axborot olish huquqi sifatida tushuniladi, ya'ni davlat organlari o'z vakolatlari ni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni fuqarolarga yetkazishi va ularni xabardor qilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 6-noyabrda 320-son qarorining 3-qismida "ochiqlikni ta'minlashning samarali tizimlarini shakllantirish, fuqarolarning axborotni erkin olishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga metodik, maslahat yordami berish, ushbu sohada zarur standartlar va hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish" belgilangan [6].

Tarixan aynan so'z, fikr bildirish va matbuot erkinligi huquqining paydo bo'lishi axborot olish huquqi shakllanishiga olib keladi. Insonning axborot olish huquqi-

ni konstitutsiyaviy huquq deb hisoblash mumkin, chunki O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson va fuqaroning asosiy huquq va erkinliklari sifatida "har qanday qonuniy yo'l bilan ma'lumotni erkin izlash, olish, uzatish, ishlab chiqarish va tarqatish huquqini" belgilaydi [7].

Shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, har kimga ularning huquq va erkinliklariga bevosita daxldor bo'lgan hujjatlar va materiallar bilan tanishish imkoniyatini ta'minlash majburiyatini yuklaydi.

O'z navbatida, insonning mavjudligi tashqi dunyo bilan doimiy axborot almashinuvidan iborat ekanligini ta'kidlash kerak. Demak, axborot olish huquqi eng umumiy ma'noda insonning tabiiy huquqi va uning yashashi uchun zaruriy shartdir. Yuqorida aytilganlarni, shuningdek, axborotdan foydalanish huquqi axborot olish huquqining bir qismi ekanligini hisobga olsak, ushbu hodisaning tabiiy mohiyatini ko'rish mumkin. Demak, axborotdan foydalanishning asosi insonning tabiiy va ijtimoiy muhitda mavjudligining sharti sifatida axborotga bo'lgan tabiiy huquqidir.

Insonning axborot olish huquqini ro'yobga chiqarish, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan axborotdan erkin foydalanishini ta'minlash, hokimiyat organlarining axborot ochiqligi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining eng muhim sharti va mezonidir, desak mubolag'a bo'lmaydi. Fuqarolarning axborot olish huquqini ta'minlash ularning davlat hayotida nafaqat rasmiy, balki real ishtirokini ta'minlaydi. Ushbu huquqni amalga oshirish mexanizmini to'g'ri tartibga solish uchun axborot olish huquqining yaxlit nazariy konsepsiyasini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy hamda qonunchilik asosida to'plangan materialni tahlil qilish va umumlashtirish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining axborot olish erkinligi va kafolatlari to'g'risidagi

Qonuni 7-moddasiga ko'ra, "Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar har kimga o'zining huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan qonunchilik hujjatlari bilan, shuningdek, hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishga majburdir. Axborot olish imkoniyati qonunchilik hujjatlari va tegishli materiallarni e'lon qilish hamda tarqatish yo'li bilan ta'minlanadi" [8].

Demokratiyaning zamonaviy tamoyillari nuqtayi nazaridan davlat va jamiyatning ochiqligi axborot olish huquqini kafolatlaydi. Aslida, bu axborotlashgan fuqarolik jamiyatiga erishish vositasi, ochiqlik esa uning faoliyatining umumiy usuli hisoblanadi. Demak, axborot olish huquqi yangi sharoitda jamiyat, shaxs va davlat o'rtasidagi munosabatlarning eng muhim shaklidir.

Ijtimoiy hayotda axborot olish huquqi bir qator funksiyalarni bajaradi. Ulardan eng muhimi butun siyosiy tizimni samarali boshqarish va takomillashtirish maqsadida davlat zamonaviy mexanizmining yetakchi tamoyili sifatida axborot ochiqligini ta'minlashdir.

Axborot olish huquqi va so'z erkinligi axborot erkinligining ikkita alohida elementidir. Axborot erkinligining keng chegaralari uning mazmuniga fuqarolarning boshqa barcha axborot huquqlari va erkinliklarini kiritish imkonini beradi. Shu bilan birga, axborot erkinligi umuman jamiyatdagi aloqa va axborot almashish sohasini qamrab oladi hamda insonning shaxsiy axborot faoliyati sohasiga aralashmaslikni kafolatlaydi.

Aynan axborot olish huquqi davlatning fuqarolik jamiyati oldidagi majburiyatlari doirasida faoliyat yuritadi. Axborot erkinligining elementi bo'lgan axborot olish huquqi, o'z navbatida, umumiy va xususiy axborotdan foydalanish huquqi bilan bog'liqdir. Axborotdan foydalanish huquqi davlat va ma'muriy rasmiy hujjatlardan foydalanishni ta'minlash

orqali axborotga bo'lgan umumiy huquqning amalga oshirilishini kafolatlaydi.

Dunyodagi birinchi axborot erkinligi qonuni 1766-yilda Shvetsiyada qabul qilingan Matbuot erkinligi to'g'risidagi qonundir. Shvetsiya konsepsiyasiga ko'ra, fuqarolarning axborot olishi so'z erkinligining zaruriy sharti sifatida qaraladi. Bundan tashqari, jamoatchilik davlat organlari faoliyatini nazorat qilish imkoniyatiga ega. Hozirgi vaqtda ochiqlik tamoyili va axborot olish huquqi bir qator xorijiy davlatlar konstitutsiyaviy va tarmoq qonunchiligida batafsil huquqiy tartibga solinmoqda. Xuddi shunday, axborot olish huquqining maqsadi demokratik mexanizmni kafolatlash va amalga oshirish bilan bog'liq holda belgilanadi.

Amerikaning axborot erkinligi to'g'risidagi qonunchiligi 1966-yilda qabul qilingan hamda ochiq hukumat va siyosiy jarayonni ta'minlash bilan bevosita bog'liq. Keyinchalik qarama-qarshi tendensiyalar yuzaga keldi va ko'proq maxfiylikka qaratilgan bir qator qarshi islohotlar amalga oshirildi. Biroq hozirda AQShning barcha ijroiya organlari tegishli qonunchilikka bo'ysunadi.

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi axborot olish huquqini Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasining 10-moddasida kafolatlangan huquqlar qatoriga kiritadi. Insonning axborot olish huquqida ommaviy axborot vositalarining ham o'rni beqiyos. Chunki fuqarolar siyosiy yangiliklarni ommaviy axborot vositalari orqali oladi. Ommaviy axborot vositalari faoliyatini erkinlashtirish borasida xalqaro va milliy qonunchilik alohida ahamiyat kasb etgan.

1999-yilning 18-19-noyabr kunlari Turkiyaning Istanbul shahrida bo'lib o'tgan Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining oliy darajadagi sammitida quyidagi fikrlar bildirilgan: "Biz har qanday demokratik jamiyatda siyosiy muloqotning eng muhim unsurlaridan biri bo'lgan o'z fikrini erkin bildirishni ta'minlash zarurligini ta'kidlaymiz. Biz

ommaviy axborot vositalari erkinligi bo'yicha vakil byurosining erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishga ko'maklashish borasidagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaymiz". [9]. Bundan ko'rinadiki, insonning axborot olish huquqi demokratik tamoyillarning muhim qismidir.

Rus olimi O. Sherbininaning fikricha, "Zamonaviy sharoitda axborotning qiymatini ortiqcha baholash qiyin. U davlatlararo hamkorlik, xalqlar o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirishga imkon beradi va har bir davlat doirasida kommunikativ funksiyani bajaradi. Axborotning o'rni, roli va ahamiyati turli xalqaro hujjatlarda bir necha bor ta'kidlangan: 1991-yildagi Moskva yig'ili-shi hujjati, 1994-yildagi YEXHT Budapesht sammiti qarori, 2000-yildagi Global axborot jamiyatining Okinava Xartiyasi va boshqalar. Axborotning inson hayoti va jamiyat uchun ahamiyatini e'tirof etgan holda, davlatlar davlat chegaralaridan qat'i nazar, axborotni umumiy yaratishga intilib, hukumatlararo bitimlar tuzadi" [10]. Demak, axborot xalqlar o'rtasidagi muosabatlarmi ham mustahkamlaydi.

Inson va fuqaroning shaxsiy huquq va erkinliklarining muhim sohasi sifatida axborot olish huquqi boshqa konstitutsiyaviy normalar bilan ham belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan fuqarolarning axborot huquqlari va erkinliklariga quyidagilar kiradi: shaxsiy hayot, shaxsiy va oilaviy sirlarga bo'lgan huquq, o'z sha'ni va yaxshi nomini himoya qilish huquqi, yozishmalar, telefon suhbatlari, pochta, telegraf va boshqa xabarlar sirini saqlash huquqi, ona tilidan foydalanish, tilni erkin tanlash huquqi. Shunday qilib, "insonning axborot olish huquqi"ni mustahkamlovchi huquqiy asoslar mukammallashtirilmoqda. Bu, bir tomondan, axborot jarayonlari so'nggi paytlarda qonunchilik darajasida tartibga solina boshlagani, ikkinchi tomondan, inson huquqlarining ustuvorligi g'oyasi qabul qilinmaganligi bilan izohlanadi.

Qonun chiqaruvchi amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining inson va fuqaroning axborot olish huquqi sohasidagi qoidalariga muvofiqligi masalasiga e'tibor qaratmoqda. Chunki ushbu huquqni amalga oshirish turli huquqbuzarliklarning oldini olishga yordam beradi. Fuqarolarning boshqa huquqlarini amalga oshirish, shuningdek, ularning huquqiy madaniyatini oshirish va pirovard natijada jamiyatni demokratlash-tirish va huquqiy davlatlarni shakllantirish muhim masala hisoblanadi.

Olimlar tomonidan axborot olish huquqi bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda va ularning qarashlari ham turlicha. Xususan, rus olimlari N. Shegoleva va P. Silayevlar "Ichki huquq tizimida qonunchilik an'anaviy ravishda tor va keng ma'noda ko'rib chiqiladi. Keng ma'noda qonunchilik davlatda chiqarilgan normativ-huquqiy hujjatlar tizimi, tor ma'noda mamlakatda chiqarilgan qonunlar majmuidir. Axborot olish huquqi qonunchilikni keng ma'noda ko'rib chiqish bilan tavsiflanadi, ya'ni konstitutsiyaviy va hokimiyat organlari tomonidan qabul qilingan boshqa barcha turdagi normativ hujjatlarni o'z ichiga olgan tizim sifatida ahamiyat kasb etadi", deb ta'kidlashgan.

Insonning axborot olish huquqi konstitutsiyaviy ahamiyatga ega [11]. Konstitutsiya insonlarning huquq va erkinliklarini o'zida mujassam etadi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Rus olimlari axborot olish huquqining konstitutsiyaviy o'rni haqida fikr yuritarkan, jumladan, I.Bachiloning fikricha, "Insonning axborot olishga oid huquqini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari quyidagilar: mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyoti jarayonlarini faollashtirish sharti sifatida yagona axborot makonini shakllantirish, dasturiy mahsulotlarni takomillashtirish, elektron hujjat aylanishini me'yoriy-huquqiy jihatdan tartibga solish asosida axborotlashtirishni rivoj-

lantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmini sezilarli darajada oshirish uchun shart-sharoit yaratish zarur" [12]. Jonatan Kaleran esa o'z maqolasida "Insonning axborotga bo'lgan huquqi va shaffoflik o'rtasidagi munosabatni tushunishning bir usuli – bu insonning axborotga bo'lgan huquqi ma'lum miqdordagi shaffoflikni oshirish vositasi sifatida ifodalangan", deb ta'kidlaydi [13].

Patrika Jonason "Insonning axborot olish huquqida demokratiya atamalarining ikki ma'nosida nafaqat kirish, balki shaxsiy daxlsizlik huquqi ham katta ahamiyatga ega. Axborotdan foydalanish huquqi va shaxsiy daxlsizlik huquqi demokratik jamiyat uchun zaruriy shartdir", deb o'z qarashlarini ilgari surgan [14].

Axborot olish huquqini amalga oshirish mexanizmini huquqiy ta'minlashni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: axborotga bo'lgan huquqning mohiyati va axborotdan foydalanish tartiblarini rasmiylashtirish, shuningdek, axborotdan foydalanish va himoyalash kafolatlarini qonunchilik bilan ta'minlash. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan modernizatsiya va yangilanish jarayonlarining mazmun-mohiyatini aholiga tez va sifatli yetkazish, yangi marralar sari safarbar etishda ommaviy axborot vositalarining ta'sirchan so'zi, qo'yilgan vazifalarni sifatli amalga oshirishda faol fuqarolik pozitsiyasi suv va havodek zarur. Fuqarolar axborot olish orqali davlat boshqaruvidagi muhim siyosiy voqeliklardan xabardor bo'lishlari mumkin.

Xulosalar

Aytish kerakki, axborot olish huquqi subyektiv huquqlarning amalga oshirilishida namoyon bo'ladigan barcha muhim belgilari va o'ziga xos xususiyatlariga ega. Axborot olish huquqi shaxsning asosiy huquqlaridan biri bo'lib, axborotni yaratish, to'plash, qayta ishlash, saqlash, qidirish, tarqatish va iste'molchiga taqdim etish asosida axborot resurslarini shakllantirish va undan foydalanishdan iboratdir.

Axborot qonunchiligini ishlab chiqish jarayonini faollashtirish zarur. Chunki yuqorida insonning axborot olish huquqiga oid o'ndan ortiq normativ-huquqiy hujjat borligini keltirib o'tdik. Bu hujjatlar mavjudligini axborot olishga oid soha vakillari va huquqshunoslar yaxshi biladi. Lekin oddiy fuqaro bundan xabardor bo'lmasligi mumkin. Bu esa insonning axborot olish huquqini ta'minlashda noqulayliklar keltirib chiqaradi.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan taqdim etilgan Axborot kodeksi loyihasini takomillashtirib, qabul qilish lozim.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va insonlarning axborot olishini ta'minlashda ommaviy axborot vositalarining alohida o'rni mavjud. Chunki aynan ommaviy axborot vositalari globallashuv sharoitida yurtimizda kechayotgan eng muhim voqealar, amalga oshirilayotgan yangilanishlar, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni keng yoritish orqali davlat va jamiyat o'rtasida o'ziga xos ko'prik vazifasini bajarmoqda. Axborotdan foydalanish erkinligi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari mansabdor shaxslarining ommaviy axborot vositalari vakillariga zarur axborotni qonunda belgilangan muddatda

taqdim etishlari majburiyatini ta'minlashning ba'zi paysalga solish holatlarini bartaraf qilish lozim.

Ikkinchidan, davlat organlari va tashkilotlarining qonunda belgilangan axborotlarni o'z vaqtida taqdim etmaganliklari uchun Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda ham, Jiyonat kodeksida ham hech qanday modda keltirilmagan. Shu bois Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning "*Mansabdor shaxsning ma'muriy javobgarligi*" deb nomlangan 15-moddasiga mansabdor shaxsning majburiyatlarini alohida belgilab, "qonunda belgilangan axborotni taqdim etmaganligi uchun" degan band kiritish hamda ushbu bandni bajarmaganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan besh baravarigacha jarima belgilashni taklif etamiz.

Uchinchidan, jurnalistlar insonlarning axborot olishlarida muhim vositachilardan biri hisoblanadi. Shuning uchun to'g'ri va haqqoniy axborot olish uchun jurnalistik so'rov o'tkazilganda, axborotni o'z vaqtida taqdim etish "fake", ya'ni yolg'on, asossiz xabarlar tarqalishining oldini oladi. Jurnalistlar to'g'risidagi qonunning "*Jurnalistning huquqlari*" deb nomlangan 5-moddasiga jurnalistlarga axborotning muhimligiga qarab, mas'ul tashkilotlardan taqdim etiladigan axborotni olishda aniq muddat belgilanishini taklif etamiz.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [Constitution of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, O'zbekiston Publ., 2021.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi [New Uzbekistan strategy]. Tashkent, 2021, 121 p.
3. Mezhdunarodnyye akty o pravakh cheloveka [International acts on human rights]. Moscow, 1998, p. 42.
4. Jonason P., Rosengren A. The right of Access to information and the right to privacy. Stockholm, 2017, 78 p.
5. Jahonov Sh. Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda elektron ommaviy axborot vositalari ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslari [Organizational and legal basis of participation of electronic

mass media in implementation of public control]. *Uzbekistan and the UN: mutual cooperation and sustainable development Proceedings of the republican scientific and practical conference*. Tashkent, Lawyer training center, 2022.

6. Aslanov N.R. Ommaviy axborot vositalarining saylovoldi tashviqotida ishtiroki [Mass media participation in election campaign]. *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali – Online Journal of Sustainability and Leadership Studies*, 2022, pp. 299–302.

7. Aslanov N.R. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, ommaviy axborot vositalari saylov jarayonining subyektlari sifatida konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi [According to the legislation of the Republic of Uzbekistan, the constitutional-legal status of mass media as subjects of the election process]. *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali – Online Journal of Sustainability and Leadership Studies*, 2022, pp. 281–285.

8. Shheglova N.A. Konstitutsionno-pravovoy aspekt prava informatsiyu [Constitutional and legal aspect of the right to information]. *Politics and Law*, Moscow, 2015.

9. Shherbinina O.Ye. Pravo na informatsiyu v sisteme prav cheloveka [The right to information in the human rights system]. Moscow, 2016.

10. Bachilo I.L. Informatsionnoye pravo [Information law]. Moscow, 2017.

11. Klaaren J. The human right to information and transparency. Cambridge, 2013.

12. Aslanov N.Z. Inson huquqlari va erkinliklari sohasida ta'lim [Education in the field of human rights and freedoms]. *Modern Science and Research*, 2023, no. 2 (3), pp. 137–140.

13. Tapalina E. Pravo na informatsiyu v svete teorii sub'yektivnogo prava [The right to information in the light of the theory of subjective right]. Moscow, 2003.

14. Sharma P. The right to information act in India: The turbid world of transparency reforms. London, 2012.

15. Anatolyevna A. Realizatsiya konstitutsionnogo prava na informatsiyu podrazdeleniyami informatsii i oshhestvennykh svyazey MVD Rossii [Implementation of the constitutional right to information by the departments of information and public relations of the Ministry of Internal Affairs of Russia]. St. Petersburg, 2005.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.4./MDBX6634>
UDC: 347.9(045)(575.1)

FUQAROLIK ISHLARINING TAALLUQLILIGI: NAZARIY QOIDALAR VA AMALIY MUAMMOLAR

Esanova Zamira Normurotovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual
huquqi kafedrası professori, yuridik fanlar doktori
ORCID: 0000-0003-2140-8067
e-mail: zamira.esanova@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqola fuqarolik protsessual huquqining eng qadimiy va dolzarb institutlaridan biri bo'lgan taalluqlilik mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, ushbu mavzu mazmun-mohiyatidan kelib chiqayotgan nizolar (ishlar)ni qaysi organ ko'rib chiqishi vakolati, uning mezonlari va shartlari, shuningdek, ushbu sohada sud va boshqa organlarning vakolati doirasi o'rin olgan. Taalluqlilikning vazifasi keng ma'noda shaxslar (jismoniy va yuridik)ning huquq va manfaatlarini himoya qilishning shakllari (sud yoki sudsiz tartibda hal qilish)ni belgilaydi. Tor ma'noda jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan va nizolashayotgan subyektiv huquqlari hamda ularning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish vakolatiga ega bo'lgan bir qator davlat organlari va tashkilotlarga tegishlilik tushuniladi. Ularning vakolatlarini bir-biridan ajratib olishda ishlarning taalluqliligi asosiy rol o'ynaydi. Maqolada taalluqlilikning sudlovlikka nisbatan keng tushuncha ekanligi, ushbu protsessual institut bilan o'xshash va farqli jihatlari ham yoritilgan. Maqolada, shuningdek, fuqarolik protsessual huquqida taalluqlilikning alternativ, shartnomali, imperativ, mustasno kabi turlari haqida batafsil ma'lumot va tahlillar keltirilgan. Maqola yakunida taalluqlilik mavzusiga doir muammolar, ularning yechimiga doir taklif va tavsiyalar, mualliflik xulosalari berilgan.

Kalit so'zlar: taalluqlilik, sudlovlik, fuqarolik ishi, nizo, nizosiz ish, ma'muriy tartib-taomil, vakolat, sud, sudsiz tartib, hakamlik, mediatsiya, hokimiyat, idora, notariat.

ПОДВЕДОМСТВЕННОСТЬ ГРАЖДАНСКИХ ДЕЛ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОЛОЖЕНИЯ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ

Эсанова Замира Нормуротовна,
доктор юридических наук, профессор кафедры
«Гражданское процессуальное
и экономическое процессуальное право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Данная статья посвящена теме подведомственности, которая является одним из древнейших и актуальных институтов гражданского процессуального права, содержание данной темы включает в себя вопросы: какой орган правомочен рассматривать то или иной спор (дело), его критерии и условия, а также пределы компетенции суда и иных органов в этой области. Подведомственность в широком смысле определяет задачу формы защиты (разрешение в судебном или внесудебном порядке) прав и интересов лиц (физических и юридических). В узком смысле – принадлежность к ряду государственных органов и организаций, наделенных полномочиями по защите нарушенных и оспариваемых субъективных

прав физических и юридических лиц и их охраняемых законом интересов. Подведомственность дел играет ключевую роль в разграничении полномочий. Статья также включает те аспекты подведомственности, являющиеся более широкими применительно к подсудности и касающиеся сходств и отличий с данным процессуальным институтом. В то же время в статье приводится подробная информация и анализ нескольких видов подведомственности в гражданском процессуальном праве, в том числе альтернативных, договорных, императивных и исключительных. В заключении статьи указываются проблемы, относящиеся к теме подведомственности, даются предложения и рекомендации по их решению, приводятся выводы автора.

Ключевые слова: подведомственность, подсудность, гражданское дело, спор, бесспорное дело, административная процедура, полномочие, суд, внесудебный порядок, арбитраж, медиация, власть, учреждения, нотариат.

RELEVANCE OF CIVIL CASES: THEORETICAL RULES AND PRACTICAL PROBLEMS

Esanova Zamira Normurotovna,

Tashkent State University of Law,
Professor of the Department of Civil Procedural
and Economic Procedural Law, Doctor of Law

Abstract. This article is devoted to the topic of subordination, which is one of the oldest and most relevant institutions of civil procedural law, the content of this topic includes which body is competent to consider disputes (cases), its criteria and conditions, as well as the limits of the competence of the court and other bodies in this area. The task of subordination in a broad sense determines the forms of protection (judicial or extrajudicial resolution) of the rights and interests of individuals (individuals and legal entities). In a narrow sense, it is understood to belong to a number of state bodies and organizations empowered to protect the violated and disputed subjective rights of individuals and legal entities and their legally protected interests. The subordination of cases plays a key role in delineating their powers from each other. The article also includes aspects of subordination, which is a broad concept in relation to jurisdiction, and similarities and differences with this procedural institution. At the same time, the article provides detailed information and analysis of several types of subordination in civil procedural law, including alternative, contractual, imperative, and exceptional types. At the end of the article, problems related to the topic of subordination, suggestions and recommendations for their solution, and the author's conclusions are presented.

Keywords: jurisdiction, civil case, dispute, undisputed case, administrative procedure, authority, court, extrajudicial procedure, arbitration, mediation, authority, institutions, notary.

Kirish

Fuqarolik protsessual huquqi nazariya va amaliyotida taalluqlilik instituti alohida o'rin tutib, fuqarolik sud ishlarini yuritishda dolzarb mavzulardan biri sanaladi. Chunki ushbu institut orqali ishlar (nizolar)ni aynan qaysi organ ko'rib hal qilishi va ularning shu ishni mazmunan hal qilishga vakolatli ekanligini anglash mumkin.

Jahon miqyosida nizolarni hal qilishning hozirgi zamon tendensiyasi shuni ko'rsatayotiki, kelib chiqayotgan nizolarning vujudga kelish sabablarini o'rganish nizolarning oldini olishda ta'sirchan va manzilli huquqiy targ'ibot tadbirlarini kuchaytirish, nizolarni sudga qadar hal qilish mexanizmlarini (hakamlik sudlari, mediativ kelishuv protseduralari, mahalla fuqarolar yig'ini, kasa-

ba uyushmasi va boshqa mehnatga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solishga ko'maklashuvchi tuzilmalar, turli agentliklar va idoralar, hokimliklar bo'limlari va boshq.) joriy etish, muammoni o'z vaqtida va o'z joyida bartaraf etish hamda nizolarga chek qo'yishda muhim omil bo'la oladi.

Tanlangan mavzuning dolzarbligini to'rtta jihat bilan izohlash o'rinli:

birinchisi, sudlarga murojaatlar soni yanada oshgani sari taalluqlilik institutining shartlari va mezonlarini bilish hamda uni keng targ'ib etishga katta ehtiyoj mavjud;

ikkinchisi, nizolarni hal qilishning muqobil usullari keng joriy etilishi munosabati bilan amaliyotda sudga qadar tartib-taomillarning protsessual imtiyozlarini yanada kengaytirish, amalda mavjud protsessual qoidalarini esa yanada mustahkamlash zarurati seziladi;

uchinchisi, bir-biri bilan bog'liq (o'zaro bog'liq) talablar mavjudligini e'tiborga olgan holda, sudlar (ayniqsa, fuqarolik, iqtisodiy, ma'muriy sudlar) vakolatlarini ajratib olish, bu boradagi arizani qabul qilishni rad etish, arizani qaytarish haqidagi ajrimlar sonini kamaytirish hamda ularning asl sabablarini tahlil qilish dolzarb ahamiyatga ega;

to'rtinchisi, fuqarolik ishlarining taalluqliligi mavzusi fuqarolik protsessual huquqining eng qadimiy va dolzarb institutlaridan biri hisoblanadi, milliy yurisprudensiyada mavzuga doir tadqiqotlar, ilmiy ishlanmalar yetarli emas.

Ushbu tadqiqotning maqsadi fuqarolik protsessual huquqi va fuqarolik sudlov faoliyatida taalluqlilik institutining nazariy qoidalarini izohlash, uning belgilash asoslarini sharhlash, taalluqlilik turlarini tahlil qilish hamda misollar yordamida tushuntirishdan iborat.

Taalluqlilik mavzusiga oid Fuqarolik protsessual kodeksining "Sudga taalluqlilik va sudlovga tegishlilik" nomli 5-bobida nazariy va amaliy jihatdan tafovutli jihatlar yoki ilmiy tadqiq etishga muhtoj normalar mavjudmi?

Asosan ushbu bobda sudga taalluqlilik shartlari ko'rsatilgan, biroq sudga qadar (suddan tashqari, shuningdek, boshqa sudlarga ham taalluqlilik) nizoni hal qilish vakolati berilgan organlar, tashkilotlar (nodavlat tashkilotlar) vakolatiga doir masalalar ustav va nizomlar, yo'riqnomalarda to'g'ridan to'g'ri va batafsil ko'rsatilmagan. Shu bois ushbu masala doirasida muammolarni aniqlash, ularga moddiy-huquqiy va protsessual-huquqiy yechim berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qator o'quv adabiyotlari va ilmiy ishlanmalarda (xususan, milliy protsessualist olimlar M. Mamasiddiqov, D. Habibullayev, I. Salimova va h.k. tadqiqotlari) "Taalluqlilik – kelib chiqayotgan nizolarni sud va boshqa organlar tomonidan ko'rib hal qilish vakolatining chegaralanishiga aytiladi", deb berilgan [1, 32-41-b.; 2, 15-17-b.; 3, 56-58-b.; 4, 29-30-b.; 5, 49-b.]. Ushbu ta'riflar taalluqlilikning tor ma'nodagi tushunchasini ifodalaydi va uning amaliyotda qo'llanishini yanada qulaylashtirishga xizmat qiladi.

Taalluqlilik sudlovlikka nisbatan keng tushuncha bo'lib, taalluqlilikda nafaqat sud, balki barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, nodavlat notijorat tashkilotlari, uyushmalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'z vakolatiga ko'ra nizolarni hal qilishda ishtirok etadi. Sudlovlikda esa nizolarning sud organlariga tegishli ekanligi va sud tizimi bo'g'inlari o'rtasida nizoning turi, subyektlar maqomi (tarkibi), taraf sifatida ishtirok etayotgan jismoniy va yuridik shaxslarning yashash manzili va joylashgan joyi, nizo predmetining turgan (joylashgan) yeri bo'yicha sudga murojaat qilinishi belgilangan [6, 322-327-b.]. Mazkur ikki institut (mavzu) bir-biri bilan o'zaro bog'liq, bir-birini to'ldiradi, biroq alohida normalar, maxsus tushunchalar va o'ziga xos protsessual tartibiga ega.

Material va metodlar

Maqolani yozish jarayonida nazariy-huquqiy tahlil, amaliy izoh, mantiqiy va pro-

tsessual tahlil, solishtirma tahlil va sharhlash usullaridan foydalanildi.

Fuqarolik protsessual kodeksining 5-bobi “Sudga taalluqlilik va sudlovga tegishlilik” deb nomlanib, mazkur ikki tushuncha ikkita mustaqil protsessual institutni ifodalaydi.

Taalluqlilik shaxslar (jismoniy va yuridik) ning huquq va manfaatlarini himoya qilishning shakllari (sud yoki sudsiz tartibda hal qilish)ni belgilaydi. Chunki hozirgi kunda jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan va nizolashayotgan subyektiv huquqlari hamda ularning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish vakolatiga ega bo'lgan bir qator davlat organlari va tashkilotlar mavjud. Ularning vakolatlarini bir-biridan ajratib olishda ishlarning taalluqliligi asosiy rol o'ynaydi.

Agar ishning taalluqliligi nizosizlikka asosan belgilansa, bu taalluqlilikning umumiy mezonlari deb ataladi va bunday talablar ko'pincha ishni sudga qadar hal qilish vakolati berilgan organlar (hokimlik, FHDY, MFY, notariat, xalq ta'limi va boshqa organlar) tomonidan hal etiladi.

Agar taalluqlilik taraflar o'rtasida nizoning mavjudligi bilan belgilansa, bu taalluqlilikning maxsus mezonlari deb atalib, bunday talablar sud orqali hal etiladi. Masalan, er yoki xotindan birortasining talabi bo'yicha nikohdan ajratish to'g'risidagi talabning nizoli ekanligi yoxud otalikni belgilash to'g'risida bir tomonning arizasi bo'lmasligi bunday talablarning sudga taalluqliligidan dalolat beradi. Shu bois taalluqlilikning umumiy va maxsus mezonlari buzilgan huquqni qanday himoya qilishning shakllarini belgilashga xizmat qiladi. Lekin oila huquqiga oid nizolar ichida shunday fuqarolik ishlari mavjudki, ularni hal qilish faqat sudga taalluqlidir. Bunday ishlarga nikohni haqiqiy emas deb topish, ota-onalik huquqidan mahrum qilish, ota-onalik huquqidan mahrum qilmasdan turib, bolani olib qo'yish, ota-onalik huquqini tiklash kabi-lar misol bo'ladi.

Fuqarolik protsessual huquqida *taalluqlilikning quyidagi turlari mavjudligi belgilangan* [3, 34–38-b.]:

- alternativ;
- shartnomali;
- imperativ;
- mustasno.

Alternativ da'vogarning tanlovi asosida tanlanadi. Da'vogar xohlasa, sudga, xohlasa, boshqa organga nizo (muammo)ni hal qilish uchun murojaat qilishi mumkin. Kelib chiqqan nizoni faqat sud emas, balki boshqa organ ham hal qilishi mumkin, masalan, hokimlik, FHDY, notariat, hakamlik sudlari, mediator va boshq.

Masalan, nikohdan ajrashgan ona bolasi ta'minoti uchun aliment undirish yuzasidan sudga emas, notariat organiga murojaat qilib, aliment to'lash to'g'risida kelishuvni notarial tartibda tasdiqlatdi yoki bank muassasasi mijozdan kredit qarzdorligini undirish yuzasidan sudga emas, hakamlik sudiga murojaat qildi.

Shartnomali shartnoma subyektlari (taraflar)ning kelishuviga binoan tanlanadi.

Masalan, turli shartnoma ishtirokchilari nizo kelib chiqsa, avvaldan shartnoma shartlarida qaysi organga murojaat qilish yoki nizo kelib chiqish jarayonida sud yoki tegishli organlarda (sudga qadar hal qilish imkoniyati) hal qilish haqida o'zaro kelishib oladilar.

Imperativ (shartli) qonun hujjatlarida nizoni sudgacha hal qilish tartibiga rioya qilish majburiyligi ko'rsatilgan bo'ladi, aks holda, FPKning 122-moddasiga ko'ra, 10) da'vogar tomonidan nizoni javobgar bilan sudgacha hal qilish tartibiga rioya qilinmagan, basharti bu qonun yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa, sud arizani ko'rmasdan qoldiradi.

Masalan, yakka tartibdagi mehnat nizolarini hal qilish, kommunal to'lovlar bo'yicha qarzdorlikni undirish, kreditga sotib olingan tovarlar bo'yicha qarzni undirish, fuqarolar-ning telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanish uchun abonent to'lovi, mahalliy, shaharlararo va xalqaro telekommunikatsiya

xizmatlari ko'rsatilganligi va abonent to'lovini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun penya to'lash bo'yicha qarzдорligini undirish yoki notariuslarning ijro xatlariga asosan qarzni undirish.

Mustasno nizolarni hal qilishning sudga cha tartibiga rioya qilish talab etilmaydi, mazkur muammoga faqat sud yechim bera oladi. Nizoni hal qilish suddan boshqa organ vakolatiga kirmaydi va bu mumkin ham emas.

Masalan, ota-onalik huquqidan mahrum qilish, nikohni haqiqiy emas deb topish, otalikka e'tiroz bildirish, ishga tiklash, oldi-sotdi shartnomasini haqiqiy emas deb topish, fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topish va boshqalar faqat sud vakolatiga qat'iy tegishli.

Tadqiqot natijalari

Taalluqlilik protsessual institut bo'lib, u turli organlar o'rtasidagi nizolarni hal qilish vakolati chegaralanishini huquqiy tartibga soladi.

Taalluqlilikni chegaralash mezonlari mavjud, jumladan [3, 33–38-b.]:

- tarmoqlararo huquqiy institut sifatida qaraladi;
 - davlat organlari vakolatini taqsimlash bo'yicha mexanizmga ega;
 - sud yoki boshqa organga murojaat qilish yo'nalishini aniq ko'rsatadi;
 - nizo predmetiga qaraladi;
 - nizoli yoki nizosizlik holati o'rganiladi;
 - ishning xususiyati (vujudga kelish manbalari) e'tiborga olinadi;
 - subyektlar tarkibiga ahamiyat beriladi;
 - ishni sudga qadar hal qilish imkoniyati o'rganiladi;
 - qonun yoki shartnomada nizoni hal qilish haqida berilganligi e'tiborga olinadi.
- Taalluqlilikni belgilash asoslari sifatida quyidagilarni keltirish o'rinli [3, 33–38-b.; 5, 49-b.]:
- qonun;
 - shartnoma;
 - da'vogar tanlovi;
 - sudgacha hal qilishning majburiy tartibi.

Mazkur asoslar ishlarning aynan qaysi organga tegishli ekanligi yoki nizo subyekti (huquq subyekti, murojaat qiluvchi shaxs) qaysi organga murojaat qilishini tanlashi yoxud sudga qadar tegishli idora yoki shartnomada ko'rsatilgan tartibga qat'iy amal qilishida qulaylik tug'diradi.

Taalluqlilik mavzusini yoritishda jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini sudga qadar (suddan tashqari) himoya qilish shakllari muhim o'rin tutadi. Chunonchi, dunyo amaliyotida nizolar (kelishmovchiliklar)ni hal qilishning muqobil usullari (kelishuv, mediativ kelishuv, hakamlik muhokamasi va h. k.) tobora kengayib bormoqda. Buning asosiy maqsadi yarashtiruv tartib-taomillarini (kelishuv, mediatsiya) keng targ'ib etish, qolaversa, xorijiy davlatlar amaliyotida o'zini oqlagan institut ekanligini e'tirof etgan holda hamda nizolarni hal qilishning muqobil usullaridan foydalanishni keng yo'lga qo'yish, shuningdek, sud va boshqa organlar yuklamalarini o'zaro muvofiqlashtirish (soddalashtirish, kamaytirish)dan iborat.

Tadqiqot natijalari tahlili

Ilmiy tahlillar va munozara doirasida ishlarni sudga qadar hal qilish usullarining ayrimlari, xususan, hakamlik sudlari va mediatsiya tartib-taomillari ham tadqiq etiladi.

Odatda sud-huquq tizimidagi islohotlar yangi bosqichga ko'tarilgan sari nizolar (muammolar)ni hal qilishga oid protseduralar (tartib-taomillar) yangicha ma'no kasb etaveradi. Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi respublikamizda hakamlik sudlarining tashkil etilishi va faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur qonunga binoan, O'zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi va muvaqqat hakamlik sudlari tashkil etilishi ko'rsatilgan.

O'zbekistonda hakamlik sudlarini tashkil etish zarurati quyidagilarda ifodalanadi [8, 43–47-b.]:

birinchidan, o'zini oqlagan xorijiy davlatlar tajribasi;

ikkinchidan, milliy amaliyotda nizolarni muqobil tarzda (sudga qadar va suddan tashqari) hal qilish zarurati mavjudligi;

uchinchidan, vakolatli sudlar (iqtisodiy sud yoki fuqarolik ishlari bo'yicha sud) amaliyotida yuklamalarning ko'pligi va bu holat bir qator muammolarga olib kelganligi;

to'rtinchidan, kelib chiqayotgan nizolar (ayniqsa, fuqarolik huquqiy munosabatlariga doir, shuningdek iqtisodiy nizolar)ning ma'lum bir qismining davlat sudlari ishtirokisiz, tezkorlik bilan, kam xarajat evaziga hal qilinishi;

beshinchidan, nizolarni ko'rib chiqish muddatining qisqaligi, protsessual jarayonlarning soddaligi, taraflar o'rtasida yarashtiruv (kelishtirish va murosa) prinsipining ustuvorligi;

oltinchidan, taraflarning ish natijalariga ko'ra, vakolatli davlat sudlariga ham murojaat qilish huquqi mavjudligi (cheklanmaganligi) ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi qonuniga binoan, hakamlik sudi (doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudi yoki muvaqqat hakamlik sudi) fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolar, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlari o'rtasida vujudga keluvchi iqtisodiy nizolarni hal etuvchi nodavlat organdir.

Hakamlik sudlari ma'muriy, oila va mehnat huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolar, shuningdek, qonunda nazarda tutilgan boshqa nizolarni hal etmaydi.

Hakamlik sudyasi hakamlik sudida nizoni hal etish uchun hakamlik bitimi taraflari tomonidan saylangan yoki belgilangan tartibda tayinlangan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'la oladi.

Mediatsiya. Jahonda keyingi yillarda (oxirgi 20 yillikda) nizolarni hal qilish va bartaraf etishda mediatsiya institutining o'rni, ahamiyati va huquqiy tartibga solish doirasi dolzarb bo'lib, tobora kengayib bormoqda. Bu

ning isboti sifatida dunyo miqyosida deyarli barcha davlatlar (rivojlangan va rivojlantayotgan), shu jumladan, MDHga a'zo davlatlarda mediatsiya sohasini tartibga soluvchi maxsus qonunlar (xususan, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar) qabul qilinayotganligi hamda soha rivojiga hissa qo'shayotgan ko'plab ilmiy tadqiqotlarni keltirish mumkin.

Ayni paytda sudlarda taraflarni kelishtirish, majburiy ijro jarayoniga mediatsiya institutini joriy etish, ishlarni tinch protsessual vositalar bilan hal qilishning maqsadi ham, aslida, tinchlik, xolislik, tezkorlik, samaradorlik va kelishtirish prinsiplarini amalda qo'llashga qaratilgan. Hozirgi zamon fuqarolik va boshqa sudlar faoliyatining asosiy tendensiyasi ham yuqoridagi maqsadlarini ko'zlaydi.

Aksariyat yuridik adabiyotlarda nizoli masalalar (muammolar)ni hal qilishda taraflarni murosaga keltirish (yarashtiruv) natijalari kelishuv bitimi, mediativ kelishuv, da'vogarning da'vodan voz kechishi, javobgarining da'voni tan olishi kabi protsessual harakatlarda ko'rinadi. Masala (muammo) ning bunday hal qilinishi sud qarori (ajrimi) ijrosini ta'minlashda deyarli qiyinchilik tug'dirmaydi, ijroni majburiy ta'minlash choralarini qo'llashga hojat qolmaydi [9, 135–140-b.].

Fuqarolik protsessual kodeksiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga ko'ra, amaldagi 17-bob "Yarashtirish tartib-taomillari" deb nomlanib, unda kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuvni tuzish asoslari va tartibi ko'rsatilgan.

Ilmiy tadqiqotlarda mediatsiya – bu nizolashuvchi taraflar o'rtasida nizolarni mustaqil, xolis (betaraf) bo'lgan uchinchi shaxslar (mediatorlar) tomonidan ikkala tarafga ham o'zaro foydali hal qilish (o'zaro maqbul qarorga kelish) usuli ekanligi ta'kidlangan [10, 38–41-b.; 11, 124–130-b.; 12, 84–86-b.; 13, 123–132-b.].

Qonunning 4-moddasida ko'rsatilganidek, mediatsiya kelib chiqqan nizoni taraflar o'za-

ro maqbul qarorga erishishi uchun ularning ixtiyoriy roziligi asosida mediator ko'magida hal qilish usulidir.

Ilmiy ishlanmalar hamda qonunda mediatsiyaning quyidagi, xususan, suddan tashqari (внесудебная), sudga qadar (досудебная), suddagi (судебная), suddan keyingi (последсудебная) turlari mavjudligi ko'rsatilgan.

Mediatsiyaga o'z-o'zidan murojaat qilib bo'lmaydi. Qonunda uni qo'llash shartlari mavjud bo'lib, unga muvofiq:

birinchidan, mediatsiya taraflarning xohish-istagi asosida qo'llanadi;

ikkinchidan, mediatsiya suddan tashqari tartibda, nizoni sud tartibida ko'rish jarayonida, sud hujjatini qabul qilish uchun sud alohida xona (maslahatxona)ga kirguniga qadar, shuningdek, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish jarayonida qo'llanilishi mumkin;

uchinchidan, mediatsiya nizoni hakamlik sudida ko'rish jarayonida ham hakamlik sudining qarori qabul qilinguniga qadar qo'llanilishi mumkin;

to'rtinchidan, mediatsiya sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish jarayonida qo'llangan taqdirda, faoliyatini professional asosda amalga oshiruvchi mediatorning, albatta, ishtirok etishi talab etiladi.

Mavzuga oid muammolarni quyidagi holatlarda ko'rish mumkin:

- sud amaliyotida uy-joy, yerga oid nizolarning taalluqliligini belgilashda ayrim muammolar kelib chiqmoqda;

- ayrim turkumdagi, xususan, Yer resurslari va davlat kadastrid idoralari, Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish idoralari, soliq, hokimiyat idoralari vakolatlari bilan bog'liq fuqarolik ishlari bo'yicha fuqarolik va ma'muriy sud o'rtasidagi taalluqlilik masalalari fuqarolar va tashkilotlar tomonidan noto'g'ri talqin etilmoqda hamda sudlarga murojaat qilishda ayrim protsessual xatoliklarga yo'l qo'yilmoqda.

Muammolarni bartaraf etishda ikkita yechim taklif etiladi:

birinchidan, nizolarni hal etishda muqobil usullardan foydalanish yaxshi samara beradi, biroq taalluqlilik qoidalariga binoan, protsessual qonun hujjatlarida, shuningdek, "Hakamlik sudlari to'g'risida" va "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonunlarda ushbu tartib-taomillarni qo'llash asoslari, prinsiplari va tartibi ko'rsatilgan bo'lib, ularni joriy etish mexanizmlarining alohida yo'riqnomada, xuddi shuningdek, Oliy Sudning maxsus Plenum qarorida berilishi maqsadga muvofiq;

ikkinchidan, sudlarda fuqarolik ishlari yuklamasidan kelib chiqib, shuningdek, buyruq tartibida ko'riladigan ishlar mazmun-mohiyatini tahlil qilish natijasida murakkab bo'lmagan, buyruq tartibida ko'rilishi mumkin bo'lgan, ba'zi nizosiz talablarning hokimliklar bo'limlari, soliq, moliya, kadastr, notarial idoralarga olib berilishi va ushbu organlarga nizoni sudsiz tartibda hal qilish vakolatini berish o'rinli.

Xulosalar

Ishlarning sud va boshqa organlarga taalluqliligi masalalarini o'rganish jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi:

birinchi, fuqarolik ishlarining taalluqliligi, ayniqsa, so'nggi yillarda sudlarda ko'p ko'rilayotgan sug'urta, kredit, pensiya, intellektual mulk, firibgarlik yo'li bilan olingan mol-mulklarni undirishga oid nizolarning taalluqliligini yanada aniqlashtirish va amaliyotga qulay joriy etilishini ta'minlash maqsadida Oliy Sud Plenumining "Fuqarolik ishlarining sud va boshqa organlar vakolatiga taalluqliligini belgilash asoslari va tartibi to'g'risida"gi qarori qabul qilinishi maqsadga muvofiq;

ikkinchi, Fuqarolik protsessual kodeksining ishlarning sudga taalluqliligiga oid 26-moddasi uchinchi bandi quyidagi tahrirda: "3) ushbu Kodeksning 18-bobida ko'rsatilgan buyruq tartibida hal etiladigan ishlar" deb berilishi maqsadga muvofiq. Chunki FP-Kning 18-bobida boshqa sud ishlarini yuritish turlari emas, faqat buyruq tartibida ko'riladigan ishlar berilgan. Bu matnda "va"

bog'lovchisiga zarurat yo'q. Mazkur uchinchi qismda faqat buyruq tartibida ko'riladigan ishlar nazarda tutilmoqda;

uchinchi, Fuqarolik protsessual kodeksining 26-moddasini quyidagi mazmundagi uchinchi qism bilan to'ldirish taklif etiladi: "Taraflar nizolarni hal qilishda qonun yoki shartnomada belgilangan nizolarni sudga qadar hal etish tartibiga qat'iy rioya etishlari shart, muqobil taalluqlilik qoidalar bundan mustasno". Chunki keyingi vaqtlarda sudlarga berilayotgan arizalar (da'vo arizalari)ning aksariyati arizani qabul qilishni rad etish yoki arizani qaytarish

haqidagi ajrimlar orqali da'vogar (vakil)ga qaytarib yuborilmoqda, moddiy va protsessual qonunda ko'rsatilgan xatoliklarga yo'l qo'yilmoqda. Bunday holatlarda taraflar shartnoma tuzish jarayonida nizolar kelib chiqsa, ularni hal etishning muqobil yo'llarini tanlash asosida mediatsiya, hakamlik sudlarida ishlarni dastlab ko'rish bosqichlarini shart deb kiritmoqdalar. Shartnoma subyektlari shartli taalluqlilik va muqobil taalluqlilik qoidalarining alohida belgilari va shartlari borligi, ular ikkita alohida taalluqlilik turlari ekanligini nazardan chetda qoldirmoqdalar.

REFERENCES

1. Yodgorov X. Fuqarolik ishlari bo'yicha sudga murojaat qilish tartibi [The procedure for applying to the court on civil cases]. Tashkent, Baktria press Publ., 2016, 224 p.
2. Mualliflar jamoasi. Fuqarolik protsessual huquqi [Civil procedural law]. Tashkent, Lesson press Publ., 2020, 232 p.
3. Esanova Z. Fuqarolik protsessual huquqi [Civil procedural law]. General part. Tashkent, Yuridik adabiyotlar Publ., 2022, 328 p.
4. Mualliflar jamoasi. Fuqarolik protsessual huquqi [Civil procedural law]. Ed. M.M. Mamasiddikov. Tashkent, Adolat Publ., 2022, 572 p.
5. Salimova I.M. Iqtisodiy nizolarning taalluqliligi (nazariy-huquqiy va protsessual jihatlar) [Relevance of economic disputes (theoretical-legal and procedural aspects)]. PhD thesis. Tashkent, TSUL, 2020, p. 49.
6. Esanova Z.N. Fuqarolik ishlarining sudloviligi: nazariy qoidalar va ilmiy-amaliy tahlil [Judiciality of civil cases: theoretical rules and scientific-practical analysis]. *Scientific Impulse*, 2022, vol. 1, no. 4, pp. 322–327.
7. Esanova Z. Participants of executive production: theoretical rules and analytical results. *Review of Law Sciences*, 2020, Tashkent, no. 2, pp. 33–38.
8. Esanova Z.N. Proizvodstvo po delam, svyazannym s resheniyem treteyskogo suda i ispolneniye sudebnykh opredeleniy po delu (pri analize zakonodatel'stva Respubliki Uzbekistan) [Proceedings in cases related to the decision of the arbitration court and the execution of court rulings on the case (when analyzing the legislation of the Republic of Uzbekistan)]. 2020, pp. 43–47.
9. Esanova Z. N. Possibilities of using information and communication tools in civil proceedings: the experience of Uzbekistan. *Models and Methods in Modern Science*, Tashkent, 2022, no. 8, pp. 135–140.
10. Esanova Z. Rol' mediatsii v razreshenii sporov i pravoprimeneni (analiz otechestvennogo i zarubezhnogo opyta) [The Role of Mediation in Dispute Resolution and Law Enforcement (Analysis of Domestic and Foreign Experience)]. *Obzor zakonodatel'stva Uzbekistana – Review of the Legislation of Uzbekistan*, 2019, no. 3, pp. 38–41.
11. Tursunov A., Ergashev Z. Dal'neysheye povysheniye roli instituta mediatsii v razreshenii sporov: zarubezhnyy opyt [Further enhancement of the role of mediation in dispute resolution: foreign experience]. *Aktual'nyye voprosy i perspektivy tsifrovizatsii sudebno-pravovoy deyatel'nosti*

– *Actual Issues and Prospects for the Ciphering of Judicial and Legal Activities*. 2022, Tashkent, no. 1, pp. 124–130.

12. Rustambekov I. Sushhnost' i osobennosti mediatsii [Essence and features of mediation]. *Obzor zakonodatel'stva Uzbekistana – Review of the Legislation of Uzbekistan*, 2019, no. 1, pp. 84–86.

13. Ismailova R.Sh. Osobennosti formirovaniya v Uzbekistane instituta mediatsii v kachestve vnesudebnogo poryadka uregulirovaniya spora [Features of the formation of the institution of mediation in Uzbekistan as an out-of-court procedure for resolving a dispute]. *Moscow Journal of International Law*, 2020, no. 1, pp. 123–132.

14. Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik protsessi [Civil procedure]. 2nd ed. with additions and changes. Tashkent, Noshirlik yogdusi Publ., 2017, 480 p.

15. Mamasiddiqov M.M., Mirzayev U. Buyruq tartibida ish yuritish [Work in order]. Tashkent, Adabiyot uchqunlari Publ., 2015, 204 p.

16. Mamasiddiqov M.M., Yodgorov X.B., Davletov O'M. Fuqarolik protsessual huquqi [Civil procedural law]. General part. Tashkent, Military-technical institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, 2018, 400 p.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.4./OAML2024>
UDC: 347.9(045)(571.1)

FUQAROLIK PROTSESSIDA ODIL SUDLOVNI AMALGA OSHIRISHGA KO'MAKLASHUVCHI SHAXS SIFATIDA GUVOHNING ISHTIROKI BILAN BOG'LIQ AYRIM MASALALAR

Xabibullayev Davlatjon Yulchiboyevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik protsessual va
iqtisodiy protsessual huquqi
kafedrası mudiri,
yuridik fanlar nomzodi, professor
ORCID: 0000-0002-8355-3983
e-mail: davlat.xabibullayev@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada fuqarolik protsessida odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxs sifatida guvohning ishtiroki bilan bog'liq ayrim masalalar tahlil etilgan. Xususan, fuqarolik protsessida guvoh tushunchasi, uning protsessual huquq va majburiyatlari bo'yicha fuqarolik protsessual qonunchiligi hamda fuqarolik protsessual huquqi fani nazariyasiga oid huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari o'rganilgan. Shuningdek, guvoh sifatida chaqirilishi va so'roq qilinishi mumkin bo'lmagan holatlar, bu boradagi xorijiy davlatlar fuqarolik protsessual qonunchiligi, xususan, Germaniya, Rossiya Federatsiyasi, Ozarbayjon, Belarus, Qozog'iston Respublikalari fuqarolik protsessual qonunchiligi milliy fuqarolik protsessual qonunchilik bilan qiyosiy tahlil etilib, tegishli xulosa va takliflar ishlab chiqilgan. Maqolada guvohning guvohlik berishdan bosh tortish huquqi tushunchasi, guvohning daxlsizligi yoki guvohning immunitet huquqi tushunchalari to'g'risida huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari tadqiq qilingan. Bundan tashqari, ushbu maqolada guvohlarning xavfsizligi masalalari, bu borada xorijiy davlatlar qonunchiligi ko'rib chiqilgan. Xulosa qismida sud ishlarini yuritishda guvohning protsessual huquqiy maqomini takomillashtirish, xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib, guvoh sifatida chaqirilishi va so'roq qilinishi mumkin bo'lmagan holatlar doirasini kengaytirish, guvohlarning daxlsizlik huquqlarini amalga ta'minlash, ularning xavfsizligini amalga oshirish chora-tadbirlarini kuchaytirish bo'yicha fuqarolik protsessual qonunchilikni takomillashtirishga oid ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: fuqarolik sudi, odil sudlov, sudya, guvoh, guvohning daxlsizligi, guvoh immuniteti, guvoh ko'rsatmasi, guvohlik berishni rad etish, guvohlik berishdan bosh tortish, odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ, СВЯЗАННЫЕ С УЧАСТИЕМ СВИДЕТЕЛЯ В КАЧЕСТВЕ ЛИЦА, СОДЕЙСТВУЮЩЕГО ОСУЩЕСТВЛЕНИЮ ПРАВОСУДИЯ В ГРАЖДАНСКОМ ПРОЦЕССЕ

Хабибуллаев Давлатжон Юлчибоевич,
кандидат юридических наук, профессор,
заведующий кафедрой «Гражданское процессуальное
и экономическое процессуальное право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье анализируются некоторые вопросы, связанные с участием свидетеля в качестве лица, содействующего осуществлению правосудия в гражданском процессе. В частности, были изучены научно-теоретические взгляды ученых-правоведов на понятие свидетеля в гражданском процессе, на его процессуальные права и обязанности в гражданском процессуальном праве, а также теория науки гражданского процессуального права. Были подвергнуты сравнительному анализу обстоятельства, по которым лица не могут быть вызваны и допрошены в качестве свидетелей, в гражданском процессуальном законодательстве иностранных государств, в частности Германии, Российской Федерации, Азербайджана, Беларуси, Казахстана, и в национальном гражданском процессуальном законодательстве и разработаны соответствующие выводы и предложения. В статье также исследуются научно-теоретические взгляды ученых-правоведов о праве свидетеля на отказ от дачи показаний, о неприкосновенности и иммунитете свидетеля. Кроме того, в данной статье исследуются вопросы безопасности свидетелей, а также законодательство зарубежных стран в этой области. В заключении выдвигаются научно-теоретические выводы, предложения и рекомендации, направленные на совершенствование гражданского процессуального законодательства по совершенствованию процессуально-правового статуса свидетеля при судопроизводстве, расширение круга обстоятельств, по которым он не может быть вызван и допрошен в качестве свидетеля, исходя из опыта зарубежных государств, практическое обеспечение прав свидетелей на неприкосновенность частной жизни, усиление мер по обеспечению их безопасности.

Ключевые слова: гражданский суд, правосудие, судья, свидетель, неприкосновенность свидетеля, иммунитет свидетеля, показание свидетеля, отказ от дачи показаний, лица, содействующие правосудию.

SOME ISSUES RELATED TO THE PARTICIPATION OF A WITNESS AS A PERSON FACILITATING THE ADMINISTRATION OF JUSTICE IN CIVIL PROCEEDINGS

Khabibullaev Davlatjon Yulchiboyevich,
Tashkent State Law University,
Head of the Department of Civil procedural
and Economic Procedural Law,
Professor, PhD in Law

Abstract. This article analyzes some of the issues related to the participation of a witness as a person assisting in the administration of justice in a civil process. In particular, the scientific and theoretical views of legal scholars on the concept of a witness in civil proceedings and civil procedural law and the theory of the science of civil procedural law on its procedural rights and obligations are analyzed. As well as the circumstances under which they cannot be summoned and interrogated as witnesses, the civil procedural legislation of foreign states in this area, in particular the civil procedural legislation of Germany, the Russian Federation, Azerbaijan, Belarus, and the Republic of Kazakhstan, is subjected to a comparative analysis with the national civil procedural legislation, and relevant conclusions and proposals have been developed. The article also explores the scientific and theoretical views of legal scholars on the right of a witness to refuse to testify, immunity, and the immunity of a witness. In addition, this article examines the security of witnesses as well as the legislation of foreign countries in this area. In conclusion, scientific and theoretical conclusions, proposals, and recommendations are put forward aimed at improving the Civil Procedure Legislation to improve the procedural and legal status of a witness in legal proceedings, expanding the circle of circumstances under which he cannot be called and interrogated as a witness, based on the experience of foreign countries, ensuring the rights of witnesses to privacy, and strengthening measures to ensure their safety.

Keywords: civil court, justice, judge, witness, immunity of a witness, immunity of a witness, testimony of a witness, refusal to testify, persons assisting justice.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 54-moddasida ko'rsatilishicha, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar, yozma va ashyoviy dalillarni saqllovchilar, ijro ishi yuritish xolislari va saqllovchilari odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslardir. Odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar, o'z navbatida, fuqarolik sud ishlarini yuritishda sudlar tomonidan ishning haqiqiy holatlari, taraflarning huquq va majburiyatlarini har taraflama, to'liq va xolisona aniqlash, qonuniy, asosli va adolatli hal qiluv qarorlari chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi har bir shaxs sud jarayonida ishtirok etishda protsessual huquq va majburiyatlarini, javobgarligi kabi masalalar bilan o'ziga xos protsessual maqomga ega. Mazkur shaxslar orasida sud protsessida eng ko'p ishtirok etuvchi shaxslar guvohlardir. O'z navbatida, sud qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli bo'lishini ta'minlash hamda ishning haqiqiy holati, taraflarning huquq va majburiyatlarini har taraflama, to'liq va xolisona aniqlashda fuqarolik protsessida guvohlar ishtiroki muhimdir.

Darhaqiqat, aksariyat fuqarolik ishlari bo'yicha guvohlarning ko'rsatmalari asosiy isbotlash vositasi hisoblanadi. So'z guvoh ko'rsatmalari haqida borar ekan, shu o'rinda guvoh va guvoh ko'rsatmalari turli tushunchalar ekanligini unutmaslik lozim. Guvoh – bu dalillar manbayidir, guvoh ko'rsatmalari esa isbotlash vositasi hisoblanadi [1]. Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishning samaradorligi va sifatini oshirishda protsess ishtirokchilaridan biri bo'lmish guvohlarning imkoniyatlaridan foydalanish o'ziga xos o'ringa ega.

Shunday ekan, guvohning fuqarolik protsessidagi huquqiy holatini o'rganish, uning daxlsizligi, protsessual va ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash masalalarini o'rganish hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi.

Material va metodlar

Mavzuni yoritishda tarixiylik, tizimli huquqiy tahlil, taqqoslash, qiyosiy-huquqiy, induksiya va deduksiya kabi usullar qo'llangan.

Tadqiqot natijalari

Fuqarolik protsessida guvohning protsessual holati haqida gapirar ekanmiz, avvalo, uning fuqarolik protsessi ishtirokchisi ekanligini ta'kidlash lozim. Fuqarolik protsessida guvoh ishtirok etishining ahamiyatli jihati shundan iboratki, u sudlarda odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashadigan, biroq ishning qanday hal etilishidan manfaatdor bo'lmagan, xolis shaxs sifatida qatnashadi.

Fuqarolik sud ishlarini yuritishda odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxs sifatida eng ko'p guvoh qatnashadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 56-moddasiga binoan, ishga doir biror holatdan xabardor bo'lgan har qanday shaxs guvoh bo'la oladi. Ushbu normadan ko'rinib turibdiki, har qanday shaxs, ya'ni yoshidan qat'i nazar, voyaga yetgan yoki voyaga yetmagan shaxs guvoh sifatida so'roq qilinishi mumkin. Lekin guvoh sifatida so'roq qilinishi mumkin bo'lgan shaxs aqli raso, ishga oid holatni tushuntirib bera olishi kerak.

Qator xorijiy mamlakatlar fuqarolik protsessual qonunchiligida "guvoh" tushunchasiga uning ish bo'yicha u yoki bu tarzda odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklasha oladigan yordamchi funksiyasidan kelib chiqib ta'rif berilgan. Masalan, Angliyada guvoh muayyan hodisa shohidi bo'lgan va nizoni faktik tasdiqlaydigan yoki inkor qila oladigan muayyan axborotga ega bo'lgan shaxsdir [2]. Ushbu tushunchadan ko'rinib turibdiki, guvoh vaziyatni bevosita ko'rgan va holatni tasdiqlaydigan yoki inkor qila oladigan axborotga ega bo'lgan jismoniy shaxs hisoblanadi.

AQSh qonunchiligiga muvofiq, guvoh sifatida asosan muayyan faktning shaxsan shohidi bo'lgan shaxs tushuniladi [3].

Fikrimizcha, AQSh qonunchiligi bo'yicha guvoh bo'ladigan shaxs muayyan holatni

bevosita o'zi ko'rgan bo'lishi lozim. Bu esa sudyada ish holatlari yuzasidan aniq tasavvur uyg'otadi va adolatli hal qiluv qarori chiqarishi uchun muhim hisoblanadi.

Yuridik adabiyotlarda ko'rsatilishicha, "fuqarolik ishlari bo'yicha guvoh sifatida ishga doir biror holatdan xabardor bo'lgan, tegishli talablarga javob beradigan hamda guvohlik huquq va majburiyatlarini anglay oladigan har qanday shaxs guvoh bo'la olishi mumkin" [4].

Sh.Sh. Shoraxmetov ham bu borada o'z fikrini bildirib, shunday ta'kidlaydi: "Guvoh shaxsiga nisbatan qo'yiladigan shartlardan biri guvoh bo'ladigan fuqaro ro'y bergan hodisalarni o'zlashtirish, yodida (esida) saqlash va so'ngra ular to'g'risida ma'lumotlar berishga qobiliyatli bo'lishi kerak" [5].

M. Mamasiddiqovning fikricha, "fuqarolik protsessida guvoh sifatida ishtirok etish uchun qonun bir qator talablarni ilgari suradi: guvoh bo'ladigan fuqaro ro'y bergan hodisalarni o'zlashtirish, yodida saqlash va so'ngra ular to'g'risida ma'lumotlar berishga qobiliyatli bo'lishi lozim. Biron-bir fakt, ish holatini to'g'ri qabul qilish, yodda saqlash va bu to'g'rida sudda to'g'ri ma'lumotlar berish uchun guvohning sezgi a'zolari normal bo'lishi kerak. Ammo bu a'zolardan birida nuqson bo'lishi, hodisani o'zlashtirishga yaroqsiz bo'lishi uning boshqa sezgi a'zolari bilan qabul qilingan faktlar to'g'risida ma'lumot berishga to'sqinlik qilmaydi. Masalan, ko'zi ojiz fuqaro qulog'i bilan eshitganlari to'g'risida guvohlik berishi mumkin" [6].

Ushbu fikrga qo'shilgan holda aytish mumkinki, har bir insonning qobiliyati, xotirasi, holatlarni esda saqlab qolishida har xil yoki qandaydir jismoniy nuqsoni bo'lishi mumkin, lekin ushbu holatlar guvohlik berishga to'sqinlik qilmasa, guvoh sifatida so'roq qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 56-moddasi 2-qismida quyidagi shaxslar guvoh sifatida chaqirilishi

va so'roq qilinishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan:

vakil, himoyachi, advokat yoki mediator vazifalarini bajarishi munosabati bilan o'ziga ma'lum bo'lib qolgan holatlar to'g'risida – fuqarolik, iqtisodiy, ma'muriy ish bo'yicha vakillar yoki jinoyat ishi bo'yicha himoyachilar, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bo'yicha advokatlar, mediatorlar;

jismoniy nuqsonlari yoki ruhiy holatining buzilganligi sababli faktlarni to'g'ri idrok qilish yoki ular haqida to'g'ri ko'rsatmalar berishga layoqatsiz shaxslar [7].

Yuqoridagi normada faqat guvoh sifatida so'roq qilinishi mumkin bo'lmagan shaxslar doirasi tor doirada ko'rsatilgan bo'lib, ushbu asoslar qonun hujjatlarida belgilangan asoslarni to'liq qamrab olmaydi. Shuningdek, ushbu moddada guvohning guvohlik ko'rsatmasi berishdan bosh tortish yoki rad etish huquqi ko'rsatilmagan.

Bu borada xorijiy davlatlar fuqarolik protsessual qonunchiligini o'rganadigan bo'lsak, ularda guvoh sifatida so'roq qilinishi mumkin bo'lmagan shaxslar doirasi kengroq berilgan hamda fuqarolik protsessual qonunchiligining o'zida guvohlik berishdan bosh tortish asoslari ko'rsatib o'tilgan. Masalan, Germaniya Fuqarolik protsessual kodeksining 7-bo'limi "guvoh ko'rsatmasi"ga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bo'limning 383-paragrafi "Shaxsiy sabablarga ko'ra, guvohlik ko'rsatmasi berishdan bosh tortish" deb nomlangan. Unga ko'ra,

(1). Guvohlik berishni rad etish huquqi:

1.1. Nikoh shartnomasini tuzish to'g'risida va'dalashgan yoki unashtirilgan (fotihlangan) shaxs;

1.2. Tarafning turmush o'rtog'i (nikoh bekor qilingan yoki bundan keyin nikoh munosabatlari davom ettirilmasa-da);

1.3. Taraflardan biri bevosita qarindoshlik, qayin-bo'yinchilik va quda-andachilik munosabatlarida bo'lsa, yon qarindoshlikning uchinchi darajasigacha yoki yon qayin-bo'

yinchilik va qudalikning ikkinchi darajasiga cha munosabatlarda bo'lsa;

1.4. Ruhoniylar – diniy faoliyatini amalga oshirishda ularga ishonib topshirilgan holatlar yuzasidan;

1.5. Davriy nashrlar yoki radioeshittirishlarni tayyorlash, ishlab chiqarish yoki tarqatishda professional tarzda ishtirok etgan yoki ishtirok etayotgan shaxslar – maqolalar va hujjatlar muallifi, jo'natuvchisi yoki manbasining shaxsiga nisbatan, shuningdek, ularning faoliyatida olingan ma'lumotlarga nisbatan, chunki ushbu maqolalar, hujjatlar va ma'lumotlar tahririyat uchun mo'ljallangan;

1.6. O'z mohiyati yoki qonun hujjatlari ga ko'ra, sir saqlash lozim bo'lgan holatlarga nisbatan, shuningdek, mansabi, lavozimi yoki kasbi bo'yicha sir saqlashni talab qiladigan faktlar ishonib topshirilgan shaxslar.

(2) So'roq qilishdan oldin 1–3-bandlarda ko'rsatilgan shaxslarga guvohlik ko'rsatmasi berishdan bosh tortish huquqi tushuntirilishi lozim.

(3) 1-bandning 4–6-bandlarida ko'rsatilgan shaxslarni so'roq qilish, garchi ular guvohlik ko'rsatmasi berishdan bosh tortmagan bo'lsa ham, sir saqlash majburiyatini buzmasdan guvohlik ko'rsatmalari berilishi mumkin bo'lmagan faktlarga taalluqli bo'lmasligi lozim [8].

Germaniya Fuqarolik protsessual kodeksining 384-paragrafi "Moddiy asoslarga ko'ra guvohlik berishdan bosh tortish" deb nomlanib, quyidagi asoslarga ko'ra guvohlik berishdan bosh tortish mumkin:

1) javobi bevosita guvoh yoki 383-paragrafning 1–3-bandlarida ko'rsatilgan munosabatlarda bo'lgan shaxsga mulkiy va huquqiy zarar yetkazilishi mumkin bo'lgan savollar bo'yicha;

2) javobi guvoh yoki 383-paragrafning 1–3-bandlarida ko'rsatilgan uning qarindoshlaridan birining sha'nini kamsitishi yoki jinoiy yoki ma'muriy javobgarlikka tortish tahdidini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan savollar bo'yicha;

3) guvoh kasbiy yoki tijorat sirlarini oshkor qilmasdan javob bera olmaydigan savollar bo'yicha.

Ushbu kodeksning 385-paragrafida guvohlik ko'rsatmasi berishdan bosh tortish bo'yicha istisnolar belgilangan. Unga ko'ra:

(1) 383-paragrafning 1–3-bandlari va 384-paragrafning 1-bandida ko'rsatilgan holatlarda, guvoh ko'rsatma berishdan bosh tortishi mumkin emas:

1) bitimning tuzilishida guvoh sifatida ishtirok etgan va uning mazmuni to'g'risida xabardor bo'lgan guvoh;

2) oila a'zolarining tug'ilishi, nikohi yoki o'limi haqida;

3) oilaviy munosabatlar bilan bog'liq mulkiy masalalarga taalluqli faktlar haqida;

4) huquqni tarafga o'tkazgan shaxs yoki uning vakili sifatida u amalga oshirishi lozim bo'lgan bahsli huquqiy munosabatlarga oid harakatlar to'g'risida;

(2) 383-paragrafning 4-, 6-bandlarida sanab o'tilgan shaxslar, agar ular sir saqlash majburiyatidan ozod qilingan bo'lsa, guvohlik ko'rsatmasi berishdan bosh tortishi mumkin emas.

Qozog'iston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 80-moddasiga ko'ra, quyidagilar guvoh sifatida so'roq qilinishi mumkin emas:

1) yoshligi, jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari tufayli haqiqatni to'g'ri idrok eta olmaydigan va ular haqida to'g'ri ko'rsatma berolmaydigan shaxslar, bolalar tarbiyasi bilan bog'liq nizolar bundan mustasno;

2) fuqarolik, ma'muriy ishlar bo'yicha vakillar yoki vakillar, jinoyat ishi, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bo'yicha himoyachi – vakil yoki himoyachining vazifalarini bajarishi munosabati bilan ularga ma'lum bo'lgan holatlar to'g'risida;

3) sudya – qaror yoki hukm chiqarishda ishning holatlarini muhokama qilishda maslahat sirini saqlash masalalari bo'yicha;

4) hakamlik sudyasi, xalq maslahatchisi – o'z vazifalarini bajarishi munosabati bilan ularga ma'lum bo'lgan holatlar to'g'risida;

5) mediator, mediatsiyani o'tkazgan sudya – mediatsiya o'tkazish munosabati bilan o'zlariga ma'lum bo'lgan holatlar to'g'risida, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

6) ruhoniylar – iqrar bo'lish paytida ularga ishongan shaxslardan ma'lum bo'lgan holatlar to'g'risida;

7) qonunda belgilangan boshqa shaxslar.

Shuningdek, ushbu moddada guvohlik berishdan bosh tortish huquqiga ega shaxslar to'g'risida ham qoidalar mustahkamlangan.

Qozog'iston Respublikasidagi inson huquqlari bo'yicha vakil o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan unga ma'lum bo'lgan holatlar to'g'risida guvohlik berishga majbur emas. U guvohlik berishdan bosh tortish huquqiga ega va buning uchun hech qanday javobgarlikka tortilmaydi.

Shaxs sudda o'ziga, turmush o'rtog'iga (xotiniga) va doirasi qonun bilan belgilangan yaqin qarindoshlariga qarshi ko'rsatma berishni rad etishga haqli [9].

Rossiya Federatsiyasi FPKning 69-moddasiga ko'ra, quyidagilar guvoh sifatida so'roq qilinishi mumkin emas:

1) fuqarolik yoki ma'muriy ish bo'yicha vakillar yoki jinoyat ishi, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bo'yicha himoyachilar yoki mediatorlar, sud yarashtiruvchilari – vakil, himoyachi yoki mediator, sud yarashtiruvchi vazifalarini bajarish munosabati bilan o'zlariga ma'lum bo'lgan holatlar to'g'risida;

2) sudyalari, “присяжные” (“присяжные” “qasamyod qilgan”, “ont ichgan” ma'nolarini anglatadi) yoki arbitraj maslahatchilari – sud hal qiluv qarorlari va hukmlar qabul qilish vaqtida maslahatxonada muhokama qilgan ish holatlari yuzasidan;

3) davlat ro'yxatidan o'tgan diniy tashkilotlarning ruhoniylari – tavba qilib kelgan shaxs orqali aniqlangan holatlar bo'yicha;

4) hakamlik sudyasi (arbitr) – arbitraj (hakamlik muhokamasi) jarayonida unga ma'lum bo'lgan holatlar to'g'risida.

Shuningdek, mazkur moddada guvohlik ko'rsatmalari berishdan bosh tortish huquqiga ega bo'lgan shaxslar ro'yxati ham berilgan. Unga ko'ra:

1) fuqaro o'z-o'ziga qarshi;

2) er-xotin bir-biriga, farzandlar, shu jumladan, farzandlikka olinganlar ota-onalariga, farzandlikka olganlarga nisbatan, ota-onalar, farzandlikka olganlar farzandlariga, shu jumladan, farzandlikka olinganlarga nisbatan;

3) aka-ukalar, opa-singillar bir-biriga, bobo, buvi nevaralari va nevaralar bobo, buvilariga qarshi;

4) qonunchilik organlari deputatlari – deputatlik vazifasini bajarishi davomida o'ziga aniq bo'lgan ma'lumotlar yuzasidan;

5) Rossiya Federatsiyasining inson huquqlari bo'yicha vakili o'z vazifasini bajariishi davomida o'ziga aniq bo'lgan ma'lumotlar yuzasidan;

5.1) Rossiya Federatsiyasi Prezidenti huzuridagi bola huquqlari bo'yicha vakil, Rossiya Federatsiyasining subyektlari ichidagi bola huquqlari bo'yicha vakillar – o'z vazifalarini bajarishi munosabati bilan o'zlariga ma'lum bo'lgan ma'lumotlar yuzasidan;

6) Rossiya Federatsiyasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakil, Rossiya Federatsiyasi subyektlari ichidagi tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakil o'z vazifalarini bajarishi munosabati bilan o'zlariga ma'lum bo'lgan ma'lumotlar yuzasidan ko'rsatma berishdan bosh tortishi mumkin [10].

Belarus Respublikasi FPKning 92-moddasida quyidagilar guvoh sifatida so'roq qilish mumkin bo'lmagan shaxslar sifatida belgilangan:

1) jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari tufayli faktlarni to'g'ri idrok eta olmaydigan va ular haqida to'g'ri ko'rsatma berolmaydigan shaxslar;

2) fuqarolik va iqtisodiy ish bo'yicha vakillar, mediatorlar, yarashtiruvchilar, shuningdek, jinoyat ishi bo'yicha himoyachilar – vakil, mediator, yarashtiruvchi yoki hi-

moyachi vazifalarini bajarishi munosabati bilan o'zlariga ma'lum bo'lgan holatlar to'g'risida;

3) ruhoniylar – tan olish paytida olingan holatlar, ma'lumotlar to'g'risida;

4) sudyalari – maslahatxonada fuqarolik yoki jinoyat ishi bo'yicha sud qarorini chiqarishda holatlarni muhokama qilish munosabati bilan yuzaga kelgan masalalar to'g'risida [11].

Shuningdek, Belarus Respublikasi FPKning 94-moddasi "Guvohning guvohlik berishdan bosh tortish huquqi" deb nomlanib, ushbu moddada ko'rsatilishicha, guvoh o'ziga, oila a'zolariga, yaqin qarindoshlariga qarshi ko'rsatma berishni rad etishga haqli.

Latviya Respublikasi FPKning 106-moddasiga ko'ra, quyidagilar guvoh sifatida chaqirilishi va so'roq qilinishi mumkin emas [12]:

1) voyaga yetmaganlar – o'z ota-onalariga, bobo va buvilariga, aka-uka va opa-singillari-ga qarshi guvohlik berishi;

2) ruhiy yoki jismoniy nuqsoni sababli ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatni to'g'ri idrok etish va bu haqda ko'rsatma bera olish layoqatiga ega bo'lmagan shaxslar;

3) yetti yoshgacha bo'lgan bolalar.

Ozarbayjon Respublikasi FPKning 104-moddasida guvoh sifatida so'roq qilish mumkin bo'lmagan va guvohlik ko'rsatmalarini berishdan bosh tortish huquqiga ega bo'lgan shaxslar ro'yxati berilgan. Unga ko'ra,

104.4. Guvoh sifatida so'roq qilish mumkin emas:

104.4.1. Jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari tufayli faktlarni to'g'ri idrok eta olmaydigan yoki ular haqida to'g'ri ko'rsatma berolmaydigan shaxslar;

104.4.2. Fuqarolik ishi bo'yicha vakillar yoki jinoyat ishi bo'yicha himoyachi – vakil yoki himoyachining vazifalarini bajarishi munosabati bilan ularga ma'lum bo'lgan holatlar to'g'risida;

104.4.3. Sudyalari – odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq holda ularga ma'lum bo'lgan masalalar bo'yicha;

104.4.4. Din arboblari – din bilan bog'liq holda ularga ma'lum bo'lgan masalalar bo'yicha;

104.4.5. Advokatlar – o'z kasb burchini bajarishi munosabati bilan ularga ma'lum bo'lgan holatlar to'g'risida;

104.4.6. Mediatziya ishtirokchilari va mediatziyada ishtirok etayotgan boshqa shaxslar – mediatziya davomida olingan ma'lumotlar yuzasidan, Ozarbayjon Respublikasining "Mediatziya to'g'risida"gi qonunida belgilangan hollar bundan mustasno;

104.5. Sudda guvohlik berishdan bosh tortish huquqi:

104.5.1. Shaxs o'z-o'ziga qarshi;

104.5.2. Er-xotinlar – bir-biriga, bolalar – ota-onalarga, ota-onalar – bolalarga qarshi;

104.5.3. Aka-uka va opa-singillar – bir-biriga, bobo-buvilar – nabiralarga, nevaralar – bobo-buvilarga qarshi;

104.5.4. Ozarbayjon Respublikasi Milliy Majlisi (Milliy Majlisi) deputatlari va Naxchivan Muxtor Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari o'z vazifalarini bajarishi munosabati bilan ularga ma'lum bo'lgan holatlar to'g'risida [13].

Yuqoridagi xorijiy davlatlar fuqarolik protsessual qonunchiligidan tashqari ilmiy adabiyotlarda ham guvohning guvohlik berishdan bosh tortish huquqi tushunchasi, guvohning daxlsizligi yoki guvoh immunitet huquqi to'g'risida huquqshunos olimlar o'z fikrlarini bildirib o'tganlar. Masalan, M. Fokina, N. Gramov va V. Konevlarning fikricha, guvohlik immuniteti – bu qarindoshlik munosabatlari yoki xizmat vazifalariga ko'ra yoxud faktlarni to'g'ri tushunish yoki ular haqida to'g'ri ko'rsatmalar berishga qodir bo'lmagan bo'is guvohga beriladigan ko'rsatma bermaslik huquqidir [14].

Y.V. Xromixning fikricha, immunitet (lotincha immunitas) deganda biror narsadan ozod qilish, dalillarni rad qilish huquqini berish va muayyan holatlar bo'yicha so'roq qilishni taqiqlash, umuman olganda, sudda guvohni umumiy qonunchilik majburiyatidan ozod qilish tushuniladi [15].

Ba'zi mualliflar guvohning daxlsizligini guvohni ish bo'yicha guvohlik berish majburiyatidan ozod qiluvchi imtiyoz deb hisoblashadi [16]. Bizningcha, ushbu fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki guvohlik berish majburiyatidan ozod qilishni imtiyoz sifatida tushunish noo'rin. Shaxslarning guvohlik daxlsizligi ularni so'roq qilishni taqiqlash shaklida namoyon bo'ladi, uni imtiyoz deb hisoblash mumkin emas. Guvohning daxlsizligini shaxsni majburiyatdan qonuniy ravishda ozod qilish sifatida ta'riflash mumkin.

Guvohning daxlsizligi faqat shaxsning o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik bermaslik huquqi sifatida tor ma'noda tushunilmasligi kerak. Mualliflarning fikricha, qonun ushbu tushunchaga ta'rif berishda sudya, advokat va boshqa shaxslarni so'roq qilishni taqiqlashni ham hisobga olishi darakor. Bu pozitsiyani dalillar nazariyasi sohasida ishlaydigan ko'plab olimlar tasdiqlaydilar. Ular guvohlarning ayrim holatlarda shaxslarni so'roq qilishni taqiqlash va ayrim toifadagi shaxslarni so'roq qilish mumkin emas, deb hisoblaydilar [17].

Ushbu fikrga qo'shilgan holda, aytishimiz mumkinki, ayrim toifadagi shaxslarni guvoh sifatida jalb qilishimiz mumkin emas. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 136-moddasi hamda "Sudlar to'g'risida"gi qonunning 64-moddasida belgilanishicha, sudya shaxsi daxlsiz. O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi qonunning 64-moddasi 7-qismida sudyani huquqni muhofaza qiluvchi organlarga guvoh yoki gumon qiluvchi sifatida so'roq qilish uchun chaqirishga faqat tegishli sudyalalar malaka hay'atining roziligi bilan yo'l qo'yiladi. Demak, sudya immunitet huquqiga ega. Sudyani sud yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarga guvoh sifatida jalb qilish uchun Sudyalalar malaka hay'atining roziligini olish lozim. Shuningdek, sudya ilgari ayni shu ish bo'yicha prokuror, ekspert, mutaxassis, tarjimon, sud majlisi kotibi, guvoh va vakil sifatida ishtirok etgan bo'lsa, o'zini

o'zi rad qilishi kerak. Ya'ni mazkur ish bo'yicha sudya guvoh sifatida ham jalb qilinishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 104-moddasi 3-qismiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosi daxlsizlik huquqidan foydalanadilar. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasi 4-qismida, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasi 3-qismida deputatlarning daxlsizlik huquqi mustahkamlangan.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyasining 28-moddasida belgilangan "Hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas" degan normani qo'shimcha ravishda kafolatlash maqsadida hamda xorijiy davlatlar fuqarolik protsessual qonunchiligining ijobiy tajribalarini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 56-moddasiga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish, unda guvoh sifatida chaqirilishi va so'roq qilinishi mumkin bo'lmagan shaxslar hamda guvohlik ko'rsatmalarini berishdan bosh tortish huquqiga ega bo'lgan shaxslar ro'yxati o'z ifodasini topishi maqsadga muvofiq. Unga ko'ra, ushbu moddaning 2-qismini quyidagi tahrirda bayon etish taklif qilinadi:

Quyidagilar guvoh sifatida chaqirilishi va so'roq qilinishi mumkin emas:

1) vakil, himoyachi, advokat yoki mediator vazifalarini bajarishi munosabati bilan o'ziga ma'lum bo'lib qolgan holatlar to'g'risida – fuqarolik, iqtisodiy, ma'muriy ish bo'yicha vakillar yoki jinoyat ishi bo'yicha himoyachilar, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bo'yicha advokatlar, mediatorlar;

2) jismoniy nuqsonlari yoki ruhiy holatining buzilganligi sababli faktlarni to'g'ri idrok qilish yoki ular haqida to'g'ri ko'rsatmalar berishga layoqatsiz shaxslar;

3) sudyalari – hal qiluv qarori va ajrim chiqarish jarayonida kelib chiqqan masalalarni maslahatxonada muhokama qilishga oid holatlar to'g'risida;

4) hakamlik sudyasi – hakamlik muhokamasi davomida o'ziga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlar haqida;

5) mediatsiya ishtirokchilari – o'zlariga mediatsiya jarayonida ma'lum bo'lib qolgan holatlar haqida, bundan qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno.

4) davlat ro'yxatidan o'tgan diniy tashkilotlarning din arboblari – iqrorga bo'lish paytida ularga ishongan shaxslardan ma'lum bo'lgan holatlar to'g'risida.

Mazkur moddani quyidagi 3-qism bilan to'ldirish lozim:

Guvohlik ko'rsatmalarini berishdan bosh tortish huquqiga quyidagi shaxslar ega:

1) fuqaro o'z-o'ziga qarshi;

2) er-xotin bir-biriga, farzandlar, shu jumladan, farzandlikka olinganlar ota-onalariga, farzandlikka olganlarga nisbatan, ota-onalar, farzandlikka olganlar farzandlariga, shu jumladan, farzandlikka olinganlarga nisbatan;

3) aka-ukalar, opa-singillar bir-biriga, bobo, buvi nevaralari va nevaralar bobo, buvilariga qarshi;

4) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining deputatlari, Senat a'zolari va Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining deputatlari – o'z vazifalarini bajarishi munosabati bilan o'zlariga ma'lum bo'lgan holatlar yuzasidan;

5) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman) o'z vazifasini bajarishi davomida o'ziga aniq bo'lgan ma'lumotlar yuzasidan;

6) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil o'z vazifalarini bajarishi munosabati bilan o'ziga ma'lum bo'lgan ma'lumotlar yuzasidan.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 57-moddasiga ko'ra, gu-

voh sifatida chaqirilgan shaxs sudga kelishi va to'g'ri ko'rsatmalar berishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 11-moddasiga asosan, guvohlar sudga o'z ona tillarida ko'rsatma berishga haqli. Agar guvoh ish yuritilayotgan tilni bilmasa, sud tomonidan tarjimonning xizmatlaridan foydalanish huquqi ta'minlanadi.

Fuqarolik protsessual qonunchiligiga ko'ra, guvoh ko'rsatma berishda uning ko'rsatmalari biron-bir hisoblar yoki xotirada saqlab qolish qiyin boshqa ma'lumotlar bilan bog'liq bo'lgan hollarda, yozma xotiralardan foydalanishi mumkin. Bu yozma xotiralar sud va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ko'rsatiladi hamda sud ajrimi bilan ishga qo'shib qo'yilishi mumkin (FPKning 230-moddasi).

Tadqiqot natijalari tahlili

Huquqshunos olim Sh. Shoraxmetovning fikricha, ayrim hollarda guvoh o'z guvohligini yozma ravishda ham bildirishi mumkin. Bunga bir qator holatlar asos bo'ladi. Jumladan: 1) guvoh ko'rsatmalari matematik hisoblar bilan bog'liq bo'lsa; 2) tegishli iqtisodiy masalalar tahlil qilinishi talab etiladigan bo'lsa; 3) kimyo, fizika yoki boshqa fanlarga oid formulalar bilan bog'liq bo'lsa; 4) qurilish texnikasi, loyihalar, chizma-chiziqlar, raqamlar kimyoviy tarkiblar va boshqalar bilan bog'liq bo'lsa. Yozma guvohlik berish uchun beriladigan bayonotlar yuqoridagi talablarga aloqador bo'lishi lozim.

Mazkur fikrga qo'shilgan holda aytish mumkinki, umumiy qoidaga ko'ra, guvohning beradigan guvohligi og'zaki bo'ladi. Guvohning yozma xotiralardan foydalanish huquqi sud tomonidan ishning haqiqiy holatini to'g'ri aniqlash, dalilga baho berish, chalkashliklarni to'g'ri hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda xorijiy davlatlar qonunchiligida guvohlarning xavfsizligini ta'minlashga jiddiy e'tibor berilmoqda. Ayrim MDHga a'zo davlatlar, masalan, Rossiya Federatsiyasida 2004-yil 20-avgustda "Jabr-

lanuvchilar, guvohlar va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini davlat tomonidan himoya qilish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Keyinchalik esa "2014–2018-yillar uchun jabrlanuvchilar, guvohlar va jinoyat-sudlov ishlarini yuritishning boshqa ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash" bo'yicha Davlat dasturi qabul qilindi [18].

GFRda 1998-yilda "Xavf tahdid qilayotgan guvohning himoyasini ta'minlash masalalarini tartibga solish to'g'risida"gi qonun ishlab chiqilgan va qabul qilingan. Mazkur qonunga muvofiq, guvohlarni himoya qilish bo'yicha maxsus dastur amal qiladi. Ushbu dasturga ko'ra, himoya ostidagi shaxsning shaxsiga oid ma'lumotlar maxfiy rejimga o'tadi, shuningdek, uning yangi yashash joyi ham maxfiy sanaladi [19].

Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan xuddi shu kabi dastur Avstriyada ham amal qiladi [20].

Guvohlarni himoya qilishning eng omalashgan vositasi AQShda qo'llanadi. Ya'ni guvoh boshqa xavfsiz joyga ko'chirilib, unga bir necha oy davlat tomonidan moliyaviy ko'mak beriladi. Guvoh yangi joyga joylashib, to muayyan mashg'ulot bilan shug'ullanishga kirishguniga qadar yashash uchun zarur bo'lgan yordam ko'rsatiladi [21].

Fuqarolik protsessual qonunchiligimizni xalqaro tajribadan kelib chiqib yanada takomillashtirish hamda sud ishlarini yuritishda guvohlarning daxlsizlik huquqlari va xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlarini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Xavf tahdid qilayotgan guvohning himoyasini ta'minlash to'g'risida"gi qonunini qabul qilish va ushbu qonunda guvohning hayoti va sog'lig'iga real xavf raxna soladigan bo'lsa, guvoh boshqa xavfsiz joyga ko'chirilishi, boshqa joyga ko'chib o'tgan guvohga muayyan vaqt ichida davlat tomonidan moliyaviy ko'mak berilishi, nafaqat guvohlar, balki hayoti, sog'lig'i va farovonligiga raxna soladigan bo'lsa, ularning qarindoshlari va yaqinlariga nisbatan

ham ushbu qoida qo'llanishi haqidagi normalar o'z ifodasini topishi maqsadga muvofiq.

Xulosalar

Fuqarolik protsessida odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxs sifatida guvoh ishtiroki bilan bog'liq masalalar tahlili natijasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyasining 28-moddasida belgilangan "Hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas" degan normani qo'shimcha ravishda kafolatlash maqsadida hamda xorijiy davlatlar fuqarolik protsessual qonunchiligining ijobiy tajribalarini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 56-moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, unda guvoh sifatida chaqirilishi va so'roq qilinishi mumkin bo'lmagan shaxslar hamda guvohlik ko'rsatmalarini berishdan bosh tortish huquqiga ega bo'lgan shaxslar ro'yxati o'z ifodasini topishi maqsadga muvofiq. Unga ko'ra, ushbu moddaning 2-qismini quyidagi tahrirda bayon etish taklif qilinadi:

Quyidagilar guvoh sifatida chaqirilishi va so'roq qilinishi mumkin emas:

1) vakil, himoyachi, advokat yoki mediator vazifalarini bajarishi munosabati bilan o'ziga ma'lum bo'lib qolgan holatlar to'g'risida – fuqarolik, iqtisodiy, ma'muriy ish bo'yicha vakillar yoki jinoyat ishi bo'yicha himoyachilar, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bo'yicha advokatlar, mediatorlar;

2) jismoniy nuqsonlari yoki ruhiy holatining buzilganligi sababli faktlarni to'g'ri idrok qilish yoki ular haqida to'g'ri ko'rsatmalar berishga layoqatsiz shaxslar;

3) sudyalari – hal qiluv qarori va ajrim chiqarish jarayonida kelib chiqqan masalalarni maslahatxonada muhokama qilishga oid holatlar to'g'risida;

4) hakamlik sudyasi – hakamlik muhokamasi davomida o'ziga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlar haqida;

5) mediatsiya ishtirokchilari – o'zlariga mediatsiya jarayonida ma'lum bo'lib qolgan holatlar haqida, bundan qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno;

4) davlat ro'yxatidan o'tgan diniy tashkilotlarning din arboblari – iqrar bo'lish paytida ularga ishongan shaxslardan ma'lum bo'lgan holatlar to'g'risida.

Mazkur moddani quyidagi 3-qism bilan to'ldirish lozim:

Guvohlik ko'rsatmalarini berishdan bosh tortish huquqiga quyidagi shaxslar ega:

1) fuqaro o'z-o'ziga qarshi;

2) er-xotin bir-biriga, farzandlar, shu jumladan, farzandlikka olinganlar ota-onalariga, farzandlikka olganlarga nisbatan, ota-onalar, farzandlikka olganlar farzandlariga, shu jumladan, farzandlikka olinganlarga nisbatan;

3) aka-ukalar, opa-singillar bir-biriga, bobo, buvi nevaralari va nevaralar bobo, buvilariga qarshi;

4) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining deputatlari, Senat a'zolari va Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining deputatlari – o'z vazifalarini bajarishi munosabati bilan o'zlariga ma'lum bo'lgan holatlar yuzasidan;

5) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi-ning inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) – o'z vazifasini bajarishi davomida o'ziga aniq bo'lgan ma'lumotlar yuzasidan;

6) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil – o'z vazifalarini bajarishi munosabati bilan o'ziga ma'lum bo'lgan ma'lumotlar yuzasidan.

2. Fuqarolik protsessual qonunchiligi-mizni xalqaro tajribadan kelib chiqib yanada takomillashtirish hamda sud ishlarini yuritishda guvohlarning daxlsizlik huquqlari va xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlarini kuchaytirish maqsadida kelgusida O'zbekiston Respublikasining "Xavf tahdid qilayotgan guvohning himoyasini ta'minlash to'g'risida"-gi qonunini qabul qilish maqsadga muvofiq.

REFERENCES

1. Grazhdanskiy protsess [Civil process]. Moscow, Spark Publ., 1999, 184 p.
2. Grazhdanskiy protsess zarubezhnykh stran [Civil process of foreign countries]. Moscow, Prospekt Publ., 2008, p. 221.
3. Treushnikov M.K. Grazhdanskiy protsess [Civil process]. Moscow, Gorodets Publ., 2000, pp. 233–238.
4. Zvyagintseva L.M., Plyukhina M.A., Reshetnikova I.V. Evidence in zhudicial practice in civil cases. Moscow, Norma-Infra Publ., 2000, pp. 22–42.
5. Shorahmetov Sh.Sh. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar [Notes to the Civil Procedure Code of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, TSIL, 2010, p. 102.
6. Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik protsessi [Civil procedure]. Tashkent, Baktriapress Publ., 2014, p. 140.
7. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi [Civil Procedure Code of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Justice Publ., 2022, p. 38.
8. Grazhdanskoye protsessual'noye ulozheniye Germanii [Code of Civil Procedure of Germany]. Moscow, Infotropic Media Publ., 2016, pp. 128–129.
9. Grazhdanskiy protsessual'nyy kodeks Respubliki Kazakhstan [Civil Procedure Code of the Republic of Kazakhstan]. Available at: <https://adilet.zan.kz/rus/docs>

10. Grazhdanskiy protsessual'nyy kodeks Rossiyskoy Federatsii [Code of Civil Procedure of the Russian Federation]. Available at: <https://www.consultant.ru>
11. Grazhdanskiy protsessual'nyy kodeks Respubliki Belarus [Civil Procedure Code of the Republic of Belarus]. Available at: https://kodeksy-by.com/grazhdanskizh_protsessualnyzh_kodeks_rb.htm
12. Grazhdanskiy protsessual'nyy kodeks Respubliki Latviya [Civil Procedure Code of the Republic of Latvia]. Available at: <http://cld.privatelaw.ru/snglaw/snglaw.htm>
13. Grazhdanskiy protsessual'nyy kodeks Azerbaydzhanskoy Respubliki [Civil Procedure Code of the Republic of Azerbaijan]. Available at: https://continent-online.com/Document/?doc_id=30420065#pos=576
14. Fokina M., Gramov N., Konev V. Svidetel'skiy immunitet i yego vidy v grazhdanskom sudoproizvodstve [Witness immunity and its types in civil proceedings]. *Legality*, 2006, no. 4, 41 p.
15. Xromykh Y.V. Ponyatiye i vidy svidetel'skogo immuniteta [The concept and types of witness immunity]. *State and Law*, 2015, no. 1, pp. 183–186.
16. Reshetnikova I.V. Dokazatel'stvennoye pravo v grazhdanskom sudoproizvodstve [Evidence law in civil proceedings]. Ekaterinburg, 2007, p. 100.
17. Petukhovskiy A. Svidetel'skiy immunitet: problemy razvitiya protsessual'nogo instituta [Witness immunity: problems of the development of the procedural institution]. *Russian Justice*, 2013, no. 9, p. 16.
18. Gosudarstvennaya programma «Obespecheniye bezopasnosti poterpevshikh, svideteley i inykh uchastnikov ugovnogo sudoproizvodstva na 2014–2018 gody» [State program “Ensuring the safety of victims, witnesses and other participants in criminal proceedings for 2014–2018”]. Official website of the Government of the Russian Federation. Available at: <http://www.government.ru>
19. Zhurkina O.V. Sravnitel'niy analiz gosudarstvennoy programmy zashhity svideteley v Rossii i SShA [Comparative analysis of the state witness protection program in Russia and the USA]. Orenburg State University.
20. Pravovyye osnovy zashhity svideteley v Avstrii [Legal basis for the protection of witnesses in Austria]. Foreign experience of legal regulation on the protection of participants in legal proceedings and the practice of its application. Moscow, 2000, 356 p.
21. Slate R.N. The federal Witness Protection Program: its evolution and continuing growing pains. *Criminal Justice Ethics*, 1997.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.4./SOCU3743>
UDC: 347.999+346.93(045)(575.1)

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ МЕДИАЦИИ В НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ И УЗБЕКИСТАНЕ: ВОЗМОЖНЫЕ ВОПРОСЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Хайрулина Асаль Баходировна,
преподаватель кафедры «Гражданское процессуальное и
экономическое процессуальное право»
Ташкентского государственного юридического университета
ORCID: 0000-0002-8519-0506
e-mail: asalkhayrulina@gmail.com

Аннотация. Статья посвящена исследованию института медиации как альтернативного способа разрешения споров и инструмента совершенствования правовой культуры. Медиация, определяющая механизм досудебного урегулирования споров, то есть примирение сторон спора с участием медиатора, давно используется в практике развитых зарубежных стран и зарекомендовала себя одним из эффективных способов альтернативного разрешения спора. В связи с этим дан сравнительный анализ применения данной процедуры в практике зарубежных стран, таких как Сингапур, Германия, Беларусь, Грузия, и Узбекистана, а также их опыт в этом направлении, преимущества и недостатки медиации. Изучено действующее законодательство Республики Узбекистан о медиации, ее применение и эффективность, текущее состояние института медиации. Указаны проблемы и пути их решения, связанные с совершенствованием применения процедуры медиации, например отсутствие принудительного исполнения медиативного соглашения между сторонами, даны предложения по внедрению внутрисудебной медиации, которая может проводиться со стороны суда с участием судьи-медиатора на профессиональной основе, также с достижением медиативного соглашения между сторонами при нотариальной медиации и правом совершения исполнительной надписи нотариусом для возможности его дальнейшего принудительного исполнения.

Ключевые слова: медиация, альтернативные способы разрешения споров, медиатор, медиативное соглашение, внутрисудебная медиация, судья-медиатор, нотариальная медиация, исполнительная надпись, исполнительный документ.

AYRIM XORIJIY DAVLATLAR VA O'ZBEKISTONDA MEDIATSIYANING QIYOSIY TAHLILI: AYRIM SAVOL VA TAKLIFLAR

Xayrullina Asal Bahodirovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik protsessual va iqtisodiy
protsessual huquqi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada nizolarni hal etishning muqobil usuli va huquqiy madaniyatni takomillashtirish vositasi sifatida mediatsiya instituti o'rganilgan. Nizolarni sudgacha hal etish mexanizmi, ya'ni nizo taraflarini mediator ishtirokida yarashtirishni belgilovchi mediatsiya uzoq

vaqtdan beri rivojlangan xorijiy mamlakatlar amaliyotida qo'llaniladi va nizoni muqobil hal etishning samarali usullaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Shu munosabat bilan maqolada ushbu tartib-taomilni Singapur, Germaniya, Belarus, Gruziya kabi xorijiy mamlakatlar va O'zbekiston amaliyotida qo'llashning qiyosiy tahlili, shuningdek, ularning bu boradagi tajribasi, mediatsiyaning afzalliklari va kamchiliklari keltirilgan. Bundan tashqari, maqolada O'zbekiston Respublikasining mediatsiya to'g'risidagi amaldagi qonunchiligi, uning qo'llanilishi va samaradorligi, mediatsiya institutining bugungi kundagi holati o'rganilgan. Mediatsiya tartib-taomilini qo'llashni takomillashtirish bilan bog'liq muammolar va ularni hal etish yo'llari, masalan, taraflar o'rtasida mediativ kelishuv ijrosi ta'minlanmayotganligi, sudya-mediator ishtirokida professional asosda sud ichki mediatsiyasi tartib-taomili, shuningdek, notarial mediatsiyani amalga oshirishda taraflar o'rtasida mediativ kelishuvga erishilganda, uning majburiy ijro etish imkoniyati uchun notarius ijro xati yozilishini joriy etish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: mediatsiya, nizolarni hal etishning muqobil usullari, mediator, mediativ kelishuv, sud ichki mediatsiyasi, sudya-mediator, notarial mediatsiya, ijro yozuvi, ijro hujjati.

COMPARATIVE ANALYSIS OF MEDIATION IN SOME FOREIGN COUNTRIES AND UZBEKISTAN: POTENSIAL QUESTIONS AND PROPOSALS

Xayrulina Asal Baxodirovna,

Tashkent State University of Law,

Lecturer of the Department of Civil and Economic Procedural Law

Abstract. The article is devoted to the study of the institute of mediation as an alternative dispute resolution and a tool for improving legal culture. Mediation, which defines the mechanism of pre-trial dispute settlement, that is, reconciliation of the parties to a dispute with the participation of a mediator, has long been used in the practice of developed foreign countries and has proven to be one of their effective ways of alternative dispute resolution. In this regard, a comparative analysis of the application of this procedure in the practice of foreign countries, such as Singapore, Germany, Belarus, Georgia, and Uzbekistan, as well as their experience in this area and the advantages and disadvantages of mediation is given. The current legislation of the Republic of Uzbekistan on mediation, its application and effectiveness, and the current state of the mediation institute have been studied. The problems and ways to solve them related to improving the application of mediation procedures are indicated. For example, the absence of enforcement of a mediation agreement between the parties, proposals are given for the introduction of intra-judicial mediation, which can be carried out by the court with the participation of a mediator judge on a professional basis, as well as when a mediation agreement is reached between the parties during notarial mediation and the right to perform executive inscriptions by a notary for the possibility of its further enforcement.

Keywords: mediation, alternative dispute resolution methods, mediator, mediation agreement, in-court mediation, judge-mediator, notarial mediation, executive inscription, executive document.

Введение

В последнее время большое внимание уделяется вопросам развития и применения процедуры медиации как одного из способов альтернативного разрешения споров (АРС) в Узбекистане и за рубежом. Поэтому совершенствование данной системы является одним из основных направлений проводимых в стране реформ,

направленных на обеспечение надежной защиты прав и свобод граждан, а также решение их жизненно важных проблем. Национальное законодательство определяет медиацию как способ разрешения возникшего спора при содействии медиатора на основе добровольного согласия сторон в целях достижения ими взаимоприемлемого решения.

Одним из важных факторов развития данного института является низкая эффективность судебной системы при рассмотрении отдельных категорий дел, что может быть связано с чрезмерной загруженностью судов, продолжительностью судебного разбирательства и другими недостатками, присущими различным судебным системам. Еще одним фактором является то, что стороны предпочитают сохранять и поддерживать деловые и партнерские отношения, избегать огласки и решать спор мирным путем. Обычно это не всегда возможно в рамках государственного судебного разбирательства. Кроме того, большинство методов АРС, как правило, основаны на принципах взаимной выгоды, добровольности, конфиденциальности и характеризуются быстротой рассмотрения и относительно небольшими затратами при их применении. Есть и такие факторы, как стремительные социально-экономические изменения, глобализация, миграция, низкая правовая культура и т. п.

Мировая практика служит подтверждением эффективного использования медиации в разрешении конфликтов. Применение данного института позволяет сторонам конфликта сохранить партнерские отношения и в то же время разрешить спор. Посредством медиации сводятся к минимуму потери участников спора, как моральные, так и материальные. Чтобы отразить глубину внедрения в практику института медиации в разных странах, необходимо представить их национальный опыт в данном направлении.

Материалы и методы

В данной работе были использованы общенаучные (диалектический метод, системный метод, анализ, синтез, классификация, сравнение и аналогия) и частнонаучные (сравнительно-правовой, исторический, право-социологический) и другие методы познания.

Результаты исследования

На сегодняшний день Сингапур является мировым центром медиации, так как стремительное развитие данного института там началось еще в 90-годах XX века. Согласно сингапурскому законодательству о медиации, медиация представляет собой процесс, который включает в себя несколько сеансов, при котором один или несколько медиаторов своими действиями способствуют решению конфликта сторон [1].

В Сингапуре функционирует судебная и внесудебная (частная) медиация. При судебной процедуре медиации судья сам направляет стороны спора на процедуру медиации (судебную или частную). Все споры, связанные с ребенком, а также вопросы расторжения брака рассматриваются Семейными судами посредством медиации. Различные министерства и ведомства также практикуют медиацию в соответствии со своей специализацией.

Правила применения медиации при обращении в суды были введены государством в 2010 году. Адвокаты и клиенты должны подтвердить в письменной форме, что они обсудили возможность урегулирования спора посредством медиации, и представить свое решение об ее использовании в специальной форме. В 2012 году существовала практика, когда все гражданские суды автоматически передавали дела на медиацию, исключением являлся отказ от использования процедуры одной или несколькими сторонами. Если суд сочтет неуважительными причины отказа, это приводило к наложению штрафных санкций.

На примере Сингапурского центра медиации (СЦМ), который был основан в качестве некоммерческой организации в 1997 году, можно показать практику внедрения внесудебной медиации. Его учредителем стала Сингапурская юридическая академия, являющаяся государственным

органом. Директором СЦМ всегда является судья Верховного суда. Основными направлениями работы Центра являются: проведение медиации и предоставление других сопутствующих услуг; обучение методам APC, переговоров и др.; оказание консультативных услуг по предотвращению конфликтных ситуаций; аккредитация и ведение реестра медиаторов; развитие и продвижение медиации и других форм APC; создание соответствующих условий для переговоров и медиации и других альтернативных процедур.

Первоначально, когда медиация только зарождалась в Сингапуре, многие к ней были равнодушными. Медиацию как таковую в Сингапуре не воспринимали всерьез, пока не была внедрена поддержка альтернативных процедур судами и Министерством юстиции Сингапура.

В 1994 году был запущен проект по применению медиации в судами первой инстанции: судьи стали называться «судьями-медиаторами». За отказ от участия в медиации без уважительных причин начали применять санкции; все гражданские споры стали включать обязательное применение APC, в основном – медиацию. Так как у суда есть полномочия в уменьшении государственной пошлины, то в случае безосновательного отказа от проведения процедуры медиации суд может отказать в ее уменьшении. Благодаря введению таких мер количество медиаций увеличилось в два раза. Например, в 2018 году 6 000 гражданских споров было разрешено посредством медиации, 85 % из них были исполнены [2]. Также следует отметить, что процедура медиации проводится судьями на бесплатной основе.

Генеральной прокуратурой Сингапура были подготовлены рекомендации, согласно которым при возникновении споров все государственные органы должны применять процедуру медиации в качестве первого способа по разрешению спо-

ра, и во все договора с госорганами должна быть включена медиативная оговорка о передаче спора в СЦМ.

Все трудовые споры также должны проходить через обязательную процедуру медиации, и только тогда, когда достижение согласия невозможно, они могут быть направлены в комиссию по трудовым спорам.

Начиная с 2016 года, согласно законодательству Сингапура, юристы обязаны информировать своих клиентов о возможности применения APC. Процедура медиации должна носить обязательный характер по всем спорам, связанным с ребенком. Также в случае бракоразводного процесса при наличии у супругов детей до 21 года применение процедуры медиации является обязательным. При этом медиация может быть осуществлена как судом на бесплатной основе, так и частным центром, но на платной основе. В реестр медиаторов входят лица, которые занимаются медиативной практикой. Реестр разделен по специализациям, например в области трудовых споров, семейных, строительных и т. п.

В Сингапуре успех медиации в первую очередь связан с тем, что разрешение споров в судебном порядке занимает много времени, так как иногда сторонам спора приходится ждать своего приглашения на слушания от 3 до 5 лет [2].

Законодательные институты альтернативного разрешения споров хорошо развиты в Германии. В частности, закон о медиации в Германии «Mediationsgesetz» был принят в 2012 году. В результате изучения и анализа немецкого законодательства о медиации стало известно о существовании двух видов медиации в Германии: внесудебной и судебной.

Споры в Германии рассматриваются судами на основании правил процессуального кодекса ФРГ [3]. Проанализировав нормы кодекса о применении медиации при разрешении споров, можно резюмировать, что при разрешении споров суд

предлагает сторонам рассмотреть спор до рассмотрения дела в суде (в досудебном порядке). Если стороны решат урегулировать спор путем медиации, суд прекращает производство по делу. Судебная медиация может применяться на любой стадии рассмотрения споров в первой инстанции. Кроме того, в соответствии с законодательством Германии о медиации, помимо согласия на использование судебной медиации для разрешения спора, стороны спора могут прибегнуть к внесудебной медиации, если сочтут это необходимым.

Важным аспектом немецкого законодательства о применении медиации при разрешении споров является то, что, когда суд направляет дело в суд для проведения медиации при разрешении спора, он не ограничивает процесс определенным сроком. Причиной установления этих правил в Германии является наличие споров между немецкими учеными и медиаторами. До принятия закона о медиации в Германии посреднической деятельностью занимались судьи. Процедура, проводимая судьей в течение двух часов или одного заседания, не считается медиацией. Примирение, достигнутое между сторонами в краткосрочной перспективе, не всегда отвечает интересам сторон. По этой причине законом не установлен срок применения судебной медиации при разрешении споров. То есть процесс может занять от нескольких дней до месяцев или нескольких лет.

Также необходимо подчеркнуть следующую норму Гражданско-процессуального кодекса (ГПК) Германии о применении медиации при разрешении споров. Статья 253 ГПК Германии посвящена содержанию заявления, согласно которому в заявлениях, подаваемых в суды, содержится информация о примененных альтернативных способах внесудебного урегулирования споров. Этих норм немецкого права нет в национальном законодательстве.

Однако, на самом деле, необходимо включить в содержание исковых требований информацию о том, какие альтернативные способы применялись для разрешения данного спора.

На сегодняшний день медиация является признанным и востребованным методом разрешения споров во всем мире. В связи с этим и Беларусь заняла активную позицию в развитии медиации. В 2013 году был принят Закон «О медиации» [4], который установил организационно-правовые условия существования медиации.

В Беларуси действует фасилитативная медиация, которая основана на таких принципах, как нейтральность медиатора и добровольность обращения к медиатору. Суд вправе давать рекомендации сторонам спора использовать медиацию как способ разрешения возникшей спорной ситуации. Отличительной особенностью белорусской модели медиации является возможность принудительного исполнения заключенных медиативных соглашений. В Беларуси медиация применяется к отношениям, возникающим из гражданско-правовых, в том числе связанных с ведением предпринимательской деятельности и иных хозяйственных споров, а также к спорам, возникающим из трудовых споров и семейно-правовых отношений, если иное не установлено законом.

Как видно из статьи 2 Закона Республики Беларусь «О медиации», помимо внесудебной медиации в Беларуси существует еще и судебная медиация. Положения Закона Республики Беларусь «О медиации» не распространяются на судебную медиацию. Судебная медиация регулируется белорусским процессуальным законодательством [4].

Медиация на законодательном уровне в Грузии была закреплена только в 2019 году. В Грузии существует судебная, частная и нотариальная медиация. Судебная медиация – медиация, осуществляемая

после подачи иска в суд в порядке, установленном ГПК Грузии главой XXII [5]. Частная медиация – медиация без предъявления иска сторонами, осуществляемая по собственной инициативе на основании соглашения о медиации, предполагает передачу дела самими сторонами медиатору.

Судебная медиация применяется к гражданскому процессу. Спор для медиации может быть передан после того, как суд принял дело к рассмотрению. Существует две формы судебной медиации: добровольная и обязательная. При *добровольной медиации* с согласия сторон любой гражданско-правовой спор может быть передан на рассмотрение в суд. При подаче иска в суд судья производит предварительную оценку и без согласия сторон применяет *обязательную судебную медиацию* по следующим категориям дел: семейно-правовые дела, кроме усыновления, отмены усыновления, ограничения родительских прав, лишения родительских прав, а также споры, связанные с насилием в отношении женщин и/или насилием в семье; наследственные и соседские правовые споры; трудовые споры, кроме коллективных споров; дела, связанные с реализацией общего права; имущественные споры, если стоимость предмета спора не превышает 20 000 лари; неимущественные споры.

Медиация является более быстрым, дешевым и гибким процессом, чем судебное разбирательство. Срок судебной медиации составляет 45 дней, но не менее двух заседаний. Этот срок может быть продлен по соглашению сторон на тот же срок. При рассмотрении дела в первой инстанции при медиации выплачивается государственная пошлина в размере 1 % вместо 3 % от предмета спора. В случае прекращения спора в судебном порядке по соглашению сторон истцу возвращается 70 % уплаченной государственной пошлины [5]. Медиация – это неформаль-

ный процесс, он не связан формальными процедурами, и стороны договариваются о правилах проведения медиации, поэтому сами определяют конечный результат медиации.

Согласно нотариальной медиации, в соответствии со статьей 38 Закона Грузии «О нотариате» нотариус может выступать медиатором между сторонами по семейно-правовым спорам (кроме дел усыновления, признания усыновления недействительным, ограничения родительских прав и вовсе их лишения); наследственным спорам; спорам между соседями, а также любым другим спорам, если законодательством Грузии не определен специальный порядок осуществления процедуры медиации по таким спорам [6].

Если спор в процессе нотариальной медиации закончился соглашением сторон, нотариус составляет акт о мировом соглашении, который удостоверяется в нотариальном порядке. В случае неисполнения впоследствии сторонами соглашения, достигнутого в результате нотариальной медиации, нотариус вправе в соответствии с законодательством о нотариате совершить исполнительную надпись на соглашении по требованию сторон в порядке, установленном Законом Грузии «Об исполнительных производствах» [7].

Положительный опыт Грузии по принудительному исполнению соглашения, достигнутого в результате процедуры нотариальной медиации, мог бы послужить развитию и повышению значения медиации и в нашей стране.

Анализ результатов исследования

Медиация – относительно новое явление в правовой системе Узбекистана. Официально она была введена в 2018 году с принятием Закона Республики Узбекистан «О медиации». Под процедурой медиации понимается способ разрешения возникших споров при содействии медиатора на основе добровольного согласия сторон

с целью достижения взаимоприемлемого решения.

Закон о медиации содержит перечень «медиабельных» категорий споров, которые могут быть урегулированы с применением процедуры медиации. К ним относятся споры, возникающие из гражданских правоотношений, в том числе в связи с осуществлением предпринимательской деятельности, а также индивидуальные трудовые и семейные споры, за исключением споров, затрагивающих интересы третьих лиц или публичные интересы. Важно отметить, что урегулирование спора с помощью процедуры медиации возможно только в суде первой инстанции до удаления суда в отдельную (совещательную) комнату для принятия судебного акта и в процессе исполнения судебных актов. Возможность разрешения спора путем медиации может быть определена соглашением сторон. Соглашение об использовании процедуры медиации подтверждается письменным соглашением до или после возникновения спора, в том числе в виде оговорки. Сама процедура медиации, в идеале, завершается урегулированием спора и заключением сторонами медиативного соглашения.

В законодательстве нашей страны из трех форм медиации закреплены только две, а именно *досудебная* и *внесудебная* медиация. Следует отметить, что применение *судебной* формы медиации не нашло отражения в процессуальном законодательстве Узбекистана. Одной из актуальных проблем в современном процессуальном законодательстве является то, что нынешняя судебная система не справляется с объемом дел, поступающих на рассмотрение, решением является внедрение в судебную систему внутрисудебной медиации. Опираясь на опыт ряда зарубежных стран по применению судебной медиации, в частности опыт Германии, Грузии, необходимо внедрить в судебную систему

судебную медиацию. Но при ее внедрении в судебную медиацию должны привлекаться только профессиональные медиаторы. Опыт других стран в сфере судебной медиации показывает, что в данном процессе медиатором является судья-медиатор, прошедший специальные курсы обучения. Участие профессионального медиатора (судьи-медиатора) в разрешении споров служит обеспечением успешности института медиации.

Законодательство Республики Узбекистан при разрешении споров путем медиации должно быть дополнительно усовершенствовано за счет введения нотариальной медиации. Данное предложение основано на положительном опыте законодательства Республики Грузия о медиации и нотариате. Важной причиной необходимости введения нотариальной медиации является отсутствие возможности принудительного исполнения, а также ответственности за неисполнение добровольно медиативных соглашений, что является одним из актуальных вопросов на сегодняшний день, так как медиативное соглашение, согласно национальному законодательству, не имеет силы исполнительного документа, то есть стороны при разрешении споров используют процедуру медиации и приходят к медиативному соглашению, однако, если сторона не соблюдает, не исполняет медиативное соглашение или не исполняет его должным образом, принудительное исполнение данного соглашения невозможно. Если включить нотариальную медиацию в национальное законодательство, то нотариус, обладающий специальными знаниями, сможет правильно донести до сторон юридические последствия заключения медиативного соглашения. Также нотариусом в результате нотариальной медиации совершается исполнительная надпись, которая будет гарантировать возможность принудительного исполнения

в случае добровольного неисполнения данного соглашения, что послужит повышению эффективности института медиации. Ведь если медиативное соглашение, заключенное по итогам процедуры медиации, не будет иметь законной силы, то это соглашение не будет приведено в исполнение.

Выводы

Медиация как институт ни в коей мере не является альтернативой существующей судебной системе и не конкурирует с ней. Напротив, медиация способна разгрузить судебную систему от тех споров, которые могут быть легко и быстро разрешены во внесудебном порядке. Изучив опыт зарубежных стран и Узбекистана в применении медиации, приходим к выводу, что национальное законодательство требует совершенствования и расширения ее правового применения, формирования качественной и эффективной правовой модели процедуры медиации.

Исходя из международной практики можно отметить основные преимущества медиации:

- 1) применение медиации всегда является добровольным решением спорящих сторон;
- 2) быстрое разрешение конфликта, так как не предполагается дальнейшее обжалование достигнутого соглашения между сторонами;
- 3) взаимовыгодное разрешение спора, которое позволяет сохранить партнерские и добрые отношения между сторонами;
- 4) строгая конфиденциальность проводимой процедуры.

Основным недостатком данной процедуры является невозможность принудительного исполнения достигнутого медиативного соглашения, потому что его исполнение основано на только добровольной основе.

Медиация в нашей стране является досудебной и внесудебной процедурой

разрешения споров, внутрисудебная медиация не внедрена в национальное законодательство. Также в действующем законодательстве, а именно – в Законе «О медиации», приведен перечень лиц, которые не могут быть медиаторами: уполномоченное на выполнение государственных функций или приравненное к нему лицо, куда входят, соответственно, и наши судьи. Поэтому исходя из опыта ряда зарубежных стран в использовании судебной медиации, таких как Германия, Грузия, необходимо внедрить в систему судов внутрисудебную медиацию, которая будет проводиться самим судьей-медиатором, имеющим достаточный многолетний опыт в судебной системе, и, конечно же, он должен быть профессиональным медиатором. Ведь стороны при разрешении спора больше доверяют беспристрастному судье-медиатору, чем непрофессиональному медиатору.

В соответствии с Законом «О медиации» медиативное соглашение не имеет силы исполнительного документа, то есть стороны при разрешении споров используют процедуру медиации и приходят к медиативному соглашению, однако, если сторона не соблюдает, не исполняет медиативное соглашение или не исполняет его должным образом, принудительное исполнение данного соглашения невозможно. Исходя из опыта Грузии касательно исполнения медиативного соглашения, необходимо усовершенствовать законодательство путем введения нотариальной медиации. Если при проведении медиации со стороны нотариуса стороны заключили медиативное соглашение, то нотариус сможет правильно донести до сторон правовые последствия его заключения. Так, в случае неисполнения данного соглашения, заключенного в результате нотариальной медиации, нотариус проставляет исполнительную

надпись, которая может быть предъявлена к исполнению, что повысит эффективность института медиации. Если медиативное соглашение не будет иметь законной силы, то оно не подлежит принудительному исполнению.

Также, возможно, последующим этапом развития медиации может стать международная медиация, например ме-

диация в сфере международных коммерческих или инвестиционных споров, которая становится весьма актуальной в свете развития международного сотрудничества и привлечения инвестиций в экономику страны, а также присоединения страны к Сингапурской конвенции по обеспечению исполнения таких решений на территории других государств.

REFERENCES

1. Mediation Act 2017 Republic of Singapore. Available at: <https://sso.agc.gov.sg/Act/MA2017/>
2. Ismailova R. Obzor praktiki vnedreniya mediatsii v 5 vedushhikh stranakh po al'ternativnym metotodam razresheniya sporov po reytingu [Overview of Mediation Implementation Practices in Top 5 APDC Countries by Rating]. *Doing Business*, Tashkent, 2020, pp. 10–14.
3. Code of Civil Procedure of Germany. 2005, December 5. Transl. S. Translations GmbH, Dr. Carmen von Schoening.
4. Law of the Republic of Belarus "On mediation". 2003, July 12, No. 58-Z. Available at: <https://www.mediacia.by/zakon-respubliki-belarus-o-mediatsii/>
5. Civil Procedural Code of Georgia. 1997, November 14, No. 1106-Is. Available at: <https://matsne.gov.ge/ru/document/download/29962/92/ru/pdf/>
6. Law of Georgia "On Notaries". 2009, December 4, No. 2283-Is. Available at: <https://matsne.gov.ge/ru/document/download/90928/11/ru/pdf/>
7. Law of Georgia "On Enforcement Proceedings. Available at: <https://matsne.gov.ge/ru/document/download/pdf/>
8. Maripova S. Pravovoye regulirovaniye i perspektivy razvitiya semeynoy mediatsii [Legal regulation and development prospects of family mediation]. 2019, October 2. Available at: <https://uza.uz/ru/posts/pravovoe-regulirovanie-i-perspektivy-razvitiya-semeynoy-medi-02-10-2019>
9. Otakhonov F.Kh. Legal basis and prospects for the development of mediation in Uzbekistan. *Justice*, 2019, no. 6, pp. 98–104.
10. Otakhonov F.Kh. Mediation – the pros and cons of mediation. International Commercial Arbitration in the Context of Judicial and Legal Reform. Proceedings of International Scientific and Practical Conferences. 2009, October 28. Tashkent. Chashma Print Publ., 2010, p. 254.
11. Masadikov Sh. Praktika ispol'zovaniya mediatsii kak al'ternativnoy formy razresheniya sporov v zarubezhnykh stranakh [The practice of using mediation as an alternative form of dispute resolution in foreign countries]. *Review of the Legislation of Uzbekistan*, Tashkent, 2005, no. 1-2, pp. 90–95.
12. Zdrok O.N. Conciliatory procedures in the civil process: a modern theoretical concept. Minsk, 2013, pp. 12, 18, 19, 65.
13. Kalashnikova S.I. Mediatsiya v sfere grazhdanskoy yurisdiksii [Media in the sphere of civil jurisdiction]. PhD thesis. Ekaterinburg, 2010, 165 p.
14. Nosyreva E.I. Al'ternativnoye razresheniye grazhdansko-pravovykh sporov v SShA [Alternative resolution of civil disputes in the United States]. PhD thesis. Voronezh, 2001, p. 65.
15. Dobrolyubova E.A. Mediatsiya kak metod vnesudebnogo razresheniya sporov [Mediatsia as a method of out-of-court dispute resolution]. PhD thesis. Moscow, 2012, 219 p.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.4./KKS9568>
UDC: 342.4+349.2(045)(575.1)

ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ВЫПЛАТ, ПРИЧИТАЮЩИХСЯ СОВМЕСТИТЕЛЯМ

Хожабеков Муфтулла Жолмурза улы,
старший преподаватель кафедры «Трудовое право»
Ташкентского государственного юридического университета
ORCID: 0000-0002-5530-1324
e-mail: Muftulla_khojabekov@mail.ru

Аннотация. Главный посыл данной статьи состоит в совершенствовании обеспечения справедливого порядка оплаты труда лицам, работающим по совместительству. Несмотря на то, что трудовое законодательство дает широкие возможности работодателю устанавливать различные системы, формы и размеры оплаты труда для своих сотрудников, совместителям приходится обосновывать свои требования касательно определенных выплат. В этих целях в статье были рассмотрены условия и порядок выплаты заработной платы совместителям как одного из существенных условий трудового договора. Более того, в работе представлен пример начисления заработной платы. В ходе исследования, помимо анализа порядка оплаты труда совместителей, автором были изучены иные выплаты, которые следует выплачивать совместителям, в частности выплаты, предусмотренные работникам, осуществляющим свою деятельность в местности с тяжелыми и неблагоприятными природно-климатическими условиями, где применяются районные коэффициенты. В их числе – выплаты выходного пособия, а также неустойки при прекращении трудового договора. На основании результатов проведенного анализа законодательства, в особенности нового Трудового кодекса Республики Узбекистан, а также сравнительно-правового исследования автор выдвигает обоснованные и адекватные рекомендации по улучшению действующего порядка осуществления выплат.

Ключевые слова: совместительство, оплата труда, размер доплаты, оплата труда совместителей, оплата за совмещение профессий и должностей, доплаты при расширении зон обслуживания, доплаты при увеличении объема работ.

O'RINDOSHLARGA MO'ljALLANGAN TO'LOVLARNING QONUNY ASOSLARI

Xojabekov Muftulla Jolmurza uli,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Mehnat huquqi kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'rindoshlik asosida ishlaydigan shaxslarning mehnatiga haq to'lashning adolatli tartibi yoritilgan. Mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari ish beruvchiga o'z xodimlariga ish haqining turli tizimlari, shakllari va miqdorlarini belgilash uchun keng imkoniyatlar berishiga qaramay, o'rindoshlik asosida ishlayotgan xodimlar muayyan to'lovlar bo'yicha o'z talablarini asoslashlari kerak. Mazkur maqsadga erishish uchun maqolada o'rindoshlar mehnatiga haq to'lash mehnat shartnomasining asosiy shartlaridan biri sifatida batafsil ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, maqolada xodim ish haqining taxminiy hisob-kitobi keltirilgan. Muallif tomonidan o'rindoshlarning ish haqidan tashqari, tadqiqot davomida ularga to'liq to'lanishi kerak bo'lgan boshqa to'lovlar, shu jumladan, tabiiy sharoiti og'ir va noqulay hududlarda ishlayotgan xodimlarga beriladigan to'lovlar ham

o'rganib chiqilgan. Shuningdek, ishdan bo'shatish nafaqasini to'lash, shuningdek, mehnat shartnomasi bekor qilinganda, neustoyka to'lash tartibi tadqiq qilingan. Qonunchilik tahlili, shuningdek qiyosiy-huquqiy tadqiqotlar natijalari asosida, xususan, O'zbekiston Respublikasining yangi Mehnat kodeksiga ko'ra, muallif to'lovlarni amalga oshirish tartibining joriy holatini takomillashtirishga oid oqilona va adekvat tavsiyalar bergan.

Kalit so'zlar: o'rindoshlik, ish haqi, qo'shimcha to'lov miqdori, o'rindoshlarga haq to'lash, kasblar va lavozimlarni birlashtirganlik uchun to'lov, xizmat ko'rsatish sohalarini kengaytirish uchun qo'shimcha to'lovlar, ish hajmini oshirish uchun qo'shimcha to'lovlar.

LEGISLATIVE BASIS FOR BENEFITS DUE TO PART-TIME WORKERS

Khojabekov Muftulla Jolmurza uly,

Tashkent State University of Law,
Senior Lecturer of the Department of Labor Law

Abstract. The main message of this article is to ensure a fair procedure for remuneration of labor for persons working part-time. For these purposes, the article considered the conditions and procedure for paying wages to part-time workers as one of the essential conditions of the employment contract. Despite the fact that labor legislation gives employers many opportunities to establish various systems, forms, and amounts of remuneration for their employees, part-time workers have to justify their requirements regarding certain payments. Moreover, the paper presents an approximate calculation of wages. In addition to considering the remuneration of part-time workers, in the course of the study, the author also studied other payments that should be paid to part-time workers, in particular, payments provided for employees operating in areas with difficult and unfavorable natural and climatic conditions in which district coefficients are applied. Including the payment of severance pay, as well as penalties upon termination of the employment contract. Based on the results of the legislative analysis, in particular the new Labor Code of the Republic of Uzbekistan, as well as a comparative legal study, the author puts forward reasonable and adequate recommendations for improving the current state of the procedure for making payments.

Keywords: part-time employment, salary, amount of additional payment, remuneration of part-time workers, payment for combining professions and positions, additional payments for expanding service areas, additional payments for increasing the volume of work.

Введение

Совместительство – явление старое и, казалось бы, понятное, однако, как показывает анализ практики кадровых служб, не всегда суть совместительства и его отличие от совмещения и других сложных ситуаций понимается правильно. Невысокая заработная плата на низкооплачиваемых должностях вынуждает работников искать подработку [1, с. 1194]. Дополнительную работу работник может выполнять на условиях совместительства, как внешнего, так и внутреннего [2, с. 19]. В свою очередь организации часто прибегают к услугам совместителей для выполне-

ния малого объема задач или замещения постоянного работника. Как правило, данная форма занятости выгодна обеим сторонам.

Процесс трудоустройства совместителей довольно простой, но тем не менее он имеет ряд особенностей, такие как порядок начисления заработной платы или отзыва таких работников из отпуска. Важно, что законодатель не ограничивает число работодателей, с которыми работник может заключить трудовые договоры о работе по совместительству.

В новом Трудовом кодексе имеется ряд существенных норм, призванных служить

наиболее эффективному регулированию труда совместителей [3, с. 83]. На сегодняшний день Положение о порядке работы по совместительству и совмещения профессий и должностей наравне с новым Трудовым кодексом являются главными регуляторами труда совместителей [4, с. 310].

Материалы и методы

При изучении выявленных на практике проблем, связанных с институтом совместительства, автором были применены современные методы исследования, разработанные философской наукой и используемые в юриспруденции, а также частные научные методы: системный, формально-юридический и др., благодаря которым автору удалось раскрыть ряд аспектов касательно выплаты совместителям. Источниками материальной базы послужили труды видных экспертов в данной области, в частности А. Каримова [5] и Ш. Исмоилова [6]. В статье подробно анализируются научные взгляды этих ученых.

Результаты исследования

В целях более гибкого регулирования объема трудовых ресурсов, учитывая их дефицитное состояние, а также оптимизации постоянного штата работников организации зачастую прибегают к использованию труда совместителей. Данный вид деятельности позволяет организациям сэкономить значительную часть денежных средств и принять на работу лиц на основе совместительства до тех пор, пока не удастся на рынке труда найти подходящие кадры на постоянную работу. С другой стороны, совместительство позволяет работникам освоить новые отрасли и определенные профессии, а также мотивирует их к получению дополнительного дохода.

Порядок выплаты заработной платы совместителям

Рассматривая совместительство как один из ведущих институтов трудово-

го договора, становится очевидным, насколько незначительны отличия между такой формой занятости, но все же они имеются, в том числе и по вопросам оплаты труда. Институт совместительства стоит отличать от неполной либо сверхурочной работы, вместе с тем при осуществлении оплаты труда необходимо уточнить, что именно является работой по совместительству, а что – нет.

В Положении о порядке работы по совместительству и совмещения профессий и должностей (далее – Положение о совместительстве) содержится перечень работ, которые не считаются работами по совместительству, хотя они и выполняются в свободное от основной работы время. Помимо этого, не следует принимать за совместительство деятельность, осуществляемую на основании договоров гражданско-правового характера, поскольку они являются отношениями гражданского права, а не трудового.

Как отмечено в Положении о совместительстве, если иное не предусмотрено в коллективном договоре либо в ином локальном акте, принятым работодателем по согласованию с профсоюзным комитетом или иным представительным органом работников, формы и системы оплаты труда, премии, доплаты, надбавки, поощрительные выплаты совместителям осуществляются в порядке, установленном для всех работников организации.

Оплата труда совместителей в соответствии с Положением о совместительстве осуществляется в двух формах, а именно: 1) за фактически выполненную работу – при сдельной форме оплаты труда; 2) пропорционально отработанному времени – при повременной форме оплаты труда [7, с. 3].

Сдельная система оплаты труда

Приступая к рассмотрению системы сдельной оплаты труда, следует понимать, что данный термин определяется

как оплата труда наемного работника, при которой размер заработной платы напрямую зависит от количества произведенных им единиц продукции или выполненного объема работ с учетом их качества, сложности и условий труда. Сдельная форма оплаты труда применяется в том случае, когда результат труда работника можно посчитать, а качество – отследить.

Сдельная оплата труда имеет более прозрачный характер, т.е. работники имеют возможность самостоятельно рассчитать размер своей заработной платы, а также будут мотивированы на эффективную работу для увеличения своего дохода. Например, в организации установлена 5-дневная рабочая неделя. Работник организации на должности сварщика сварил 20 петель при норме 15. По сдельной расценке каждая сварная петля расценивается в 10 000 сумов. Следовательно, за 20 петель ему необходимо заплатить 200 000 сумов. Если принять эти показатели как средние за день, то их надо перемножить на количество рабочих дней в месяце. Если брать в расчет ноябрь 2022 года, то в нем 22 рабочих дней: $22 \times 200\,000 = 4\,400\,000$ сумов.

В случае если работнику по состоянию здоровья не удалось отработать все 22 рабочих дня, а лишь 17, необходимо умножить отработанные 17 дней на 200 000 сумов: $17 \times 200\,000 = 3\,400\,000$ сумов.

Если локальными актами предприятия была предусмотрена доплата в размере 3 000 сумов за каждую деталь сверх установленной нормы, то в данном случае ежедневный размер заработной платы будет составлять 260 000 сумов.

Вместе с тем стоит учесть, что в соответствии со статьей 381 Налогового кодекса Республики Узбекистан доходы физического лица – резидента Республики Узбекистан подлежат налогообложению по налоговой ставке 12 процентов.

Повременная форма оплаты труда

Повременную систему оплаты труда можно эффективно использовать на любом предприятии, особенно на высокотехнологическом, как наиболее перспективную для целей дальнейшего развития предприятия. Повременная система оплаты труда больше всего подходит предприятиям, которые имеют стратегические планы развития и амбициозные цели захвата лидерства [8, с. 18].

Если при повременной форме оплаты труда совместителю устанавливается нормированное задание, то оплата труда производится по конечному результату работы за фактически выполненную им работу. Лицам, работающим по совместительству в районах, где установлены районные коэффициенты и надбавки к заработной плате, оплата труда производится с учетом этих коэффициентов и надбавок [6, с. 95].

Повременная система оплаты труда применяется преимущественно в условиях, когда граждане получают заработную плату за временной промежуток, отработанный по факту. В организациях с повременной оплатой труда, в особенности в тех, которые финансируются за счет государственного бюджета, чаще всего оплата труда осуществляется по Единой тарифной сетке [5, с. 1].

Тарифная сетка – это совокупность разрядов (должностей) и тарифных коэффициентов, определенных требованиями к квалификации и сложностью выполняемых работ.

В соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан «О повышении размера заработной платы» от 20 мая 2022 года №УП–138 минимальный размер оплаты труда в Узбекистане с 1 июня 2022 года составляет 920 000 сумов. На сегодняшний день именно данная сумма причитается работникам, чья должность приравнивается к первому разряду. Сле-

довательно, минимальный размер оплаты труда за работу по совместительству не может быть ниже размера, рассчитанного на основе тарифного коэффициента первого разряда по Единой тарифной сетке.

Внебюджетные организаций могут осуществлять оплату труда без применения Единой тарифной сетки, напротив, они вправе самостоятельно определить размеры заработной платы.

Повременная оплата труда совместителей делится на часовую тарифную ставку и окладную. При часовой тарифной ставке необходимо вычислить максимальное количество отработанного времени в календарном месяце. Например, если по тарифной сетке разряд старшего специалиста организации по производству стекла с 5-дневной рабочей неделей приравнивается к 7, то при соответствующем коэффициенте 1,505 его оклад будет составлять 1 384 000 сумов. При приеме на аналогичную должность совместителя на 0,5 ставки он будет получать ровно половину той заработной платы, что причитается по данной должности. К примеру, в ноябре 2022 года он проработал 22 дня. С помощью следующего математического решения определим сумму за каждый час работы: $22 \text{ (дней в месяце)} \times 4 \text{ (раб. вр. в день)} = 88 \text{ ч в месяц}$. $1\,384\,000 : 2 = 692\,000 \text{ сумов}$. $692\,000 : 88 \text{ ч} = 7\,867 \text{ сумов в час}$.

Таким образом, мы выяснили, что оплата за каждый час работы старшего специалиста равна 7867 сумов. Именно эта сумма берется за основу при вычислении заработной платы по часовой тарифной ставке данного работника.

Порядок повременной оплаты труда на основе оклада выглядит более лаконичным по сравнению с почасовой оплатой. Заработная плата совместителей, занятых в режиме не более половины нормальной продолжительности рабочего времени, осуществляется весьма простым способом

[9, с. 122]. Однако данный способ также берет в расчет и время выполненной работы. Поскольку, как отмечено в пункте 12 Положения о совместительстве, при повременной форме оплаты труда совместителю устанавливается нормированное задание, то оплата труда производится по конечному результату работы за фактически выполненную им работу.

Премии, надбавки, доплаты и другие материальные вознаграждения

В большинстве организациях в целях повышения эффективности и продуктивности применяются мотивирующие выплаты, такие как премии, доплаты, надбавки, поощрительные выплаты [6, с. 9]. По части дополнительных выплат статья 299 Трудового кодекса Республики Узбекистан предоставляет работодателям право самим определить необходимость их внедрения в организации. Аналогичная норма содержится и в пункте 15 Положения о совместительстве, которая предусматривает совместителям выплату премий, доплат, надбавок и иные поощрительные выплаты в порядке, установленном для всех работников организации. При этом следует обратить внимание, что если иное не предусмотрено в коллективном договоре либо в локальном акте, принятом работодателем по согласованию с профсоюзным комитетом, формы и системы оплаты труда, премии, доплаты, надбавки, поощрительные выплаты совместителям осуществляются в порядке, установленном для работников, для которых данная работа является основной.

Напомним, что каждая из вышеуказанных выплат имеет свое специфическое условие. Так:

премия – выплата стимулирующего характера за выдающиеся результаты, достигнутые в какой-либо области деятельности;

доплата носит компенсирующий характер. В основном доплаты выплачива-

ются работникам сверх заработной платы, учитывая интенсивность установленных задач сверх основных функциональных обязанностей. Кроме того, выплата доплат осуществляется в качестве компенсации, учитывая неблагоприятные условия труда работника;

надбавки устанавливаются как вид стимулирующих выплат за высокое профессиональное мастерство специалистов либо выполнение особо важной работы и т. д.;

поощрительные выплаты производятся в порядке и размерах, установленных нормативно-правовыми актами.

В соответствии со статьей 372 Налогового кодекса Республики Узбекистан существуют следующие выплаты стимулирующего характера:

- 1) вознаграждение по итогам работы за год;
- 2) выплаты стимулирующего характера, предусмотренные положением юридического лица о премировании;
- 3) надбавки к тарифным ставкам и окладам за профессиональное мастерство, наставничество;
- 4) доплаты к отпуску и материальная помощь;
- 5) вознаграждение и выплаты за выслугу лет;
- 6) выплата за рационализаторское предложение;
- 7) единовременные премии, не связанные с результатами труда.

Все эти выплаты в совокупности составляют инструмент материальной мотивации сотрудников, в результате которого работники, в частности совместители, будут нацелены на стремительное улучшение качества и эффективности работы. Сегодня практически во всех организациях утверждены порядок и условия выплаты премий, надбавок, доплат и иных поощрительных выплат.

Анализ результатов исследования

Безусловно, нецелесообразно внедре-

ние единого подхода к выплатам стимулирующего и компенсирующего характера. В Узбекистане в зависимости от сферы обслуживания и деятельности организации на законодательном уровне зафиксированы условия обязательного установления материальной поддержки оплаты труда работников, в частности:

1. В соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан «О мерах по усилению материальной поддержки и стимулирования работников медицинских учреждений» от 17 мая 2022 года № УП-136 разработано и утверждено Совместным постановлением Министерства здравоохранения, Министерства занятости и трудовых отношений и Министерства финансов Положение о Фонде материального стимулирования и развития медицинских учреждений, согласно которому средства Фонда в размере 75 % направляются на материальное стимулирование медицинских, фармацевтических и других работников всех государственных медицинских учреждений.

2. Приложением № 1 к Положению о порядке установления и применения районных коэффициентов к оплате труда, а также минимальной продолжительности ежегодного дополнительного отпуска работникам, занятым на работах в местностях с тяжелыми и неблагоприятными природно-климатическими и бытовыми условиями, установлен Перечень местностей с тяжелыми и неблагоприятными природно-климатическими условиями, в которых применяются районные коэффициенты, а также установлена минимальная продолжительность ежегодного дополнительного отпуска.

3. Пунктом 8 Постановления Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы государственной поддержки престарелых и инвалидов» установлена выплата работникам Фонда

«Нуроний», содержащегося за счет бюджетных средств, на праздники в честь Навруза и Дня независимости в размере 50 % от должностного оклада в отделениях и 100 % в центральном аппарате Фонда.

4. Постановлением Президента Республики Узбекистан «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан» преподавателям иностранных языков (английский, французский, немецкий, испанский, итальянский, арабский, китайский, японский, корейский, турецкий, фарси, пушту, дари, урду, индийский) образовательных учреждений, имеющих национальный или соответствующий ему международный сертификат уровня не ниже C1, выплачивается дополнительная ежемесячная надбавка в размере 50 % к их базовой тарифной ставке и др.

Пособие по беременности и родам

Женщинам, работающим по совместительству, предоставляется право на получение не только пособия по нетрудоспособности, но и пособия по беременности и родам. Данное пособие выплачивается при получении совместителем отпуска по беременности и родам. Для начала необходимо уточнить порядок предоставления этих отпусков.

Ежегодный основной отпуск, как отмечено в статье 216 Трудового кодекса Республики Узбекистан, за первый рабочий год предоставляется по истечении шести месяцев работы. Однако имеется категория лиц, которым отпуска предоставляются до истечения шести месяцев. В их число входят и совместители, которым отпуска предоставляются одновременно с отпуском по основному месту работы с оплатой пропорционально времени работы по совместительству. Вышеуказанная статья обязывает работодателей предоставить совместителям отпуска по их письменной просьбе.

Как отмечает эксперт журнала «Налогообложение и бухгалтерский учет» Алишер Каримов, порядок и условия расчета пособия по беременности и родам ранее регулировались Положением о порядке назначения и выплаты пособий по государственному социальному страхованию № 1136. Постановлением Президента Республики Узбекистан № ПП-2699 в данное Положение был внесен ряд изменений.

Для вновь поступивших на работу или возобновивших свою трудовую деятельность после 12-месячного перерыва начиная с 5 апреля 2018 года пособия по беременности выплачиваются в следующем порядке:

- до 12 месяцев – 75 % от зарплаты;
- более 12 месяцев – 100 % зарплаты.

Таким образом, размер пособия по беременности и родам зависит от того, сколько сотрудница проработала в данной организации. Даже если сотрудница проработала 2-3 месяца и выходит в декретный отпуск, ей полагается выплата пособия в размере 75 % от заработной платы. Для получения женщинами-совместителями отпуска по беременности и родам необходимо предъявить копию листка о нетрудоспособности. Лишь данный документ является основанием для предоставления отпуска по беременности и родам. Учитывая подобные затраты, работодатели предпочитают не брать сотрудниц, которые, возможно, могут уйти в декрет. Однако трудовым законодательством эти вопросы довольно подробно рассмотрены. Например, если работодатель откажет работникам в приеме на работу, то в соответствии со статьей 119 Трудового кодекса Республики Узбекистан его действия будут признаны неправомерными, а это в свою очередь грозит привлечением к административной ответственности по статье 49 Кодекса об административной ответственности (далее – КоАО). Но если работодатель принял на работу бере-

менную женщину, которая по истечении определенного времени вышла в отпуск по беременности и родам, и отказывается платить пособие по уходу за ребенком, то в соответствии со статьей 49³ КоАО в отношении него будет применено наложение штрафа от 10 до 15 базовых расчетных величин. То же правонарушение, совершенное повторно в течение года после применения административного взыскания, влечет наложение штрафа от 15 до 30 базовых расчетных величин.

Выводы

Подводя итог проведенному исследованию, можем сделать следующие выводы:

1. Наличие главы 26 в действующем Трудовом кодексе, в отличие от предыдущей редакции, дает право признать его основным регулятором трудовых отношений совместителей, наравне с Положением о совместительстве.

2. Порядок оплаты труда совместителей на территории республики осуществляется по сдельной и повременной форме оплаты труда. В свою очередь повременная оплата труда совместителей осуществляется на основе окладной и почасовой системы.

3. Рассмотрение порядка выплат премий, надбавок, доплат и иных поощрительных выплат позволило установить,

что некоторые из них носят рекомендательный характер, а другая часть – обязательный характер. В Узбекистане в зависимости от сферы обслуживания и деятельности организации на законодательном уровне зафиксированы условия обязательного установления материальной поддержки оплаты труда работников.

4. При расчете пособий по беременности и родам следует обратить внимание на изменения и дополнения, внесенные Постановлением Президента Республики Узбекистан «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан» в Положение о порядке назначения и выплаты пособий по государственному социальному страхованию.

5. Отказ работодателя от выплат, причитающихся совместителям, влечет административную ответственность в соответствии со статьей 49³ КоАО, в отношении работодателя будет наложен штраф от 10 до 15 базовых расчетных величин. То же правонарушение, совершенное повторно в течение года после применения административного взыскания, влечет наложение штрафа от 15 до 30 базовых расчетных величин.

REFERENCES

1. Khakberdiyev A.K. Konstitutsiya kak figurant uluchsheniya imidzha strany na mezhdunarodnoy arene [Constitution is a great image of the party and the International area]. *Science and Education*, 2022, no. 3 (3), pp. 1193–1203.
2. Khozhabekov M.J. Pravovoye regulirovaniye truda lits, rabotayushhikh po sovmestitel'stvu [Legal regulation of labor of persons working part-time]. *Domestic Jurisprudence*, 2019, no. 7 (39). pp. 19–24.
3. Rakhimov M. Pandemiya: nuzhdayetsya li trudovoye zakonodatel'stvo v reformakh? [Pandemic: Does Labor Law Need Reform?]. *Review of Law Sciences*, 2020, no. 2, pp. 82–85.
4. Khozhabekov M. Analiz teorii dopolnitel'noy raboty po trudovomu zakonodatel'stvu zapadnykh stran [Analysis of the theory of additional work on the labor legislation of Western countries]. *Society and Innovation*, 2022, vol. 3, no. 7/S, pp. 310–318.

5. Karimov A. Platit' li posobiye po beremennosti i rodam sovmestitelyu v 2022 godu [Whether to pay maternity allowance to a part-time worker in 2022]. Available at: <https://www.bss.uz/article/122-platit-li-posobie-po-beremennosti-i-rodam-sovmestitelyu>
6. Ismoilov S.A. The effect of a new edited labor code of the Republic of Uzbekistan on the development of entrepreneurship and investment activity. *Review of Law Sciences*, 2018, no. 1, pp. 3, 10.
7. Levochkina A. Formy i sistemy oplaty truda rabotnikov [Forms and systems of remuneration of workers]. Available at: <https://nurutszn.ru/blog/sovety/formy-i-sistemy-oplaty-truda-rabotnikov>
8. Murodullayev D.N. Termination of employment contract due to circumstances beyond the control of the parties (theoretical and legal analysis). *World Bulletin of Management and Law*, 2022, no. 17, pp. 94–97.
9. Yusupov N. Material'naya otvetstvennost' storon trudovogo dogovora kak vid yuridicheskoy otvetstvennosti [Liability under an employment contract, legal liability]. *Society and Innovation*, 2022, p. 3.
10. Karimjonov M. A Disciplinary Responsibility by the Labor Legislation of the Republic of Uzbekistan. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2021, no. 5, pp. 121–129.
11. Rahimqulova L. The Procedure for resolving individual labour disputes in Uzbekistan, post-soviet countries and some developed countries. *Comparative-Legal Analysis*. Ilkogretim Online. Tashkent, 2021, no. 3, p. 20.
12. Burxanxodjayeva X.V. Mikrofirmalarda mehnat munosabatlarini tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari [Peculiarities of regulation of labor relations in micro-enterprises]. *Journal of Legal Studies*, 2020, no. spec. 2-2, p. 47.
13. Shoislomova S. International standards of legal regulation of working hours. *Society and Innovations*, Tashkent, 2022, no. 11/S, pp. 184–191.
14. Rakhimberganova B. The regulation of fixed-term employment contracts in the legislation of foreign countries: comparative-legal analysis. *Legal Bulletin of Legal Sciences*, 2018, no. 4, pp. 26–30.
15. Zaripova M.R., Soboleva E. Vyplaty, osushchestvlyayemye v pol'zu rabotnika-sovmestitelya [Payments made in favor of a part-time worker]. *Payment in a State (Municipal) Institution: Accounting and Taxation*, 2015, September, no. 9.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.4./BKVV2046>
UDC: 349.2:331.103(045)(575.1)

NOTIPIK MEHNAT SHAKLLARIDAN FOYDALANISHNI TARTIBGA SOLISHDA MDH DAVLATLARI TAJRIBASI

Javliyeva Gullola Abdurahim qizi,
Toshkent davlat yuridik universiteti
tayanch doktoranti
ORCID: 0009-0008-8686-9933
e-mail: 2000javliyevagullola@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi kunda ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi, ishlab chiqarishni tashkil etishning o'zgarishi, globallashuv jarayoni, jamiyatning liberallashuvi natijasida mehnat bozori mavjud huquqiy tartib uchun noan'anaviy bo'lgan ish bilan ta'minlashning yangi, notipik shakllari paydo bo'lishi va faol tarqalishi bilan bog'liq tarkibiy o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Mazkur maqolada notipik mehnatning bir turi hisoblangan masofaviy mehnatni tartibga solish masalalari yoritilgan. Masofaviy mehnatning qonunchilik bilan ta'minlanganlik darajasi Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Moldaviya, Ozarbayjon, Armaniston davlatlari tajribalari asosida o'rganilgan. Ushbu davlatlar qonunchiligida masofaviy mehnat, masofaviy xodim tushunchalari, masofaviy mehnatning turlari, masofaviy xodimlar bilan mehnat shartnomasini tuzish tartibi bayon qilingan. Masofaviy xodimlarning ish va dam olish vaqtini hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari, ularning mehnatini muhofaza qilish, oylik maosh to'lash va mehnat ta'tiliga chiqarishda kamsitilishning oldini olish masalalari o'rganilgan. Shuningdek, maqolada masofaviy xodimga ish beruvchi tomonidan ta'minlab berilishi lozim bo'lgan zaruriy vositalar, asbob-uskunalar, axborotlashtirish obyektlari, elektr ta'minoti va internet uchun to'lovlar hamda xodim mehnat vazifalarini bajarishda o'z uskunalaridan foydalanganda yoxud xarajat qilganda, kompensatsiya masalasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: notipik mehnat, masofaviy mehnat, pandemiya, mehnat shartnomasi, moslashuvchan ish vaqti, dam olish vaqti, mehnat muhofazasi.

ОПЫТ СТРАН СНГ ПО РЕГУЛИРОВАНИЮ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НЕТИПИЧНЫХ ФОРМ ТРУДА

Жавлиева Гуллола Абдурахим кизи,
базовый докторант Ташкентского
государственного юридического университета

Аннотация. Сегодня в результате усложнения общественных отношений, изменений в организации производства, процесса глобализации, либерализации общества рынок труда переживает структурные изменения, связанные с появлением и активным распространением новых, нетипичных форм занятости, нетрадиционных для существующего правопорядка. В данной статье рассматриваются вопросы регулирования дистанционной работы, которая считается нетипичным видом труда. Уровень правового обеспечения дистанционной работы изучен на опыте России, Белоруссии, Казахстана, Кыргызстана, Таджикистана, Молдовы, Азербайджана и Армении. Изучены в законодательстве этих стран понятия дистанционной работы, дистанционного работника, виды дистанционной работы, порядок заключения трудового договора с дистанционными работниками. Изучены особенности учета рабочего времени и времени отдыха дистанционных работников, защиты их труда и направления в

отпуск, недопущения дискриминации при ежемесячной оплате труда. Кроме того, в статье анализируются необходимые средства, оборудование, информационные средства, платежи за электроэнергию и Интернет, которые должны быть предоставлены работодателем дистанционному работнику, а также вопрос компенсации при использовании или расходовании работником собственного оборудования при выполнении трудовых обязанностей.

Ключевые слова: нетипичная занятость, дистанционная работа, пандемия, трудовой договор, гибкий график работы, время отдыха, охрана труда.

THE EXPERIENCE OF THE CIS COUNTRIES IN REGULATING THE USE OF ATYPICAL FORMS OF WORK

Javlijeva Gullola Abdurahim qizi,
Doctoral Student of
Tashkent State University of Law

Abstract. Today, as a result of the complication of social relations, changes in the organization of production, the process of globalization, and the liberalization of society, the labor market is undergoing structural changes associated with the emergence and active spread of new, atypical forms of employment that are non-traditional for the existing legal order. This article discusses the regulation of remote work, which is considered a type of atypical work. The level of legal support for remote work has been studied based on the experiences of Russia, Belarus, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Moldova, Azerbaijan, and Armenia. Remote work in the legislation of these countries, the concept of a remote worker, the types of remote work, and the procedure for concluding an employment contract with remote workers are studied. The features of accounting for the working time and rest time of remote workers, protecting their work and sending them on vacation, and preventing discrimination in monthly wages are studied. In addition, the article analyzes the necessary means, equipment, information tools, and payments for electricity and the Internet that must be provided by the employer to a remote worker, as well as the issue of compensation when the employee uses or spends his own equipment in the performance of work duties.

Keywords: a typical employment, remote work, pandemic, employment contract, flexible work schedule, rest time, labor protection.

Kirish

Bugungi kunda mehnat qonunchilining rivojlanishi yangi sifat darajasiga ko'tarilmoqda. XXI asr – axborot asri hisoblanganligi sababli zamonaviy sharoitlar yangi turdagi ishchilar – “tarmoq ishchisi”, “mobil ishchi” va boshqalarni shakllantirmoqda. Kompyuterlashtirish, avtomatlashtirish, axborotlashtirish, moslashuvchan ishlab chiqarish tizimlarini joriy etish asosida texnik va texnologik bazaning global yangilanishi mehnatni tashkil etish sohasida tegishli noan'anaviy (moslashuvchan) shartnomalar vositasida bandlikning notipik shakllari ko'rinishida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Shu kabi

notipik bandlik shakllaridan biri masofaviy mehnat hisoblanadi.

Masofadan ishlash an'anaviy ofis ishi, mobil tarzda ishlash yoki virtual ishlash kabi birgalikda mavjud bo'luvchi ish rejimlaridan biri [1] yoki to'liqsiz ish, moslashuvchan grafik va boshqalar kabi ko'plab notipik bandlikning bir turi sifatida qabul qilinadi [2].

Masofaviy mehnatdan foydalanishda bugungi kunda Yevropa davlatlari tobora ilgirilab bormoqda. Ushbu bandlik shaklidan foydalanish har taraflama o'rganilib, amaliyotga keng tatbiq etilmoqda. Fikrimizning isboti o'laroq, statistika ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2022-yil holatiga ko'ra, Yevropa davlatlari kompaniyalarining

16 foizi 100 foiz masofadan ishlash tartibini joriy qilgan, 40 foizi gibrid usulda o'z faoliyatini olib boradi, kompaniyalarning 44 foizida esa masofadan ishlashga ruxsat berilmaydi. AQSh kompaniyalarining 74 foizi hozirda doimiy gibrid ish modelidan foydalanmoqda [3].

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashkilotiga a'zo davlatlarning aksariyatida masofaviy mehnatning qonunchilik bilan tartibga solinishi Covid-19 pandemiyasi davriga to'g'ri keldi. Mazkur yillarda xorijiy davlatlar tajribasi o'rganilib, vaqtinchalik pandemiya davrida amal qiluvchi masofaviy mehnatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi va keyinchalik bu tartib davlatlarning Mehnat kodeksi va qonunlari bilan yanada mustahkamlandi.

Material va metodlar

Tadqiqot davomida masofaviy mehnat, masofaviy xodim tushunchalari xorijiy davlatlar qonunchiligi asosida o'rganildi. Masofaviy mehnat turlari, masofaviy xodimlar bilan mehnat shartnomasi tuzish tartibi, ish beruvchi tashabbusi bilan vaqtinchalik masofadan turib ishlashga o'tkazish masalalari tahlil qilindi.

Mazkur tahlil jarayonida mualliflik pozitsiyasi ishlab chiqilib, qonunchilikni rivojlantirish bo'yicha xulosa va takliflar ilgari surildi.

Ushbu tadqiqot ishida tahlil qilish, xolislik, qiyoslash, taqqoslash, tizimlilik, statistik va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Masofaviy ish mehnatni tashkil etish shakli bo'lib, unda ish xodim tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, ish joyidan yoki mulkdor, vakolatli organing hududidan tashqarida, xodimning xohishiga ko'ra istalgan joyda amalga oshiriladi.

Mazkur munosabatlarni tartibga solish maqsadida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 26-bobiga "Masofadan ishlovchi xodimlarning mehnatini tartibga solish xususiyatlari" deb nomlan-

gan paragraf kiritildi. Ushbu paragrafda "masofaviy ish" va "masofadan turib ishlaydigan xodimlar" tushunchalari belgilab qo'yilgan, shuningdek, bunday xodim bilan mehnat shartnomasi tuzishning o'ziga xos xususiyatlari bayon etilgan.

Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksiga muvofiq, masofaviy xodimlar – masofadan ish olib borish uchun mehnat shartnomasi tuzgan shaxslar hisoblanadi.

Mehnati kodeksi loyihasida "masofaviy mehnat" tushunchasiga ta'rif berib o'tilgan bo'lib, masofaviy mehnat – ish beruvchi joylashgan yerdan tashqarida, ish beruvchining bevosita yoki bilvosita nazoratida bo'lgan doimiy ish joyi, hududi yoki obyektidan tashqarida, ushbu mehnat funksiyasini bajarishda foydalanadigan axborot va telekommunikatsiya tarmoqlari, shu jumladan, internet orqali amalga oshirish bilan bog'liq va ish beruvchi bilan xodim o'rtasida o'zaro munosabatda bo'lgan, mehnat shartnomasi bilan belgilangan xodim bajaradigan mehnat funksiyasidir.

Ta'rifdan kelib chiqadigan bo'lsak, masofadan ishlashning quyidagi xususiyatlari mavjud:

birinchidan, xodim mehnat shartnomasida belgilangan mehnat funksiyasini ish beruvchining bevosita yoki bilvosita nazorati ostida joylashgan joyidan, uning filiali, vakolatxonasi, boshqa alohida tarkibiy bo'linmasi (shu jumladan, boshqa aholi punktida joylashgan ish joyi), hudud yoki obyektidan tashqarida bajarishi lozim;

ikkinchidan, mehnat funksiyasini bajarish va uni amalga oshirish bilan bog'liq masalalar bo'yicha ish beruvchi va xodim o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni amalga oshirish uchun umumiy foydalanishdagi axborot va telekommunikatsiya, shu jumladan, internet tarmog'idan foydalanilishi kerak.

Tadqiqot natijalari tahlili

Quyida MDH davlatlarining masofaviy mehnatni tartibga solishga doir qonunchiligini tahlil qilamiz.

Rossiya. Rus olimlari ish beruvchilar uchun ushbu bandlik shaklining afzalliklari sifatida xarajatlarni tejash, boshqa min-taqalar va shtatlardan ishchilarni jalb qilish imkoniyati mavjudligini ta'kidlaydilar [4]. Xodimlar uchun masofaviy shakl moslashuv-chan ish jadvali, ish joyiga borib-kelish vaq-tini qisqartirish, o'z vazifalarini mustaqil ra-vishda rejalashtirish va bajarish imkoniyati kabi afzalliklar beradi [5].

2001-yil 30-dekabrda qabul qilingan Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksining 49-bobi masofaviy ishlarni tartibga solishga bag'ishlangan. Ushbu bob quyidagilarni tarti-bga soladi:

- masofaviy mehnat tushunchasi;
- masofaviy xodimlar bilan mehnat shart-nomasi tuzish, mehnat shartlarini o'zgartirish xususiyatlari va hujjatlarni almashish tartibi;
- masofaviy xodimlar mehnatini tashkil etish va mehnatni muhofaza qilish xususi-yatlari;
- masofaviy xodimning ish vaqti va dam olish vaqti xususiyatlari;
- masofaviy xodim bilan mehnat shartno-masini bekor qilish xususiyatlari.

Masofaviy mehnat konsepsiyasi Ros-siya Federatsiyasi Mehnat kodeksining 312.1-moddasidan o'rin olgan. Uning matnini tahlil qilish masofaviy ishning kamida ikkita farqlovchi xususiyatini ajratib ko'rsatishga imkon beradi. Birinchidan, bu xodim tomoni-dan ish beruvchining joylashgan joyi (uning filiali, vakolatxonasi, boshqa alohida tarkibiy bo'linmasi, statsionar ish joyi, hudud yoki obyekt)dan tashqarida amalga oshiriladi. Ushbu qoida Rossiya qonunchiligi masofaviy mehnat va kasanachilikni ajratganligi bilan bog'liq. Masofaviy ishchi uydan ishlashi shart emas, uning faoliyati sayohat, safar xakte-riga ham ega bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, bandlikning bu shaklida axborot-kommu-nikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofaviy ish olib boriladi [6]. Rossiya qonunchiligi Amerika yoki Yevropa qonun-chiligidan farqli o'laroq, qisman masofaviy

ish bilan ta'minlash imkoniyatini nazarda tutmaydi. Biroq, aslida, ko'plab xodimlar (masalan, o'qituvchilar) qisman masofa-viy mehnatga jalb qilingan [7]. Bundan kelib chiqadiki, Rossiya qonunchiligini takomil-lashtirish yo'nalishlaridan biri to'liq va qis-man masofaviy bandlik konsepsiyasini joriy etish bo'lishi mumkin.

Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksi-ning 49.1-bobi normalari asosiy qismi elek-tron hujjat aylanishi tartiblariga bag'ishlan-gan. Mehnat shartnomasi taraflari nafaqat qog'oz hujjatlar, balki elektron hujjatlarni ham almashishlari mumkin. Ularga yuridik kuch berish uchun elektron raqamli imzo (ERI) talab qilinadi. "Amalda ko'pgina rus kompaniyalari ushbu talablarni e'tiborsiz qoldiradilar va ko'pchilik xodimlar ERIdan foydalanish uchun zarur dasturiy ta'minot va texnik imkoniyatlarga ega emaslar. Bundan tashqari, elektron mehnat shartnomasi tuzil-ganiga qaramay, qonun hujjatlarida shart-nomaning qog'oz shakli mavjudligi talabi belgilangan. Shu sababli raqamli iqtisodiyot sharoitida amaldagi mehnat qonunchiligining xodim tomonidan mehnat faoliyatini amal-ga oshirishda ham, ish beruvchining xodim bilan o'zaro munosabatlarida ham qog'ozsiz kadrlar bo'yicha hujjatlar almashinuvini joriy etishga oid normalarini sezilarli darajada modernizatsiya qilish zarur [6]".

Qozog'iston. MDHga a'zo boshqa mam-lakatlar qonunchiligida masofaviy mehnat qisman tartibga solingan [8]. Masofaviy mehnatni tartibga solishning alohida nor-malari Qozog'iston Respublikasi Mehnat ko-deksida [9] mavjud bo'lib, uning 138-mod-dasiga muvofiq, ish beruvchi masofaviy xodimni aloqa vositalari bilan ta'minlashi, shuningdek, ularni o'rnatish va texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarni qoplashi shart. Agar xodim o'z aloqa vositalaridan foy-dalansa, ish beruvchi sarflangan xarajatlarni qoplashga majbur. Ushbu yondashuv Yevro-pa standartlariga mos keladi. Tomonlar keli-shuviga ko'ra, ish beruvchi tomonidan maso-

faviy ishchiga ishlarni bajarish bilan bog'liq boshqa xarajatlar (elektr energiyasi, suv va boshqa xarajatlar) qoplab berilishi mumkin.

Qozog'iston Mehnat kodeksida masofaviy xodimning ish vaqti va ish vaqtini nazorat qilish masalalari yetarli darajada yoritilgan. Unga ko'ra, xodimlar masofadan ishlashning to'liq yoki aralash rejimiga o'tishlari mumkin. Bunda masofaviy xodimlar uchun ish vaqtining qat'iy hisobi (tabel) ish vaqtining kunlik davomiyligi bo'yicha cheklovlariga rioya qilgan holda yuritiladi. Ular ustidan nazorat qilish xususiyatlari mehnat shartnomasi yoki ish beruvchining buyrug'ida belgilanadi.

Belgilangan tartibga ko'ra, masofaviy xodimning ish vaqti mobaynida ish beruvchi bilan muloqot qilishi uchun zamin yaratilishi lozim, ya'ni ish beruvchi ish vaqtida xodim bilan muloqot qilishi uchun uning xizmat raqami aloqada bo'lishi, onlayn kelgan xabarlariga o'z vaqtida javob qaytarishi talab etiladi.

Masofadan ishlaganda, ishning bajarilishi ish beruvchi tomonidan ma'lum vaqt bilan belgilanishi mumkin bo'lmaganda, ish vaqti mehnat shartnomasida belgilangan ish hajmining bajarilganlik darajasi bilan nazorat qilinadi va ish vaqtini hisobga olish to'g'risidagi hujjat (tabel)da ko'rsatiladi [9].

Shuningdek, Qozog'iston mehnat qonunchiligida favqulodda vaziyatlar, harbiy holat joriy qilinganda, xodimlarni ish beruvchining tashabbusi bilan masofadan ishlash rejimiga o'tkazish tartibi yoritilgan bo'lib, bunda holat ish beruvchi tomonidan qabul qilinadigan hujjat (buyruq) bilan tartibga solinadi. Ish beruvchining buyrug'ida quyidagilar aks etishi lozim:

1) masofaviy mehnatning to'liq yoki aralash rejimiga o'tish uchun asos;

2) masofaviy mehnatning to'liq yoki aralash rejimiga vaqtincha o'tkaziladigan xodimlar ro'yxati;

3) masofaviy mehnatning to'liq yoki aralash rejimini vaqtincha o'rnatishga sabab

bo'lgan holatni bartaraf etish sanasidan oshmaydigan muddatdagi ish davri;

4) ish beruvchi tomon xodimga mehnat majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar, axborotlashtirish obyektlarini Qozog'iston Respublikasining "Axborotlashtirish, aloqa xizmatlari va boshqa vositalar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq taqdim etish tartibi. Bunda ish beruvchi asbob-uskunalar, kerakli jihozlarni o'rnatish va ularga texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini o'z zimmasiga oladi.

Tojikiston. Tojikiston Respublikasida ham masofaviy mehnat tushunchasi qonunchilik bilan tartibga solingan bo'lib, Mehnat kodeksining [10] 23-bobi (255–257-moddalar) masofaviy mehnatga bag'ishlangan. Masofaviy mehnatga quyidagicha ta'rif berilgan: "Ish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ish beruvchining joylashgan joyidan tashqarida mehnat jarayonini amalga oshirishning alohida shakli masofaviy ishdur".

Tojikiston Mehnat kodeksi bilan ish beruvchi tomonidan xodimga ta'minlab berilishi lozim bo'lgan asbob-uskunalar va ularga ketadigan xarajatlar masalasi tartibga solingan. Ish beruvchi xodimni aloqa vositalari bilan ta'minlaydi va ularni o'rnatish va saqlash xarajatlarini o'z zimmasiga oladi. Agar xodim o'z aloqa vositalaridan doimiy ravishda foydalansa, ish beruvchi kompensatsiya to'laydi. Ularni to'lash miqdori va tartibi xodim bilan kelishilgan holda belgilanadi.

E'tiborlisi shundaki, statsionar ish joyidan ishlayotgan xodim bilan masofadan turib ishlayotgan xodimga ish vaqti va dam olish vaqti bir xilda tatbiq etiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda masofaviy xodimning xohishi va tanloviga ko'ra, ish vaqti va dam olish vaqti tartibga solinishiga oid huquqiy tanlov mavjud emas.

Tojikiston mehnat qonunchiligi masofaviy mehnatni tartibga solishda bir qator bo'shliqlarga ega bo'lib, masofaviy xodim bilan mehnat shartnomasi tuzish, o'zgartir-

ish va bekor qilish masalalari yoritilmagan. Shuningdek, xodimning masofadan turib ishlashga o'tishining doimiy yoki vaqtinchalik tartibi, qolaversa, masofaviy mehnatning to'liq yoki aralash rejimiga o'tishi bilan bog'liq tartib-qoidalar ochiq qolgan.

Belarus. Belarus Respublikasining Mehnat kodeksida masofaviy ishlash alohida toifa sifatida ajratiladi. Belaruslik huquqshunolar mazkur mehnat shaklini uy ishi shakllaridan biri deb baholaydi. Shu bilan birga, Belarus qonunchiligi bunday shartnomani 16 yoshgacha bo'lgan bolalari bo'lgan ayollar, nogironlar, nafaqaxo'rlar, mehnat qobiliyati cheklangan shaxslar, nogironlarga g'amxo'rlik qilayotgan shaxslar yoki uzoq vaqt kasal bo'lgan oila a'zolarini parvarish qilayotgan shaxslar va obyektiv sabablarga ko'ra ushbu hududda bevosita ishlab chiqarishda ishga joylasha olmaydigan shaxslar bilan imtiyozli ravishda tuzish huquqini belgilaydi [8].

2020-yil yanvar oyidan kuchga kirgan Belarus Respublikasi Mehnat kodeksining o'zgartirilgan tahriri masofaviy mehnat munosabatlarining qonuniyligini ta'minlaydigan shartlar, masofaviy ishchilar bilan mehnat shartnomasi tuzish va bekor qilishning o'ziga xos xususiyatlari, bunday ishchilarning huquqlarini himoya qilish kafolatlari (mehnat sharoitlarining xavfsizligini ta'minlash, mehnat intizomini nazorat qilish va boshqalar)ni ta'minlash va amalga oshirishni nazarda tutadi [11].

Belarus qonunchiligiga ko'ra, masofadan turib ishlashda ish beruvchi va masofaviy xodim o'rtasida yozma topshiriqlar, mehnat majburiyatlarini bajarish uchun boshqa ma'lumotlar; bajarilgan ish natijalarini o'z ichiga olgan elektron hujjatlar yoki elektron shakldagi xabarlar (shu jumladan, SMS xabarlar, fayllar va yozuvlar) almashish shartlari; xodimning bayonot va tushuntirishlari, ish beruvchining bildirishnomalari, buyruqlari va mehnat shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish bilan bog'liq boshqa hujjatlari

mehnat shartnomasi bilan belgilanadi va tartibga solinadi [12].

Ushbu davlatda masofaviy mehnatni tartibga solishda ish vaqti, dam olish vaqti va mehnat muhofazasiga oid me'yorlar yanada kengroq ifodalanishi va yoritilishi zarur.

Ukraina (2018-yildan rasman MDH a'zosi emas). 2021-yil 4-fevralda Ukraina Oliy Radasi "Masofaviy ishlarni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Ukraina qonunini qabul qildi. Ushbu qonun Ukrainada masofaviy ishlashdan foydalanishning barcha huquqiy jihatlarini tartibga solish uchun mo'ljallangan [13]. Qonunga ko'ra, endilikda masofaviy ish uchun mehnat shartnomasi tuzishda ish beruvchi barcha kerakli brifinglarni masofaviy formatda o'tkazadi.

Ukraina Mehnat qonunlari kodeksi 60¹-va 60²-moddalar bilan to'ldirilib [14], ular kasanachilik va masofaviy mehnat masalalarini batafsil tartibga soladi. Mehnat kodeksining avvalgi tahririda masofaviy ish va kasanachilik bir xil tushuncha sifatida belgilangan edi.

Mehnat qonunlari kodeksining 60²-moddasida qayd etilishicha, masofaviy ish joriy etilgan taqdirda, xodim ish joyini mustaqil ravishda belgilaydi hamda u yerda xavfsiz va zararsiz mehnat sharoitlari ta'minlanishi uchun o'zi javobgar bo'ladi. Boshqa davlatlar mehnat qonunchiligidan farqli o'laroq, Ukrainada masofaviy xodim mehnat muhofazasi uchun o'zi mas'uldir.

Ukrainada xodimlar quyidagi sabablarga ko'ra masofadan turib ishlashga o'tishi mumkin:

- epidemiya, pandemiya tarqalishi xavfi tug'ilganda, qonun hujjatlarida belgilangan hollarda, xodimni o'zini o'zi izolyatsiya qilish zarurati tug'ilganda va (yoki) qurolli tajovuz, texnogen, tabiiy yoki o'zga xarakterdagi favqulodda vaziyat yuzaga kelganda, ish beruvchining buyrug'i (ko'rsatmasi) bilan masofaviy ish "yozma tilda mehnat shartnomasini

tuzish majburiyatisiz” joriy etilishi mumkin. Xodim bunday buyruq (ko'rsatma) bilan u qabul qilingan kundan boshlab ikki kun ichida, lekin masofaviy ish joriy etilishidan oldin tanishadi;

- homilador ayollar, uch yoshga to'lmagan bolasi bo'lgan yoki bolasi olti yoshga to'lgunga qadar tibbiy ma'lumotnoma bo'yicha bolani parvarish qilayotgan ishchilar, 15 yoshgacha bo'lgan ikki yoki undan ortiq bolasi yoki nogiron bolasi bo'lgan ishchilar, shuningdek, I guruh bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxs vasiyligida bo'lgan shaxslar masofadan turib ishlashi mumkin;

- xodim korxona, muassasa, tashkilotda, ish joyida unga nisbatan kamsitish belgilarini o'z ichiga olgan harakatlar sodir etilgan bo'lsa, ikki oygacha bo'lgan muddatga vaqtincha masofadan ishlashga o'tishni talab qilishi mumkin. Korxona, muassasa, tashkilotning mulkdori yoki u vakolat bergan organ, agar xodimning mehnat funksiyasini hisobga olgan holda masofaviy ishlarni bajarishning iloji bo'lmasa, xodimga bunday o'tkazishni rad etishi mumkin.

Moldaviya. Moldaviya Respublikasi parlamenti 2020-yil 21-mayda 69-sonli qonun bilan Moldova Respublikasi Mehnat kodeksiga tegishli o'zgartirishlar kiritdi va ushbu o'zgarishlar 26-may sanasidan amal qila boshladi [15]. Mehnat kodeksining “Kasanachilik” bobi 73-moddasi 2-qism bilan to'ldirildi. Unga ko'ra, agar xodimda ish beruvchi tomonidan tashkil etilgan ish joyida ishlash imkoniyati bo'lmasa, favqulodda vaziyat, qamal va harbiy holat yoki sog'liqni saqlash sohasida favqulodda holat e'lon qilinishi bilan bog'liq vaziyatlarda “salomatlik va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida” ish beruvchi ishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda asoslantirilgan buyruq (ko'rsatma, qaror) bilan xodimlarni vaqtincha ishni uydin yoki masofadan bajarishga o'tkazishi mumkin.

Shu bilan birga, individual mehnat shartnomasiga tegishli o'zgartirishlar kiritmaslik-

ka yo'l qo'yiladi. Buyruq xodimga o'z vaqtida, shu jumladan, elektron vositalar orqali yetkaziladi.

Moldaviya mehnat qonunchiligiga ko'ra, masofaviy ishchilar individual mehnat shartnomasi yoki masofaviy ish to'g'risidagi qoidalarini o'z ichiga olgan mavjud hujjatga qo'shimcha bitim tuzadilar. Masofaviy ishchi qonun, jamoa shartnomasi, mehnat shartnomasi yoki boshqa me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan barcha huquq va kafolatlardan foydalanadi. Masofaviy ishda biron-bir yangilik yoki o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'lsa, ular ikkala tomon tuzgan hujjatda ham aks etadi [16].

Masofaviy ish bo'yicha individual mehnat shartnomasini imzolash yoki unga o'zgartirish kiritish Mehnat kodeksida nazarda tutilgan shartlar, shu jumladan, elektron imzodan foydalangan holda elektron hujjatlar almashinuvi asosida amalga oshiriladi. Masofaviy ish uchun individual mehnat shartnomasida umum e'tirof etilgan shartlardan tashqari quyidagilar ham ko'rsatilishi kerak:

- masofaviy ishlarni bajarish shartlari;
- ish beruvchi xodimning faoliyatini tekshirish huquqiga ega bo'lgan ish tartibi va monitoring usuli;
- ishlangan soatlarni hisobga olish tartibi;
- masofaviy ish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash shartlari va tomonlar kelishilgan boshqa qoidalar.

Masofaviy ishchining sog'lig'i va xavfsizligini tashkil etishga kelsak, ish beruvchi xodimning mehnat muhofazasini Moldaviya Mehnat kodeksi, “Mehnati xavfsizligi to'g'risida”gi 186/2008-sonli qonun, sog'liqni saqlash va mehnatni muhofaza qilish sohasidagi boshqa normativ hujjatlarga muvofiq amalga oshiradi [15].

MDHga a'zo boshqa ayrim davlatlarda esa masofadan ishlashni huquqiy tartibga solishga qaratilgan ishlar koronavirus pandemiyasidan keyin ancha jonlanganligini e'tirof etish lozim. Xususan, *Armaniston Respublikasi Mehnat va ijtimoiy masalalar bo'yicha vazirli-*

gi 2020-yilning mart oyida favqulodda holatda ish beruvchi va xodimlarning o'zaro munosabatlarini tartibga solish uchun masofaviy ish usulini kiritishni ko'zda tutuvchi Mehnat kodeksiga qo'shimchalar kiritish haqidagi qonun loyihasini ishlab chiqdi. *Ozarbayjon*da ham masofaviy ish va masofaviy xodim haqidagi asosiy qoidalarni Mehnat kodeksiga kiritish koronavirus pandemiyasi davrida dolzarb ahamiyat kasb etganligi haqida ijtimoiy tarmoqlarda ko'plab maqolalar e'lon qilina boshlandi [17].

Qirg'iziston Respublikasida 2020-yil 4-mayda Mehnat va ijtimoiy rivojlanish vazirligi parlamentga masofaviy xodimlar mehnatini huquqiy tartibga solishni nazarda tutuvchi "Qirg'iziston Respublikasi Mehnat kodeksiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasini kiritdi [18]. Shuningdek, "Qirg'iziston Respublikasining Mehnat kodeksiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi Qirg'iziston Respublikasi Hukumati qarori bilan jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi [19]. 2022-yilning 23-dekabriga kelib, Mehnat kodeksi yangi o'zgartirish va qo'shimchalar bilan boyitildi. Unga ko'ra, Mehnat kodeksiga "Masofaviy ishlarni bajaradigan ishchilarning mehnatini tartibga solish xususiyatlari" deb nomlangan 32-1-bob kiritildi.

Ushbu bob masofaviy mehnat tushunchasiga ta'rif bilan boshlangan bo'lib, masofaviy ish – mehnat funksiyasini bajarish uchun axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari qo'llanishi hamda uni amalga oshirish bilan bog'liq masalalar bo'yicha ish beruvchi va xodim o'rtasidagi o'zaro munosabatda bo'lishi sharti bilan, ish beruvchining joylashgan joyidan tashqarida mehnat shartnomasida belgilangan mehnat funksiyasini bajarish hisoblanadi.

Qirg'iziston Mehnat kodeksida belgilangan tartibga ko'ra, masofaviy xodim bilan mehnat shartnomasi tuziladigan joy ish beruvchi joylashgan joy hisoblanadi. Xodim bilan mehnat shartnomasi uning bevosita

ta ishtirokida yozma yoki elektron mehnat shartnomasi shaklida tuzilishi mumkin. Xodimning ish beruvchi bilan bog'lanish usuli va muddati, shuningdek, ish beruvchi tomonidan xodimga ta'minlab berilishi lozim bo'lgan zaruriy vositalar va ularning berilishi muddati mehnat shartnomasi bilan tartibga solinadi.

Masofaviy xodimning mehnat muhofazasi ham umumiy ma'noda yoritib o'tilgan bo'lib, masofaviy ishlarni bajaruvchi xodim uchun xavfsiz sharoit va mehnatni muhofaza qilishni ta'minlash maqsadida ish beruvchi o'zi tomonidan taqdim qilingan yoki tavsiya etilgan asbob-uskuna va vositalar bilan ishlashda mehnatni muhofaza qilish talablari bilan xodimning tanishishini ta'minlaydi.

Ish beruvchining tashabbusi bilan xodimni vaqtinchalik masofadan turib ishlashga o'tkazish tartibi ham ushbu kodeks bilan tartibga solingan bo'lib, masofaviy ish rejimini o'rnatish uchun quyidagi holatlarda xodimning roziligi yoki arizasi talab qilinmaydi:

- favqulodda holat joriy etish;
- harbiy holat;
- fors-major holatlarining yuzaga kelishi.

Shunga e'tibor qaratish kerakki, Qirg'iziston Mehnat kodeksida masofaviy mehnatning tartibga solinishi biroz umumiylikka asoslangan bo'lib, aniq tartib, aytaylik, xodimga ish beruvchi tomonidan aynan qanday vositalar bazaviy ta'minot qilib berilishi yoxud masofaviy mehnatning turlari, ish vaqti, dam olish vaqtini hisoblashda o'ziga xosliklar va boshqa jihatlar yoritilishi lozim bo'lgan jabhalar ochiq qolgan.

Xulosalar

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni xulosa qilish mumkinki, tahlil natijalari MDH mamlakatlari qonunchiligi xorijiy davlatlar (AQSh, YI) qonunchiligidan sezilarli darajada orqada qolayotganini ko'rsatadi. Masofaviy mehnatni qonunchilik bilan tartibga solishda holatga umumiy yondashilib, aksar masalalar ochiq qolgan yoxud masofadan ish-

lashning o'ziga xos xususiyatlari e'tibordan uzoqlashgan. Ba'zi xorijiy mamlakatlarda masofaviy ish joylarini tashkil etishda yanada muvaffaqiyatli tajriba to'planganligini hisobga olgan holda MDH davlatlarida masofaviy mehnatga oid qonunchilik diqqat bilan ko'rib chiqilishi lozim. Bunda AQSh (Guide to Telework and Remote Work in the Federal Government [20]), Buyuk Britaniya (Telework Guidance [21]), Yevropa Ittifoqi davlatlaridan Irlandiya (Telework Guidelines for good

practice [22]) va boshqa davlatlarda masofaviy mehnatni tashkil etish masalalari bo'yicha ishlab chiqilgan yo'riqnoma (Guide book) larni o'rganib chiqish tavsiya etiladi. Shu bilan birga, xorijiy me'yorlardan ko'r-ko'rona nusxa ko'chirishga ham yo'l qo'yib bo'lmaydi. Masofaviy bandlik xorijiy tajriba hamda milliy mentalitetning o'ziga xos xususiyatlari, o'rnatilgan huquqiy an'analar va institutlarni hisobga olgan holda tartibga solinsa, yanada samaraliroq bo'ladi.

REFERENCES

1. Golden T.D., Fromen A. Does it matter where your manager works? Comparing managerial work mode (traditional, telework, virtual) across subordinate work experiences and outcomes. *Human Relations*, 2011, no. 11, pp. 1451–1475.
2. Stavrou E.T. Flexible work bundles and organizational competitiveness: A cross-national study of the European work context. *Journal of Organizational Behavior: The International Journal of Industrial, Occupational and Organizational Psychology and Behavior*, 2005, no. 8, pp. 923–947.
3. Remote Work Statistics in 2023 and how they Influence the Workplace. Available at: <https://squaretalk.com/remote-work-statistics/> (accessed 20.07.2023).
4. Vasileva Yu.V., Shuraleva S.V., Braun Ye.A. Pravovoye regulirovaniye distantsionnoy raboty: problemy teorii i praktiki [Legal regulation of remote work: problems of theory and practice]. 2016.
5. Nadirova A.K. K voprosu ob aktualnykh problemakh pravovogo statusa sub'yektov trudovogo prava [To the question of topical problems of the legal status of subjects of labor law]. *Rossiyskiy yejegodnik trudovogo prava – Russian Yearbook of Labor Law*, 2013, no. 8, pp. 553–563.
6. Kozhevnikov O.A., Chudinovskikh M.V. Regulirovaniye truda distantsionnykh rabotnikov v Rossii i za rubezhom [Regulation of the work of remote workers in Russia and abroad]. *Bulletin of St. Petersburg University*, 2020, no. 3, pp. 563–583. DOI: 10.21638/spbu14.2020.303/
7. Lyutov N.L. Distantsionnyy trud: opyt Yevropeyskogo Soyuza i problemy pravovogo regulirovaniya v Rossii [Remote work: the experience of the Yeuropian Union and the problems of legal regulation in Russia]. *Lex Russica*, 2018, no. 10 (143), pp. 30–39.
8. Chudinovskikh M.V. Regulirovaniye distantsionnogo truda v stranakh Yevraziyskogo ekonomicheskogo soyuza [Regulation of remote work in the countries of the Yeurasian Yeconomic Union]. *Eurasian Advocacy*, 2018, no. 4 (35), pp. 109–111.
9. Trudovoy kodeks Respubliki Kazakhstan ot 23.11.2015 № 414-Vb [Labor Code of the Republic of Kazakhstan dated November 23, 2015 No. 414-Vb]. Available at: https://online.zakon.kz/document/?doc_id=38910832/ (accessed 15.05.2022).
10. Trudovoy kodeks Respubliki Tadjikistan [Labor Code of the Republic of Tajikistan]. Available at: https://andoz.tj/docs/drugiye-kodeksi/Code_%Ye2%84%968_Labor_code_RT_ru.pdf/ (accessed 15.05.2022).
11. Yazikov N.V. Osobennosti rejzhima i ucheta rabochego vremeni v otnoshenii distantsionnykh rabotnikov [Features of the regime and accounting of working time in relation to remote workers]. Belarusian State Economic University, 2020.

12. Trudovoy kodeks Respubliki Belarus [Labor Code of the Republic of Belarus]. Available at: https://kodeksy-by.com/trudovoj_kodeks_rb.htm/ (accessed 15.05.2022).
13. Novosti trudovogo zakonodatel'stva: udalennaya rabota [Labor law news: remote work]. Available at: <https://www.legalalliance.com.ua/rus/novosti/novosti-trudovogo-zakonodatelstva-udalennaya-rabota/> (accessed 16.05.2022).
14. Kodeks zakonov o trude Ukrainy [Labor Code of Ukraine]. Available at: <https://i.factor.ua/law-39/section-185/article-29322/> (accessed 16.05.2022).
15. Rabota s soblyudeniym distantsii [Working with distance]. Available at: <https://noi.md/ru/analitika/rabota-s-soblyudeniym-distancii/> (accessed 16.05.2023).
16. Trudovoy kodeks Respubliki Moldova [Labor Code of the Republic of Moldova]. Available at: http://continentonline.com/Document/?doc_id=30398053#pos=2228;-42/ (accessed 16.05.2022).
17. Jo'rayev I.A. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining yangi tahririda masofaviy mehnat masalalari [Remote work issues in the new edition of the Labor Code of the Republic of Uzbekistan].
18. Minsotstruda vynosit na obshchestvennoye obsuzhdeniye zakonoproekt, reguliruyushhiy deyatel'nost' distantsionnykh rabotnikov [The Ministry of Labor blames for public discussion a bill regulating the activities of remote workers]. Available at: http://www.abc.kg/ru/news/legislation/5044_pravovoi_obzor_zh_410_2020/ (accessed 17.05.2022).
19. Distantsionnaya rabota v Kyrgyzstane (vkluyuchaya distantsionnuyu rabotu inostrannykh rabotnikov) [Remote work in Kyrgyzstan (including remote work of foreign workers)]. Available at: <https://gratanet.com/ru/publications/distantsionnaya-rabota-v-kyrgyzstane/> (accessed 17.05.2022).
20. Guide to Telework and Remote Work in the Federal Government. Available at: <https://www.opm.gov/telework/documents-for-telework/2021-guide-to-telework-and-remote-work.pdf/> (accessed 20.07.2023).
21. Telework Guidance. 2003. Available at: <https://webarchive.nationalarchives.gov.uk/+http://www.berr.gov.uk/files/file27456.pdf/> (accessed 20.07.2023).
22. Teleworking Guide-lines for Good Practice, 2004. Available at: <https://www.employment-studies.co.uk/system/files/resources/files/329.pdf/> (accessed 20.07.2023).

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.4./KCMH1815>
UDC: 343.23(045)(575.1)

ZARURIY MUDOFAA CHEGARASIDAN CHETGA CHIQIB VA KUCHLI RUHIY HAYAJONLANISH HOLATIDA QASDDAN ODAM O'LDIRISHNING FARQLI JIHATLARI

Hakimov Komil Baxtiyorovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat huquqi, kriminologiya va
korrupsiyaga qarshi kurashish
kafedrası dotsenti, yuridik fanlar doktori
ORCID: 0000-0002-4785-3233
e-mail: k.xakimov@tsul.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib va kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirishning farqli jihatlari yoritilgan. Maqolada ikki vaziyatga, birinchidan, rashk nafaqat er-xotin o'rtasidagi munosabatlar, balki u kengroq doiradagi insonlar o'rtasidagi munosabatlarga ham tegishli tushuncha ekanligi hamda rashk hissi ota-ona va farzandlar yoki boshqa qarindoshlar yoxud unashtirilgan yigit va qiz yoki bir-birini sevganlar o'rtasida ham vujudga kelishi mumkinligi borasidagi fikrlar tahlil etilgan. Ikkinchidan, muallif o'z fikrini davom ettirib, maqolada rashk haqida fikr yuritayotgan ba'zi olimlar ushbu tushunchani xiyonat yoki bevafoqlik bilan bog'lashga harakat qilayotganini ta'kidlaydi. Shuni ham hisobga olish kerakki, er-xotin o'rtasidagi xiyonat nafaqat xiyonat, balki boshqa bir odam bilan quchoqlashish yoki unga sevgi izhor qilish bilan ham bog'liq bo'lishi va rashkni vujudga keltiruvchi juda ko'p holatlar mavjudligini inobatga olish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, JKning 98-moddasi bo'yicha qilmishni kvalifikatsiya qilishda muallif rashk tufayli kelib chiqqan kuchli ruhiy hayajonlanish holati to'satdan va keskin yuz berganligiga e'tibor qaratishning ahamiyatini asoslaydi.

Kalit so'zlar: affekt, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish, kuchli ruhiy hayajonlanish, qasddan odam o'ldirish, jinoyat, jazo, javobgarlik.

ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ЧЕРТЫ УМЫШЛЕННОГО УБИЙСТВА, СОВЕРШЕННОГО ЗА ПРЕДЕЛАМИ НЕОБХОДИМОЙ ОБОРОНЫ И В СОСТОЯНИИ СИЛЬНОГО ПСИХИЧЕСКОГО ВОЗБУЖДЕНИЯ

Хакимов Комил Бахтиёрович,
кандидат юридических наук, доцент кафедры
«Уголовное право, криминология и противодействие коррупции»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье анализируются аспекты отличия умышленного убийства в состоянии сильного эмоционального возбуждения и за пределами необходимой обороны. В статье рассматриваются две ситуации, во-первых, тот факт, что ревность – это понятие, которое относится не только к отношениям между парой, но и к отношениям более широкого круга людей, и чувство ревности также может возникать как между родителями, детьми

или другими родственниками, так и между помолвленным парнем и девушкой или любящими друг друга людьми. Во-вторых, продолжая свое рассуждение, в статье автор указывает, что некоторые ученые, размышляющие о ревности, пытаются связать это понятие с предательством или неверностью. В-третьих, стоит также учесть, что неверность между супругами может быть связана не только с изменой, но и объятиями с другим человеком или признанием ему в любви, и существует огромное количество ситуаций, вызывающих ревность. Кроме того, при квалификации деяния по статье 98 УК автор обосновывает целесообразность обращения внимания на то, что состояние сильного эмоционального возбуждения, вызванного ревностью, наступает внезапно и остро.

Ключевые слова: аффект, самооборона, превышение, сильный дух, возбуждение, умышленное, убийство, преступление, наказание, ответственность.

ASPECTS OF THE DIFFERENCE BETWEEN PREMEDITATED MURDER COMMITTED BEYOND THE LIMITS OF NECESSARY DEFENSE AND IN A STATE OF STRONG MENTAL EXCITEMENT

Hakimov Kamil Bakhtiyorovich,

Tashkent State University of Law,
Associate Professor of the Department
of Criminal Law, Criminology
and Anti-Corruption, DSc of Law

Abstract. This article analyzes the different aspects of intentional homicide in a state of intense emotional excitement and beyond the bounds of necessary defense. This article focuses on two situations. First, jealousy is a concept that applies not only to the relationship between husband and wife but also to the relationship between people in a wider circle, and the feeling of jealousy is also between parents and children or other relatives, or between an engaged boyfriend and girlfriend. or opinions about the possibility of it occurring between those who love each other have also been analyzed. Continuing in the article, scholars who think about jealousy in the second place try to associate this concept with betrayal or infidelity. However, it is appropriate to take into account that infidelity between a couple can be done not only by betrayal but also by hugging or expressing love to another person, and thirdly, there are many situations that cause jealousy. In addition, when qualifying the act with Article 98 of the Criminal Code, he also explained the expediency of paying attention to the sudden and sharp occurrence of a state of strong emotional excitement caused by jealousy.

Keywords: affect, overstepping self-defense, strong spirit excitement intentional, murder, crime, punishment, responsibility.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi. Unga ko'ra, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Ushbu konstitutsiyaviy norma-ga muvofiq, JKning 2-moddasida ham inson hayoti va uning boshqa daxlsiz huquqlari muhofaza qilinadigan eng muhim obyekt-

lar qatoridan o'rin olgan. O'zbekiston Respublikasi JKning Maxsus qismi normalari ushbu qoidaga muvofiq shakllantirilgan bo'lib, unga ko'ra, Maxsus qismning dastlabki bo'limi "Shaxsga qarshi jinoyatlar"ga bag'ishlangan.

JKning 98-101-moddalarida yengillashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish jinoyatlari uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, mazkur maqolada aynan ushbu moddalarda nazarda tutilgan jinoyatlarni tushu-

nishning ilmiy-nazariy va amaliy muammolari tahliliga e'tibor qaratilgan.

O'zbekistondagi amaliyot va statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratsak, 2019–2022-yillarda JK 98-, 99-, 100-, 101-moddalari bo'yicha jinoyatlar soni va ularga tayinlangan jazo turlari keltirilgan. Unga ko'ra, hisobot davrida JKning 98-, 101-moddalari bo'yicha vaziyat sezilarli darajada o'zgaragan, 100-modda bo'yicha holat yildan-yilga kamayib, ijobiy tus olgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining 2022-yil 26-iyuldagi 07/14-9432-254-son xati asosida olingan statistik materiallar asosida tayyorlangan). JKning 99-moddasi bo'yicha esa yillar bo'yicha vaziyat o'zgaruvchanligicha qolmoqda, ya'ni mazkur modda bo'yicha bir yili ko'proq hukm chiqarilgan bo'lsa, keyingi yili kamaygan.

Ammo mazkur jinoyatlar sodir etilayotganligi va jazo tayinlashda ularning farqli jihatlari ham tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Material va metodlar

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib va kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirishning farqli jihatlari doir masalalarni tahlil etishda ilmiy bilishning tarixiy, tizimli, mantiqiy, qiyosiy-huquqiy, statistik, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish, huquqni qo'llash amaliyoti usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

O'zbekiston Respublikasining JKda javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish uchun 98–101-moddalarda javobgarlik belgilangan.

Mazkur jinoyatlarning o'xshashligi ularni sodir etgan shaxslarning qilmishi jinoyatning obyektiv yoki subyektiv belgilariga ko'ra, qonun chiqaruvchi tomonidan yengillashtiruvchi holat deb topilganligidadir. JKning 98–101-moddalari sanksiyalariga e'tibor qaratsak, bu qilmishlar uchun qasddan odam o'ldirishga nisbatan ancha yengil jazo nazarda tutilgan.

Tahlil qilinayotgan jinoiy qilmishlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, shaxsning hayotiga tajovuz qilishning quyidagi jihatlari o'rganish maqsadga muvofiq:

a) psixologik jihat – inson hayoti ruhiy jarayonlar, ruhiy holat, ruhiy omillar va ruhiy hodisalardan iborat elementlar majmuidir;

b) ijtimoiy jihat – inson hayoti aniq bir ijtimoiy sharoitlarda yuzaga kelgan jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarning o'zaro ta'siridir;

d) jinoyat-huquqiy jihat – inson hayoti jinoyat-huquqiy muhofaza obyekti sifatida o'rganildi.

Hayotga qarshi jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi uning qay darajada keng tarqalganligi bilan emas, balki ularning oqibatlariga ko'ra baholanadi. Hayotga qarshi jinoyatlar oqibatida ro'y bergan chuqur ma'naviy yo'qotishlar, azob va kulfatlarni boshqa turdagi uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarning oqibatlari bilan taqqoslash mumkin emas.

JKda qasddan odam o'ldirishning quyidagi turlari nazarda tutilgan:

1) yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi belgilarga ega bo'lmagan oddiy odam o'ldirish (JKning 97-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyat);

2) og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish (JKning 97-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan jinoyat);

3) yengillashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish.

Yengillashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish deb JKning 98–101-moddalarida nazarda tutilgan belgilar mavjud bo'lganda, qasddan odam o'ldirganlik nazarda tutiladi. Bular kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish, onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirish, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirishdir.

JKning 98-moddasida nazarda tutilgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirishning jinoyat-huquqiy tabiati va o'xshash tarkibli jinoyatlardagi farqlariga to'xtalib o'tsak.

Affekt holatida sodir etilgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda ko'pincha mazkur toifadagi jinoyatlarni o'xshash tarkibli jinoyatlardan, xususan, JKning 97-moddasi 1-qismi, 97-moddasi 2-qismi "j" bandi, 100-moddasi, 101-moddasi, 104-moddasi 2-qismi "v" bandi, 105-moddasi 2-qismi "g" bandi, 107-moddasi, 108-moddalaridan farqlashda muammo vujudga keladi.

Mazkur toifadagi jinoyatlarni o'zaro farqlashda subyektiv tomonning o'ziga xos jihatlari, xususan, jinoyat sodir etishga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi kuchli ruhiy hayajonlanish (affekt) holati mavjudligi inobatga olinishi lozim.

Affekt holatida sodir etiladigan jinoyatlarni oddiy tarkibli qasddan odam o'ldirish (97-modda 1-qismi) yoki badanga og'ir yoxud o'rtacha og'ir shikast yetkazish (104-modda 1-qismi va 105-modda 1-qismi) dan farqlashda, eng avvalo, effekt holatida qasddan odam o'ldirish, badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazishning obyektiv tomoni belgilarini tahlil qilish talab etiladi.

Jinoyat qonunida faqat jabrlanuvchining g'ayriqonuniy harakatlariga javob tariqasida yuzaga kelgan effekt holatida jinoyat sodir etganlik mazkur toifadagi jinoyatlarni yengillashtiruvchi tarkib deb belgilangan. Bu jinoyatlarda qasdning vujudga kelish vaqtini inobatga olish ham muhim ahamiyat kasb etadi. JKning 98-moddasi dispozitsiyasidan ko'rinib turibdiki, mazkur jinoyatlar jabrlanuvchining g'ayriqonuniy harakatlariga javob sifatida to'satdan vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish (affekt) holatida sodir etiladi. Aynan jabrlanuvchining g'ayriqonuniy yoki axloqqa zid xulq-atvori jinoyatning sababidir.

Jabrlanuvchi zaruriy mudofaa yoki ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni

ushlash vaqtida aybdorga nisbatan zo'rlik harakatlarini tatbiq etishi natijasida vujudga kelgan effekt holatida sodir etilgan qilmish JKning 98-, 106-moddalari bilan kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas.

Tadqiqot natijalari tahlili

Adabiyotlarda uzoq vaqtdan buyon rashk motivi tufayli vujudga kelgan effekt holatida sodir etilgan jinoyatni kvalifikatsiya qilish turli bahslarga sabab bo'lib kelmoqda. Bu masalada olimlarning fikrlari ham ikkiga bo'lingan. Birinchi guruhdagi olimlar ushbu motiv bilan vujudga kelgan jinoyatlarni JKning 98-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish lozim [1, 14–19-b.; 2], degan fikrni ilgari sursa, ikkinchi guruhdagi olimlar esa qilmishni bu tarzda kvalifikatsiya qilish noto'g'ri [3, 85–89-b.; 4], degan fikrda.

O. Zokirovaning ta'kidlashicha, "rashk tufayli sodir etilgan jinoyatlar negizida erkakning ko'p xotirlilikka intilishi hamda jamiyatdagi rasm-rusum va odatlar, aqidalar o'rtasidagi ijtimoiy-madaniy ziddiyatlar mavjud bo'ladi. Erkakning bunday xatti-harakati muayyan axloqiy mezonlar asosida yashayotgan jamiyatning faol qarshiligiga duch keladi" [5, 27–29-b.].

Odatda rashk motivi er-xotin o'rtasidagi nizoli vaziyatga nisbatan tatbiq qilinadi. Lekin ushbu qarash mazkur masalani to'g'ri tadqiq qilish imkoniyatini cheklaydi. Shu bois avvalo rashk motivi vujudga kelishi mumkin bo'lgan holatlarni aniqlash lozim.

Bunda ikki vaziyatga alohida e'tibor qaratmoqchimiz. Birinchidan, bizningcha, rashk nafaqat er-xotin, balki kengroq doiradagi insonlar o'rtasidagi munosabatlarga ham tegishli tushunchadir. Rashk hissi ota-ona va farzandlar yoki boshqa qarindoshlar yoxud unashtirilgan yigit va qiz yoki bir-birini sevganlar o'rtasida ham vujudga kelishi mumkin.

Ikkinchidan, rashk haqida fikr yuritayotgan olimlar ushbu tushunchani xiyonat yoki bevafoqlik bilan bog'lashga urinadilar. Lekin er-xotin o'rtasidagi bevafoqlik nafaqat xiyonat, balki boshqa bir shaxs bilan quchoqlashish

yoki unga sevgi izhor qilish orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Uchinchidan, rashkni vujudga keltiruvchi juda ko'p holatlar mavjudligini ham inobatga olish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, qilmishni JKning 98-moddasi bilan kvalifikatsiya qilishda rashk tufayli vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatini to'satdan va keskin yuz berganligiga e'tibor qaratish muhimdir.

Affekt holatini vujudga keltiruvchi sabab sifatida kutilmaganda er yoki xotinning xiyonat ustida tutib olinishi natijasida to'satdan yuz bergan rashk kuchli ruhiy hayajonlanish tufayli ikki hissa namoyon bo'lishi mumkinligi deyarli barcha yuridik adabiyotlar va amaliyotda ham tan olingan.

Lekin ko'pchilik olimlar, agar bevafoqlik holati ancha vaqt ilgari aniqlangan taqdirda, vaziyat to'satdan yuz bergan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida ro'y bergan, deb hisoblash fikrini qo'llab-quvvatlamaydi. "Rashk tufayli sodir etilgan jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi ziddiyatlar mexanizmi bir xil emas. Ana shunday ziddiyatda yorqin namoyon bo'lgan kriminogen omillar shaxs ma'naviyatining shakllanishi va ayrim shaxslarning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi" [6, 14–15-b.], – deb ta'kidlaydi O.G'. Zokirova.

Y.A. Mavrenkovaning fikricha, "agar rashk motivi uzoq vaqtlardan buyon shakllanib kelgan taqdirda, rashk tufayli odam o'ldirish holatini affekt holatida sodir etilgan, deb hisoblash mumkin emas" [7, 51–57-b.].

Rashk tufayli er yoki xotin xiyonat ustida ushlanganda, yuzaga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish natijasida jinoyat sodir etilgan, ushbu qilmish JKning 98-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi zarurmi, degan savolga respondentlarning 66 %i oqibatiga qarab JKning 98-moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilishi lozim, deb javob bergan bo'lsa, 34 %i ushbu moddalar bilan kvalifikatsiya qilmaslik zarur, ushbu jinoyatni sodir etgan shaxslarga nisbatan JKning

97- yoki 104-moddalari bilan jinoyat ishi qo'zg'atish lozim, deb munosabat bildirgan (mazkur anketa so'rovi Toshkent davlat yuridik universiteti tomonidan 2022-yil 25-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Ichki ishlar vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga yuborilgan 7-01/5568-15-01-son xatiga elektron platformada o'tkazilgan va tahlil qilingan).

Bu vaziyatda "rashkni jinoyat uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi holat deb hisoblash uchun rashk motivi to'satdan kuchli ruhiy zo'riqish oqibatida vujudga kelgan bo'lishi lozim" [8, 15-b.].

Psixologiyaga oid fikrlarga ko'ra, jinoyat sodir etishdan oldin uzoq muddat yuz bergan ruhiy buzilish holati inson ruhiy holatini buzish va shu orqali affektning vujudga kelishiga yordam beradi. "Agar salbiy qo'zg'atuvchi inson ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatib kelayotgan taqdirda, affektiv portlash oson ro'y beradi" [9, 230-b.].

Shu bois affekt holatini vujudga keltiruvchi va javobgarlikni yengillashtiruvchi asoslardan biri sifatida shaxsga qarshi uzoq muddat sodir etilgan g'ayriqonuniy harakatlarning natijasida yuz bergan ruhiy buzilish holatining kiritilganligi huquqiy jihatdan asoslidir.

Bu fikr, o'z navbatida, affektning "to'satdan yuz berish" belgisining har bir holatda mavjud bo'lishini inkor qiladi va bahs-munozalarga sabab ham bo'lishi mumkin. Kuchli ruhiy hayajonlanish holatini aniqlashda bu kabi jabrlanuvchi tomonidan uzoq muddat qilingan g'ayriqonuniy harakatlarning natijasida ruhiy holat buzilishi oqibatida affektning vujudga kelishi qonun chiqaruvchi tomonidan jinoyat qonuni darajasida mustahkamlanmagan.

Qonun chiqaruvchi JKning 98-, 106-moddalarida jinoyat obyektiv tomonining zaruriy belgisi sifatida affektning muayyan vaziyatda jabrlanuvchining g'ayriqonuniy harakatlari natijasida "to'satdan yuz berganligi"ni zaruriy belgi sifatida ko'rsatgan. Shu bois har bir

kuchli ruhiy hayajonlanish (affekt) holatida sodir etilgan jinoyatlarda “to’satdan yuz berganlik” belgisi bo’lishi shart.

Quyidagi misol yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi. Qashqadaryo viloyati Qarshi tuman sudi hukmi bilan S. to’satdan vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida xotini-ning boshiga qasddan og’ir to’mtoq buyum bilan urib o’ldirganlikda ayblanib, jazoga hukm qilingan. Aybdor spirtli ichimliklar ichib olib, “Sen bevafoqlik qilyapsan”, – deb xotinidan gumonsirab, xotini unga shubhalari to’g’ri ekanligi va o’ynashi borligini tasdiqlaganidan so’ng oldida turgan og’ir to’mtoq narsani olib, xotinining boshiga urgan [10].

Demak, “har qanday ongli harakat kabi g’ayriqonuniy harakat ham o’z-o’zidan sodir bo’lmaydi. Bunday harakatgacha subyektning ruhiy faoliyati bir qator bosqichlarni bosib o’tadi. Bu bosqichlar harakat yo’nalishi va u ning amaldagi ijrosini shakllantiradi. Jinoyatning sodir etilishidan oldin paydo bo’ladigan g’ayriqonuniy harakatga doir qaror qabul qilinishiga turtki beruvchi, shunga yo’naltiruvchi va ijrosini nazorat qiluvchi ruhiy hodisalar, jarayonlar jinoiy xulqning ruhiy mexanizmini tashkil etadi. Mazkur ruhiy mexanizm ruhiy ehtiyoj, manfaatdorlik, his-hayajon, sabab, maqsad va hokazolar bilan bevosita bog’liq bo’lgan elementlardan iborat” [11, 50–52-b.].

JKning 97-moddasi 1-qismi bilan jinoyat ishi ochilib, keyinchalik sud tomonidan ushbu jinoyat qayta kvalifikatsiya qilinishi natijasida shaxsga JKning 98-moddasi bilan jazo tayinlanishiga oid qiziq amaliyot bilan tanishib o’tsak.

2017-yilning yanvar oyida Toshkent shahar jinoyat ishlari bo’yicha Chilonzor tuman sudida I.ga nisbatan O’zbekiston Respublikasi JKning 97-moddasi 1-qismi bilan qo’zg’atilgan jinoyat ishi ko’rib chiqilgan. Tergov vaqtida sud psixiatrik-psixologik ekspertizasining xulosasiga ko’ra, I. jinoyat sodir etgan vaqtida fiziologik affekt

holatida bo’lmagan, degan xulosaga kelingan. Natijada ushbu ish JKning 97-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilingan.

Sud muhokamasi davrida O’zbekiston psixologlar assotsiatsiyasi tomonidan o’tkazilgan komission tartibdagi eksperimental-psixologik ekspertiza xulosasiga ko’ra, voqea sodir bo’lgan paytdagi stressogen holat S.ni kuchli ruhiy hayajonlanishga olib kelganligi, jinoyat sodir etish vaqtida u “kumulyativ-portlash” dinamikasida, psixologik jihatdan motivatsiyasi avvaldan rejalashtirilmagan, turmush o’rtog’i I.ning unga va emizikli farzandiga nisbatan real tahdidi natijasida yuzaga kelganligi, bu fiziologik affekt holati uch fazada davom etganligi ko’rsatilgan [12].

Mazkur hukmda ushbu jinoyat kelib chiqishining kriminologik jihatlariga batafsil ochib berilgan, jinoyatchi shaxsi va uni mazkur qilmishni sodir etishga turtki bo’lgan real hayotiy vaziyatlar ko’rsatib o’tilgan, bundan tashqari, jabrlanuvchining kriminologik xaritasi aniq ko’rsatilgan [13].

Biroq hukmda ayrim masalalar to’liq ochib berilmaganligini aytib o’tish o’rinli. Ish holatlarida S. I.ning qo’lidagi pichoqni qanday olib qo’yganligi va I.ga tan jarohati yetkazganligi ko’rsatilmagan. Ushbu holat mavhum qolgan. Shuningdek, sud muhokamasida ekspert D. tomonidan dastlab o’tkazilgan psixologik ekspertiza berish davrida ish holatlarini yetarlicha bilmaganligi tufayli noto’g’ri xulosa berilganligi tergov yoki sud ekspertiza organlarining bu ishga professional yondashmaganligidan dalolat beradi. Mazkur ishda fiziologik affekt, emotsional zo’riqish kabi maxsus tushunchalar asosida uni asoslashga harakat qilinganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Qasddan odam o’ldirishni boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli bo’lgan usulda sodir etilgan, deb kvalifikatsiya qilish uchun aybdor o’z ijtimoiy xavfli qilmishi bilan bosh-

qa shaxslarning hayoti yoki sog'lig'i uchun ham xavf tug'dirayotganligini anglab yetishi lozim. Shunday holat ham bo'lishi ehtimoli borki, affekt holatida aybdor o'z ijtimoiy xavfli qilmishi bilan nafaqat affekt vujudga kelishiga sababchi bo'lgan jabrlanuvchi, balki atrofdagi shaxslarning hayoti yoki sog'lig'iga ham zarar yetkazishi mumkin. Bunday holatlarda qilmishni nafaqat JKning 98-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish mumkin, balki JKning 106-moddasi bilan ham tavsiflashga imkoniyat bor. Bu o'rinda jinoyat natijasida yetkazilgan zararga qarab JK Maxsus qismi-ning u yoki bu moddasi bilan qilmishni kvalifikatsiya qilish mumkin.

Lekin masalani bu tarzda hal qilishga amaldagi JKning 98-, 106-moddalari tahriri yo'l qo'ymaydi. Sababi, mazkur moddalarda affekt holatida boshqa shaxslarning hayoti uchun xavfli bo'lgan usulda jinoyat sodir etganlik ikki yoki undan ortiq shaxsga zarar yetkazganlik uchun javobgarlik belgilanmagan. Demak, bu kabi qilmishlarni JKning 97-moddasi 2-qismi "d" bandi bilan kvalifikatsiya qiladigan bo'lsak, jinoyatga tavsif berishda aybdorning ruhiy holatini JKning 55-moddasi "d" bandiga binoan inobatga olish lozim.

Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirish va kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish turli normalarda ifodalangan bo'lsa-da, ular o'rtasida o'xshashliklar mavjud bo'lib, bu jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar uning g'ayriqonuniy zo'rlik ishlatib sodir etadigan tajovuziga nisbatan javob reaksiyasi tariqasida yuzaga kelgan vaziyatda ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, jabrlanuvchi tomonidan sodir etilgan g'ayriqonuniy zo'rlik affekt holatida qasddan odam o'ldirish yoki sog'liqqa turli darajada zarar yetkazishning eng ko'p sabablaridan biri sanaladi.

Shu bilan birga, ushbu g'ayriqonuniy zo'rlik zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirishning zaruriy

belgilaridan biri sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu bois aybdorning javob reaksiyasi vujudga kelish maqsadlarini aniqlash uchun ushbu g'ayriqonuniy zo'rlikni chuqur o'rganish va unga huquqiy baho berish lozim.

Zo'rlik harakatlarini affekt holati va zaruriy mudofaani vujudga keltiruvchi omillardan biri sifatida e'tirof etish uchun avvalo qaysi holatlarda jabrlanuvchining zo'rlik harakatlari affektni vujudga keltiruvchi omil sifatida va qanday holatlarda bu zo'rlik zaruriy mudofaani vujudga keltiruvchi omil bo'lib xizmat qilishini aniqlash zarur. Affekt holatidagi zo'rlik harakatlari zaruriy mudofaada nazarda tutilgan zo'rlik harakatlaridan o'zining aybdorga ko'rsatuvchi darajasi va vujudga kelish intensivligiga ko'ra tubdan farq qiladi.

Agar affekt holati bilan bog'liq jinoyatlarda jabrlanuvchi aybdorning sha'ni, qadr-qimmatini yerga urishga urinsa, unga zarba berish orqali uni sharmanda qilishga harakat qilsa, zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqqan holda sodir etiladigan jinoyatlarda esa jabrlanuvchining zo'rligi o'zining intensivligi va xususiyatiga ko'ra hujum qilish sifatida baholanadi [15, 528-b.].

Masalan, R.S. Yusupovning fikricha, "zaruriy mudofaani vujudga keltiruvchi asos sifatida ijtimoiy munosabatlarga darhol zarar yetkazuvchi qasddan sodir etilgan jinoiy yoki ma'muriy huquqbuzarlik namoyon bo'ladi. Affekt holatini esa deyarli barcha qasddan sodir etilgan jinoyatlar vujudga keltirishi mumkin. Shu bilan birga, ko'pincha affekt jabrlanuvchining axloqqa zid xulq-atvori (masalan, oilaviy xiyonat) natijasida ham vujudga keladi" [16, 51–54-b.].

Ushbu fikrlardan ko'rinib turibdiki, jabrlanuvchi tomonidan sodir etilgan, lekin o'zida hujum harakatlarini ifodalamaydigan g'ayriqonuniy zo'rlik harakatlari zaruriy mudofaa huquqini inkor qiladi, lekin ushbu holat aybdorda affekt holatining vujudga kelishiga xizmat qilishi mumkin.

Hujum harakatlariga nisbatan aybdorning reaksiyasi ushbu ikki jinoyat tarkibini bir-biridan ajratishga ham xizmat qilishi mumkin. Lekin bu har doim ham muhim mezon sifatida e'tirof etilavermaydi. JKning 100-, 105-moddalarida nazarda tutilgan zaruriy mudofaa holati jabrlanuvchi hujumining davomiyligi bilan bog'liq bo'lib, hujum tugallangan, deb topilgan vaqtdan boshlab sodir etilgan mudofaa harakatlari zaruriy chegaradan chiqish hisoblanadi. Affekt holatida sodir etiladigan jinoyatlarda esa jabrlanuvchi harakatlari davomiyligi ahamiyat kasb etmaydi. Bu harakatlar affekt holati vujudga kelishiga yetarli bo'lsa bas. JKning 98-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar tajovuz vaqtida yoki u tamom bo'lgandan so'ng ham sodir etilishi mumkin. Shu bois ushbu jinoyatlarning subyektiv tomonining zaruriy belgisi affekt holati sanaladi va uni isbot etish talab qilinadi.

Ko'pchilik holatlarda mazkur jinoyatlarni bir-biridan farqlashda har doim ham har ikki jinoyatlarni ajratuvchi belgilarga e'tibor qaratilmaydi. Buning asosiy sababi har ikki jinoyatga tegishli bo'lgan bir qator umumiy belgilarning mavjudligidir.

“Ushbu umumiylikni jinoyat obyekti, zo'rlik ishlatishga qaratilgan harakatlar, ayb shakli va jinoyat subyektida kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari, jinoyat sodir etish sharoiti va uni vujudga keltiruvchi sabab, ya'ni jabrlanuvchi tomonidan sodir etiladigan g'ayriqonuniy harakatlarda ham ma'lum bir o'xshashliklar mavjud” [17, 55-b.].

Bu kabi jinoyat sodir etishdagi o'xshashliklar ushbu jinoyatlarni amaliyotda farqlashda turli tushunmovchiliklar keltirib chiqarishi mumkin.

Shu bilan birga, affekt va zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish o'zida baholovchi tushunchalarni qamrab olgan bo'lib, sud tomonidan aybdor harakatlari o'zida kuchli ruhiy hayajonlanish holatini (JKning 98-moddasi) qamrab olganmi

yoki zaruriy mudofaa chegarasidan chiqish belgilari (JKning 100-, 107-moddalari) mavjudmi, degan savollarga javob topilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining ayrim qarorlarida kuchli ruhiy hayajonlanish holatida va zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib qasddan odam o'ldirish yoki badanga tan jarohati yetkazish jinoyatlarini bir-biridan farqlash hamda ularni kvalifikatsiya qilishga oid tushuntirishlar tahliliga o'tsak.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining “Ijtimoiy xavfli tajovuzlardan zaruriy mudofaa huquqini ta'minlovchi qonunlarning sudlar tomonidan qo'llanishi haqida”gi qarorining 6-bandida keltirib o'tilganidek, “tajovuz tufayli vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida himoyalalanuvchi hamma vaqt ham yuz bergan xavfning xarakterini aniq anglab olmasligi va himoyaning tajovuzga nisbatan muvofiq usulini tanlolmasligini sudlar e'tiborda tutishlari kerak. Agar tajovuz qiluvchiga himoyalalanuvchi tomonidan yetkazilgan zarar tajovuz qiluvchining yetkazgan zararidan ko'p bo'lsa va tajovuz oqibatida yetkazilgan zararni to'la qoplasa hamda himoyalalanish tajovuzning xakteri va xavflilik darajasiga nisbatan butunlay nomuvofiq bo'lishiga yo'l qo'yilmagan bo'lsa, bunday holda himoyalalanuvchining harakatlarini zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib sodir etilgan deb hisoblash mumkin emas” [18, 76–77-b.].

Mazkur tushuntirishdan kelib chiqib aytish mumkinki, agar aybdor tajovuz tufayli vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida himoyalalanuvchi hamma vaqt ham yuz bergan xavfning xarakterini aniq anglamas va himoyaning tajovuzga nisbatan muvofiq usulini tanlay olmas ekan, bu kabi qilmishlarda jinoyat tarkibi ham mavjud bo'lmaydi.

Ushbu qarorning 8-bandida “Sudlar zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib sodir etil-

gan qasddan odam o'ldirish, qasddan og'ir yoki o'rtacha og'ir tan jarohati yetkazish jinoyatlarini kuchli hayajonlanish holatida yuz bergan odam o'ldirish, og'ir yoki o'rtacha og'ir tan jarohatlari yetkazish jinoyatlaridan farq qila bilishlari lozim. Bu yerda shuni nazarda tutish kerakki, kuchli ruhiy hayajonlanish oqibatida sodir etilgan jinoyatlarda jabrlanuvchiga zarar yetkazish himoyalaniş maqsadida bo'lmaydi, demak, zaruriy mudofaa holatida ham yuz bermaydi. Bundan tashqari, jabrlanuvchining xatti-harakatlari tufayli to'satdan yuz bergan ruhiy hayajonlanish jinoyatlari (JK 98-, 106-moddalari) xuddi shunday hayajonlanish ta'siri ostida vujudga keladi. Zaruriy mudofaa chegarasidan chiqib sodir etilgan jinoyatlar uchun esa bunday belgining bo'lishi shart emas.

Agar himoyalalanuvchi to'satdan yuz bergan kuchli ruhiy hayajonlanish oqibatida zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqsa, ayblanuvchining harakati JKning 100- yoki 107-moddalari bilan tavsiflanishi kerak" deyilgan.

Xulosalar

Bu tushuntirishdan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1) kuchli ruhiy hayajonlanish oqibatida sodir etilgan jinoyatlarda jabrlanuvchiga zarar yetkazish himoyalaniş maqsadida sodir etilmaydi, bu, o'z navbatida, qilmishning zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqish deb baholanishini istisno qiladi. Demak, jinoyatning maqsadi JKning 98- va 100-moddalarida nazarda tutilgan qilmishlarni farqlashga xizmat qiladi;

2) agar JKning 98- va 100-moddalari o'rtasida normalar raqobati yuzaga kelgan taqdirda ayblanuvchining harakati JKning 100-moddasi bilan tavsiflanishi kerak. Lekin bu tushuntirish boshqa muqobil xulosalarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Xususan, agar jinoyat kuchli ruhiy hayajonlanish ho-

latida sodir etila boshlansa va o'zida zaruriy mudofaa holati belgilarini ham ifodalasa, qilmishni JKning 98-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish qonun normasida to'g'ridan to'g'ri taqiqlanmaydi.

Bundan tashqari, *birinchidan*, O'zbekiston Respublikasi JKda kuchli ruhiy hayajonlanish holati faqat psixologik tushuncha sifatida nazarda tutilgan bo'lib, u mohiyatiga ko'ra, bir vaqtning o'zida psixologik, jinoyat-huquqiy, psixologik ekspertiza sohalariga tegishli huquqiy tushuncha degan ilmiy-nazariy xulosaga kelindi.

Ikkinchidan, o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida kuchli ruhiy hayajonlanish (affekt) holatida qasddan sodir etilgan jinoyatlar deganda jabrlanuvchining g'ayriqonuniy zo'rligi yoki og'ir haqorati yoxud uning boshqa g'ayriqonuniy harakatlari, shuningdek, jabrlanuvchining muntazam ravishda sodir etgan g'ayriqonuniy harakatlari natijasida ruhiy buzilishlar tufayli to'satdan yuz bergan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida shaxsni hayotdan mahrum qiluvchi yoki uning sog'lig'iga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazuvchi fiziologik affekt holatida qasddan sodir etiladigan jinoyatlar tushuniladi, degan mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi JKda affekt tushunchasi keltirilmagan, lekin ilmiy adabiyotlarda affekt holati kuchli ruhiy hayajonlanish holatining sinonimi sifatida e'tirof etilganligi bois ushbu tushunchalarning o'zaro qiyosiy tahlili aynan fiziologik affekt shakli jinoyat qonunida belgilangan jazoni yengillashtiruvchi holatlarda sodir etilgan, deb inobatga olishning yagona asosi sifatida e'tirof etilishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu bois jinoyat qonunida "kuchli ruhiy hayajonlanish (fiziologik affekt) holati" atamasidan foydalanish maqsadga muvofiq, degan taklif ilgari surildi.

REFERENCES

1. Dybenko V. B. Prestupleniya, sovershenny v sostoyanii affekta: problemy kvalifikatsii [Crimes committed in a state of passion: problems of qualification]. *Law. Society. State*, 2021, pp. 14–19.
2. Drozdova D. Yu. Osobennosti rassledovaniya prestupleniy, sovershennykh v sostoyanii affekta [Features of the investigation of crimes committed in a state of passion]. *Proceedings of the scientific-practical conference of students of Kurgan State University*, 2021, pp. 13–14.
3. Klimov S.N., Tsarov K.A. Sostoyaniye affekta kak kategoriya ugovnogo prava: analiz teorii i praktiki [The state of affect as a category of criminal law: an analysis of theory and practice]. *Bulletin of the Penza State University*, 2022, no. 3 (39), pp. 85–89.
4. Muzychenko P.B., Voznesenskaya A.I. Problemy kvalifikatsii prestupleniy, sovershennykh v sostoyanii affekta [Problems of qualification of crimes committed in a state of passion]. *Modern Problems of Criminal Law and Process*, 2019, pp. 93–96.
5. Zokirova O. Rashk jinoyatga boshlashi mumkinmi? [Can jealousy lead to crime?]. *Life and Law*, 2003, no. 1, pp. 27–29.
6. Zokirova O.G'. Rashk motivi bilan sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurash muammolari [Problems of combating crimes motivated by jealousy]. Tashkent, TSIL, 2004, 202 p.
7. Mavrenkova Ye. A. Otgranicheniye prestupleniy, sovershennykh v sostoyanii affekta ot smezhnykh prestupleniy [Separation of crimes committed in a state of passion from related crimes]. *Actual Problems of Economics, Management and Law*, 2020, pp. 84–90.
8. Stepanova I.B. Revnost': ugovno-pravovoy i kriminologicheskiy aspekty [Jealousy: criminal law and criminological aspects]. Ivanovo, IvGU Publ., 1998, p. 15.
9. Luriya A.R. Diagnostika sledov affekta [Diagnostics of traces of affect // Psychology of emotions]. Moscow, Smysl Publ., 1984, p. 230.
10. 2002 from the archives of the Karshi district court of Kashkadarya region. Materials of criminal case, no. 2-135.
11. Zokirova O. Rashk nega g'ayriqonuniy? [Why jealousy is illegal?]. *Life and Law*, 2001, no. 4, pp. 50–52.
12. Judicial practice materials were obtained and analyzed on the basis of letter No. 07/14-9432-254 dated July 26, 2022 of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan.
13. Niyozova S.S. Strong Emotional Arousal (Effect) As A Criminal Law Norm. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2021, March 31, pp. 96–102. ISSN 2693-0803. DOI: 10.37547/tajpslc/Volume 03Issuep.03-15.
14. Niyozova S.S. Prevention of Crime in the Family and the Role of Victimology in the Republic of Uzbekistan. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 2020, vol. 29, no. 3, p. 3962.
15. Niyozova S.S. Reasons for Suicide and the Issue of Responsibility. *International Journal of Pharmaceutical Research*, Dec 2020, vol. 12, Sup. Iss. 3, p. 528.
16. Yusupov R.S. Sootnosheniye affekta i prevysheniya predelov neobkhodimoy oborony [The ratio of affect and exceeding the limits of necessary defense]. *Russian Justice*, 2001, no. 1, pp. 51–54.
17. Fargiyev I. Sostoyaniye affekta i prevysheniye predelov neobkhodimoy oborony [The state of affect and exceeding the limits of necessary defense]. *Russian Justice*, 2001, no. 1, p. 55.
18. Collection of decisions of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. 1991-2006. 2nd ed. Tashkent, Adolat Publ., 2006, vol. 2, pp. 76–77.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.4./QF0I3219>
UDC: 343.236.13(045)(575.1)

QILMISHNI JINOYATGA SUIQASD SIFATIDA KVALIFIKATSIYA QILISH VA O'XSHASH TARKIBLI JINOYATLARDAN FARQLASH MASALALARI

Kamalova Dildora Gayratovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoiy odil sudlov fakulteti dekani,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0000-0001-6747-8883
e-mail: d.kamalova@tsul.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada suiqasdning o'ziga xos turi – “xayoliy suiqasd”ning belgilari va uni kvalifikatsiya qilish masalalari tahlil qilingan. Muallif tomonidan “xayoliy suiqasd” tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan. Shaxsning jinoiy qasdi og'irlashtiruvchi (kvalifikatsiyalovchi) tarkibda nazarda tutilgan oqibatlar yuz berishiga qaratilgan. Biroq qilmishda og'irlashtiruvchi tarkib belgilari mavjud bo'lmasdan, asosiy jinoyat tarkibining oqibatlari yuz bergan jinoyatlar “xayoliy suiqasd” sifatida tushunilishi bayon etilgan. Muallif tomonidan mazkur turdagi jinoyatlarning belgilari, o'ziga xos xususiyatlari va ularni kvalifikatsiya qilish masalasi jinoyat huquqi nazariyasi va sud amaliyoti materiallari asosida o'rganilgan. Jumladan, ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan o'ldirishga suiqasd, homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolni qasddan o'ldirishga suiqasdni kvalifikatsiya qilishda yagona yondashuv shakllanmaganligi atroflicha tadqiq qilinib, mazkur turdagi qilmishlarni baholashda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan jihatlar yoritilgan. Shuningdek, ayrim o'xshash tarkibli jinoyatlar, xususan, o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish (JKning 112-moddasi), qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (JKning 104-moddasi)ning qasddan odam o'ldirishga suiqasd (JKning 25-, 97-moddalari)dan farqli jihatlari va kvalifikatsiya qilish qoidalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: jinoyatga suiqasd qilish, “xayoliy suiqasd”, qasddan odam o'ldirishga suiqasd, o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish, ikki yoki undan ortiq shaxsni o'ldirishga suiqasd, homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolni o'ldirishga suiqasd, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish.

ВОПРОСЫ КВАЛИФИКАЦИИ ПОКУШЕНИЯ НА ПРЕСТУПЛЕНИЕ КАК ДЕЯНИЯ И ЕГО ДИФФЕРЕНЦИАЦИИ ОТ ПРЕСТУПЛЕНИЙ АНАЛОГИЧНОГО СОДЕРЖАНИЯ

Камалова Дилдора Гайратовна,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
декан факультета уголовного правосудия
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье анализируются признаки конкретного вида покушения – негодного покушения и вопросы его квалификации. Автор разработал авторское определение понятия «негодное покушение». Уголовное преследование лица направлено на возникновение последствий, предусмотренныхотягчающим (квалифицирующим) составом. Однако оговаривается, что при отсутствии признаков отягчающего состава в деянии преступления, в которых наступили последствия основного состава преступления, оно понимается как негодное покушение. Вопрос о признаках, специфике и квалификации данного вида преступлений

исследован автором на основе материалов теории уголовного права и судебной практики. В частности, было детально исследовано, что не сформировался единый подход к квалификации покушения на умышленное убийство двух и более лиц, покушение на умышленное убийство женщины, беременность которой была очевидна виновному, и что необходимо учитывать при оценке данного вида деяний. А также приведены отличия и правила квалификации некоторых аналогичных покушению на умышленное убийство (ст. 25, 97 УК) преступлений, в частности запугивание убийством или применением насилия (ст. 112 УК), умышленное причинение тяжких телесных повреждений (ст. 104 УК).

Ключевые слова: преступление убийство, негодное покушение, покушение на умышленное убийство человека, запугивание убийством или применением насилия, покушение на убийство двух или более лиц, покушение на убийство женщины, беременность которой стала очевидной виновнику, умышленное причинение тяжких телесных повреждений.

ISSUES OF CLASSIFICATION OF THE OFFENSE AS A CRIMINAL ASSASSINATION AND DISTINGUISHMENT FROM SIMILAR CRIMES

Kamalova Dildora Gayratovna,

Tashkent State University of Law,

Dean of Faculty Criminal Justice, PhD in Law

Abstract. This article analyzes the signs of a specific type of attempt—an “imaginary attempt” and questions about its qualification. The author developed the author’s definition of the concept of “imaginary attempt”. It is noted that crimes where the criminal intent of a person is aimed at the onset of the consequences provided for by the aggravating (qualifying) composition, however, when the act was committed, the consequences of the main corpus delicti occurred, without signs of an aggravating corpus delicti, should be understood as a “sham attempt”. The author, on the basis of the theory of criminal law and materials of judicial practice, analyzes the signs and features of these types of crimes and questions of their qualifications. In particular, the absence of a unified approach to the qualification of the attempted murder of two or more persons, the attempted murder of a woman who was known to be pregnant, and the circumstances that should be taken into account when assessing these types of acts have been comprehensively studied. It also highlights in detail the distinctive aspects from attempted murder (Art. 25, 97 of the Criminal Code) of some similar crimes, in particular, threats to kill or use violence (Art. 112 of the Criminal Code), intentional infliction of grievous bodily harm (Art. 104 of the Criminal Code), and their qualifications.

Keywords: criminal attempt, attempted murder, threat of killing or of violence, of at least two persons, attempted murder of two or more persons, attempted murder of a woman known to the perpetrator to be pregnant, intentional infliction of serious bodily injury.

Kirish

Jinoyat huquqi nazariyasida suiqasdning o‘ziga xos turi sifatida “fiksiyalangan suiqasd” (“xayoliy suiqasd”) tushunchasi qo‘llanadi. Bunda shaxsning qasdi og‘irlashtiruvchi (kvalifikatsiyalovchi) tarkibda nazarda tutilgan oqibatlar yuz berishiga qaratilgan, biroq og‘irlashtiruvchi tarkib belgilari mavjud bo‘lmagan, asosiy jinoyat tarkibining oqibatlari yuz bergan jinoyatlar “xayoliy suiqasd” sifa-

tida tushuniladi. Bunday turdagi tamom bo‘lgan jinoyatlar aybdorning qasdi bilan qamrab olingan og‘irlashtiruvchi belgili tamom bo‘lmagan jinoyatlar yoki jinoyatlar jami sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Mazkur turdagi jinoyatlar obyektga nisbatan xato bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsga nisbatan xato, jabrlanuvchining xususiyatlariga nisbatan xato va obyektga nisbatan xato bilan bog‘liq bo‘lgan predmetga nisbatan xato qoidalari asosida baholanadi.

Masalan, qasddan odam o'ldirishning "fiksiyalangan suiqaqd" turida aybdorning qasdi JKning 97-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan og'irlashtiruvchi belgilarga qaratilgan bo'lsa-da, sodir etilgan qilmishda mazkur holatlar mavjud bo'lmaydi. Bunga misol tariqasida homilador ayolni o'ldirish niyatida, aslida, homilador bo'lmagan ayolga tajovuz qilish, ikki yoki undan ortiq shaxsni o'ldirishga qasd qilgan shaxsning faqat bitta shaxsni o'ldirishini keltirish mumkin.

Jinoyat huquqi nazariyasida ushbu toifadagi "fiksiyalangan suiqaqd"ni kvalifikatsiya qilish masalada ikki xil yondashuv shakllangan. Birinchi yondashuv tarafdorlari fikriga ko'ra, og'irlashtiruvchi belgilari mavjudligiga nisbatan xato qilishda mazkur belgilar amalda mavjud bo'lmagan hollarda qilmish suiqaqd sifatida baholanadi. Bunda ijtimoiy xavfli oqibat mavjud, biroq og'irlashtiruvchi tarkibda nazarda tutilgan va aybdorning qasdi bilan qamrab olinmagan oqibat mavjud emas. Shuning uchun qilmish suiqaqd sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Ikkinchi yondashuv tarafdorlari fikriga ko'ra esa bunday hollarda qilmish jinoyatlar jami – suiqaqd va tamom bo'lgan jinoyat sifatida baholanishi zarur. Mazkur maqolada shu toifadagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish masalalari tahlil qilinadi.

Material va metodlar

Ushbu ilmiy maqoladagi mavzuni tadqiq etishda analiz va sintez, deduksiya va induksiya, mantiqiylik, jinoyat ishlari kabi tadqiqot usullari qo'llangan.

Mavzu yuzasidan o'zbek olimlaridan M.X. Rustamboyev, M. Usmonaliyev, E.O. Turg'unboyev, S.S. Nayimov; xorijiy olimlardan O. Tolmachev, L.A. Voskobitova, T.A. Plaksin, S.N. Bezugliy, L.I. Spiridonova, A.N. Popov, D.Y. Porotikov, L.Z. Tadevosyan, A.I. Lizlov va boshqalarning ilmiy ishlari tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalari

1. *Homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolni qasddan o'ldirish (JKning 97-moddasi 2-qismi "b" bandi).*

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrda qabul qilingan "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 13-sonli qarorining 7-bandida quyidagicha tushuntirish keltirilgan: *"Agar aybdor yanglish taxmin asosida, aslida, homilador bo'lmagan ayolni homilador, deb qasddan o'ldirgan bo'lsa, basharti uning harakatlarida JKning 97-moddasi 2-qismida ko'rsatib o'tilgan javobgarlikni og'irlashtiruvchi boshqa holatlar mavjud bo'lmasa, qilmish JKning 97-moddasi 1-qismi bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi"*.

Plenum qarorining mazkur tushuntirishiga olimlar yakdil qo'shilmaydi. Xususan, E.Turg'unboyevning fikricha, "Oliy Sud Plenumining bu kabi qilmishni JKning 97-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak, degan tushuntirishi obyektiv ravishda ayblash tamoyiliga asoslangan. Obyektiv ravishda ayblash tamoyilida faktik jihatdan mavjud bo'lgan holat hisobga olinib, qilmish va kelib chiqqan oqibatga qarab kvalifikatsiya qilinadi. Subyektning o'z qilmishiga bo'lgan ruhiy munosabati hisobga olinmaydi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi bo'yicha qilmishni kvalifikatsiya qilish subyektiv ravishda ayblash prinsipidan kelib chiqib, jinoyat sodir etayotgan shaxsning o'z qilmishiga bo'lgan ruhiy munosabati, holatni qanday tasavvur qilganligi ahamiyatga ega. Ushbu jinoyatda aybdor "oddiy odam o'ldirish"ga nisbatan ijtimoiy xavfi yuqoriroq bo'lgan "homilador ayol"ni o'ldirishga qaratilgan harakatlari, garchi JKning 97-moddasi 1-qismida ko'rsatilgan odam o'limi yuz bergan bo'lsa ham, aybdorning o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra oxiriga yetkazilmaganligi uchun JKning 25-moddasi 2-qismi va 97-moddasi 2-qismi "b" bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi" [1].

Fikrimizcha, qilmishni bunday kvalifikatsiya qilish noto'g'ri. Buni quyidagicha asoslashga harakat qilamiz: birinchidan, qilmishni jinoyatlar majmuyi tariqasida kvalifikatsiya qilish sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavf-

lilik darajasini keskin oshiradi. Bu holat jazo tayinlashda jinoyatlarni to'la yoki qisman qo'shish qoidasi qo'llanishiga olib keladi; ikkinchidan, mazkur band bilan kvalifikatsiya qilish uchun jabrlanuvchining homiladorligini aybdor bilgan va ayol faktik jihatdan homilador bo'lishi lozim; uchinchidan, jinoiy javobgarlikning yagona asosi sodir etilgan qilmishda jinoyat tarkibi barcha elementlarining mavjudligi hisoblanadi. Bunday holda jinoyat tarkibining zaruriy elementi – jabrlanuvchi shaxs (homilador ayol) mavjud emas. Demak, homilador ayolning hayoti bilan bog'liq ijtimoiy munosabat yo'q, balki homilador bo'lmagan ayolning hayoti bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilinmoqda. Shu bois sud-tergov amaliyotidagi turlicha talqinlarning oldini olish va yagona yondashuvni shakllantirish maqsadida jinoyat qonunchiligiga tegishli o'zgartirish kiritilishi va JKning 97-moddasi 2-qismi "b" bandini quyidagicha ifodalash maqsadga muvofiq: "b) homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan va faktik jihatdan homilador bo'lgan ayolga nisbatan qasddan odam o'ldirish".

Y. Tursunboyevning fikricha, "homilador ayol qasddan o'ldirilgan bo'lib, aybdor jabrlanuvchining homiladorligini oldindan bilmagan bo'lsa (javobgarlikni og'irlashtiradigan boshqa holatlar mavjud bo'lmasa), aybdorning harakatlari Jinoyat kodeksi-ning 97-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi" [1]. Biz ham muallifning mazkur fikriga qo'shilamiz. Chunki JKning 97-moddasi 2-qismi "b" bandi bilan kvalifikatsiya qilishning zaruriy sharti aybdor shaxs jabrlanuvchining homilador ekanligini bilishi hisoblanadi.

Nazarimizda, bunday holda aybdor shaxs jabrlanuvchining o'ziga xos bo'lgan belgilariga nisbatan xatoga yo'l qo'ymoqda. Qilmishni JKning 97-moddasi 2-qismi "b" bandi bilan kvalifikatsiya qilishning zaruriy sharti aybdor jabrlanuvchining homiladorligini (tashqi belgilar va boshqa faktik ma'lumotlar mavjudligi) bilganligi hisoblanadi. Bun-

day vaziyatda shaxs istagan oqibat – ayolning o'limi yuz berib, faqat o'ldirilgan ayol homilador emas bo'lib chiqmoqda. Fikrimizcha, mazkur Plenum qarorini ifodalashda biroz tushunmovchilik yuzaga kelmoqda. Ya'ni aybdor shaxs jabrlanuvchining nafaqat homilador ekanligini bilishi, balki jabrlanuvchi haqiqatda ham homilador bo'lishi lozim. Chunki mazkur bandda haqiqatda homilador bo'lgan ayolning hayoti bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlar muhofaza qilinmoqda. Shuning uchun Plenum qarorining yettinchi bandi quyidagi tahrirda ifodalanishi maqsadga muvofiq:

"7. Qasddan odam o'ldirish jinoyatini JKning 97-moddasi 2-qismi "b" bandi bilan kvalifikatsiya qilish uchun aybdor jabrlanuvchining homiladorligini (tashqi belgilar va boshqa faktik ma'lumotlar mavjudligi) bilganligi va ayol haqiqatda ham homilador bo'lganligi aniqlangan bo'lishi kerak".

2. Ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan o'ldirish (JKning 97-moddasi 2-qismi "a" bandi).

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi "Qasddan odam o'ldirishga oid sud amaliyoti to'g'risida"gi 13-sonli qarorining 6-bandida quyidagicha tushuntirish berilgan: "Ikki yoki undan ortiq shaxsni o'ldirishga nisbatan qasd mavjud bo'lganda, jabrlanuvchilardan faqat bittasi o'lib, boshqalari aybdorga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra o'lmay qolgan bo'lsa, aybdorning harakatlari JKning 25-moddasi, 97-moddasi 2-qismi "a" bandi va 97-moddasi-ning tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak". Jinoyat huquqi nazariyasida mazkur holatni kvalifikatsiya qilish yuzasidan yagona yondashuv mavjud emas.

Ayrim olimlar tomonidan Plenum qarorining mazkur tushuntirishi to'g'ri ekanligi aytib o'tilgan. Jumladan, E. Turg'unboyev o'z fikrini quyidagicha asoslantirgan: "Ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan o'ldirishni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda aybdorning jinoyat sodir etish paytidagi niyati muhimdir. Ikki yoki undan ortiq shaxsni o'ldirishga nisbatan ayb-

dor yagona niyat bilan harakat qilganda, qilmish va uning natijasida kelib chiqadigan oqibatga nisbatan to'g'ri qasd bo'lib, u ikki yoki undan ortiq o'ldirilgan shaxsni o'ldirayotganligini anglaydi, ikki yoki undan ortiq shaxsni o'ldirishga ko'zi yetadi va ularning o'limini istaydi. Aybdor ikki yoki undan ortiq shaxsni o'ldirishni istagan bo'lsa-da, lekin biri o'lib, qolganlari o'lmasa, uning qasdi qisman amalga oshiriladi. Bunda jinoyat natijasida haqiqatda kelib chiqqan jinoyat-huquqiy oqibat va aybdorning qasdi hisobga olinib, kvalifikatsiya qilinishi lozim" [2].

O. Tolmachevning fikriga ko'ra, bunday hollarda qilmish aybdorning qasdigaga ko'ra jinoyatga suiqasd qilish hamda jinoiy maqsadiga qisman erishilganligidan kelib chiqib, jinoyat tarkibining barcha elementlari mavjud bo'lgan hollarda tugallangan jinoyat tariqasida malakalanishi lozim [3]. Boshqa guruh mualliflarning fikriga ko'ra, Jinoyat kodeksidan ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan o'ldirish bandi chiqarib tashlanishi va qilmish bunday hollarda jinoyatlar majmui sifatida baholanishi lozim [4, 5].

Shuni ta'kidlash kerakki, ikki yoki undan ortiq shaxsni o'ldirish bir necha jabrlanuvchini hayotdan mahrum qilishga qaratilgan yagona qasd bilan sodir etilishi, shuningdek, jinoyat subyekti yagona bo'lgan o'zaro bog'liq ikkita qilmishlar orqali amalga oshirishi mumkin. S.N. Bezugliyning fikriga ko'ra, birinchi holatda o'zaro bir-biri bilan bog'liq ikkita odam o'ldirish jinoyatlari sodir etilgan hollarda Plenum qarorining pozitsiyasi to'g'ri. Aybdorning maqsadi ikkita jabrlanuvchini hayotdan mahrum qilish bo'lganligi tufayli qasdning yo'nalishidan kelib chiqib, suiqasd va faktik yuz bergan oqibatlar asosida jinoyatlar jami deb kvalifikatsiya qilinishi zarur (JKning 97-moddasi 1-qismi yoki 2-qismi va 25-moddasi, 97-moddasi 2-qismi "a" bandi).

Biroq ikkinchi holatda bunday kvalifikatsiya qilish noto'g'ri. Chunki tugallangan jinoyat alohida baholanganligi tufayli uning

qo'shimcha ravishda JKning 97-moddasi 2-qismi "a" bandi bilan malakalanishi ortiqcha. Faqat jinoyat subyektiga ko'ra o'zaro bog'langan ikkita harakat sodir etilgan hollarda qilmishlar jinoyatlar majmui sifatida alohida kvalifikatsiya qilinishi zarur (JKning 97-moddasi 1-qismi yoki 2-qismi va 25-moddasi, 97-moddasi 1-qismi yoki 2-qismi) [6].

G.N. Borzenkov fikriga ko'ra, "qilmishni qasddan odam o'ldirishga suiqasd qilish sifatida kvalifikatsiya qilish uning ijtimoiy xavflilik darajasini kamaytirish, shunga muvofiq, tamom bo'lgan jinoyatlarga nisbatan yengilroq jazo tayinlashga olib keladi. Shuning uchun sud amaliyotida bunday turdagi qilmish jinoyatlar jami tariqasida kvalifikatsiya qilinadi" [7].

Boshqa guruh olimlar fikriga ko'ra, bunday holatda qilmish ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan o'ldirishga suiqasd sifatida kvalifikatsiya qilinishi maqsadga muvofiq. Xususan, L.E. Spiridonovanning fikricha, "bitta shaxs o'ldirilib, ikkinchi shaxsga suiqasd qilingan hollarda jinoiy qasd yagonaligidan kelib chiqib, faktik xato qoidasi asosida qilmish ikki yoki undan ortiq shaxsni o'ldirishga suiqasd deb kvalifikatsiya qilinishi lozim" [8].

S.I. Tishkevichning ta'kidlashiga ko'ra, "ikki yoki undan ortiq shaxslarni o'ldirishga suiqasd qilishning obyektiv tomoni jabrlanuvchilarni hayotdan mahrum etishga qaratilgan qilmishlardan iborat. Shunga muvofiq, mazkur qilmish faqatgina ikki yoki undan ortiq shaxslarni o'ldirishga suiqasd qilish sifatida kvalifikatsiya qilinishi kerak" [9]. Xuddi shu fikrga T.V. Kondrashova, Y. Bocharov va M. Feoktistov [10] ham qo'shiladi. A.N. Popovning fikricha, mazkur toifadagi jinoyatlar ni ikki yoki undan ortiq qasddan odam o'ldirishga suiqasd qilish to'g'ri. Shu bilan birga, Jinoyat kodeksiga tegishli o'zgartirish kiritish va mazkur bandni "ikki yoki undan ortiq shaxslarning hayotiga tajovuz qilish" atamasi bilan o'zgartirish maqsadga muvofiq [11].

Nazarimizda, mazkur bandda nafaqat ikki yoki undan ortiq shaxslarning hayotiga

suiqasd qilish, balki tamom bo'lgan jinoyat nazarda tutilgani uchun atamani o'zgartirish to'g'ri emas. Shuningdek, "tajovuz" so'zi oxiriga yetkazilmagan, boshlang'ich harakat sodir etilgan, biroq yakunlamaganlik ma'nosini anglatadi. Shunga muvofiq, agar ikki yoki undan ortiq shaxslarning o'limi yuz bergan taqdirda, qilmishni mazkur band bo'yicha kvalifikatsiya qilish noto'g'ri bo'ladi. Shu bois mazkur bandni "tajovuz qilish" atamasi bilan o'zgartirish maqsadga muvofiq emas.

D.Y. Porotikovning fikricha, mazkur toifadagi jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ikki xil mezonga asoslanish lozim: obyektiv (sodir etilgan qilmishda jinoyat tarkibi belgilarining mavjudligi) va subyektiv (aybdor qasdining yo'naltirilganligi va uning to'liq amalga oshirilganligi). Mazkur mezon tamom bo'lgan va tamom bo'lmagan jinoyatni farqlash uchun tamom bo'lgan jinoyat tushunchasida ifodalanishi zarur [12]. Shuning uchun tamom bo'lgan jinoyat tushunchasini ifodalashda subyektiv mezondan kelib chiqish va uni quyidagicha ta'riflash taklif etiladi: "Agar sodir etilgan qilmishda shaxsning qasdi qaratilgan jinoyat tarkibi belgilari mavjud bo'lsa, qilmish tamom bo'lgan jinoyat deyiladi" [12].

I.N. Aleksyevning fikricha, qilmishni jinoyatlar jami tariqasida kvalifikatsiya qilishda quyidagi qarama-qarshilik yuzaga keladi, ya'ni aybdor shaxs bitta jinoyatni sodir etishni o'ylagan va amalga oshirgan taqdirda qilmish jinoyatlar jami tariqasida kvalifikatsiya qilinmoqda. Mazkur muammo kompleks xususiyatga ega bo'lib, jinoyat qonunining qator normalari bilan bog'liq, xususan, jinoyat huquqining prinsiplari, jinoyatlar jami, tamom bo'lmagan jinoyatlar va jazo tayinlash.

Ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan o'ldirish yagona jinoiy qilmish bo'lib, takroran jinoyat sodir etishdan farq qiladi. Yagona jinoiy qilmish uchun jinoyatlar jami tariqasida jazo tayinlashga yo'l qo'ymaslik lozim. Shuning uchun sodir etilgan qilmishni sui-qasd sifatida kvalifikatsiya qilish maqsadga

muvofiq emas, negaki bu sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini kamaytiradi va aybdorning javobgarligini yengillashtiradi. Shu bois Oliy sud Plenumi qarorida yuqorida berilgan tushuntirish keltirilgan.

Biroq shu o'rinda boshqa bir muammo yuzaga kelmoqda. JKning 59-moddasiga muvofiq, jinoyatlar jami tariqasida jazo tayinlashda jinoiy jazolarni qisman yoki to'la qo'shish qoidasi qo'llanib, ozodlikdan mahrum qilishning muddati 25 yildan ortiq bo'lishi mumkin emas. Mazkur holat aybdor-da sodir etilgan qilmishini oxirigacha yetkazish istagini yuzaga keltirishi mumkin. Chunki bunday holda qilmish yagona jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Shuning uchun mazkur Oliy Sud Plenumi qarorini quyidagi tahrirda bayon etish taklif qilingan: "Agar aybdor ikkita shaxsni o'ldirishga qasd qilgan va qasdi amalga oshirilishi natijasida birinchi jabrlanuvchining o'limi yuz bergan, ikkinchi jabrlanuvchining o'limi aybdorga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra yuz bermagan hollarda, qilmish qasddan odam o'ldirish va ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan odam o'ldirish sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim" [13].

Plenum qarorining 6-bandida ikkita mezon asos qilib olingan: formal (qasdning yagonaligi) va faktik (jinoiy qilmishlarning bir vaqtda sodir etilishi). Jinoyat huquqi nuqtayi nazaridan faqat qasdning yagonaligi yuridik ahamiyatga ega, ikki yoki undan ortiq shaxslarning o'limi bir vaqtda amalga oshirilganligi muhim emas. Birinchi va ikkinchi o'lim o'rtasidagi oraliq vaqt ahamiyat kasb etmaydi. Yagona qasd bilan qamrab olingan davomli jinoyat uchun javobgarlikka tortish muddatlarining o'tishi jinoiy qasd amalga oshirilgan vaqtdan boshlanadi. Shuning uchun ham qarorda "odatda" degan jumla qo'llangan.

Tadqiqot natijalari tahlili

3. *Qasddan odam o'ldirishga suiqasdning (JKning 25- va 97-moddalari) o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitishdan farqli jihatlari.*

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunchiligida o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitganlik uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. Mazkur jinoyatning tuzilishi o'ziga xos bo'lib, jinoyatning zaruriy elementi aybdor shaxs tomonidan o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish niyatini jabrlanuvchiga yetkazish hisoblanadi. Qo'rqitish real, yaqin vaqt ichida amalga oshirilishi muqarrar, muayyan shaxsga qaratilgan va xavfsirash uchun yetarli asoslar bilan mustahkamlangan bo'lishi zarur. O'ldirish bilan qo'rqitish odam o'ldirishdan farq qilib, bunda jabrlanuvchining o'limi yuz bermay, faqat jabrlanuvchining hayotiga nisbatan tahdid amalga oshiriladi. "Qasddan odam o'ldirish jinoyatidagi qo'rqitish o'ldirish bilan qo'rqitish (o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish) jinoyatidan aybdor jabrlanuvchining hayotiga zarar yetkazishni maqsad qilmaganligi, shaxsning qasdi faqat jabrlanuvchining ruhiy holatiga ta'sir o'tkazishga qaratilganligi bilan farqlanadi" [14].

Mazkur jinoyatlarning farqli jihatlari masalasida quyidagi olimning fikrlarini qayd etish o'rinli.

1. JKning 112-moddasida aybdorning maqsadi jabrlanuvchini qo'rqitish ekanligi qayd etilgan. Shu bilan birga, aybdorda qo'rqitishda ifodalangan xatti-harakatlarni amalga oshirish maqsadi mavjud bo'lmaydi. Shunday maqsad bo'lgan hollarda esa mazkur harakatlar keyinroq amalga oshirilishi mumkin. Odam o'ldirishga suiqtasd qilishda aybdorning maqsadi jabrlanuvchini hayotdan mahrum etish hisoblanadi.

2. O'ldirish bilan qo'rqitishda jabrlanuvchining sog'lig'iga shikast deyarli yetkazilmasligi lozim. Faqat qo'rqitishning realligini ta'minlash maqsadida jabrlanuvchiga ruhiy yoki jismoniy ta'sir ko'rsatilishi va sog'lig'iga yengil darajadagi shikast yetkazilishi mumkin. Odam o'ldirishga suiqtasd qilishda esa jabrlanuvchiga har qanday, hatto og'ir darajadagi shikast yetkaziladi.

3. O'ldirish bilan qo'rqitishda aybdorda qo'rqitishni amalga oshirish va ana shu

maqsadda konkret xatti-harakatlarni bajarishning real imkoniyati mavjud bo'ladi, biroq shunga qaramasdan, ixtiyoriy ravishda mazkur harakatlar sodir etilmaydi. Odam o'ldirishga suiqtasd qilishda esa aybdorning harakati o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra oxirigacha yetkazilmaydi [15].

Darhaqiqat, mazkur jinoyatlarni o'zaro farqlashda aybdor qasdining yo'naltirganligi muhimdir. Odam o'ldirishda qasd jabrlanuvchini hayotdan mahrum qilish, qo'rqitishda esa jabrlanuvchini qo'rqitishga qaratilgan bo'ladi. Qasdning nimaga qaratilganligi subyektiv tomonning elementi bo'lib, sodir etilgan qilmishning obyektiv tomonini tahlili qilish orqali aniqlanadi.

Sog'lig'iga yetkazilgan shikast darajasi, uning mavjudligi obyektiv tomonning elementi hisoblanadi. Biroq mazkur belgilar yagona bo'lmay, to'g'ri qaror qabul qilish uchun yetarli emas. Jabrlanuvchiga yetkazilgan og'ir shikast va imo-ishorada ifodalangan qo'rqitish odatda jabrlanuvchining qasdi odam o'ldirishga qaratilganligini bildiradi va suiqtasd sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Biroq boshqa hollarda (sog'lig'iga yetkazilgan yengil shikast yoki aksincha, shikastning umuman mavjud emasligi) qilmishni o'ldirish bilan qo'rqitish yoki odam o'ldirishga suiqtasd sifatida kvalifikatsiya qilish mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, ayrim hollarda odam o'ldirishga suiqtasd qilish jinoyati tarkibida 112-moddaning belgilari mavjud bo'lishi mumkin, xususan, qasddan odam o'ldirishga suiqtasd qilishdan ixtiyoriy qaytish jinoyatida. Jabrlanuvchini hayotdan mahrum qilishga qaratilgan qator harakatlar sodir etilgan, biroq shaxsning jinoyatni oxirigacha amalga oshirish imkoniyati mavjudligini anglagan holda, uni bajarmagan bo'lsa, qilmish JKning 112-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak. Chunki JKning 26-moddasi 3-qismiga muvofiq, jinoyatni oxiriga yetkazishdan ixtiyoriy qaytgan shaxs, agar amalda sodir etgan qilmishida boshqa jinoyat tarkibining

barcha alomatlari bo'lsa, ushbu Kodeks bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

4. *Qasddan badanga og'ir shikast yetkazishning (JKning 104-moddasi) qasddan odam o'ldirishga suiqaqd qilishdan (JKning 25- va 97-moddalari) farqli jihatlari.*

“Jinoyat tamom bo'lgan ekan (agar shaxsning harakatida boshqa jinoyat tarkibi bo'lmasa), uni amalga oshirish uchun muqaddam qilingan tayyorgarlik ko'rish yoki suiqaqd qilish harakatlarining kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyati qolmaydi” [16]. Ba'zida qilmishda bir vaqtning o'zida bitta tamom bo'lgan jinoyatning va o'z navbatida, boshqa tamom bo'lgan jinoyatning belgilari mavjud bo'lishi, jinoyat sodir etishga suiqaqd qilishga oid norma butun norma hisoblanib, tamom bo'lgan jinoyatga oid normaga nisbatan ustun xarakterga ega bo'lishi mumkin. Masalan, qasddan odam o'ldirishga suiqaqd qilish natijasida badanga og'ir shikast yetkazilgan taqdirda, shaxsning harakatlarida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 97-moddasi va 104-moddalarida ko'rsatilgan jinoyat alomatlari mavjud bo'ladi. Bunday holda, garchi qasddan badanga og'ir shikast yetkazish tamom bo'lgan jinoyat bo'lsa-da, lekin aybdor sodir etgan qilmishning barcha belgilarini qamrab ololmaydi.

Tamom bo'lgan va tamom bo'lmagan suiqaqdni farqlash masalasi, ayniqsa, shaxsning hayoti va sog'lig'iga qarshi qaratilgan jinoyatlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, aybdor shaxs jabrlanuvchini hayotdan mahrum etish maqsadida oshxona pichog'ini uning yurak qismiga uradi va natijada jabrlanuvchiga og'ir tan jarohati yetkaziladi. Jabrlanuvchining tirik qolganligini ko'rib, o'zining jinoiy maqsadini oxirigacha davom ettirish real imkoniyati mavjudligini anglagan holda aybdor shaxs uni davom ettirishdan qaytadi va jinoyat sodir etish joyini tark etadi. Jabrlanuvchi esa tasodifan yuz bergan holat natijasida tirik qoladi.

L.Z. Tadevosyanning fikricha, “sud-tergov amaliyotida mazkur holat shaxsning

sog'lig'iga qasddan og'ir shikast yetkazish sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Qilmishning bu tarzda noto'g'ri kvalifikatsiya qilinishiga aybdor shaxsning jinoyatini oxirigacha yetkazishning real imkoniyatiga ega bo'la turib, undan ixtiyoriy qaytganligi asos sifatida keltiriladi. Bu esa noto'g'ri, chunki asos sifatida real yuzaga kelgan oqibatlar nazarda tutilib, jinoyat tarkibining subyektiv tomoni belgilari ko'lami e'tiborga olinmagan. Mazkur holatda shaxsning qilmishi qasddan odam o'ldirishga suiqaqd sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Chunki aybdor shaxs jabrlanuvchini o'ldirish kabi jinoiy maqsadini amalga oshirish uchun zarur harakatlarni amalga oshirgan, biroq jinoiy maqsadiga erisha olmagan va shundan so'ng takroran jinoiy tajovuzni amalga oshirishdan ixtiyoriy qaytgan” [17].

Biz ham olimning mazkur fikriga qo'shilamiz. Chunki qilmishning subyektiv tomoni obyektiv tomonni tahlil etish asosida o'rganiladi. Shaxsning qilmishi uning jinoiy maqsadidan dalolat beradi. Pichoqni uning yurak qismiga urganligi aybdorning jinoiy maqsadi jabrlanuvchini o'ldirish motividan dalolat beradi. Jabrlanuvchining hali ham tirikligini ko'rib, pichoq bilan yana bir marotaba shikast yetkazmaganligi aybdor jinoiy qilmishini oxirigacha yetkazishdan ixtiyoriy qaytganlikdan emas, balki shu shikast ham uning o'limiga olib kelishi mumkinligini o'ylaganligidan darakdir. Shuning uchun mazkur turdagi qilmishlar suiqaqd sifatida baholanishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2004-yil 24-sentabrdagi “Qasddan odam o'ldirishga oid sud amaliyoti to'g'risida”gi 13-sonli qarorining 4-bandida quyidagicha tushuntirish berilgan: “*Qasddan odam o'ldirish jinoyatini jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lgan qasddan badanga og'ir shikast yetkazish jinoyatidan farqlash uchun aybdorning qasdi nimaga qaratilganligi, uning o'z harakatlari oqibati, ya'ni jabrlanuvchining o'limiga nisbatan subyektiv munosabatini inobatga olish darkor. Aybdorning qasdi nimaga*

qaratilganligi to'g'risidagi masalani hal etishda qilmishning barcha holatlari majmuidan kelib chiqilishi, xususan, jinoyatni sodir etish usuli va quroli, tan jarohatlari soni, xususiyati va o'rni (masalan, odam hayoti uchun muhim a'zolarining jarohatlanganligi), jinoiy harakatlari to'xtashi sabablari, shuningdek, aybdor va jabrlanuvchining jinoyat sodir etilgunga qadar bo'lgan fe'l-atvori, o'zaro munosabatlari, aybdorning jinoyat sodir etilgandan keyingi harakatlari xususiyati e'tiborga olinishi lozim".

Shuni ta'kidlash kerakki, "jinoyatga suiqasd qilish o'limga nisbatan *aniq to'g'ri qasd* bilan sodir etiladi. Agar o'limga nisbatan aybdorning qasdi noaniq yoki egri qasd bo'lsa va o'lim yuz bermagan hollarda, qilmish og'ir, o'rtacha og'ir yoki yengil darajadagi shikast sifatida baholanishi lozim, chunki bunda qilmish faqat faktik yuz bergan oqibatlar asosida kvalifikatsiya qilinadi" [18].

Qonunda to'g'ri va egri qasd tushunchalari ifodalangan bo'lsa-da, amaliyotda jabrlanuvchining o'limiga nisbatan qasd turini aniqlash qiyinchilik tug'diradi. Jinoyat huquqi nazariyasida ularni o'zaro farqlashda quyidagi mezonlar belgilangan: 1) odam hayoti uchun muhim a'zolarining anatomik to'kisligi yoki fiziologik funksiyasining jarohatlashga qaratilganligi; 2) o'lim yuz berishiga qaratilgan jinoyat quroli yoki vositalarining qo'llanganligi; 3) sodir etilgan harakatlarning hayot uchun muhim a'zolarining anatomik to'kisligi yoki fiziologik funksiyasini jarohatlash uchun intensivligi va yetarliligi; 4) qo'shimcha mezonlar – jabrlanuvchi va aybdor shaxs o'rtasidagi avvaldan mavjud bo'lgan o'zaro kelishmovchilik, o'ldirish bilan qo'rqitish harakatlarining sodir etilganligi va h. k. [19].

Bundan tashqari, to'g'ri va egri qasd sodir etilgan qilmishning faktik holatlarini tahlil qilish asosida aniqlanadi. To'g'ri va egri qasd irodaviy elementga ko'ra farqlanadi. To'g'ri qasdda aybdor ijtimoiy xavfli oqibatlar yuz berishini istasa, egri qasdda oqibatlar

yuz berishini istamay, oqibatlar kelib chiqishiga ongli ravishda yo'l qo'yib beradi yoki oqibatlariga nisbatan befarq munosabatda bo'ladi. To'g'ri qasdda oqibatlar yuz berishini istash elementining mavjudligi yuz bergan holatlar tahliliga ko'ra aniqlanadi, biroq aksariyat holatlarda aybdor jinoiy oqibatlar yuz berishini haqiqatda istaganligini rad etadi. Xususan, insonning hayotiga jiddiy zarar yetkazish mumkin bo'lgan jarohatning mavjudligi, jinoyat sodir etish usuli (suvga cho'ktirish, jabrlanuvchini yuqori qavatdan tashab yuborish) [18].

Demak, qasddan odam o'ldirishga suiqasd qilishni badanga og'ir shikast yetkazish jinoyatidan farqlashda quyidagilarga asoslanish lozim: 1) suiqasdda o'limga nisbatan to'g'ri aniq qasdning mavjudligi; badanga shikast yetkazishda esa sog'liqqa shikast yetkazishga nisbatan to'g'ri yoki egri qasdning mavjudligi yoki o'limga nisbatan egri qasdning mavjudligi, bunda oqibat yuz bermaydi, lekin sog'lig'iga zarar yetkaziladi; 2) jinoyat shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra oxirigacha yetkazilmaganda, o'limga nisbatan to'g'ri aniq qasd mavjud bo'ladi.

Yuqoridagi mezonlarning jamlanmasi sodir etilgan qilmishni odam o'ldirishga suiqasd sifatida kvalifikatsiya qilish uchun asos bo'ladi [18].

Xulosalar

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining yettinchi bandi quyidagicha ifodalaniishi maqsadga muvofiq:

"7. Qasddan odam o'ldirish jinoyatini JKning 97-moddasi 2-qismi "b" bandi bilan kvalifikatsiya qilish uchun aybdor jabrlanuvchining homiladorligini (tashqi belgilar va boshqa faktik ma'lumotlar mavjudligi) bilganligi va ayol haqiqatda ham homilador bo'lganligi aniqlangan bo'lishi kerak".

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi "Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qaror

rining “ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan o’ldirish, agar aybdorning harakatlari yagona qasd bilan qamrab olingan va, odatda, bir vaqtning o’zida sodir etilgan bo’lsa, JKning 97-moddasi 2-qismi “a” bandi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak” mazmundagi bandi to’g’ri ifodalangan. Sababi bunda formal (qasdning yagonaligi) va faktik (jinoiy qilmishlarning bir vaqtda sodir etilishi) mezon asos qilib olingan. Qasdning yagonaligi yuridik ahamiyatli bo’lib, ikki yoki undan ortiq shaxslarning o’limi bir vaqtda amalga oshirilganligi ikkilamchidir. Shuningdek, birinchi va ikkinchi o’lim o’rtasidagi oraliq vaqt muhim bo’lmay, tushuntirishda “odatda” jumlasini to’g’ri qo’llagan.

3. JKning 112-moddasini qasddan odam o’ldirishga suiqaqd qilishdan farqlashda quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- JKning 112-moddasida aybdorning maqsadi jabrlanuvchini qo’rqitish bo’lsa, odam o’ldirishga suiqaqd qilishda esa aybdorning maqsadi jabrlanuvchini hayotdan mahrum etish hisoblanadi.

- O’ldirish bilan qo’rqitishda jabrlanuvchining sog’lig’iga shikast deyarli yetkazilmasligi lozim. Faqat qo’rqitishning realligini

ta’minlash maqsadida jabrlanuvchiga ruhiy yoki jismoniy ta’sir ko’rsatilishi va sog’lig’iga yengil darajadagi shikast yetkazilishi mumkin. Odam o’ldirishga suiqaqd qilishda esa jabrlanuvchiga har qanday, hatto og’ir darajadagi shikast yetkaziladi.

- O’ldirish bilan qo’rqitishda aybdor-da qo’rqitishni amalga oshirish va ana shu maqsadda konkret xatti-harakatlarni bajarishning real imkoniyati mavjud bo’ladi, biroq, shunga qaramasdan, ixtiyoriy ravishda mazkur harakatlar sodir etilmaydi. Odam o’ldirishga suiqaqd qilishda esa aybdorning harakati o’ziga bog’liq bo’lmagan holatlarga ko’ra oxirigacha yetkazilmaydi.

4. Qasddan odam o’ldirishga suiqaqd qilishni badanga og’ir shikast yetkazish jinoyatidan farqlashda quyidagilarga asoslanish lozim: 1) suiqaqdda o’limga nisbatan to’g’ri aniq qasdning mavjudligi; badanga shikast yetkazishda esa sog’liqqa shikast yetkazishga nisbatan to’g’ri yoki egri qasdning mavjudligi yoki o’limga nisbatan egri qasdning mavjudligi, bunda oqibat yuz bermaydi, lekin sog’lig’iga zarar yetkaziladi; 2) jinoyat shaxsga bog’liq bo’lmagan holatlarga ko’ra oxirigacha yetkazilmaganda, o’limga nisbatan to’g’ri aniq qasd mavjud bo’ladi.

REFERENCES

1. Turg’unboyev Y.O. Obyektga nisbatan xatoning turi sifatida shaxsga nisbatan xato [A person error as a type of object error]. *Proceedings of the scientific articles by young scientists*. 2007, no. 2. p. 265.
2. Turg’unboyev E. Ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan o’ldirish jinoyatini kvalifikatsiya qilishning o’ziga xos jihatlari [Specific aspects of the qualification of the crime of intentional killing of two or more persons]. *Fan va yoshlar – Science and Youth*, 2009, no. 2, p. 83.
3. Tolmachev O. Kvalifikatsiya prestupleniy pri chastichnoy realizatsii umysla [Qualification of crimes with partial implementation of intent]. *Rossiyskaya yustitsiya – Russian Justice*, 2000, no. 12, p. 30.
4. Voskobitova L.A. Zashchita prav i interesov organizatsiy i grazhdan: ugolovno-pravovoy, ugolovno-protsessual’nyy i kriminologicheskiy aspekt (sostoyaniye, problemy, puti sovershenstvovaniya) [Protection of the rights and interests of organizations and citizens: criminal law, criminal procedure and criminological aspects (states, problems, ways of improvement)]. Moscow, 2015, no. 34.

5. Plaksina T.A. Obosnovannost' vydeleniya ubiystva dvukh i bolee lits v kachestve kvalifitsiruyushhego sostava [Validity of singling out the killing of two or more foxes as a qualifying composition]. *Modern Law*. 2006, no. 6, pp. 70–75.
6. Bezuglyy S.N. Otvestvennost' za neokonchennoye prestupleniye po ugolovnomu zakonodatel'stvu Rossiyskoy Federatsii: problemy teorii i praktiki [Responsibility for an unfinished crime under the criminal legislation of the Russian Federation: problems of theory and practice]. PhD thesis. Belgorod, 2017, pp. 125–131.
7. Kurs ugolvnogo prava [Course of criminal law]. Special part. Eds. G.N. Borzenkov, V.S. Komissarov. Moscow, 2002, vol. 3, p. 111.
8. Spiridonova L.Ye. Problemy kvalifikatsii deystviy litsa v usloviyakh fakticheskoy oshibki pri nalichii umysla na ubiystvo dvukh i bolee poterpevshikh [Problems of qualification of actions of a person in conditions of a factual error in the presence of intent to kill two or more victims]. *Legality*, 2012, no. 10, p. 52.
9. Tishkevich S.I. Kvalifikatsiya prestupleniy protiv zhizni [Qualification of crimes against life]. Minsk, 1991, pp. 44–45.
10. Bocharov Ye., Feoktistov M. Kvalifikatsiya ubiystv: nekotoryye voprosy teorii i praktiki [Qualification of murders: some questions of theory and practice]. *Criminal Law*, 2000, no. 2, pp. 65–67.
11. Popov A.N. Ubiystva pri otyagchayushhikh obstoyatel'stvakh [Aggravated murders]. St. Petersburg, 2003, p. 51.
12. Porotikov D.Yu. Neokonchennoye prestupleniye: teoreticheskiye modeli, zakonodatel'nyye konstruksii i problemy ikh primeneniya [Unfinished Crime: Theoretical Models, Legislative Structures and Problems of Their Application]. PhD thesis. Moscow, 2007, p. 173.
13. Alekseyev I.N. Pokusheniye na ubiystvo dvukh ili bolee lits [Attempted murder of two or more foxes]. *Criminal Process*, 2007, no. 6, pp. 44–45.
14. Xoroshilova O.S. Klassifikatsiya sostavov prestupleniy po momentu okonchaniya prestupleniya [Classification of elements of crimes by the moment of the end of the crime]. *Vestnik Kemerovskogo gosudarstvennogo universiteta – Bulletin of the Kemerovo State University*, 2015, no. 2 (62). p. 226.
15. Popov A.N. Problemy kvalifikatsii prestupleniy protiv zhizni i zdorov'ya grazhdan [Problems of qualifying crimes against the life and health of citizens]. *Legal practice: Newsletter of the Law Center of the Special Law Faculty of St. Petersburg State University*, 1996, no. 2, pp. 101–102.
16. Nayimov S.S. Qilmishni jinoyat huquqiy normalar raqobatida kvalifikatsiya qilishning nazariy va amaliy masalalari [Theoretical and practical issues of qualifying the crime in competition of criminal legal norms]. PhD thesis. Tashkent, 2007.
17. Tadevosyan L.Z. Problemy otvestvennosti za neokonchennuyu prestupnuyu deyatel'nost' po ugolovnomu zakonodatel'stvu Respubliki Armeniya [Problems of responsibility for unfinished criminal activity under the criminal legislation of the Republic of Armenia]. PhD thesis. Moscow, 2010, pp. 120–121.
18. Lyzlov A.I. Neokonchennoye ubiystvo: problemy zakonodatel'noy reglamentatsii, kvalifikatsii i nakazaniya [Unfinished Murder: Problems of Legislative Regulation, Qualification and Punishment]. PhD thesis. Barnaul, 2016, p. 116.
19. Plaksina T.A. Sub'yektivnyye priznaki ubiystva: obshhaya kharakteristika [Subjective signs of murder: general characteristics]. Barnaul, 2013, pp. 20–72.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.4./LQX5332>
UDC: 343.1(045)(575.1)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIGI TARIXI

Tulaganova Gulchehra Zaxitovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası
professori, yuridik fanlar doktori
ORCID: 0000-0002-4741-1144
e-mail: g.tulaganova@tsul.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy va xorijiy jinoyat-protsessual qonunchilikning tarixi, jinoyat ishlarini soddalashtirilgan tartibda yuritishning o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqilgan. O'zbekistonda islohotlarning dolzarb bo'g'ini bo'lgan qonun ustuvorligini ta'minlash, sud-huquq tizimini isloh etish, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida strategik qadamlar tashlanmoqda. Shubhasiz, bu o'zgarishlar xalq manfaatlarini yo'lida olib borilayotgan amaliy ishlarning ifodasidir. Bu qoida ham joriy yilning 1-mayida qonuniy kuchga kirgan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, yangilangan Konstitutsiya mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyalari, umuman yurtimiz va xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolat yaratishi lozim. Shuningdek, ushbu maqolada jinoyat-protsessual huquqning asosiy prinsiplaridan biri bo'lgan tortishuv prinsipi yuzasidan ayrim huquqshunos olimlarning fikr va mulohazalari, bugungi kunda katta muvaffaqiyat bilan qo'llanadigan yangi institut, jinoyat ishlarini soddalashtirilgan tartibda yuritishning yaqqol misoli bo'lgan aybga iqrorlik institutini milliy jinoyat protsessiga qo'llashning ayrim jihatlari, birinchi instansiyada ish yuritish, apellatsiya va kassatsiya, qayta kassatsiyaning ish yuritish masalalari, olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari va jinoyat sudlov ishlari yuritishni soddalashtirish tartibi yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat ishini qo'zg'atish, huquq, erkinlik, jabrlanuvchi, ayblanuvchi, odil sudlov, sud, jinoyat ishlari, soddalashtirish, jinoyat-protsessual, qadr-qimmati, huquq-tartibot, hukm.

ИСТОРИЯ УГОЛОВНО-ПРОЦЕССУАЛЬНОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Тулаганова Гулчехра Захитовна,
доктор юридических наук, профессор кафедры
«Уголовно-процессуальное право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье будет рассмотрена история отечественного и зарубежного уголовно-процессуального законодательства, особенности ведения уголовных дел в упрощенном порядке. В Новом Узбекистане предпринимаются стратегические шаги по обеспечению верховенства закона, реформированию судебной-правовой системы, защите прав и интересов граждан, являющихся актуальным звеном реформ. Данное положение также закреплено в Конституции Республики Узбекистан, вступившей в законную силу 1 мая текущего года. Как подчеркнул Президент Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёев, обновленная Конституция должна создать прочную правовую основу и надежную гарантию долгосрочных стратегий

развития страны, завтрашнего благополучия страны и народа в целом. Также в этой статье рассмотрены взгляды и мнения некоторых ученых-юристов по поводу принципа оспаривания – одного из основных принципов уголовно-процессуального права, нового института, который с большим успехом применяется сегодня, некоторые аспекты применения института признания вины к национальному уголовному процессу, который является ярким примером упрощенного ведения уголовных дел, делопроизводства в первой инстанции, апелляции и кассации, делопроизводства в повторной кассации и т. д. и упрощения уголовного судопроизводства.

Ключевые слова: обвинение, закон, свобода, потерпевший, обвиняемый, правосудие, суд, уголовные дела, упрощение, уголовный процесс, достоинство, правопорядок, приговор.

HISTORY OF CRIMINAL PROCEDURAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Tulaganova Gulchehra Zakhitovna,
Tashkent State University of Law,
Professor of the Department
of Criminal Procedure Law, DSc of Law

Abstract. This article will consider the history of domestic and foreign Criminal procedural legislation and the peculiarities of conducting criminal cases in a simplified manner. Strategic steps are being taken in the new Uzbekistan to ensure the rule of law, reform the judicial and legal systems, and protect the rights and interests of citizens, who are an actual link to reforms. This provision is also enshrined in the Constitution of the Republic of Uzbekistan, which entered into force on May 1 of this year. As the President of the Republic of Uzbekistan, Sh.M.Mirziyoyev stressed, the updated Constitution should create a solid legal basis and a reliable guarantee of the long-term development strategies of the country and the future well-being of the country and the people as a whole. This article also examines the views and opinions of some legal scholars on the principle of challenge, one of the basic principles of Criminal procedure law, a new institution that is being used with great success today, some aspects of the application of the institute of admission of guilt to the national criminal process, which is a vivid example of simplified criminal proceedings, office work in the first instance, appeals and cassation, record-keeping in repeated cassation, etc., and simplification of criminal proceedings.

Keywords: prosecution, law, freedom, victim, accused, justice, court, criminal cases, simplification, criminal process, dignity, law and order, sentence.

Kirish

O'zbekiston Respublikasida 2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan umumxalq referendumida tasdiqlangan va kuchga kirgan yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 1-moddasida O'zbekiston suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi mustahkamlandi. Bunday davlatda haqiqat va adolat har sohaning asosiy mezoni bo'lmog'i lozim. Hozirda respublikamizdagi barcha qonun va qonunosti me'yorlarini yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtirish jarayonlari boshlandi. Demak, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadri-

yat hisoblanadigan insonparvar demokratik, dunyoviy davlat, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida Jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya qonunchiligini takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish, davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erishish dara-

jasini oshirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Yangi O'zbekistonda islohotlarning dolzarb bo'g'ini bo'lgan qonun ustuvorligini ta'minlash, sud-huquq tizimini isloh etish, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida strategik qadamlar tashlanmoqda. Shubhasiz, bu tub o'zgarishlar xalq manfaatlarini yo'lida olib borilayotgan amaliy ishlarning ifodasidir. Bu qoida ham joriy yilning 1-mayida qonuniy kuchga kirgan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan.

O'zbekiston Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, yangilangan Konstitutsiya mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyalari, umuman, yurtimiz va xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolat yaratishi lozim [1].

Material va metodlar

Tadqiqotda jinoyat protsessida ishtirokchilar masalasi bo'yicha qonunchilik normalari va huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanildi hamda qiyosiy-huquqiy usul, tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llandi.

Tadqiqot natijalari

Jinoyat-protsessual qonunchilikning tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Tarixiy qonunlar hozirgi JPKga shaklan o'xshash bo'lmasa-da, ularda jinoyat ishlarini yuritish tartibi, jinoyatlarning oldini olish choralari, jazo tizimi aks ettirilgan. Bu davrda so'zga, uning ilohiy kuchiga katta ahamiyat berilgan. Fikrimizcha, bizning qonunlarimizda ham "so'z berish", "va'da" kabi choralari ko'rib chiqilishi lozim.

Qariyb o'n to'rt asr amal qilib kelgan shariat qonunlarida hozirgi jinoyat sudlov ishlarini yuritishning ba'zi ko'rinishlari uchraydi – jabrlanuvchining arizasiga ko'ra ish qo'zg'atish, ishni yakka tartibda ko'rish, ishlarni qozi va biylik sudlarida muhokama qilish va h.k. Lekin bu qonunlarga ko'ra

surishtiruv va dastlabki tergov o'tkazilgan. Shariat qonunlari rivojiga yurtida hukmron bo'lgan podshohlar katta ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, buyuk bobokalonimiz Amir Temur davrida jinoyat sudlov ishlari ancha demokratik tusga ega bo'lgan.

Ta'kidlash joizki, o'sha davrlarda jabrlanuvchi va ayblanuvchini qozi huzurida yarashtirish keng ommalashgan. To'g'ri, bizning qonunchiligimizga ham 2001-yilda yarashuv instituti kiritildi. Lekin, fikrimizcha, hozirgi yarashuv instituti ancha murakkab, chunki ish jinoyat ishini qo'zg'atish, surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlaridan keyin sudda hal etiladi. Bizningcha, yarashuvning ancha oddiy shakli – ishni sudga chiqarmasdan surishtiruvchi va tergovchi huzurida tomonlarni yarashtirish instituti joriy qilinmog'i lozim.

1867-yilda Turkiston chor Rossiyasi tomonidan istilo qilinganidan keyin hududda prokuratura, surishtiruv va dastlabki tergov organlari paydo bo'la boshlagan.

1917-yil oktyabr to'ntarishidan keyin Turkistonda birinchi yozma qonunlar – "Sudlar to'g'risida"gi dekret, RSFSRning 1922–1923-yillardagi JPKlari amal qila boshlagan.

O'zbekistonning birinchi JPK 1926-yilda qabul qilingan va aytish mumkinki, u o'zidan keyingi JPKdan ancha mukammal bo'lgan.

O'zbekistonning 1929-yilda qabul qilingan ikkinchi JPKda davlat manfaatlarining shaxs manfaatlaridan yaqqol ustunligi sezilib turadi. Qonunning ixchamligi, tergov harakatlari o'tkazish tartibi o'rin olmaganligi, o'sha vaqtlarda urf bo'lgan soddalashtirish siyosatiga haddan ziyod e'tibor berilganligi oxir-oqibatda inson huquqlari buzilishi, ommaviy qatag'onlar, sudsiz hukm qilish kabi salbiy holatlarga keng yo'l ochib bergan.

Lekin bugungi kunda soddalashtirilgan tartibda ish yuritishga o'tish imkoniyatlari mavjud. Chunki bizdagi siyosiy tuzum ham, demokratik muhit ham bunga imkon beradi. Soddalashtirilgan tartibda ish yuritishda

tejamkorlikning afzal tomonlari namoyon bo'ladi: surishtiruv va tergov apparati ortiqcha vazifalardan ozod bo'ladi; ish bo'yicha ko'p marotabalab chaqiriladigan shaxslar soni qisqaradi; moddiy mablag'lar tejraladi.

Murakkab bo'lmagan, kam ahamiyatli ishlarda jinoyat protsessining ayrim bosqichlarini chetlab o'tish, ya'ni soddalashtirilgan tartibda ish yuritishning yana bir ijobiy jihati uning oddiyligidir yoxud bosqichni qisqartirish orqali jinoyat sudlov ishlari oddiylasadi. Bu esa protsessning demokratlashuviga olib keladi.

O'zbekistonning 1959-yilda qabul qilingan JPKni avvalgilari qaranganda ancha mukammal deyish mumkin. Lekin bu qonunda ham davlat manfaatlarining ustunligi, o'sha davrdagi hukmron mafkuraning ta'siri yaqqol sezilib turadi. Unda jinoyat protsessining prinsiplari kam ahamiyatli me'yorlar bilan niqoblangan, sud muhokamalarida tortishuvga o'rin berilmagan, ya'ni sud ham ayblov tarafini tashkil etgan. Himoyachilar ishda formal tarzda ishtirok etganlar. JPKning yozilish tartibida ham qonunchilik texnikasiga rioya etilmaganligi ko'zga tashlanadi (masalan, ushlab turish va dastlabki qamoqning so'nggi bo'limlarda aks ettirilishi). Lekin, tan olish kerak, mazkur Kodeksdagi ko'plab qoidalar amaldagi JPK qoidalariga o'xshash, ya'ni ular yangi qonunchilik yaratilishida asos vazifasini o'tagan.

O'zbekiston Respublikasida 60 dan ziyod xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilindi. Inson huquqlari himoyasini xalqaro doirada to'la kafolatlaydigan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, shaxsning sud himoyasida bo'lishini tartibga soluvchi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi pakt, Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiya, Qiynoq va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy, insonning qadr-qimmatini kamsitadigan muomalaning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya kabi dunyoda umume'tirof etilgan xalqaro shartnomalar shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyat-protsessual qonunchilik juda uzoq vaqt davomida takomillashib kelgan. "Avesto"da yozilgan qoidalar, shariat qonunlari, chor Rossiya davrida amalda bo'lgan tartiblar, sobiq sovet tuzumi davridagi jinoyat-protsessual qonunchilikning saboqlari hamda dunyodagi rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribalari mustaqil O'zbekiston Respublikasida mukammal, inson huquq va manfaatlarini kafolatlaydigan yangi qonun yaratilishiga asos bo'ldi.

Mamlakatimizning 1994-yilda qabul qilingan, o'n uch bo'lim, 62 bob va 586 moddadan iborat yangi Jinoyat-protsessual kodeksi O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi haqidagi deklaratsiya hamda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan tamoyillar va umumiy qoidalar, "Sudlar to'g'risida"gi, "Prokuratura to'g'risida"gi, "Advokatura to'g'risida"gi va boshqa eng muhim qonunlarga asoslanadi. Xalqning xohish-irodasini ifodalash, uning manfaatlariga xizmat qilish qoidasi amaldagi JPKning uslubiy asosini tashkil etadi.

O'zbekiston jinoyat-protsessual qonunchiligi tarixida birinchi marta jinoyat protsessining quyidagi prinsiplari alohida 2-bobda aks ettirildi: qonuniylik (11-modda); odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi (12-modda); jinoyat ishlarini hay'atda va yakka tartibda ko'rib chiqish (13-modda); sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi (14-modda); jinoyat ishini qo'zg'atishning muqarrarligi (15-modda); odil sudlovni fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirish (16-modda); shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish (17-modda); fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish (18-modda); sudda jinoyat ishlarining oshkora ko'rilishi (19-modda); jinoyat ishlari yuritiladigan til (20-modda); jinoyat ishlarini yuritishda jamoatchilikning ishtiroki (21-modda); haqiqatni aniqlash (22-modda); aybsizlik prezumpsiyasi (23-modda); gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuv-

chining himoyalaniş huquqi bilan ta'minlash (24-modda); sudda ishlarni yuritishda tortishuv (25-modda); dalillarni bevosita va og'zaki usulda tekshirish (26-modda); protsessual harakatlar va qarorlar ustidan shikoyat qilish huquqi (27-modda). Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi qonunining 25-moddasi 4-qismiga muvofiq, O'zR Oliy Sudi Plenum qarorlari ushbu qarolarda yoritilgan masalalar bo'yicha yuzaga kelgan ayrim tushunmovchiliklar yuzasidan tavsiya va tushuntirishlar beradi hamda u majburiy xarakterga ega. Biroq sudyalardan tomonidan qabul qilinadigan har qanday sud qarorlari amaldagi qonunlarga to'la rioya etilgan holda qabul qilinishi shart. Shu jumladan, jinoyat ishlari yuzasidan chiqarilgan sud hukmi Jinoyat-potsessual kodeksida ko'rsatilgan tartib-tamoyillarga to'la mos kelishi kerak. Shundagina davlat nomidan chiqarilgan bunday hukmning qonuniyligiga shubha qolmaydi.

JPKning 87-moddasiga muvofiq, isbot qilish ishni qonuniy asoslangan va adolatli hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'g'risidagi haqiqatni aniqlash maqsadida dalillarni to'plash, tekshirish va baholashdan iboratdir. Demak, amaldagi qonunchilikka ko'ra, insonni ayblash va davlat majburlonining Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan choralarni qo'llashdan avval qonuniy tartibda aynan shu shaxs ma'lum bir jinoyatni sodir etganligi isbotlanishi lozim.

Shaxsning aybdorligini isbotlash uchun surishtiruv va tergov organlari tomonidan tergov harakatlari olib boriladi. JPKning 23-moddasi 2-qismiga ko'ra, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas. Bu ularning shaxsiy huquqi bo'lib, undan mustaqil ravishda yoki himoyalaniş jarayonida foydalanish mumkin. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi tomonidan aybsizligi haqidagi dalillarning keltirilmasligi aybdorlik dalili sifatida baholanmasligi kerak. Mazkur shaxslarga ko'rsatma berish,

aybdor emasligi yoki ishning boshqa biror holatini isbotlash majburiyati yuklanmasligi JPKning qator normalarida o'z aksini topgan. Huquq-tartibot organlari ayblov uchun yetarli dalil to'play olmasalar, shaxs aybsiz deb e'tirof etilishi lozim. Bundan tashqari, JPKning 23-moddasi 3-qismida keltirilgan qoidaga muvofiq, aybdorlikka oid barcha shubhalar, basharti ularni bartaraf qilishning imkoni bo'lmasa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasi-ga hal qilinadi. Mazkur qoida jinoyat va jinoyat-potsessual qonunlarni qo'llash bo'yicha yuzaga keladigan gumon qilinuvchilarga nisbatan ham qo'llanishi mumkin.

Sir emaski, oddiy fuqaro, avvalo, davlat nomidan ish ko'ruvchi mansabdorlarning o'zlari qonunlarni qanday bajarayotganligiga e'tibor beradi. Agar o'sha organlar yoki mansabdor shaxslarning o'zlari qonunlarga bo'ysunmasa, mazkur qonunlar obro'sizlanadi, yanayam to'g'rirog'i, jamiyatning ma'naviy asoslariga putur yetadi. Demak, jinoyat protsessida shaxs huquqlarining kafolatlari, avvalo, jinoyat ishlarini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan ta'minlanishi lozim. JPKning 111-moddasida surishtiruvchi, tergovchi gumon qilinuvchi, ayblanuvchini so'roq qilishdan oldin ularga protsessual huquq va majburiyatlarini tushuntirishi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror boshqa himoyachilarning so'roqda ishtirok etishini ta'minlashi kerak.

JPKning 353-moddasida jinoyat ishidagi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyati gumon qilinuvchi, ayblanuvchi zimmasiga yuklanishi mumkin emasligi; himoyachining ishdagi ma'lumotlarini oshkor qilmaslik majburiyati uning gumon qilinuvchi, ayblanuvchi bilan bo'ladigan suhbatiga taalluqli emasligi; gumon qilinuvchi, ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish haqida qaror chiqarish vaqtida ularning huquqlari tushuntirilishi zarurligining mustahkamlanganligi; dastlabki tergov materiallari bilan tanishib chiqqandan so'ng iltimoslar qilish

huquqining belgilanganligi; sudlanuvchiga uning huquqlari tushuntirilishi; sudlanuvchiga oxirgi soʻz huquqining berilishi va boshqa meʼyorlar shaxs huquqlarining qonuniy kafolatlanganligidan dalolat beradi.

Maʼlumki, aybiga iqrор boʻlish amaliyoti sobiq sovet mamlakatlarida oʻtgan asrning 30-40-yillarida davlat siyosati darajasiga koʻtarilgan [2]. Chunonchi, zulmatli, omma-viy qatagʻon yillarida shaxsning aybiga iqrор boʻlishi uchun rasmiy ravishda ularga nisbatan “jismoniy taʼsir” koʻrsatish usullarini qoʻllashga ruxsat berilgan. Ana shunday nopok usullar oqibatida shaxs noiloj qotillik, oʻgʻrilik, poraxoʻrlik kabi aslida sodir qilmagan ogʻir jinoyatlarga ham “iqrор” boʻlgan. Natijada oʻta mudhish ijtimoiy adolatsizlik yuz berib, mamlakatning eng ziyoli, erksevar kishilariga “xalq dushmani” degan tamgʻa bosilgan hamda ular qatagʻon qurboniga aylangan. XX asrning 80-yillaridagi “oʻzbeklar ishi”, “paxta ishi”da ham begunoh kishilardan turli noqonuniy usullar bilan aybiga iqrорlik koʻrsatmalari olingan. Aslida, puch koʻzboʻyamachilik boʻlgan bu qatagʻon mamlakatimizning koʻplab sofdil va mehnatkash kishilariga zahmat yetkazdi.

Mustaqillikka erishilganidan soʻng Oʻzbekiston Respublikasida bunday salbiy holatlarga barham berildi. Amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksining bir qator moddalarida ham aybga iqrорlik toʻgʻrisidagi qoidalar keltirilgan. Qonunning gumon qilinuvchi va ayblanuvchining koʻrsatmalarini baholash tartibini belgilaydigan aybga iqrорlik mavjud dalillar majmuyi bilan tasdiqlangan taqdiridagina, uni ayblash uchun asos qilib olinishi mumkinligi koʻrsatilgan.

Aybini boʻyniga olish toʻgʻrisidagi arz bilan murojaat qilish tartibi mustahkamlangan. Sud ayblov xulosasi oʻqib eshittirilganidan keyin sudlanuvchidan aybiga iqrор yoki iqrор emasligini soʻrashdan boshlanishi belgilangan. JPKning 585-moddasiga koʻra, yarashuv toʻgʻrisidagi ishlarni yuritish boʻyicha sud muhokamasida sud gumon qilinuvchi, ayb-

lanuvchi, sudlanuvchi oʻz aybiga ixtiyoriy iqrор boʻlganligini aniqlashi lozim. Adolat va haqiqat qaror topishi uchun jinoyat protsessining barcha bosqichlarida qonunlarga ogʻishmay amal qilinishi, har bir jinoyat ishi sinchiklab oʻrganilishi, tekshirilishi va har bir shaxsning sodir etgan jinoiy qilmishiga yarasha odil sudlov hukmi chiqarilishi talab etiladi. Odil sudlov deganda, jinoyat ishlarini qonun, ichki ishonch va huquqiy ongga muvofiq mazmunan koʻrish hamda hal qilish tushuniladi.

Jinoyat-protsessual qonunchilikda “adolat” atamasi birinchi bor tilga olindi. Adolat axloq va huquq kategoriyasi sifatida axloqiy-huquqiy munosabatlarni nazorat qilib turuvchi, odamlarning faoliyatiga baho beruvchi zaruriy oʻlchovdir [3]. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Sud hukmi toʻgʻrisida”gi qarorida shaxsning qadr-qimmatini hurmat qilishga oid muhim koʻrsatmalar berildi. Ushbu qarorda sud insonning shaʼni va qadr-qimmatini kamsitadigan, uning shaxsiy hayotiga taalluqli maʼlumotlar tarqalib ketishiga olib keladigan, unga maʼnaviy azob-uqubat yetkazadigan maʼlumotlar ishdagi dalillarga oid boʻlmasa, hukmda koʻrsatishga haqli emasligi belgilandi.

JPKning 455-moddasiga binoan, barcha hukmlar oldiga uch talab qoʻyiladi: hukmlar qonuniy, asosli va adolatli boʻlishi shart. Z.F. Inogʻomjonovanning quyidagi fikrlari hukmga qoʻyilgan mazkur talablarning ahamiyatini toʻla ifodalaydi: “1) hukm faqat birinchi instansiya sudining saylangan yoki tayinlangan mustaqil sudyalari tomonidan hayʼatda yoki yakka tartibda, faqat qonunda belgilangan shart-sharoitlarda va qonunga muvofiq qabul qilinadi; 2) shaxsni aybdor deb topib, jazoga tortish yoki aybsiz deb topib, oqlash faqat sud hukmi bilan hal qilinadi; 3) hukm respublika nomidan chiqariladigan yagona hujjatdir. Demak, hukmning qonuniyligi, asosliliigi va adolatliliigi zaminida davlatning obroʻyi, xalqparvarligi hamda adolatpeshaligi yotadi. Shundan kelib chiqib,

hukmni siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan hujjat deb atash ham mumkin" [4].

Davlat ayblovini quvvatlash funksiyasini maqbullashtirish borasida soddalashtirilgan sud ish yurituvlari tartibiga o'tish ham ahamiyatli. Ko'p davlatlarda agarda ayblanuvchi og'ir jinoyatlar sirasiga kiritilmagan va uncha og'ir bo'lmagan jazo tayinlashni nazarda tutuvchi jinoyatni sodir etganlikda o'zini aybdor deb tan olgan bo'lsa, bunday ishlarda prokurorning ishtiroki talab etilmasligi bilan bog'liq amaliyot mavjud.

Masalan, GFRda bunday sud jarayonlari jazo tayinlash haqidagi sud buyruqlari, Fransiya jinoiy jazo buyrug'ini qo'llash ish yurituvchi, Italiya taraflar kelishuviga ko'ra jazo tayinlashning qisqartirilgan muhokamasi, Angliya va AQShda summar ish yurituvchi deb yuritiladi.

Jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan 2020-yilda 16644 nafar (43,6 %), 2021-yilda 25716 nafar (42,0 %), 2022-yilda 30680 nafar (40,9 %) shaxslarga nisbatan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat ishlari ko'rilgan bo'lsa, qayd etilgan yillarda tegishli 10218 nafar (26,8 %), 16202 nafar (26,4 %) va 19496 nafar (26,0 %) shaxsga nisbatan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat ishlari ko'rilgan [5].

Kelgusida qonunchilikka sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi, shuningdek, ayblanuvchi va jabrlanuvchining pozitsiyasidan kelib chiqqan holda prokurorning sud jarayonlarida ishtirok etishi bilan bog'liq normalarning kiritilishi ham mavjud muammoning yechimini bergan bo'lar edi. Aks holda, prokurorning bir sud majlisida uzluksiz ishtirokini sifatli va samarali ta'minlash bilan bog'liq muammoning yechimini topish mushkulligicha qoladi.

GFR JPKni o'rganish ushbu davlatda prokuror tomonidan e'lon qilinadigan ommaviy ayblov bilan bir qatorda xususiy ayblov instituti ham mavjudligini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda har soatda taxminan 200 mingta jinoyat sodir

etiladi. O'tgan yil davomida esa 450 millionga yaqin jinoyat sodir etilganligi ro'yxatga olingan [6]. Demak, ulkan hajmdagi vazifalarni amalga oshiruvchi sudlarning ayblov hukmlari qonuniyligi, asosiligi va adolatligini ta'minlashi eng murakkab va mas'uliyatli vazifalardan biri sanaladi. Chunki O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyatdir. O'zbekiston Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, sud binosiga kelgan har bir inson O'zbekistonda adolat borligiga ishonib chiqib ketishi kerak. Bu – Prezident talabi [7]!

Mamlakatimizda sud hukmida hal etilishi kerak bo'lgan masalalar doirasiga oid muammolarning to'liq hal etilmaganligi, bu borada jinoyat-protsessual huquq nazariyasida o'zaro ziddiyatli normalarning mavjudligi, apellatsiya, kassatsiya tartibida berilayotgan shikoyat va protestlar salmog'ining yuqoriligi, mazkur sud instansiyalarida ayblov hukmlariga o'zgartish kiritish yoki ularni bekor qilish holatlarining ortib borayotganligi, jinoyat ishida ishtirok etayotgan fuqarolar huquq va qonuniy manfaatlarining protsessual kafolatlarini ta'minlash zarurati bugungi kunda hukmga, uning qaror qismiga qo'yilgan talablarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Masalan, hukmning inson huquqlarini muhofaza qilishdagi ahamiyati shundaki, ayblanuvchi uning aybi isbotlanmaguncha aybsiz hisoblanadi.

Sud hukmi fuqaro aybdor deb e'lon qilinishi va jinoiy jazoga tortilishi mumkin bo'lgan yagona hujjat bo'lganligi uchun ham katta ahamiyatga ega va G.A. Abdumajidov ta'kidlaganidek, "... sud va huquqni muhofaza qiluvchi idoralar faoliyati samaradorligi ular qabul qilgan qarorlarning odilligi bilan belgilanadi" [8].

Yangi qonunchilikka ko'ra, sudda ishlar tortishuv prinsipi asosida yuritiladi, ya'ni ishlarni ko'rish taraflarning o'zaro tortishuvi asosida amalga oshiriladi. Bunda ayblov funksiyasini prokuror va jamoat ayblovchisi,

himoya funksiyasini sudlanuvchi, himoyachi, jamoat himoyachisi, ishni hal qilish funksiyasini esa sud bajarishi ko'zda tutiladi.

Sudda jinoyat ishlarini yuritishda tortishuv prinsipini to'liq amalga oshirish unda himoyachining ishtirok etishini taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrda 162-II-son qonuniga ko'ra, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan "Sudlar to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri qonuniy kuchga kirmagan sud hujjatlarini qayta ko'rish institutlaridan biri sifatida apellatsiya instansiyasi sudini joriy etdi.

I.Y. Foyniskiy apellatsiyaga ta'rif berib, shunday degan edi: "Apellatsiya deganda yuqori turuvchi instansiya sudi tomonidan quyi sudning shikoyat keltirilgan, uzil-kesil kuchga ega bo'lmagan hukmining faktik hamda yuridik asoslarga ko'ra, biroq keltirilgan shikoyat doirasida qayta ko'rilishi tushuniladi. Apellatsiya instansiyasi birinchi instansiya sudi kabi ishni mazmunan ko'radi va quyi sud hukmini mutlaqo o'zgartirishi mumkin bo'lgan hukm qabul qilishi mumkin. Apellyatsiyaning vazifasi sud hukmining adolatli bo'lishini ta'minlovchi qo'shimcha kafolatdir. Ushbu kafolat yuqori turuvchi instansiyaga qo'shimcha tajriba va nisbatan yetuk bilimni jalb qilishni anglatadi".

Jinoyat ishlarini apellatsiya tartibida qayta ko'rish bosqichi odil sudlovni ta'minlash kafolatlaridan biri bo'lib, ushbu instansiya sudida ishlarni mazmunan sud tergov o'tkazish orqali qayta ko'rish tartibi qisqa muddatlar ichida sud xatolarini bartaraf etish imkonini beradi. Respublika sudlari tomonidan apellatsiya tartibida 2020-yilda 4 029 nafar shaxsga nisbatan 3 108 ta, 2021-yilda 11 619 nafar shaxsga nisbatan 8 652 ta, 2022-yilda 15 285 nafar shaxsga nisbatan 10 933 ta jinoyat ishi ko'rilgan. Ushbu instansiya sudida ko'rilgan ishlar bo'yicha 2020-yilda 1 241 nafar, 2021-yilda 3 579 nafar, 2022-yilda 5 163 nafar shaxsga nisbatan sud qarorlari bekor qilingan yoki o'zgartirilgan. Milliy qonunchiligimizning hukmni e'lon qilish va tara-

flarga topshirish tartibiga oid normalarida belgilangan qoidalar sud-prokuror amaliyotida turli ziddiyatli muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

JPKning 473-moddasi hukmni e'lon qilish tartibiga oid qoidani belgilagan bo'lib, ushbu normaga asosan, sud hukmni imzolaganidan keyin sud majlisi zaliga qaytib chiqadi va raislik qiluvchi yoki xalq maslahatchisi hukmning qaror qismini e'lon qiladi.

Prezidentning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasida 2021-yilda sud-huquq sohasidagi islohotlar davom ettirilishi ta'kidlab o'tilgan edi. Murojaatda aytib o'tilganidek [9], "Jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlarini qayta ko'rish institutining takomillashtirilishi munosabati bilan Jinoyat-protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 664-sonli, "Sud qarorlarini qayta ko'rish institutining takomillashtirilishi munosabati bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 665-sonli Qonunlari davlat rahbari tomonidan imzolaniib, amaliyotga joriy qilindi.

Mazkur qonunlar bilan sud hukmlari, ajrim va hal qiluv qarorlarini qayta ko'rib chiqish institutining "bir sud – bir instansiya" tamoyili asosida isloh qilinganligi sud qarorlarining qonuniyligi, asosiligi va adolatligini tekshirish borasida yangi davrni boshlab berdi. Bu bilan sudlar tomonidan qabul qilingan hukm, ajrim va hal qiluv qarorlarini "nazorat instansiyasida" ko'rib chiqish kabi sud tizimiga xos bo'lmagan, o'z nomi bilan sud mustaqilligiga shubha tug'diruvchi instansiyadan xoli bo'ldi.

Amaldagi qonunlarimizga ko'ra, bundan keyin ishlar birinchi instansiya sudida ko'rilgach, ularning qonuniyligi, asosiligi va adolatligi apellatsiya va kassatsiya instansiyasida ko'rib chiqilishi mumkin. Bu sudyalardan har bir ishni sinchkovlik bilan ko'rib chiqib, qonuniy va adolatli qaror qabul qilishni talab qiladi. Zero, chiqarilgan sud qaro-

ri fuqarolarning huquq va erkinliklariga uzviy bog'liq. Qonun talablariga rioya etilmasdan chiqarilgan ayblov hukmi keyinchalik hukmning qonuniyligi, asosiligi va adolatligiga baho beruvchi sud instansiyalari tomonidan bekor qilinib, oqlov hukmi chiqarilishi, jinoyat ishi bo'yicha javobgarlikka tortilgan shaxsning noqonuniy javobgarlikka tortilganligi, asossiz qamoqda saqlanganlik kabi salbiy holatlar fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilishiga olib kelishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 23.05.2014-yildagi 7-sonli "Sud hukmi to'g'risida"gi qarorining 34-bandida JPKning 473-moddasi faqat hukmning qaror qismini e'lon qilish tartibini nazarda tutishi haqida sudlarga tushuntirish berilgan.

Milliy qonunchilik talablariga asosan (o'rganilgan deyarli barcha davlatlar qonunchiligidan farqli ravishda), hukmning to'liq matni emas, balki uning qaror qismi o'qib eshittirilishi belgilab qo'yilgan.

JPKning 475-moddasiga ko'ra, hukm e'lon qilinganidan keyin uch sutkadan kechiktirilmay, hajmi katta bo'lgan taqdirda esa o'n sutkadan kechiktirilmay, uning nusxasi mahkum va oqlangan shaxsga berilishi lozim. Boshqa taraflarga hukm nusxasi yoki uning ko'chirmasi shu muddatda ularning iltimoslariga asosan beriladi.

JPKda mahkum, oqlangan shaxs bilan bir qatorda jabrlanuvchi tomonidan apellatsiya shikoyati ularga hukmning ko'chirma nusxasi topshirilgan kundan e'tiboran yigirma sutka ichida berilishi mumkinligi haqidagi qoida belgilangan bo'lsa-da, Kodeksning 475-moddasida taraflar tengligi tamoyiliga zid ravishda qat'iy muddat ichida hukm nusxasini jabrlanuvchiga berish qoidasi o'z aksini topmagan.

O'z navbatida, o'rganilgan davlatlarning protsessual qonunchiligida belgilangan qoidalardan farqli ravishda hukm nusxasining himoyachi va prokurorga topshirilishi milliy normada belgilab qo'yilmagan. Bu esa yuqorida qayd etilganidek, nafaqat amaliyot-

da ko'plab muammolarga sabab bo'lmoqda, balki JPKning 25-moddasida belgilangan "sud xolislik va beg'arazlikni saqlagan holda, taraflar protsessual majburiyatlarini bajarishlari uchun zarur sharoitlar yaratib beradi", deb belgilangan qoidaga ham zid, bizning fikrimizcha.

A.V. Smirnov va K.B. Kalinovskiylarning fikriga ko'ra, agarda hukm hajmi katta bo'lib, uni o'qib eshittirish uzoq vaqt talab qilsa, hukmni tik turgan holda tinglash muayyan qiyinchiliklar tug'diradi. Bunday hollarda JPKning 257-moddasi 2-qismiga binoan (Sud majlisining reglamenti), raislik etuvchi umumiy qoidadan chekinishi mumkin. Bundan tashqari, raislik etuvchi tomonidan tanaffus e'lon qilinishi va so'ngra hukmni o'qib eshittirish davom ettirilishi mumkin.

Xuddi shunga o'xshash qoidalar Estoniya, Armaniston, Ozarbayjon, Gruziya, Qirg'iziston, Moldova, Belarus, Ukraina Respublikalari jinoyat-protsessual qonunchiligida ham belgilangan.

Xalqaro standartlar shikoyat qilish huquqi oqilona muddatlarda sud qarori hamda sud bayonnomasi bilan tanishish imkoniyatining yaratilganligi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq ekanligini belgilaydi.

Milliy qonunchiligimizda JPKning 475-moddasida hukm nusxasini ishda taraf hisoblangan prokuror va himoyachiga ham berish muddatlari qayd etilishi zarur, deb hisoblaymiz.

JPKning apellatsiya shikoyati yoki protesti hukm e'lon qilingan kundan e'tiboran yigirma sutka ichida berilishi mumkinligini belgilaydi. Bunda muddatning o'tishi hukm e'lon qilingan kundan e'tiboran boshlanadi.

Qozog'iston Respublikasi JPKning 402-moddasi, RF JPKning 310-moddasi 1-qismi, Estoniya JPKning 304- va 315-moddalari, GFR JPKning 260-moddadan farqli ravishda milliy qonunchilikning 473-moddasi sud maslahatxonadan sud majlisi zaliga qaytib kirib, hukmning faqat qaror qismini o'qib eshittirishi haqidagi qoidani mustahkamlagan. Bunda

ishda ishtirok etuvchi taraflar sud hukmining asoslantirish qismida keltirilgan vajlar haqida tasavvurga ega ham bo'lmaydi. Natijada sud zalida hukmning faqat qaror qismi o'qib eshittirilishi va hukm nusxasini taraflar, shu jumladan, prokurorga taqdim etish muddatlari belgilanmaganligi aksariyat hollarda taraflarning sud hujjatiga apellatsiya shikoyati, protesti keltirish vakolatini to'laqonli amalga oshirishiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Bu esa taraflar tengligi tamoyiliga ham zid hisoblanadi.

Mazkur masalada bir qator muammolar mavjudligini O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2021-yil 20-apreldagi "Sudlar tomonidan jinoyat ishlarini apellatsiya tartibida ko'rish amaliyoti to'g'risida"gi 13-son qarorining 7-bandida berilgan tushuntirishlardan ham ko'rish mumkin.

Jumladan, Plenum qarorining ushbu bandida "Qonun apellatsiya shikoyati berish huquqini amalga oshirish muddatini mahkum, oqlangan shaxs va jabrlanuvchiga hukm nusxasini topshirish fakti bilan bog'laganligi sababli ishdagi materiallar (masalan, sud majlisi bayonnomasi) bilan tanishgandan so'ng "asosiy" shikoyat (protest) taqdim etilishini ko'rsatib, "dastlabki" apellatsiya shikoyati (protesti) berilishi qonunda nazarda tutilmagan", mazmunidagi tushuntirish qayd etilgan.

Bizning fikrimizga ko'ra, aynan sud hukmi va sud majlisi bayonnomasining (agarda bayonnoma bilan tanishish istagi bildirilsa) qonunda belgilangan muddatlarda taqdim etilishi "dastlabki" apellatsiya shikoyati (protesti) berilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksi qabul qilingunga qadar (1922-yil va 1959-yilda qabul qilingan JPKlar) kassatsiya instansiyasi mustaqil bosqich, nazorat instansiyasi "qo'shimcha" bosqich deb nomlansa-da, u ham mustaqil bosqichni tashkil etgan [10]. Hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosiligi va adolatligini tekshirish jinoyat protsessining mustaqil, to'rtinchi bosqichi deb e'tirof etilganligi va uning o'ziga xos xu-

susiyatlari quyidagilardan iborat: apellatsiya, kassatsiya va qayta kassatsiya tartibida ish yuritish (yangi ochilgan holatlar munosabati bilan jinoyat ishlarini qayta harakatga keltirish) yuqori instansiya sudlari deb nomlanib, hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosiligi va adolatligini tekshirish turlari deb belgilanganligi, shuningdek, sud qarorlari ustidan shikoyat berish va protest bildirish huquqi hamda uning ta'minlanishi bir xil protsessual tartibda amalga oshirilishi.

Bundan tashqari, yuqori instansiya sudlarida ish ko'rishda prokurorning ishtirok etishi lozimligi; yuqori instansiya sudlari hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosiligi va adolatligini tekshirishda jinoyat ishi materiallari hamda taqdim qilingan qo'shimcha materiallarga asoslanishi, shuningdek, apellatsiya, kassatsiya va qayta kassatsiya instansiyalari (yangi ochilgan holatlar munosabati bilan jinoyat ishlarini qaytadan harakatga keltirish) uchun hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosiligi va adolatligini tekshirishda bir xilda ishni ko'rish chegarasi va talabi qo'yilganligini ko'rish mumkin.

Ta'kidlash joizki, birinchi instansiya sudi, apellatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudlarida ishlarni yuritishda umumiy o'xshashliklar bilan bir qatorda jiddiy farqli jihatlar ham mavjud.

Ushbu farqlar quyidagilardan iborat:

birinchidan, apellatsiya ish yurituvda birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hukm va ajrimlari ko'riladigan bo'lsa, kassatsiya ish yurituvda esa birinchi instansiya sudlarining apellatsiya tartibida ko'rilgan hukm va ajrimlari, shuningdek, apellatsiya instansiyasi sudining hukm va ajrimlari ko'riladi;

ikkinchidan, apellatsiya va kassatsiya instansiyasi sudlarida ishlarni ko'rish predmeti, chegarasi va ishlarni ko'rish tartibidagi jihatlar shu instansiyalarga xos tarzda belgilangan;

uchinchidan, apellatsiya instansiyasi sudi-da ishlar sud tergovini o'tkazish, taraflarning

muzokara so'zi, sudlanuvchining oxirgi so'zi va sud hujjatini qabul qilish kabi jarayonlarni o'z ichiga olgan holda mazmunan qayta ko'riladi; kassatsiya sud instansiyasida esa sud muhokamasi yuqorida ko'rsatilgan ayrim jarayonlar o'tkazilmagan holda amalga oshiriladi va o'zining qonunchilikda belgilangan strukturasiga ega bo'ladi;

to'rtinchidan, apellatsiya va kassatsiya instansiya sudlarining vakolatlari, dalillarni baholash hamda sud hujjatlarini qabul qilish vakolatlarida ham jiddiy farqli jihatlar mavjud.

Agar birinchi instansiya sudi tomonidan sud tergovining to'liq emasligi yoki bir yoqlamaligi yoxud protsessual buzilishlarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, apellatsiya instansiyasi sudi to'liq yoki qisman sud tergovini o'tkazish yo'li bilan bo'shliqlarning o'rnini to'ldirish, protsessual buzilishlarni bartaraf etish choralari ko'radi va shu maqsadda bir qator sud harakatlarini amalga oshirishi mumkin.

Shuningdek, apellatsiya instansiyasi sudi ishlarni ko'rish natijasi bo'yicha ayblovluk hukmini chiqarish vakolatiga ham ega.

Kassatsiya instansiyasi sudi esa sud tergovini o'tkazish vakolatiga ega emas. Mazkur instansiyada kassatsiya shikoyati yoki protesti ishda mavjud dalillar va qo'shimcha taqdim etilgan materiallar asosida tekshiriladi.

O'zR JPKning 25-moddasi 1-qismiga muvofiq, birinchi instansiya sudining sud majlisida, shuningdek, ishlar yuqori sudlarda ko'rilayotganda, ish yuritish taraflarning o'zaro tortishuvi asosida amalga oshiriladi. O'zR JPKning 25-moddasida tortishuv faqat ishlar sudda ko'rilishida amal qilishi ta'kidlangan. Tortishuv prinsipi faqat sud jarayoniga emas, protsessning barcha bosqichlariga ham tatbiq etilishi lozim. Shunga mos ravishda, bizningcha, JPKdagi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va himoyachining huquq va majburiyatlari bayon etilgan moddalar qaytadan ko'rib chiqilishi, ularga zarur qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi shart. "Tortishuv prinsipi va tomonlar-

ning tengligi faqat sud muhokamasi jarayonida emas, balki dastlabki tergov bosqichida ham amal qilishi kerak. Jinoyat-protsessual qonunchilikda dastlabki tergov bosqichida jinoyat sudlovidagi tomonlar va ularning protsessual holatlari, jinoyat protsessida shaxsning huquqlari kafolatlanishini aniq belgilaydigan normalar bo'lishi maqsadga muvofiqdir" [11].

Xulosalar

Milliy ma'naviyatimizdagi eng yaxshi qadriyatlardan biri – hayotdagi muammolarni kechirimlilik va yarashuv yo'li bilan hal qilishdir. Agar shaxs birinchi marta jinoyat sodir etgan bo'lsa va aybiga iqror bo'lib, zararni to'liq qoplasa, chin dildan pushaymon bo'lib, kechirim so'rasa, jabrlanuvchi uning qilmishini kechirib, yarashish istagini bildirsa, albatta, har ikki tomon yutadi [12]. Z.F. Inog'omjonovning: "Yarashuv institutining yana bir ahamiyati shundaki, jinoyat ishi soddalashtirilgan tartibda, tezkorlik bilan, qisqa muddatlarda dastlabki tergovdan o'tkaziladi. So'ng sudda mazmunan ko'rib, shu bosqichda qonuniy nihoyasini topadi, natijada ortiqcha sansalorlik barham topadi. Eng asosiysi, inson taqdiriga sudlanganlik tamg'asi bosilmaydi" [13], degan fikrlarini qo'llab-quvvatlaymiz. B.H. Po'latovning yarashuv to'g'risidagi sud qaroriga shikoyat qilish tartibini belgilash, yarashuv ishlarini ko'rishga ixtisoslashgan maxsus yarashuv sudyalari joriy etish [14], S.M. Saxaddinovning protsessual yarashuvni takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishidagi yarashuv ruxsat etilgan qilmishlar doirasini kengaytirish [15] to'g'risidagi takliflari ham tahsinga loyiq.

O'zbekiston Respublikasining 1994-yilda qabul qilingan hamda 2022-yilda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan JPKda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini kafolatlashga keng o'rin berilgan.

Xulosa qilib aytganda, amaldagi JPK faqat inson, uning ehtiyoj va manfaatlariga xizmat qiladi. Lekin bu qoidalarni takomillashtirish, ularni yanada demokratlashtirish biz,

huquqshunoslar oldidagi dolzarb vazifalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida inson omili eng asosiy o'rinda

turadi va u bundan buyon olib boriladigan sud-huquq tizimidagi islohotlarning mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

REFERENCES

1. What changes did Shavkat Mirziyoyev propose to the Constitution? Available at: <https://www.gazeta.uz/uz/2022/06/21/president-suggestions/>
2. To'laganova G.Z. Aybga iqrorlik va protsessual majburlov choralari o'rtasidagi munosabatlar [The relationship between guilty pleas and procedural coercion]. *Proceedings of the scientific-theoretical conference*. Tashkent, TSIL, 2006, p. 39.
3. Nizomov F. Adolat g'oyasi [The idea of justice]. *Life and Law*, 2004, no. 1, p. 77.
4. Inog'omjonova Z.F. Sud hukmiga qo'yilgan talablar [Requirements for a court verdict]. 1994, no. 4, p. 34.
5. Oliy sudning 2023-yil 16-martdagi 07/13-3378-121-son statistika ma'lumotlari [Statistical data of the Supreme Court dated March 16, 2023 No. 07/13-3378-121].
6. V mire kazhdyy chas sovershayetsya okolo 200 tysyach prestupleniy [About 200 thousand crimes are committed in the world every hour]. 2004, April 14. Available at: <https://www.newsru.com/crime/14apr2004/crime.html/>
7. Mirziyoyev Sh.M. Odil sudlovni ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi materiallari [Materials of the meeting of video selectors dedicated to the discussion of the tasks of ensuring justice and fighting corruption]. 2020, June 30. Available at: <https://www.gazeta.uz/uz/2020/06/30/justice/>
8. Abdumajidov G'A. Adolat, javobgarlik, jazo [Justice, responsibility, punishment]. *Hayot va qonun – Life and Law*, 1999, no. 4, pp. 5–9.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi [Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis]. 2020, January 25. Available at: <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020/>
10. Inog'omjonova Z.F. Hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosiligi va adolatliligini tekshirishda sud nazorati [Judicial control in checking the legality, reasonableness and fairness of verdicts, rulings and decisions]. Tashkent, TSIL, 2006, p. 11.
11. To'laganova G.Z. Tortishuv tamoyilining dastlabki tergov bosqichiga tatbiq etilishi [Application of the adversarial principle to the preliminary investigation stage]. Tashkent, TSIL, 2005, p. 18.
12. Kayumov A.S. Dobrovol'nyy otkaz ot soversheniya prestupleniya i deyatel'noye raskayaniye po ugolovnomu zakonodatel'stvu Respubliki Uzbekistan [Voluntary dismissal of the criminal offense of the Republic of Uzbekistan]. PhD thesis. Tashkent, 1999, 24 p.
13. Inog'omjonova Z.F. Jinoyat-protsessual qonunchilikni liberallashtirish – davr talabi [Liberalization of criminal-procedural legislation is the demand of the times]. *Judicial reform: materials of the international scientific and practical conference on theoretical and practical topics*. Tashkent, TSIL, 2001, p. 62.
14. Po'latov B. Yarashuv institutining istiqbollari [Prospects for the Institute of Reconciliation]. *Improving the Institution of Reconciliation: Theory and Practice. Proceedings of the roundtable discussion*. Tashkent, TSIL, 2005, p. 7.
15. Saxaddinov S. Konstitutsiya va O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligida yarashuv institutining shakllanishi [Formation of the institution of reconciliation in the constitution and criminal procedural legislation of the Republic of Uzbekistan]. *Actual problems of ensuring the independence of the judiciary in the stage of democratic renewal of the state and society. Proceedings of the scientific-practical conference*. Tashkent, TSIL, 2002, pp. 282–294.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.4./KCFH1637>
UDC: 340.12:821.112.2(045)(575.1)

GYOTENING HUQUQIY QARASHLARI

Bozorova Nasiba Po'lotjonovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi
ORCID: 0000-0001-9605-0384
e-mail: n.bozorova@tsul.uz

Annotatsiya. *Iogann Volfgang Gyote ota tomonidan ham, ona tarafidan ham Frankfurtagi mashhur huquqshunoslar sulolasi davomchisi bo'lgan. Uning faoliyati ham universitet tahsilidan boshlab huquqshunoslik bilan bog'liq kechgan. Garchi adib hayotining asosiy qismini huquq sohasida xizmat qilib o'tkazgan bo'lsa-da, u adabiyot, badiiy ijod ortidan shuhrat cho'qqisiga ko'tarildi. Gyote o'z asarlarida adabiy-estetik, diniy-falsafiy qarashlar bilan birga siyosiy, ijtimoiy, huquqiy muammolarni ham keng yoritgan. Uning she'riyati poeziya va huquq uyg'unligining yuksak namunasi bo'lib, adibning she'r va dramalarida haq va haqiqat, hurlik, ozodlik va uning inson qismatidagi o'rni haqida keng bahs yuritilgan. Shuningdek, uning yirik hajmli romanlarida inson va jamiyat munosabatlari boricha qalamga olingan. Gyotening ilk ijod namunasi hisoblangan "Yosh Verterning iztiroblari" asarida ham bu qarashlar o'ziga xos aks ettirilgan. Ularda yosh Gyote har qanday qog'oz, qonun va qoidalardan ustun qalb haqiqati mavjudligi, insoniy adolat jamiyat a'zolari tomonidan yozilgan qonun-qoidalardan yuqori turishini e'tirof etgan. Maqolada shu xususda so'z yuritilib, asar tahlili asosida Gyotening huquqiy qarashlari tadqiq etilgan.*

Kalit so'zlar: *Iogann Volfgang Gyote, nemis millati, ijtimoiy munosabatlar, badiiy ijod, "Yosh Verterning iztiroblari", tabiiy huquq, jamiyat, huquqiy qarashlar, adolat.*

ПРАВОВЫЕ ВЗГЛЯДЫ ГЁТЕ

Бозорова Насиба Пулотжоновна,
кандидат филологических наук,
доцент кафедры узбекского языка и литературы
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. *Иоганн Вольфганг Гёте был потомком и по отцовской, и по материнской линии известных семей юристов во Франкфурте. Его карьера была связана с юриспруденцией с момента учебы в университете. Хотя писатель большую часть своей жизни проработал в области права, к вершине славы он поднялся благодаря литературе и художественному творчеству. Наряду с литературно-эстетическими, религиозно-философскими воззрениями Гёте освещал в своих произведениях политические, социальные и правовые проблемы. Его поэзия – высокий пример соединения поэзии и права, в его стихах и драмах широко обсуждаются истина, право, свобода, воля и их место в судьбе человека. Также в его масштабных романах описываются взаимоотношения человека и общества. Эти взгляды нашли отражение в произведении «Страдания юного Вертера», которое принято считать первым образцом творчества Гёте. В них молодой Гёте признавал, что истина сердца выше любой бумаги, закона и правил, а человеческая справедливость выше правил и законов, написанных членами общества. В статье обсуждается данная тема и исследуются правовые воззрения Гёте на основе анализа его произведений.*

Ключевые слова: Иоганн Вольфганг Гёте, немецкая национальность, общественные отношения, художественное творчество, «Страдания юного Вертера», естественное право, общество, правовые взгляды, справедливость.

LEGAL VIEWS OF GOETHE

Bozorova Nasiba Pulotjonovna,
Tashkent State University of Law,
Associate Professor of the Department
of Uzbek Language and Literature, Candidate of Philology

Abstract. Johann Wolfgang Goethe was a descendant of both paternal and maternal lines from a prominent family of lawyers in Frankfurt. His career has been connected with jurisprudence since his studies at the university. Although the writer worked most of his life in the field of law, he rose to the top of fame thanks to literature and artistic creativity. Along with literary, aesthetic, religious, and philosophical views, Goethe covered political, social, and legal problems in his works. His poetry is a high example of the combination of poetry and law; in his poems and dramas truth and law, freedom, will and their place in the fate of man are widely discussed. Also, in his large-scale novels, the relationship between man and society is written. These views are reflected in the work "The Suffering of Young Werther", which is considered to be the first example of Goethe's work. In them, the young Goethe recognized that the truth of the heart is above any paper, law, rules, and human justice is above the rules and laws written by members of society. The article discusses this topic and explores Goethe's legal views based on an analysis of his works.

Keywords: Johann Wolfgang Goethe, German nationality, public relations, artistic creativity, "The Sufferings of Young Werther", natural law, society, legal vision, justice.

Kirish

Har bir xalq o'z milliy ma'naviyati, shuningdek, jahon tamadduni, bashariyatning ruhiy-ma'naviy kamolotiga hissa qo'shgan buyuk farzandlari bilan faxr etadi. Bunday zotlarning hayoti, faoliyati, ma'naviy merosini o'rganish, tadqiq va targ'ib etishga katta kuch sarflaydi. Hatto butun millatga daxldor faoliyat, holat va jarayonlar, makon va martabalarni ham ularning nomi bilan bog'laydi. Iogann Volfgang Gyote ham nemis millati tarixida shunday o'rin tutgan siymolardandir.

Gyote yangi davr nemis adabiyotining asoschisi. U o'zigacha Yevropa xalqlarining ijtimoiy munosabatida hech qanday ahamiyatga ega bo'lmagan, farang va italyan tillari soyasida qolib ketayotgan olmon tili va adabiyotini qayta kashf etgan, teran tafakkuri, hassos qalbidan to'kilgan so'zi bilan insoniyat tarixida yorqin iz qoldirgan ijodkor. Gyote-

ning buyuk xizmatlaridan biri Sharq xalqlari tarixi, madaniyati va adabiyotini chuqur o'rganib, bu madaniyatning G'arbda tarqalishiga hissa qo'shganidir.

Material va metodlar

Gyote shaxsiyati, ijodi haqida ko'p tadqiqotlar olib borilgan. Uning ijodi, yaratgan qahramonlari, ayniqsa, ijodkor adabiy faoliyatining ilk davriga mansub "Yosh Verterning iztiroblari" romani qizg'in bahs-u munozaralarga sabab bo'lgan. O'z davrida asar adabiyotshunoslar tomonidan kishining qalb torlarini chertib o'tuvchi, inson qalbi va ruhini ko'klarga ko'taruvchi, prozadagi poeziya sifatida yuksak baholangan. Shu bilan birga, asar bosh qahramonining o'z joniga qasd etishi yoshlarning hayotiga salbiy ta'sir qilishi haqida keskin tanqidlar ham bildirilib, kitobni taqiqlash fikri o'rta tashlangan edi [1. 140].

Qanday munosabat bo'lishidan qat'i nazar, 23 yoshli navqiron yigitning tuyg'ular olovida yashab, ruhiy tushkunlik, iztirob alangasidan qutulish uchun yozgan mazkur asari ikki asrdan oshiq vaqtdan buyon o'qiladi, o'rganiladi, bahs-u munozara etiladi. Aslida, romanning cheksiz vaqt ichra yo'qolib ketmay, millat, madaniyat, til chegaralariga qaramay, kitobxon qalbiga kirib borishining bosh sababi unda abadiyatga daxldor haqiqatning o'ta noziklik bilan qalamga olinganidir. "Yosh Verterning iztiroblari" – o'zni izlash yo'lidagi insonning mashaqqati, kechinma, dard-u intilishlari, buyuk ISHQ hukmiga taslim bo'lgan qalb qismatini ochiqlovchi asar. Asarni o'qiyotganda o'quvchini birinchi galda uning maktublardan iborat ekani qiziqtirishi tabiiy. Mutaxassislar "Yosh Verterning iztiroblari" o'sha davrda urf bo'lgan epistolyar, ya'ni xatlardan iborat sentimental romanlar uslubida yozilganini qayd etishgan [2]. Bu fikr to'g'ri, biroq Gyote faqat urf bo'lgani uchungina bu uslubni tanlamagan. Asar voqeligi, ayniqsa, qalb kechinmalari, qarama-qarshi hislar, baxt va kulfat, shodlik va iztirobni odam maktubdagina boricha to'ka oladi. Maktub kishiga o'zni taftish etish, tanqid qilish, izlash, topish imkonini beradi. Gyote "baayni saqoqushdek yurak qoni bilan oziqlantirgan" [1. 142] o'z Verterining iztiroblarini maktubdan o'zga janrda bera olmasdi. Qolaversa, maktub o'tmish emas, kelajak egalariga qaratilgan va Yaratganning bandalariga o'z rasullari orqali yetkazgani ham bitik – Maktubdirki, badiiy ijodda eng sara asarlar Unga taqlidan yozilgan. Asarning bu tarzda yozilishi Gyotega keng imkoniyat bergan va yozuvchi turli munosabat, holat va kayfiyat bilan voqelikni baholagan, o'z qarashlarini erkin bayon etgan. Maktublarda Verter (Gyote)ning nafaqat qalb kechinmalari, Lottoga bo'lgan cheksiz muhabbati, dard-iztiroblari, balki san'at, tabiat, din, jamiyat haqidagi falsafiy mushohadalari ham ifodalangan. Ularni o'rganish esa bizga Gyote shaxsini yaxshiroq bilishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari

Bilamizki, Gyote butun umri davomida faqat badiiy ijod bilan mashg'ul bo'lmagan. U ota tomonidan ham, ona tarafidan ham Frankfurtdagi mashhur huquqshunolar sulolasi davomchisi bo'lgan. Gyotening ham faoliyati universitet tahsilidan boshlab huquqshunoslik bilan uzviy bog'liq. Akademik A. Saidov Gyotening davlat xizmatidagi huquqshunoslik faoliyati davrida to'plagan boy tajribalari keyinchalik uning maxfiy huquq maslahatchisi lavozimida ishlashiga yordam berganini ta'kidlaydi [2. 57]. Garchi faoliyatining asosiy qismi huquq bilan kechgan bo'lsa-da, Gyote adabiyot, badiiy ijod ortidan shuhrat cho'qqisiga ko'tarildi. Uning she'r va dramalarida haq va haqiqat, hurlik, ozodlik tuyg'ulari va uning inson qismatidagi o'rni haqida bahs yuritilsa, yirik hajmli "Vilgelm Mayesterning o'qish yillari", "Vilgelm Mayesterning darbadarlik yillari", romanlarida inson va jamiyat munosabatlari qalamga olingan. Gyote huquqshunoslardan farqli ravishda o'z asarlarida inson huquqlarini chinakam oliy qadriyat deb baholadi. U huquq himoyachisi o'laroq tabiiy huquqlarga raxna soluvchi, shuningdek, "sen kimsan?" emas, faqat "sen nimaga egasan?" tushunchasi bilan qiziquvchi, insonlar tomonidan o'ylab topilgan qoidalarga qarshi turdi va: "Barcha mohiyat tabiiy huquqlarda, ammo aynan ular tuproqqa qorilgan", – deya baralla ayta oldi.

Huquqshunos-adibning biz tahlil obyekti sifatida tanlagan "Yosh Verterning iztiroblari" asarida ham bunday qarashlar o'z ifodasini topgan. Chunonchi, mutafakkir adib san'at haqidagi so'z yuritar ekan, buyuk san'atkorni faqat tabiat yarata olishini alohida e'tirof etadi: "Ijtimoiy tuzumni qancha maqtab gapirsalar, undagi qonun-qoidalar borasida ham shu narsani aytish mumkin: jamiyat qonun-qoidalari asosida shakllangan odam qandaydir bema'nilik, buzuqlikka yo'l qo'ymaydi, xuddi shuningdek, ma'lum qoidalar asosida to'qchilikda tarbiya topgan kishidan ham yaramas qo'shni yoki ashaddiy

jinoyatchi chiqmaydi. Menga istagancha uqtiraversinlar-u, biroq qat'iy qonun-qoidalar tabiatni his etib, uni haqqoniy tasvirlash qobiliyatini so'ndiradi" [3. 14]. E'tibor qilsak, shoir "qoliplar" doirasida yashash va belgilangan me'yorga qat'iy amal qilish, undan og'ishmaslik odamni tabiatni his qilish, uni haqqoniy tasvirlashdan yiroq etishini alohida ta'kidlagan. Bu orqali Gyote yashash, ozodlik, erkinlik, e'tiqod, ijod qilish kabi tabiiy huquqlarning jamiyat qonunlari bilan tartiblanishi insonni sof tabiati (idillik)dan uzoqlashtirib fabrikalashtirishiga ishora etgan. Yozuvchi yuqoridagi mulohazalarini yanada ochiqroq tushuntirish uchun shunday misol keltiradi: "Tasavvur qil, yoshgina yigit bir qizga shunchalik bog'lanib qolganki, u uzzukun vaqtini shu yerda o'tkazadi va unga cheksiz sadoqatini har lahzada isbotlash uchun unga o'zining bor kuchini, qo'lidan kelgan bor imkoniyatini ishga soladi. Shunda allaqaysi yuqori lavozimdagi bir korchalon kelib, oshiqqa deydi: "Yaxshi yigit! Sevish insonga xos xususiyat, insondek seva bilish kerak! Vaqtini shunday sarflangki, uning bir qismini ishga ajrating, bo'sh vaqtingizni sevgilingiz yonida o'tkazing. Agar o'z zarur ehtiyojlaringizdan ortsa, baholi qudrat unga biror narsa tortiq qilishingiz ham mumkin. Hamisha emas, faqat uning tug'ilgan kuni yoki boshqa ulug' ayyom kunlaridagina sovg'a qiling" [3. 14]. Ko'rinadiki, jamiyat hatto tuyg'ularni ham me'yorlashtirishni talab qiladi. Risoladagidek, "silliq", bama'ni odam jamiyatbop va u hammaga yoqadi. Aksincha, tuyg'ulari tirik, olamni boshqa xil ko'radigan va anglaydigan, hamma yurgan yo'ldan yurmay, ota-bobolari izini mahkam tutganni esa yo mast, yo jinni, yo begonaga chiqarishadi. Jamiyat yoxud qonunlar – qo'riqchi. Gyote ayni shu mulohazani Verter maktubining oxirida: "Buyuk zakovat chashmasi, qalb to'lqinlari toshib ketmasligi uchun daryoning har ikki qirg'og'ida avvaldan toshqinni qaytaruvchi kanal va to'g'onlar qurib qo'ygan mulohazali janoblar yashaydi" [3. 15], – deya kinoya uslubida beradi.

Tadqiqot natijalari tahlili

"Yosh Verterning iztiroblari"da o'z davri fransuz huquq tizimi uchun muhim bo'lgan qarashlar ham aks etgan. Bunday qarashlar boshqa adiblar ijodi va ular ilgari surgan g'oyalar bilan taqqoslaganda yanada ravshanlashadi. Jumladan, Gyote jinoyatni baholashda birinchi galda natijaga emas, balki uning yuzaga kelish sababiga e'tibor qaratish lozim deb aytadi va Verterning nutqi orqali quyidagi mulohazalarni bayon etadi: "O'g'rilik albatta illat hisoblanadi: o'zini va oilasini ochlikdan qirilish xavfidan qutqarish maqsadida o'g'rilik qilishga majbur bo'lgan odam achinishga loyiqmi yoki jazogami? Haqqoniy qahri kelib, o'z bevafo xotinini, uning yaramas xushtorini qurbon qilgan erkakni kim ham ayblaydi?" [3. 50]. Bu qarash o'z davrida Yevropa qonunchiligidagi bosh muammo hisoblangan [1]. Ayni shu masalani Viktor Gyugo ham "Klod Gyo" asarida olib chiqqan edi. Mazkur qissada xotini va bolasini boqish uchun (nima o'g'irlagani keltirilmagan, ammo shu o'g'rilik bilan oila 3 kun ovqat yeb, issiq uyda uxlagan edi) o'g'rilik qilgan ishsiz, qashshoq Gyoning ayanchli taqdiri hikoya qilinib, Fransiya qonunlarining adolatsizligi, jinoyat va unga berilgan jazoning nohaqligi yoritilgan edi. Ayni shu qissa xotimasida Viktor Gyugoning "O'lim jazosini bekor qilish" to'g'risidagi nutqi keltirilib, unda adib: "Fransiya respublika deb ataladimi yo monarxiya davlati deb yuritiladimi, xalq baribir azob chekaveradi – bu shubhasiz. Xalq och va yupun. Qashshoqlik uni jinoyat sari yo'llamoqda, fahsh botqog'iga cho'ktirmoqda. O'g'illari qamoqxonalar, qizlarini fohishaxonalar tortib olayotgan xalqqa rahmingiz kelsin" [4. 83], – deya achchiq haqiqatdan so'zlaydi. Xuddi shunday fikrni och va yupun, tirikchilik vajidan jinoyatga qo'l urayotgan fuqarosi-ga g'amxo'rlik qilish o'rniga uni jazolashni birinchi vazifa deb bilgan qudratli Rossiya misolida Anton Chexov ham "Yovuz niyatli kishi" hikoyasida ilgari surgan. Bu orqali har uchala adib avvalo odamday hayot kechi-

rish uchun qayg'urmagan, sharoit yaratmagan qonun yoxud hukumatning fuqaroning yashash, "o'zini va oilasini ochlikdan qirish xavfidan qutqarish maqsadida" qilgan jinoyatini baholashi ne chog'lik adolatli bo'la olishiga urg'u berishgan va qonunlarda avval ta'minlash, so'ng talab qilish prinsipi ustuvor bo'lishini ta'kidlashgan.

"Yosh Verterning iztiroblari" asarida jinoyatchilik haqida yana shunday epizod keltirilgan: Xizmatkori bilan janjallashib, uni uyidan haydab yuborgan bir beva ayolnikida sodir bo'lgan qotillik jinoyatini eshitgan Verter qotil yigitni (Verter qo'shni qishloqqa ketayotib unga duch kelgan va uning baxtsiz sevgi qissasini eshitgan edi) oqlashga urinadi. Bu musibatli va dahshatli hodisa Verterning barcha fikr-o'ylarini ostin-ustun qilib yuboradi. Undagi alam, umidsizlik va beparvolik bir lahzada g'oyib bo'ladi. O'z bekasini sevib qolgan xizmatkor yigitni bekaning o'zgaga turmushga chiqayotgani shu holga solganini darrov fahmlaydi va "Muhabbat va sadoqatdek eng oliy insoniy tuyg'ular oxiri zo'rlash va o'limga olib kelgan" [3. 106], – degan xulosaga keladi. Verterning ichidagi tuyg'ular sevgilisiga yetolmagan xizmatkor yigitning tuyg'ulari bilan bir xil bo'lgani uchun, u qotilning holatini anglaydi va uni qutqarishga intiladi. Qolganlarning barchasi xizmatkorni ayblaydi, qotilni himoya qilishni o'z bo'yni-

ga olayotgani uchun Verterni koyishadi. Yozilgan qonunlar qarshisida imkonsiz qolgan Verter: "Seni qutqarib bo'lmaydi, baxtiqaro! Bizni qutqarib bo'lmasligini bilib turibman!" [3. 107], – deya nadomat chekadi. Bu qarash bizga jinoyatni baholashda uning tabiati, yuzaga keltiruvchi sabab va omillarini o'rganish, aybdorning ruhiy holatini hisobga olish lozim, degan xulosani beradi.

Xulosalar

1. "Yosh Verterning iztiroblari" asarida Gyote o'zining adabiy-estetik, diniy-falsafiy qarashlari bilan birga siyosiy, ijtimoiy, huquqiy muammolarni ham yoritgan.

2. Gyote mazkur asarida har qanday qog'oz, qonun va qoidalardan ustun qalb haqiqati mavjudligi, insoniy adolat jamiyat a'zolari tomonidan yozilgan qoida-qonunlardan yuqori turishini e'tirof etgan.

3. Gyotening "Yosh Verterning iztiroblari", shuningdek, Viktor Mari Gyugoning "Klod Gyo" qissalari, Anton Chexovning "Yovuz niyatli kishi" hikoyasida qonunlarda avval ta'minlash so'ng talab qilish prinsipi ustuvor bo'lishi ta'kidlangan.

4. Shuningdek, asarda bosh qahramon Verter mushohadalari ostida Germaniya qonunchiligidagi dolzarb masalalar yoritilganki, ularni o'rganish bizga huquqshunos-adib Gyotening huquqqa munosabatini bilishga yordam berishi shubhasiz.

REFERENCES

1. Egamova Y. Verter iztiroblarining talqini. Yosh Verterning iztiroblari [An interpretation of Werther's sufferings. The Sorrows of Young Werther]. Tashkent, O'qituvchi Publ., 2018.
2. Mamatova M. Gyotening "Yosh Verterning iztiroblari" romani va uning janr xususiyatlari [Goethe's novel "The Sorrows of Young Werther" and its genre features]. Available at: <http://conferences.neasmo.org.ua/ru/art/1634>
3. Bozorova N. Qonun axloqqa zid bo'lsa [If the law is against morality]. *East-West Renaissance Literature: Proceedings of the International Scientific and Theoretical Conference on Navoi and Shakespeare*, 2022.
4. Gyugo V. Klod Gyo. Qissa [Claude Guo. Story]. Yangi asr avlodi Publ., 2014.
5. Saidov A. Gyote – tafakkur sohibi [Goethe is a thinker]. *World Literature*, 2015.

6. Bozorova N. Badiiy asar qahramoni taqdirida hujjatlar o'rni [The role of documents in the fate of the hero of a work of art]. *Education and Innovative Research International Scientific and Methodological Journal*, 2020, no. 1 (2), pp. 71–75.
7. Bazarova N. Yuridicheskiye terminy v proizvedenii "Shaytanat" Tokhira Malika [Legal Terms in the Works of "Shaytanat" Tohir Malik]. *Review of Law Sciences*, 2020, no. 4, pp. 194–199.
8. Gulyamova G. Izucheniye giponimii i sinonimii yuridicheskikh terminov v usloviyakh distantsionnogo obucheniya [Study of hyponymy and synonymy of legal terms in the context of distance learning]. *Review of Law Sciences*, 2020, no. 2, pp. 250–253.
9. Ziyamuxamedova Sh., Adilbekova J. Vliyaniye yazyka na soznaniye, kul'turu i mirovozzreniye [Impact of language on consciousness, culture and worldview]. *Academic Research in Educational Sciences*, 2022, no. 3 (1), pp. 537–546.
10. Matenov R.B. Sintaksicheskaya organizatsiya yuridicheskogo teksta [Syntactic organization of legal text]. *Education and Upbringing*, 2015, no. 5, pp. 3–4.
11. Niyazova N.J. Aktual'nost' izucheniya stranovedcheskikh tekstov v realizatsii yedinstva obucheniya i vospitaniya studentov [The relevance of studying regional studies texts in the implementation of the unity of teaching and educating students]. *Economy and Society*, 2023, no. 2 (105), pp. 964–968.
12. Ramazanov N. Pravo i literatura: pravovoy diskurs v literature i perspektivy traktovki pravovykh tekstov khudozhestvennymi metodami [Law and Literature: Legal Discourse in Literature and Prospects for the Interpretation of Legal Texts by Artistic Methods]. *Review of Law Sciences*, 2020, no. 4, pp. 180–188.
13. Rasulmuxamedova D. Topics and Issues Raised in the Works of Gafur Gulyam. *World Bulletin of Management and Law*, 2023, no. 18, pp. 68–70.
14. Choriev O.A. Role and significance of law oriented works in pre-service training of legal specialists. *Review of Law Sciences*, 2018, p. 32.
15. Nash M. The politics of public protection. In Handbook of public protection. Eds. M. Nash, A. Williams. 2010, pp. 82–102.
16. Black J. Critical reflections on regulation. *Austl. J. Leg. Phil.*, 2002, no. 27, p. 1.
17. Booth R. Police face calls to end use of facial recognition software. *The Guardian*, 2019.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.4./EFZU8948>
UDC: 346.2+338.242.46(045)(575.1)

KORXONALARNI INVESTITSION RIVOJLANTIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING ROLI: SHVETSIYA MISOLIDA

Azimova Dilafruz Mirzatullayevna,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Davlat boshqaruvi kafedrası dotsenti v. b.,

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0009-0009-4627-1491

e-mail: dilafruz.azimova2020@gmail.com

Annotatsiya. Samarali korporativ boshqaruv korxonaning muvaffaqiyatli faoliyatining muhim sharti hisoblanadi. Shuningdek, barqaror rivojlanishni aniqlovchi, aksiyadorlar, mijozlar va boshqa aloqador shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi, korxonaning moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirish sohasidagi eng muhim yo'nalishdir. Korporativ boshqaruvning oilaviy modeli yoki oilaviy kapitalizm hamda oilaviy biznes guruhlari dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida keng tarqalgan. Jumladan, Osiyo va Lotin Amerikasi davlatlari, Kanada, shuningdek, Yevropa mamlakatlarida (Shvetsiya, Italiya va Fransiya) amal qiladi. Bunda yirik korporatsiyalar bir oila a'zolari tomonidan boshqarib boriladi. Mazkur maqolada xorij amaliyotida, xususan, Shvetsiyada korporativ boshqaruv tizimining o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan bo'lib, unda korporativ boshqaruv nazariyalari va asosiy tamoyillari evolyutsiyasi, korporativ boshqaruvning korxonalarni investitsion ta'minlashdagi o'rni, uning zamonaviy uslublari va modellari, institutsional asoslari kabi masalalar nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Shu bilan birga, Shvetsiyada korporativ boshqaruv organlari va ularning ijro etuvchi organ bilan o'zaro ta'siri, nazorat organlarining vazifalari va funksiyalari, korporativ madaniyat, korxonalarga jalb qilingan investitsiyalarning shaffofligi va korporativ boshqaruv samaradorligini baholash, korporativ firibgarlik riskining oldini olish hamda unga qarshi kurashish jarayonining asosiy bosqichlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: korporativ boshqaruv, korporativ boshqaruv organlari, korporativ madaniyat, samaradorlikni baholash, investitsion loyihalar, korporativ firibgarlik riski.

РОЛЬ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В ИНВЕСТИЦИОННОМ РАЗВИТИИ ПРЕДПРИЯТИЙ: НА ПРИМЕРЕ ШВЕЦИИ

Азимова Дилафруз Мирзатуллаевна,

доктор философии по экономическим наукам (PhD),

и. о. доцента кафедры «Государственное управление»

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Эффективное корпоративное управление является важным условием успешной деятельности предприятия. Определяющее устойчивое развитие, защищающее права акционеров, клиентов и других заинтересованных лиц, служит важнейшим направлением деятельности предприятия в области повышения его финансовой эффективности. Семейная модель корпоративного управления, или семейный капитализм, или семейные бизнес-группы, получила распространение практически во всех странах мира. Такая система корпоративного

управления часто встречается в странах Азии и Латинской Америки, в Канаде, а также в европейских странах (Швеция, Италия и Франция). Управление крупнейшими корпорациями осуществляется членами одной семьи. В данной статье рассмотрены особенности системы корпоративного управления в зарубежной практике, в частности, в Швеции, где теоретически и практически проанализированы такие вопросы, как эволюция теорий и основных принципов корпоративного управления, роль корпоративного управления в инвестиционном обеспечении предприятий, его современные методы и модели, институционные вопросы. Кроме того, проанализированы органы корпоративного управления в Швеции и их взаимодействие с исполнительным органом, задачи и функции контролирующих органов, корпоративная культура, оценка прозрачности инвестиций в предприятия и эффективности корпоративного управления, а также основные этапы процесса предупреждения и борьбы с риском корпоративного мошенничества.

Ключевые слова: корпоративное управление, органы корпоративного управления, корпоративная культура, оценка эффективности, инвестиционные проекты, риск корпоративного мошенничества.

THE ROLE OF CORPORATE GOVERNANCE IN THE INVESTMENT DEVELOPMENT OF ENTERPRISES: IN THE EXAMPLE OF SWEDEN

Azimova Dilafruz Mirzatullayevna,

Tashkent State University of Law,
Associate Professor of the Department
of Public Administration, PhD in Economics

Abstract. *Effective corporate governance is an important condition for the successful operation of an enterprise. Defining sustainable development and protecting the rights of shareholders, customers, and other stakeholders serves as the most important direction of the enterprise's activities in the field of improving its financial efficiency. The family model of corporate governance, or family capitalism and family business groups, has become widespread in almost all countries of the world. Such a corporate governance system is often found in Asian and Latin American countries, in Canada, and in European countries (Sweden, Italy, and France). The management of the largest corporations is carried out by members of the same family. This article examines the features of the corporate governance system in foreign practice, in particular in Sweden, where theoretically and practically analyzed such issues as the evolution of theories and basic principles of corporate governance, the role of corporate governance in the investment support of enterprises, its modern methods and models, and institutional issues. In addition, corporate governance bodies in Sweden and their interaction with the executive body, the tasks and functions of regulatory bodies, corporate culture, assessment of the transparency of investments in enterprises, and the effectiveness of corporate governance, as well as the main stages of the process of preventing and combating the risk of corporate fraud, are analyzed.*

Keywords: *corporate governance, corporate governance bodies, domestic model, corporate culture, efficiency assessment, investment projects, corporate fraud risk.*

Kirish

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida mamlakatimizda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash, xoldinglar, kompaniyalar, korxonalar, tijorat banklari, aksiyadorlik jamiyatlari-da korporativ boshqaruv samaradorligi-

ni oshirish, aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish, korporativ boshqaruvni zamonaviy rivojlantirish, korxonalar amaliyotida korporativ boshqaruv standartlari va kodekslarini ishlab chiqish, korporativ boshqaruv amaliyotida samarali faoliyat olib borishda ilg'or xorijiy tajribalarni

qo'llash kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xorijiy davlatlarning korporativ boshqaruvga oid tajribasini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish va undan samarali foydalanish davr taqozosidir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4720-sonli Farmoni ushbu sohani jadal rivojlantirishning huquqiy asosini tashkil etib, unda korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish, korporativ boshqaruv va menejment sohasida mutaxassislar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ularning professional saviyasini oshirish kabi vazifalar ham belgilab berilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali faoliyat yuritadigan korxonalarni shakllantirish, kapitalni oqilona taqsimlash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda talab darajasida yo'lga qo'yilgan korporativ boshqaruv tizimi muhim rol o'ynaydi. Shu bois dunyo miqyosida korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish dolzarb masalalardan biri bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish iqtisodning barcha sohalariga ichki investitsiyalarni jalb etishning muhim omili hisoblanadi. Chunki milliy iqtisodiyotda korporativ sektorni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun samarali boshqaruvning zamonaviy mexanizmlarini tezkor joriy etish davr talabidir. Korporativ boshqaruvning past darajasi aksiyadorlik jamiyatlariga investitsiya resurslarini jalb qilish va biznesni rivojlantirishning strategik vazifalaridan biri sanaladi. Aynan shuning uchun so'nggi yillarda korporativ boshqaruvni takomillashtirish masalasi ham davlat, ham bozor ishtirokchilarining e'tiborini tortmoqda. Shu bois biz chet elda davlat mulki va xususiy mulkni boshqarish bo'yicha korporativ tajribani ko'rib chiqamiz.

Korporativ boshqaruv shunday tushunchaki, u o'zida menejerlar, direktorlar kengashi, aksiyadorlar va kompaniyani boshqarish bo'yicha manfaatdor bo'lgan shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimini ifoda etadi. Bunday tizim nafaqat ta'sischi daromadlari, balki kompaniyaning kelgusi investitsiyalariga ham ta'sir ko'rsatadi [1].

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida korporativ boshqaruvning yagona ta'rifi mavjud emas. Korporativ boshqaruvga oid turli ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar olib borilgan hamda ular natijasida korporativ boshqaruv to'g'risida turli ta'riflar shakllangan. Ushbu ta'riflar asosan mamlakat huquqiy vaziyati yoki muallifning qarashlariga bog'liq ekanligini ko'rish mumkin [2].

Xorijiy mualliflardan Ser Adrian Kedberi birinchi bo'lib 1992-yilda korporativ boshqaruvning moliyaviy jihatlari bo'yicha qo'mitaning hisobotida korporativ boshqaruvga quyidagicha ta'rif bergan: "Korporativ boshqaruv (ingl. Corporate Governance) – kompaniyalarni boshqarish va ular faoliyatini nazorat qilish tizimidir" [3].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimi D. Suyunov ham korporativ boshqaruvga o'z ta'rifini ishlab chiqqan: "Korporativ boshqaruv mulk shaklidan qat'i nazar, amaldagi huquqiy me'yorlarga asoslanib, boshqaruvning ma'lum bir tamoyillari asosida korxona maqsadiga erishish uchun amalga oshiriluvchi faoliyat majmuidir" [4].

Mamlakatimizda korporativ tuzilmalarda korporativ boshqaruvning joriy etilishi va samaradorligini oshirish, personalni boshqarish masalalari B. Xodiyev, S. G'ulomov, Q. Abdurahmonov, B. Berkinov, N. Yo'ldoshev, D. Rahimova, M. Tursunxo'jayev, Sh. Zaynutdinov, J. Fattaxova, A. Hoshimov, R. Nurimbetov, M. Xamidulin, D. Suyunov, Sh. Yuldashev, D. Begmatova, M. Ziyayeva va boshqa iqtisodchi olimlar [5] tomonidan tadqiq etilgan.

Material va metodlar

Tadqiqot metodologiyasining asosini korporativ boshqaruvning amaliyoti va model-

lari bo'yicha tizimli tahlil, tanlama adabiyotlar tahlili bo'yicha materiallar tashkil qiladi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida umumlash-tirish, taqqoslash, analiz va sintez kabi ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

Zamonaviy sharoitda raqobatning kucha-yishi kuzatilmoqda. Natijada korxonalar rahbariyati doimiy ravishda raqobat sha-roitlariga mos keladigan yangi tarmoq va korxonalarni boshqarish vositalari ham-da raqobatbardoshlikni oshirish yo'llarini qidirmoqda. Bunday vositalar orasida kor-porativ boshqaruv alohida o'rin tutadi [6]. Jahon amaliyotida korporativ boshqaruvning turli xil modellari mavjud [7]. Har bir davlat o'ziga xos xususiyatlardan kelib chiqib, kor-porativ boshqaruv modelini shakllantiradi [8]. Jahondagi mavjud korporativ boshqaruv modellari to'rt xil modelga asoslanib, ular amaliyotda qo'llashdagi o'ziga xos xususiyat-lari va amal qilish mexanizmi bilan bir-biri-dan farqlanadi [8]. Olib borilgan tadqiqotlar asosida ushbu to'rt modeldan korporativ boshqaruvning oilaviy modeli Shvetsiya mi-solida o'rganildi.

Shvetsiyada korporativ boshqaruv nazari-yalari va asosiy tamoyillari evolyutsiyasi. Shvetsiyada korporativ boshqaruv tarixi mamlakatning birinchi korporatsiyalari tash-kil topgan XX asr boshlariga to'g'ri keladi. O'sha paytda korporativ boshqaruv, birinchi navbatda, aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish va direktorlar kengashining ular ol-didagi hisobdorligini ta'minlashga qaratilgan edi. Biroq 1960–1970-yillarga kelib, korpo-rativ boshqaruv korporativ mas'uliyatning muhim qismi sifatida ko'rila boshladi.

1980-yillarda Shvetsiya moliyaviy in-qirozni boshdan kechirdi. Bu esa korporativ boshqaruv amaliyotlarini yaxshilash zarurli-gini ko'rsatdi. Inqirozga korporativ boshqa-ruvning zaif amaliyotlari, haddan tashqari ta-vakkalchilik va tartibga soluvchi nazoratning sustligi kabi omillar kombinatsiyasi sabab bo'ldi. Natijada Shvetsiya hukumati korpo-

rativ boshqaruvni takomillashtirish va kela-jakdagi inqirozlarning oldini olishga qaratil-gan qator islohotlarni amalga oshirdi. Eng muhim islohotlardan biri 2005-yilda Shvet-siyaning Korporativ boshqaruv kodeksining qabul qilinishi bo'ldi. Kodeks Shvetsiya kom-paniyalari uchun korporativ tamoyillar va yo'riqnomalar to'plami bo'lib, u direktorlar kengashi tarkibi, boshqaruv organlari: bosh direktor va boshqa rahbarlarning roli ham-da moliyaviy hisobotlarni tayyorlash tarti-bini o'z ichiga qamrab oladi. Kodeks ixtiyoriy bo'lishiga qaramasdan, kompaniyalar ushbu kodeksga qanday rioya qilinishini tushuntiri-shi yoki undagi ba'zi qismlar bajarilmasa, tu-shuntirish berishi kerak [9].

So'nggi yillarda Shvetsiyada barqarorlik va korporativ ijtimoiy mas'uliyatga e'tibor kuchaymoqda. Ko'pgina kompaniyalar o'zla-rining korporativ boshqaruv amaliyotlarida ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) ta-moyillarini qabul qila boshladilar. Bu ular faoliyatining atrof-muhit, xodimlari va ular faoliyat yuritayotgan jamoalarga ta'sirini hi-sobga olishni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, Shvetsiyada korporativ bosh-qaruv nazariyalari va tamoyillari evolyutsi-yasi turli omillar, jumladan, moliyaviy inqiro-zlar hamda barqarorlik va korporativ ijtimoiy mas'uliyatga e'tiborning ortib borishi bilan shakllangan. 2005-yilda Shvetsiya Korpo-rativ boshqaruv kodeksining qabul qilinishi Shvetsiyada korporativ boshqaruv amaliyoti-ni shakllantirishda muhim rol o'ynadi va ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) tamoyilla-rining tobora ko'proq qabul qilinishi mam-lakatda korporativ boshqaruvning kelajagini sezilarli darajada ijobiy shakllantirishi mum-kin.

Shvetsiyada korporativ boshqaruvning asosiy modellari. Shvetsiya korporativ ijt-i-moiy mas'uliyat va manfaatdor tomonlarni jalb qilishga katta e'tibor qaratadigan dav-latdir. Mamlakatning korporativ boshqaruv tizimi shaffoflik, hisobdorlik va aksiyador-lar huquqlariga e'tibor qaratish orqali ushbu

qadriyatlarini aks ettiradi. Shvetsiyada korporativ boshqaruvning uchta asosiy modeli mavjud:

1. *Kengashga asoslangan model.* Bu modelda direktorlar kengashi korporativ boshqaruvda asosiy rol o'ynaydi. Mazkur kengash kompaniya faoliyatini nazorat qilish, uning strategik yo'nalishini belgilash, ijroiya boshqaruv guruhini tayinlash va uning faoliyatini nazorat qilish uchun javobgardir. Shvetsiya kompaniyalari to'g'risidagi qonun kompaniyalardan kompaniyaning umumiy boshqaruvi va strategik yo'nalishi uchun mas'ul bo'lgan direktorlar kengashiga ega bo'lishni talab qiladi. Direktorlar kengashi, shuningdek, kompaniya moliyaviy hisobotlarining to'g'riligi va buxgalteriya hisobi tamoyillari hamda tegishli qonun-qoidalarga muvofiqligini ta'minlash uchun javobgardir. Shvetsiya korporativ boshqaruv kengashi hisobotiga ko'ra, boshqaruvga yo'naltirilgan model Shvetsiyada korporativ boshqaruvning eng keng tarqalgan modeli bo'lib, u shaffoflik, hisobdorlik va mustaqillik tamoyillariga asoslanadi.

2. *Aksiyadorlarga yo'naltirilgan model.* Bu modelda asosiy e'tibor aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish va kompaniya qarorlarini qabul qilish jarayonlarida ularning manfaatlarini ifodalashni ta'minlashga qaratilgan. Aksiyadorlar direktorlar kengashini saylash, qo'shilish va qo'shib olish kabi yirik korporativ qarorlarni qabul qilish huquqiga ega. Shvetsiyada bu model kengashga asoslangan modelga qaraganda kamroq tarqalgan, ammo u hali ham korporativ boshqaruvda muhim rol o'ynaydi.

Shvetsiyada aksiyadorlar bir qator huquqlarga ega, jumladan, umumiy yig'ilishlarda qatnashish, direktorlar kengashini tayinlash va yirik bitimlarni tasdiqlash kabi asosiy masalalar bo'yicha ovoz berish huquqiga ega. Shvetsiyaning korporativ boshqaruv kodeksi kompaniyalarga aksiyadorlar oldida shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash uchun umumiy yig'ilishlarning ovoz berish natijalari to'g'risida ma'lumot berishni tavsiya qila-

di. Yevropa korporativ boshqaruv instituti tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, Shvetsiya aksiyadorlarning ovoz berish huquqi, kompaniya ma'lumotlari oshkoraligi va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha Yevropada ikkinchi o'rinni egallaydi.

3. *Manfaatdor tomonlarga yo'naltirilgan model.* Ushbu modelda asosiy e'tibor barcha manfaatdor tomonlar, shu jumladan, xodimlar, mijozlar, mol yetkazib beruvchilarning manfaatlarini hisobga olishga qaratilgan. Maqsad faqat aksiyadorlar uchun qisqa muddatli foydaga e'tibor qaratish emas, balki barcha manfaatdor tomonlarga uzoq muddatli qiymat yaratishdir. Mazkur model Shvetsiyada tobora ommalashib bormoqda, chunki kompaniyalar barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyat muhimligini keng miqyosda tan oladilar.

Shvetsiyaning korporativ boshqaruv tizimi manfaatdor tomonlarni jalb qilish muhimligini ta'kidlaydi va kompaniyalarni barcha manfaatdor tomonlarning manfaatlarini hisobga olishga undaydi. Shvetsiyaning korporativ boshqaruv kodeksi kompaniyalarga qarorlar qabul qilish jarayonida manfaatdor tomonlar manfaatlarini qanday hisobga olishlari haqida hisobot berishni tavsiya qiladi. "Harvard Business Review" tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, Shvetsiya ekologik va ijtimoiy siyosati korporativ boshqaruv amaliyoti kabi omillarga asoslanib, barqarorlik ko'rsatkichlari bo'yicha Yevropa davlatlari orasida birinchi o'rinni egallagan. Umuman olganda, Shvetsiyaning korporativ boshqaruv tizimi shaffoflik, javobgarlik va manfaatdor tomonlar ishtirokini ta'minlaydi. Kompaniyalar axloqiy va ijtimoiy standartlar, shuningdek, qonuniy va tartibga soluvchi talablarga rioya qilishlari hamda barcha manfaatdor tomonlarning uzoq muddatli manfaatlarini hisobga olgan holda faoliyat yuritishlari talab etiladi [10].

Shvetsiyada korporativ boshqaruvning institutsional asoslari. Shvetsiyada korporativ boshqaruv bo'yicha yaxshi rivojlangan

institutsional asos mavjud bo'lib, u shaffoflik, hisobdorlik va aksiyadorlar himoyasini ta'minlashga qaratilgan turli me'yoriy hujjatlar, qonunlar va amaliyotlarni o'z ichiga oladi. Mamlakatda korporativ boshqaruvning ba'zi muhim institutsional asoslari quyidagilar hisoblanadi:

1. *Kompaniyalar to'g'risidagi qonun.* Shvetsiya kompaniyalari to'g'risidagi qonun Shvetsiyada korporativ boshqaruvning huquqiy asoslarini belgilaydi. U korporativ boshqaruvning turli jihatlarini, masalan, direktorlar kengashining mas'uliyati, aksiyadorlarning huquqlari, axborotni oshkor qilish talablari va moliyaviy hisobotlarni o'z ichiga oladi.

2. *Shvetsiyaning korporativ boshqaruv kodeksi.* Shvetsiyaning korporativ boshqaruv kodeksi korporativ boshqaruvning eng yaxshi amaliyotlari bo'yicha tavsiyalar beruvchi ixtiyoriy ko'rsatmalar to'plamidir. Kodeks turli sohalar, jumladan, direktorlar kengashining tarkibi va mustaqilligi, aksiyadorlarning huquqlari va ish haqini qamrab oladi.

3. *Shvetsiya qimmatli qog'ozlar kengashi.* Shvetsiya qimmatli qog'ozlar kengashi mustaqil organ bo'lib, u qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha ko'rsatmalar beradi va korporativ boshqaruvning eng yaxshi amaliyotlarini targ'ib qiladi. Shuningdek, u qimmatli qog'ozlar bozori amaliyoti va qoidalari bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqadi.

4. *Shvetsiya moliyaviy nazorat organi.* Shvetsiya moliyaviy nazorat organi moliya institutlari, shu jumladan, banklar, sug'urta kompaniyalari va qimmatli qog'ozlar firmalarini nazorat qilish, tartibga solish uchun javobgardir, shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozori qoidalari va korporativ boshqaruv standartlariga rioya etilishini nazorat qiladi.

5. *Aksiyadorlar assotsiatsiyasi.* Aksiyadorlar uyushmalari – bu ochiq savdoga qo'yilgan kompaniyalarda aksiyadorlarning manfaatlarini ifodalovchi tashkilotlardir. Shvetsiyada yaxshi korporativ boshqaruv amaliyotini targ'ib qiluvchi, aksiyadorlar huquqlarini hi-

moya qiluvchi Shvetsiya aksiyadorlar assotsiatsiyasi va Shvetsiya investorlari assotsiatsiyasi kabi bir qancha aksiyadorlik uyushmalari mavjud. Umuman olganda, Shvetsiyadagi korporativ boshqaruvning ushbu institutsional asoslari shved korporatsiyalarida shaffoflik, hisobdorlik va aksiyadorlarni himoya qilishga yordam beradi. Ular yaxshi korporativ boshqaruv amaliyotlari uchun asos yaratadi hamda kompaniyalarning o'z aksiyadorlari manfaatlarini ko'zlab ishlashini ta'minlaydi.

Shvetsiyada korporativ boshqaruv organlari va ularning ijro etuvchi organ bilan o'zaro ta'siri. Shvetsiyada korporativ boshqaruv organlari odatda direktorlar kengashi, bosh direktor va boshqa yuqori lavozimli rahbarlardan iborat. Bu organlar va ularning o'zaro ta'sirini batafsil ko'rib chiqamiz.

Direktorlar kengashi. Direktorlar kengashi kompaniya boshqaruvini nazorat qilish va strategik qarorlar qabul qilish uchun javobgardir. Shvetsiyada direktorlar kengashi aksiyadorlar tomonidan yillik umumiy yig'ilishda saylanadi. Kengashda odatda kompaniya rahbariyatidan mustaqil bo'lgan rais va bir nechta ijrochi bo'lmagan direktorlar mavjud. Kengashning asosiy vazifalariga kompaniya strategiyasini belgilash, risklarni boshqarishni nazorat qilish, bosh direktor va boshqa yuqori lavozimli rahbarlarni tayinlash kiradi.

Bosh direktor va yuqori lavozimli rahbarlar. Bosh direktor kompaniyaning kundalik faoliyatini boshqarish, direktorlar kengashi tomonidan belgilangan strategiyani amalga oshirish uchun javobgardir. Bosh direktor odatda kompaniyaning samarali ishlashini ta'minlash uchun moliya direktori kabi boshqa yuqori lavozimli rahbarlar bilan yaqin hamkorlik qiladi. Bosh direktor va boshqa yuqori lavozimli rahbarlar direktorlar kengashi oldida mas'uldirlar.

Kengash va boshqaruv o'rtasidagi o'zaro aloqa. Shvetsiyada direktorlar kengashi va boshqaruv jamoasi odatda kompaniya faoliyati va strategiyasini muhokama qilish uchun

muntazam yig'ilishlar o'tkazadi. Direktorlar kengashi boshqaruv jamoasini nazorat qiladi, yo'l-yo'riq ko'rsatadi, boshqaruv jamoasi esa kengashni kompaniya faoliyati to'g'risidagi yangiliklar bilan muntazam ta'minlaydi. Bosh direktor va boshqa yuqori lavozimli rahbarlar ham direktorlar kengashi tomonidan qabul qilingan qarorlar bajarilishi uchun javobgardir. Umuman olganda, Shvetsiyada direktorlar kengashi va boshqaruv jamoasi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shaffoflik va javobgarlikka katta e'tibor berish bilan tavsiflanadi. Direktorlar kengashi boshqaruv jamoasidan mustaqil, kompaniya faoliyati va strategiyasini nazorat qilish uchun aniq vakolatga ega. Boshqaruv jamoasi, o'z navbatida, direktorlar kengashiga hisobot beradi va kengash qarorlarining bajarilishi uchun javobgardir [11].

Shvetsiyada korporativ nazorat organlarining vazifa va funksiyalari. Shvetsiyada korporativ nazorat organlari deganda kompaniyaning amalda mavjud bo'lgan qonunlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida ishlashini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan nazorat qiluvchi organlar tushuniladi. Ushbu nazorat organlari odatda direktorlar kengashi, ichki audit va tashqi auditni o'z ichiga oladi. Mazkur korporativ nazorat organlarining vazifa va rollarini batafsil ko'rib chiqamiz.

Direktorlar kengashi. Shvetsiyada korporativ nazoratda direktorlar kengashi asosiy rol o'ynaydi. Mazkur organ kompaniya boshqaruv faoliyatini nazorat qilish, kompaniyaning amaldagi qonun-qoidalariga rioya qilishini ta'minlash uchun javobgardir. Shuningdek, kengash kompaniyaning risklarni boshqarish tizimini o'rnatadi hamda tizimga muvofiqligini nazorat qiladi.

Ichki audit. Ichki audit kompaniya rahbariyati va direktorlar kengashiga mustaqil maslahat xizmatlari ko'rsatish uchun javobgardir. Ichki audit kompaniyaning ichki nazorati, risklarni boshqarish jarayonlari, amalda mavjud qonunlarga muvofiqligini tekshirish va baholash uchun javobgardir. O'z

navbatida, ichki audit direktorlar kengashiga hisobot beradi, o'z xulosalari bo'yicha muntazam ravishda tavsiyalar ishlab chiqadi.

Tashqi audit. Tashqi audit kompaniya moliyaviy hisobotlarining to'g'riligi va to'liqligi to'g'risida ma'lumot taqdim etuvchi organ hisoblanadi. Tashqi audit odatda yillik umumiy yig'ilishda aksiyadorlar tayinlaydigan tashqi auditorlar firmasi tomonidan amalga oshiriladi. Tashqi auditorlar kompaniyaning moliyaviy hisobotlari ichki nazoratning qonun-qoidalariga muvofiqligini tekshirish uchun javobgardir.

Shvetsiyada dividendlar siyosatini ishlab chiqish. Shvetsiyada dividend siyosati odatda boshqaruv jamoasi bilan maslahatlashgan holda direktorlar kengashi tomonidan ishlab chiqiladi. Dividend siyosati ko'pincha uzoq muddatli qiymat yaratish va moliyaviy barqarorlikni birinchi o'ringa qo'yadi. Dividend siyosati moliyaviy barqarorlikni saqlash va kompaniyaning kelajakdagi o'sishiga sarmoya kiritish uchun zarur bo'lgan resurslarga ega bo'lishini ta'minlash uchun ishlab chiqiladi. Korxonalarda dividend siyosati katta ahamiyatga ega bo'lib, ushbu siyosat korxonaning kapital tuzilmasi, korxonani moliyalashtirish va investitsiya siyosatiga ta'sir ko'rsatadi. Dividend siyosatining asosiy maqsadi mulkdorlar tomonidan foydaning joriy iste'mol qilinishi bilan uni kelajakda korxonaning bozor qiymatini ko'taradigan va strategik rivojlantirishini ta'minlaydigan darajada oshirish o'rtasida maqbul mutanosiblikni o'rnatishdan iborat. Korxonada dividend siyosatining asosiy prinsiplariga dividendlar miqdorini belgilash tartibining oshkoraligi va aksiyalar egalariga dividendni o'z vaqtida to'lash kiradi. Shvetsiya korporatsiyalarida dividend siyosati quyidagi uslubiy talablarga rioya qilgan holda olib boriladi:

1. Umumiy barqarorlikni ta'minlash, aksiyadorlik jamiyatida rahbariyat o'zgarsa ham, dividend siyosatini oqilona yuritishni ta'minlash.

2. Barcha aksiyadorlarning, u xoh majoritar, xoh minoritar aksiyador bo'lsin, manfaat-lari doimo hisobga olinishi.

3. Puxta o'ylangan dividend siyosatini olib borishda e'lon qilingan tamoyillar va qoida-lardan vaqtincha majburiy og'ishlar yuz ber-ganda oshkoralikni ta'minlash.

Umuman olganda, Shvetsiya korporat-siyalarida dividend siyosatini samarali olib borish uchun oshkoralik va halollik shart hamda salohiyatli investorlarga keskin vaziyatlardan samarali loyihalar asosida chiqib keta olishlarini isbotlovchi harakatlarni amalga oshirishini taqdim etish orqali divi-dendlarni qayta moliyalashtirishga jalb etish e'tiborga olinadi [12].

Shvetsiyada korporativ madaniyat, uning mazmuni va maqsadi. Korporativ madaniyat deganda xodimlarning bir-biri va manfaatdor tomonlar bilan o'zaro munosabati hamda o'z ishlariga qanday yondashishla-rini shakllantiradigan qadriyatlar, e'tiqodlar va xatti-harakatlar tushuniladi. Shvetsiya-da korporativ madaniyat korporativ bosh-qaruvning muhim jihati bo'lib, shaffoflik, ishonch va hamkorlik qadriyatlariga asosla-nadi. Kompaniyalar o'z faoliyati davomida barcha manfaatdor tomonlarga ta'sirini hi-sobga olgan holda axloqiy va mas'uliyatli tarzda ishlashi talab etiladi. Bunda kom-paniyalar ekologik, ijtimoiy va boshqaruv masalalariga ustuvor ahamiyat berishlari, ularning faoliyati barqaror bo'lishi va jami-yat farovonligiga hissa qo'shishi kerak. Shvetsiya korporativ madaniyati jamoa va hamkorlikda ishlashga doimiy yondashuvi bilan ajralib turadi. Kompaniyalarda gender tengligi, inson huquqlarini himoya qilish, xodimlar mehnatini qadrlash va muntazam rag'batlantirib borishga alohida e'tibor qa-ratiladi.

Shvetsiyada investitsiyalarning shaffofligi va korporativ boshqaruv samaradorligini ba-holash. Shvetsiyada investitsion shaffoflik va korporativ boshqaruvni o'rnatishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

Ma'lumotni oshkor qilish talablari. Shvet-siyada ommaviy kompaniyalar uchun ma'lu-motlarni oshkor qilish bo'yicha qat'iy ta-lablar mavjud bo'lib, ular kompaniyalardan o'zlarining moliyaviy natijalari, korporativ boshqaruv amaliyotlari va ESG siyosatlari haqida shaffof va keng qamrovli ma'lumot-larni taqdim etishlarini talab qiladi. Xususan, "Kompaniyalar to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, kompaniyalardan moliyaviy hisobotlar, ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar, mulkchilik tu-zilmasi va kompaniyaning korporativ bosh-qaruv amaliyotini o'z ichiga olgan yillik hiso-botlarni nashr etish talab etiladi.

Direktorlar kengashi. Shvetsiya kompa-niyalarida direktorlar kengashi korpora-tiv boshqaruvda shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Kengash kompaniyaning strategik yo'nalishi, risklarni boshqarish va moliyaviy natijalarni nazorat qilish uchun javobgardir.

Aksiyadorlar ishtiroki. Shvetsiya kompa-niyalari aksiyadorlari kompaniyaning boshqa-ruv jamoasi, direktorlar kengashi bilan ham-korlik qilishlari, shuningdek, kompaniyaning strategik yo'nalishi, korporativ boshqaruv amaliyotiga ta'sir ko'rsatish uchun o'z ovoz berish huquqlaridan foydalanishlari tavsiya etiladi. Xususan, aksiyadorlar muhim qaror-lar qabul qilish, jamiyat ustaviga o'zgartirish-lar kiritish, boshqaruv kengashi a'zolari va auditorlarni tayinlash yuzasidan ovoz berish huquqiga ega.

Korporativ boshqaruv kodekslari. Amal-da mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan talablardan tashqari, Shvetsiya korporativ boshqaruvining ilg'or tajribalari bo'yicha kompaniyalarga yo'l-yo'riq ko'rsa-tadigan bir nechta korporativ boshqaruv ko-dekslari ishlab chiqilgan bo'lib, ular korpo-rativ boshqaruvda shaffoflik va javobgarlikni ta'minlashga yordam beradi. Ushbu kodeks-lar kengash tarkibi, mehnatga haq to'lash si-yosati, risklarni boshqarish kabi masalalar bo'yicha tavsiyalar beradi. Umuman olgan-da, Shvetsiyada shaffoflik, hisobdorlik va

mas'uliyatli biznes amaliyotiga urg'u beradigan investitsiyalar shaffofligi va korporativ boshqaruv uchun kuchli asos yaratilgan.

Shvetsiyada korporativ firibgarlik riski: oldini olish va unga qarshi kurashish. Korporativ firibgarlik korxona, uning manfaatdor tomonlari, jumladan, investorlar, xodimlar va mijozlarga faqatgina salbiy ta'sir ko'rsatishini bilgan shved kompaniyalari uning oldini olish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshiradi:

Axloqiy va ijtimoiy xulq-atvor madaniyatini shakllantirish. Korporativ firibgarlikning oldini olishning eng samarali usullaridan biri – tashkilotda axloqiy va ijtimoiy xulq-atvor madaniyatini o'rnatishdir. Bunga axloqiy va ijtimoiy xulq-atvorni targ'ib qilish, mazkur mavzuda turli treninglar o'tkazish va xodimlarni har qanday shubhali faoliyat haqida xabar berishga undash orqali erishish mumkin.

Risklarni muntazam ravishda baholashni o'tkazish. Muntazam ravishda xavflarni baholashni o'tkazish tashkilot ichidagi riskning potensial rivojlanish sohalarini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega. Bu firibgarlikning oldini olish uchun tegishli nazorat strategiyalarini ishlab chiqishda yordam berishi mumkin.

Ichki nazoratni amalga oshirish. Vazifalarni taqsimlash, ikki tomonlama nazorat tartib-qoidolari, majburiy ta'til siyosati kabi ichki nazoratni amalga oshirish firibgarlik faoliyati imkoniyatlarini cheklash orqali firibgarlikning oldini olishga yordam beradi.

Ma'lumotni tekshirish. Xodimlar, tovar yetkazib beruvchilar va boshqa biznes hamkorlar haqida ma'lumot tekshiruvini o'tkazish firibgarlik xavfini muammoga aylanishidan oldin aniqlashga yordam beradi.

Moliyaviy operatsiyalarni kuzatib borish. Debitorlik va kreditorlik qarzlari, ish haqi kabi moliyaviy operatsiyalarni monitoring qilish firibgarlik faoliyatini aniqlashga ko'maklashadi. Buni firibgarlikni aniqlash-

ning avtomatlashtirilgan vositalari va muntazam tekshiruvlar yordamida amalga oshirish mumkin.

Shubhali faoliyat haqida xabar berish. Xodimlarni har qanday shubhali faoliyat haqida xabar berishga undash firibgarlikni aniqlash va oldini olishga yordam beradi. Buni anonim ishonch telefonlari yoki boshqa hisobot mexanizmlaridan foydalanish orqali amalga oshirish mumkin.

Tashqi auditorlarni jalb qilish. Muntazam audit o'tkazish uchun tashqi auditorlarni jalb qilish firibgarlikni aniqlash va tegishli qonun-qoidalariga rioya qilishni ta'minlashga yordam beradi. Bunga qo'shimcha ravishda korporativ firibgarlikka qarshi kurashish uchun mustahkam huquqiy bazaga ega bo'lish juda muhimdir. Masalan, Shvetsiya kompaniyalari to'g'risidagi qonun boshqaruv kengashi a'zolari, rahbariyatining firibgarlik faoliyati uchun javobgarligini ko'rib chiqadigan qoidalarni ham o'z ichiga oladi [13].

Umuman olganda, Shvetsiyada korporativ firibgarlikning oldini olish, unga qarshi kurashish korxonalar va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasida hamkorlikda harakat qilishni talab qiladi. Bu esa barchaga foyda keltiradigan yanada shaffof va barqaror biznes muhitini yaratishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Korporativ boshqaruv shunday tushunchaki, u o'zida menejerlar, direktorlar kengashi, aksiyadorlar va kompaniyani boshqarish bo'yicha manfaatdor bo'lgan shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimini ifoda etadi. Bunday tizim nafaqat ta'sischi daromadi, balki kompaniyaning kelgusi investitsiyalariga ham ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan korporativ boshqaruvning oilaviy modeli dunyoning barcha davlatlari kabi Shvetsiyada ham keng tarqalgani bilan ajralib turadi. Bunda korporatsiyani boshqarish bir oila a'zolari tomonidan amalga oshiriladi. Korporatsiya kapitali oilaviy kanallar bo'yicha jamlanadi, taqsimlanadi hamda korporatsiya biznesi va moli-

yaviy resurslari harakati ustidan nazorat to'liq oilaga tegishli bo'ladi. Shvetsiyadagi Valenberglar sulolasi bunga misol bo'la oladi.

Ayrim hollarda oilaviy biznesga investorlar jalb etilishi mumkin, biroq ular korporativ boshqaruvda ko'p ovozga ega bo'lmaydi. Bunday aksiyalar birjaga savdoga qo'yilishi orqali ham emissiya qilinishi mumkin. Agar aksiyadorlik jamiyatining barcha aksiyalari bir ovoz beruvchiga tegishli bo'lsa, u holda oilaga tegishli aksiyalar qo'shimcha afzalliklar taqdim etadi (masalan, direktorlar kengashi a'zolarini tanlashda istisno tariqasidagi huquqlar). Bunday vosita aksiyadorlik jamiyati faoliyatini yirik aksiyalar paketiga ega bo'lmagan holda ham nazorat qilish imkonini beradi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, oilaviy kompaniyalar kapitalni jamlashning eskirgan usuli sifatida o'zini namoyon etadi va biznesni yuritishning samarali shakli hisoblanmaydi. Lekin statistik ma'lumotlarning guvohlik berishicha, sanoati rivojlangan mamlakatlarda YIMning 45 %dan 75 %gacha qismi aynan oilaviy kompaniyalar hissasiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, oilaviy kompaniyalar ko'p sonli mulkdorlari bo'lgan kompaniyalar bilan solishtirganda, birmuncha uzoq vaqt faoliyat ko'rsatadi [14].

Olib borilgan tadqiqotlar asosida ushbu modelning qo'llanishidagi afzallik va kamchiliklar bo'yicha solishtirma tahlillar amalga oshirildi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jahon amaliyotida korporativ boshqaruvning mavjud to'rt modeli boshqalari oldida ajralib turuvchi ustuvorlikka ega emas, qolaversa, hech birini universallikka ega deb ham bo'lmaydi. Aksincha, oxirgi o'n yillikdagi vaziyat jahondagi barcha yetakchi davlatlar uchun korporativ boshqaruvning turli xil tizimlari qorishib borishi xos ekanligini ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, korxonalarda korporativ boshqaruvning samarali tashkil etilishi na faqat ular faoliyatining rivojlanishi, balki pul oqimlari hajmi va harakatini yanada ko'pay-

tirish, investitsiya loyihasiga kiritiladigan kapital qiymatini pasaytirish orqali qo'shimcha qiymat o'sishini ta'minlash bilan birga, milliy iqtisodiyotning rivojlanishi, xalqaro integratsiyasi va raqobatbardoshligini oshirishga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi [15].

Bu esa korxonalarda korporativ boshqaruvning ilg'or tajribalarini tatbiq etishga bo'lgan ehtiyojini yanada oshiradi. Mamlakatimizda korporativ boshqaruv bo'yicha muayyan tajribalar to'planganligi, amaliyot uchun zarur sharoitlar yaratilganligi bu boradagi ilg'or xorij tajribalarini tatbiq etish uchun zarur elementlar mavjud ekanligidan dalolat beradi.

Xulosalar

Yurtimizda kechayotgan xususiylashtirish jarayonini jadallashtirish, iqtisodiyot tarmoqlariga jalb qilinayotgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni ko'paytirish, aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvi samaradorligini tubdan yaxshilash, strategik investorlar uchun ularning ochiqqligi va jozibadorligini ta'minlash, zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy qilishda ilg'or xalqaro tajribani amalda qo'llash, o'z navbatida, O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlaydigan ko'plab korxonalar faoliyatiga yangi turtki beradi.

Jahon amaliyoti shundan dalolat bermoqdaki, korporativ boshqarish mexanizmlari davlatning tartibga soluvchi organlari, sud organlari, ishbilarmon doiralarning o'zlari tomonidan ishlab chiqilgan ma'lum bir qoidalar, me'yorlar doirasida faoliyat ko'rsatadi. Ushbu qoidalar, me'yorlar va andozalar yig'indisi korporativ boshqaruvning institutsional asosini tashkil qiladi. Uning asosiy elementlarini quyidagicha ajratish mumkin: qonuniy huquqlar me'yorlari va qoidalari; ixtiyoriy ravishda qabul qilingan korporativ boshqaruv andozalari haqidagi kelishuvlar va uning kompaniyalar darajasida amalga oshirilishini tartibga soluvchi me'yorlar; biznesni yuritishning umumiy qabul qilingan amaliyoti va madaniyati.

REFERENCES

1. Tricker B. Korporativnoye upravleniye: printsipy, politika i parktika [Corporate Governance: Principles, Policies and Practices]. Oxford University Press, 2015.
2. Khessel M. Korporativnoye uparvleniye [Corporate Governance]. Moscow, 1996.
3. Zaynutdinov Sh.N. Korporativ boshqaruv asoslari [Basics of corporate management]. Tashkent, 2006, 47 p.
4. Azimova D.M. Aktualnyye tendentsii razvitiya upravleniya personalom v nyneshnykh realiyakh [Current trends in the development of personnel management in the current realities]. *Society and Innovation*, 2023, p. 353.
5. Ashurov Z.A., Jalilov F.A., Urinov B.N. Zamonaviy korporativ boshqaruv (xorijiy tajriba) [Modern corporate management (foreign experience)]. Tashkent, Iqtisodiyot Publ., 2021, 195 p.
6. Suyunov D. Korporativ boshqaruv mexanizmi: muammo va yechimlar [Mechanism of corporate governance: problems and solutions]. Tashkent, Moliya Publ., 2008, 204 p.
7. Bocharov V.V. Korporativnyye finansi [Corporate Finance]. St. Petersburg, 2017, 272 p.
8. Xodiyev B.Y. Korporativ boshqarish [Corporate management]. Tashkent, Iqtisodiyot Publ., 2010, 257 p.
9. Swedish Corporate Governance Code. 2020, January1.
10. Daum J.H. How corporate governance changed from 1986 to 2010. Bloomberg Business Week, 2010.
11. Bready R.A., Vyders S.C., Allen F. Principles of Corporate Finance, 11th Global Ed. 134 p.
12. Dementyeva A.G. Modeli korporativnogo upravleniya: opyt zarubezhnykh stran i Rossii [Corporate Governance Models: Experience of Foreign Countries and Russia]. *Law and Administration, XXI Century*, 2008, no. 8.
13. Ashurov D. Reforming corporate governance in Uzbekistan in line with the global principles. *SAARJ, Journal on Banking & Insurance Research*, 2017, no. 6 (1), pp. 44–55.
14. Gulyamov S.S. Zadachi sovershenstvovaniya sistemnogo korporativnogo upravleniya v Uzbekistane [Tasks of improving systemic corporate governance in Uzbekistan]. Corporate governance in Uzbekistan. Proceedings of the scientific-practical conference. Tashkent, 2004, pp. 143–145.
15. Urinov B.N., Kenjayeva U.F. Korporativ boshqaruvning ilg'or amaliyoti va modellari [Advanced practices and models of corporate governance]. *Economy and Education*, Tashkent, 2022, no. 3.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL 4-SON

VOLUME 3 / ISSUE 4 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.4.

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y. f. d., dotsent

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, Y. Mahmudov, Y. Yarmolik,
F. Muhammadiyeva, E. Mustafojev

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 28.08.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 18,83 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma raqami: 49.

TDYU tipografiyasida chop etildi.